

B.B. Umarov, Q.G. Avezov,
M.A. Tursunov

FIZIKAVIY TADQIQOT USULLARI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

B. B. Umarov, Q. G'. Avezov, M. A. Tursunov

FIZIKAVIY TADQIQOT USULLARI

Darslik

**Toshkent
“Innovatsiya – Ziyo”
2020**

UDK: 373.6

BBK: 74.200.526

A 95

B.B. Umarov, Q.G. Avezov, M.A. Tursunov.

Fizikaviy tadqiqot usullari /darslik/. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020, 350 bet.

Darslikda fizikaviy tadqiqot usullarining asosiy turlari, ularning yaratilish tarixi, nazariyalari barcha kimyoviy birikmalarni tuzilishi va xossalari o'rganish imkoniyatlari bayon qilingan. Darslik hozirgacha an'anaviy tarzda bayon qilingan materiallardan farqli ravishda, fizikaviy tadqiqot usullari o'nta bobda oddiylikdan murakkablikka o'tish tartibida yoritilgan. Har bir bob reja, tayanch atamalar, asosiy material, nazorat savollari, masala va mashqlar hamda tavsiya qilingan adabiyotlar ro'yxati bilan yakunlanadi.

Darslik oliy ta'lif muassasalarining kimyo fakul'tet talabalari, magistrantlari, tayanch doktorantlari va bu sohaga qiziqqan ilmiy tadqiqotchilar hamda yosh o'qituvchilar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

N.A. Parpiyev — kimyo fanlari doktori, akademik, O'zMU professori

Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2020-yil 4-maydagi 285-sonli buyrug'i bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-6791-8-4

© B.B. Umarov, Q.G. Avezov, M.A. Tursunov 2020.

© “Innovatsiya-Ziyo”, 2020.



K I R I SH

Kimyo, fizika va hisoblash texnikasining so'nggi o'n yillardagi rivojlanishi bu fan sohalarining o'zaro integratsiyasiga olib keldi. Bugungi kunda har qanday kimyoviy ilmiy tadqiqotlar moddalar va jarayonlarning fizikaviy tasnifini aniqlash bilan kechadi. Shuning uchun ham universitetlardagi ta'lim jarayonlarida "Fizikaviy tadqiqot usullari" nomli fanni joriy etish dolzarb masala bo'lib qoldi. Fizikaviy tadqiqotlarning maxsus qo'llanishi dastlab analitik kimyo fani sohasida boshlandi.

Bugungi kunda kimyo fanining ilmiy rivojlanishi fizika fani yutuqlari asosida moddalarni fizikaviy usullar bilan o'rganishni taqazo etadi. Ushbu fanlarning o'z yutuqlari bilan umumlashuvi ilmiy-metodologik jihatdan katta ahamiyat kasb etadi, ularni o'zaro boyitadi va rivojlantiradi. Bu kimyoni fizika bilan almashtirish emas, chunki kimyo va uning o'ziga xos tushunchalari bilan hech qachon fizikaga to'liq qo'shilib keta olmaydi. Masalan, kimyoviy bog' haqidagi tushuncha bog' uzunligi (yadrolar orasidagi masofa), febranish chastotalari, dipol momenti va boshqa fizikaviy tasniflar bilan butunlay boshqacha talqin qilinadi. Kimyodagi zamonaviy fizik arsenallar shunchalar ko'p va ularning qo'llanish chegaralari va prinsiplarini nazariy jihatdan o'rganish o'ta dolzarb vazifa bo'ldi. Dastlabki tushunchalarga ko'ra, bu usullar optik, va radiospektroskopiya, difraksion, ionizatsion analiz va h.k. usullarga ajratiladi. Ikkinchini tonondan esa molekulaning geometrik konfiguratsiyasi, elektr dipol momentlari, elektron, tebranma, aylanma energetik holatlari va molekula spektrlari kabi tushunchalar alohida ahamiyat kasb etadi.

E'tiboringizga havola etilayotgan ushbu darslikdan kimyogar-bakalavr, magistrantlar, tayanch doktorantlar yosh ilmiy tadqiqotchilar va o'qituvchilar foydalanishlari mumkin.

1-BOB. FIZIK TADQIQOT USULLARI HAQIDA TUSHUNCHА

Reja:

- 1.1. Fizikaviy tadqiqot usullarining umumiy tasnifi*
- 1.2. Moddalarning sindirish ko'rsatgichi va molekulyar refraksiya*
- 1.3. Elektromagnit to'lqinlar haqida asosiy tushunchalar
Buger-Lamberi-Ber qonuni*
- 1.4. Nazorat savollar*
- 1.5. Adabiyotlar*

Tayanch atamalar

Fizikaviy tadqiqot usullari. Energetik o'tishlar. Asosiy (singlet) holat. Qo'zg'algan (triplet) holat. Chastota. To'lqin uzuunligi. Yadro gamma rezonans (YGR). Rentgen nurlari. Tebranma, aylanma, elektron o'tishlar. Optik spektroskopiya. UB spektroskopiya. IQ spektroskopiya. Magnetizm. Radio spektroskopiya. Yadro magnit rezonans (YMR) spektroskopiya. Elektron paramagnit rezonans (EPR) spektroskopiya. Difraksion analiz usullari. Elektronografiya. Neytronografiya. Rentgenografiya. Rentgenofaz analiz. Rentgenostruktur analiz (RSA).

1.1. Fizikaviy tadqiqot usullarining umumiy tasnifi

Kimyoning muhim muammolaridan biri modda molekulalarining tuzilishini aniqlash va identifikatsiyalashdan iborat. O'tgan asrlar davomida faqat kimyoviy usullardan foydalaniishgan, bugungi kunda bu ishni takomillashtirish uchun fizikaviy usullar keng qo'llanilmoqda. Odatda kimyogar avval element analiz natijasiga ko'ra modda tarkibini, keyin esa uning tuzilishini aniqlaydi. Bularga qo'shimcha ravishda moddaning tuzilishi va tarkibidan tashqari, uning fizikaviy va kimyoviy xossalariini tasniflash ham dolzarb vazifalardan biridir. Olimlar molekulalar maydonlarining o'zaro ta'siri, o'rganiladigan modda molekulalarining nurlanishi yoki bu oqim ta'sirida zarrachalarning

xususiyatlarini aniqlash bilan alohida qiziqishadi. Ana shu nuqtai-nazardan qo'llanadigan usullarning sezgirligi, aniqligi, amaliy bajarilishi uning imkoniyatlarini belgilaydi. Bu fizikaviy xususiyatlar usulning to'g'ridan to'g'ri vazifasi hisoblanadi. Fizikaviy usullarni qo'llab, olingan eksperiment natijalari asosida modda molekulasining parametrlari va fizikaviy xususiyatlarini aniqlash fizikaviy tadqiqotning ikkinchi tomoni, ya'ni teskari vazifasi hisoblanadi. Teskari vazifalar hamisha kutilgan xulosa uchun asos bo'lmasligi ham mumkin. Bugungi kunda teskari vazifa asosida olingan natijalar samaradorligini oshirish uchun usullar va algoritmlar ishlab chiqildi hamda bu ish zamonaviy kompyuterlar zimmasiga yuklandi. Algoritmlardan foydalaniib, olingan eksperiment natijalarini qayta ishlab chiqishda avtomatik tizimlar yaratish o'ta muhim va dolzarb vazifaga aylandi.

Spektroskopik usullar yordamida, ya'ni yangi moddaning nur ta'sirida yutilish yoki sochilish intensivligining chastota yoki to'lqin uzunligiga mutanosibligi kuzatiladi. Bu usullar atom va molekulalarning energetik holatlarini o'rganishga imkoniyat yaratadi. Yutilgan nur intensivligini o'lehash bilan modda molekulasining ma'lum chastotali nur ta'sirida simmetriyasi, geometrik tuzilishi, elektron xossalari va boshqa xususiyatlari aniqlanadi.

$$\nu = \frac{(E_i - E_f)}{\hbar} = \frac{\Delta E_{ij}}{\hbar} \quad (1.1)$$

1.1-jadval.

Spektroskopiyada chastota va to'lqin uzunliklari diapazonlari qiymati

Spektirlar	Chastota, Hz.	To'lqin uzunligi	O'lechov birligi
YaGR	$10^{18} - 10^{21}$	~3 pm	mm/s
Rentgen	$10^{17} - 10^{18}$	3 nm-3 pm	eV
Fotoelektron	$10^{14} - 10^{16}$	3-700 nm	eV
Elektron	$10^{14} - 10^{16}$	3-700 nm	nm
Tebranma	$10^{12} - 10^{14}$	3 mkm-3 mm	sr^{-1}

Aylanma	$10^{10} - 10^{12}$	3 sm-0,03 mm	MHz
EPR	$10^9 - 10^{11}$	~3 sm	MHz
YamR	$10^7 - 10^8$	~5 m	MHz
YaKR	$10^6 - 10^9$	30-300 m	MHz

Spektr liniyalari intensivligi yoki spektr chiziqlari, avvalo, dastlabki holatdagi modda molekulalari soniga bog'liq yutilishda quyi pog'ona, sochilishda esa yuqori pog'onadagi namuna molekulalari miqdori bilan belgilanadi. Issiqlik muvozuanatida pog'onadagi molekulalar soni esa Boltzman taqsimoti bilan aniqlanadi:

$$\frac{N_2}{N_1} = \frac{g_2}{g_1} e^{\frac{\Delta E_{2,1}}{kT}} \quad (1.2)$$

N_2 va N_1 – yuqori va quyi pog'onalardagi molekulalar soni, g_2 va g_1 – yuqori va quyi sohalardagi molekulalarning statistik og'irligi, $\Delta E_{2,1}$ – energiya orasidagi farq, k – Boltzman doimiysi, T – termodinamik harorat.

Elektron o'tishlar va ko'pgina tebranma o'tishlarda $\Delta E >> kT$ bo'lgani uchun odatdagi haroratda yutilish spektrlari asosiy (singlet) holatdan yuqori (triplet) holatga ko'chish bilan xarakterlanadi. UB spektroskopiyada tushadigan nur energiyasining asosiy qismi faqat elektron ko'chishlarni einas, balki tebranma va aylanma o'tishlarni ham belgilaydi. Kvant-kinyoviy tanlash qoidasiga ko'ra energetik o'tishlarning ehtimolligi spektrlar intensivligiga to'g'ri proporsional bo'ladi. Barcha energetik o'tishlarning ehtimolligi tegishli (elektrik, dipol, kvadrupol, magnit) momentlarga bog'liq bo'ladi.

Difraksiyon usullari. Difraksiyon usul yorug'lik yoki zarrachalar oqiminining sochilishiga asoslangan, bunda ularning energiyasi o'zgarmaydi. Bu jarayon yorug'likning sochilishi yoki zarrachalarning to'lqin xususiyatiga asoslangan. Elektromagnit to'lqin energiyasi bilan uning to'lqin uzunligi o'zaro bog'liq:

$$\lambda = \frac{c}{v} = \frac{c \cdot h}{E_v} \quad (1.3)$$

$E \sim v$ -chastotadagi fotonlar energiyasi, C -yong'lik tezligi, $b=6,5 \cdot 10^{-27}$ erg sck, Plank doimiysi. ϑ -tezlik bilan harakatlanayotgan m-massali zarrachaning to'lqin uzunligi Lnde-Broyl tenglamasiga muvofiq:

$$\lambda = \frac{h}{m\vartheta} \quad (1.4)$$


Difraksiyaning asosiy sharti shundaki, nuring to'lqin uzunligi – λ o'r ganiladigan modda atomlari orasida masofaga yaqin yoki undan kichik bo'lishi kerak. Chunki difraksiyaning geometrik nazariyasiga ko'ta interferensiya natijasi (to'lqinlarning yig'ilishi) sochilgan nur yo'llining farqi bilan belgilanadi (1.1-rasm).

$$\Delta = AO_1 - BO = r (\sin \alpha_2 - \sin \alpha_1) \quad (1.5)$$

agar $\Delta = h\lambda$ bolsa, to'lqin kuchayadi, agar $\Delta = \frac{2n+1}{2 \cdot \lambda}$ bolsa (n -butun son) to'lqinlar bir-birini so'ndiradi. Shunung uchun

$$\lambda = \frac{r}{n} (\sin \alpha_2 - \sin \alpha_1), \text{ chunki } \lambda = \frac{\sin \alpha_2 - \sin \alpha_1}{n < 1} \text{ bo'ladi.}$$

1.1-rasm. Bir-biridan r – masofada tur-gan A va B sochilish markaziga tushayotgan I_0 – elektromagnit to'lqinining difraksiyasi sxemasi. AB ning tushayot-gan I_0 -nur va sochilgan I_p -nur yo'nalishi-dagi AO_1 va BO proyeksiyalari. R – A markazidan difraksion shaklini qayd qilish nuqtasigacha bo'lgan masofa, θ – sochilish burchagi, C – qayd qilish nuqtasi.



Eng ko'p qo'llaniladigan difraksion usullar: rentgenografiya ($\lambda_p \approx 10^{-1}$ nm); elektronografiya ($\lambda_s \approx 5 \cdot 10^{-3}$ nm); neytronografiya ($\lambda_n \approx 10^{-1}$ nm). Bu usullar orasida rentgen nurlari va elektronlar oqimidan foydalanish keng tarqalgan. Olimlar yadro reaktoridan sochilgan katta tezlikdagi neytronlarni qayta kichik tezlikdagi oqimga aylantirish usuli orqali ulardan foydalanish imkoniyatini kengaytirdilar. Struktur tadqiqotlarda to'lqinning sochilish


intensivligini uning tushgan burchagiga nisbatan o'lchash qabul qilingan. Ammo bu usulni qo'llashda bir qator o'ziga xosliklar mavjud. Rentgen nurlari atom va molekula elektronlari bilan to'qnashib sochiladi. Elektronlar oqimi – yadro va elektronlarning hosil qilgan elektr maydoni bilan, neytronlar oqimi esa yadrolar bilan ta'sirlashadi. Rentgenografiya, elektronografiya va neytronografiya usullarida atomlarning nurni qaytarish imkoniyati tegishli ravishda $I_r:I_c:I_n \approx 1:10^6:10^{-2}$ kabi nisbatga to'g'ri keladi. Elektronografiyada maksimal sochilish $10^{-6} - 10^{-5}$ sm o'lchamdag'i yupqa parda va gaz fazadagi molekula tuzilishiga bog'liq. Rentgen nurlari va neytronlar oqimi makroskopik ob'yektlarni, ya'ni bir necha millimetr qalinlikdagi moddaning kondensirlangan fazadagi namunasini o'rghanadi. Rentgenografiya va elektronografiya usullariga kristallokimyo kursida alohida e'tibor qaratiladi.

Fizikaviy tadqiqot usullarining nazariy kimyo uchun ahamiyati.

Fizikaviy usullarning qo'llanishi kimyoviy tuzilish nazariyasi, kimyoviy bog'larning karraligi, tuzilish, optik va konformatsion izomeriya, atomlarning koordinatsion soni, molekuladagi ichki aylanishlar va katta amplitudali harakatlar, molekulaning energetik, elektrik va boshqa xarakteristikalarini, oraliq mahsulotlar va reaksiya mexanizmlari kabi asosiy muammolarning tadqiqotiga imkon yaratadi.

Fizikaviy tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlar odatda molekula tuzilishi bilan bog'lanadi. Ammo molekulaning geometrik tuzilishini aniqlash hali atomlar orasida kimyoviy bog'lar va ularning fazoviy taqsimlanishi haqida ma'lumot bermaydi. Buning to'liq yechimini topish uchun o'rganiladigan molekuladagi bog' uzunliklari, yadrolar orasidagi masofa, kimyoviy tuzilish kabi kattaliklarni bilvosita solishtirish talab etiladi. Ayrim hollarda fizikaviy usullar yordamida olingan ma'lumotlar kimyogarlar oldiga yangi vazifalar qo'yadi, uning yechimi esa so'zsiz, kimyoviy tuzilish nazariyasining rivojlanishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, bugungi kunda zamonaviy kvant va nazariy kimyoning rivojlanishi uchun olinadigan salmoqli miqdoriy tayanch ma'lumotlar fizikaviy usullar yordamida olinmoqda. Fizikaviy tadqiqot usullarining keng qo'llanishi ularning rivojlanishiga omil bo'ladi, tadqiqot qilib topiladigan parametrlarning aniqligi va texnik darajasini oshiradi. Bu usullar rivojlanishining muhim an'anasi ulardan kompleks usulda foydalanishdir. Olimlar bu maqsadda eng ko'p IQ-, UB-, YaMR-, EPR spektroskopiysi va mass-spektrometriya usullaridan foydalanishadi. Turli usullarning integratsiyasi o'r ganiladigan namuna fizik parametrlarini aniqlash imkoniyatini keskin oshiradi. Ayrim usullar bilan olingan beba ho natijalar o'zining nodirligi bilan ajralib turadi. Masalan, molekulalar oqimining bir jinsli bo'lмаган elektr maydonida fokuslanishi Cs_2SO_4 modda uchun elektr dipol momenti bo'lmasligini isbotladi va uning quyidagicha ifodalangan klassik tuzilish formulasi noto'g'ri ekanligini ko'rsatdi:



Kimyoviy element va birikmalarining reaksiyon qobiliyati va ularning miqdoriy xarakteristikasiga kvant kimyosining keyingi bosqichlardagi rivojlanishi keng imkoniyat yaratdi. Hozirgi zamonda kimyo fani aniq ilmiy yo'nalish bo'lib, o'zining muammolarini fizikaviy-matematik apparat yordamida yechadi. Kimyo fani nazariy asosining yaratilishi uning amaliy imkoniyatini rivojlantirdi va kimyo yutuqlarini ilmiy bashorat qilishga olib keldi. Shunday katta afzallikka ega yangi usullardan chiziqli bo'lмаган optika asta-sekin kimyoviy tadqiqotlarning eng inforiativ, muhim usullaridan biriga aylandi. Kimyo sohasi bo'yicha yetishib chiqayotgan yosh mutaxassislar zamonaviy fizik tadqiqot usullari haqida yetarli bilimga ega bo'lishi kerak. Moddalarning tuzilishi va reaksiyon qobiliyatini o'r ganishda fizikaviy tadqiqot usullari juda qimmatli va muhim ma'lumotlarni beradi. Fizikaviy tadqiqot usullari molekulaning tuzilishi,

stereokimyosi va fizikaviy kattaliklarini aniqlashda kompleks ravishda ishlataladi va bu usullar bir-birini to'ldiradi.

Kimyo faniniug sifat va miqdoriy analitik usullari XVIII-asrda yaratilgan bolsa ham, ular XIX asrda fizikaviy kimyo tarimoqlaridan elektrokimyo va termokimyo usullari bilan boyidilar. Ammo butarning barchasi XX asrda kimyo taraqqiyoti uchun progressiv o'rinn egallash imkoniyatini bermadi. XIX asr oxirlarida kimyoviy tadqiqotlarni amalga oshirishda fizika fani o'zining spektral-optik usullarini qo'llab yangi inqilobiy bosqich yaratdi. XX asrdagi kimyo fani keskin yuksalishining asosiy omillaridan biri zamonaviy fizik va fizikkimyoviy tadqiqot (UB-, IQ-, YaMR-, EPR spektroskopiyasi, rentgen-spektral, rentgenfaza va rentgenstrukturaviy analiz, mass-spektrometriya, nishonlangau atomlar usuli, aktivatsion analiz, magnitkimyoviy) usullarining yaratilishidir.

Zamonaviy tadqiqot usullarining kimyoda qo'llanilishi kimyoviy moddalarning aniq tarkibini hisoblash emas, balki juda murakkab tuzilishga ega birikmalarning nozik molekulyar strukturasini isbotlash, kimyoviy reaksiya jarayoni yo'nalishiga bar xil faktorlarning ta'sirini o'rganish imkoniyatini yaratib berdi.

Fizikaviy tadqiqot usullarining nazariy asosları va ishlatalish imkoniyatlari qarab quyidagi turkumlarga bo'lish mungkin:

- optik spektroskopiya;
- radiospektroskopiya;
- difraksion analiz usullari;
- ionizasion usullar va hokazo.

1.2. Moddalarning sindirish ko'rsatkichi va molekulyar refraksiya

Nur optik zichligi kichik bo'lgan muhitdan optik zichligi katta mulitga o'tayotganda uning tezligi o'zgarib nur sinadi, ya'ni refraksiyaga uchraydi. Agar nuring ikki muhitni ajratib turuvchi tekistik yuzasiga tushish burchagi – α , sinish burchagi – β deb belgilasak:

$$\sin \alpha : \sin \beta = C_1 : C_2 = n \quad (1.6)$$

C_1 va C_2 – birinchi va ikkinchi muhitda yorug'lik tezligi,
 $n = \text{const}$, sindirish ko'rsatkichi.


Moddalarning sindirish ko'rsatkichi refraktometr yordamida aniqlanadi. Ularning sindirish ko'rsatkichi va zichligi aniqlangach, Lorents-Lorens tenglamasi bo'yicha molekulyar refraksiya R_M hisoblanadi.

$$R_M = (n^2 - 1) : (n^2 + 1) \cdot (M : d)(1.7)$$

M – molekulyar massa, d – moddaning zichligi.

Molekulyar yoki solishtirma refraksiya molekuladagi hamma elektronlarning qutblanishini ko'rsatadi. Uning qiymati bosim, harorat va moddaning holatiga bog'liq emas, ya'ni R_M – elektronlarning sindirish ko'rsatkichi moddalar tozaligini belgilaydi. Sindirish ko'rsatkichi $-n$ tajriba yo'li bilan aniqlanib, modda formulasi to'griligini tekshirish uchun juda katta yordam beradi. Odatda sindirish ko'rsatkichi n_D (n^{25}_D – spektr chizig'i yoki to'lqin uzunligi) bilan belgilanadi va moddaning natriy alangasidagi sariq spektr sohasiga qo'yiladi.

Molekulyar refraksiyani aniqlash moddalarning eritmali uchun oson amalga oshiriladi. Refraktometrlarning ish prinsipi interferometrlar ishlashiga o'xshaydi (1.2-rasm). Kollimator (1)dan chiqqan ikki parallel nur ikki parallel holda joylashtirilgan tirqishlar orqali o'tib, kyuvetalarga tushadi, bu kyuvetalarning birinchisiga erituvchi va ikkinchisiga eritma quyiladi. Ikki parallel tirqish joylashtirilgan to'siqdan (2) o'tgan nurlar ob'ektiv (3) yordamida yig'ilib, fokus (4) tekisligiga tushiriladi.




1.2-rasm. Refraktonietrning sxemasi: 1 – kollimator; 2 – nur o'tkazuvchi ikki tirkish; 3 – ob'ektiv; 4 – fokus tekisligi; 5 – okulyar.

Hosil bo'lgan shakl kattaligi, ya'ni nurlarning sinishi okulyar (5) orqali kuzatiladi; bunda to'lqin uzunliklari orasidagi farq

okulyarda interferension to'lqin uzunliklari siljish kattaligi etalon va o'rganadigan modda orasidagi sindirish ko'rsatkichlari farqini anglatadi.

Dipol momentlarini aniqlash. Dipol momentlarini o'lchash molekula konfiguratsiyasi haqida ma'lumot beradi. Eng oddiy misol: H_2O molekulasidek oddiy efirlar ham sezilarli dipol inomentiga ega, bu molekula to'g'ri chiziqli tuzilishga ega emasligini ko'rsatadi; ya'ni



Endi yoruglik tabiatи, uning xossalari haqida qisqa ma'lumot bilan tanishib chiqamiz.

1.3. Elektromagnit to'lqinlar haqida asosiy tushunchalar

Har qanday modda faqat ma'lum tebranish chastotalari to'g'ri kelganda, yoruglik nuri yoki elektromagnit to'lqinlarini yutadi. Elektromagnit nurlanish yoki yorug'lik ikki xil xususiyatga ega:

- to'lqinsimon, har qanday nur suv betidagi to'lqindek tarqaladi;
- korpuskulyar, ya'ni zarracha xususiyatiga ega.

To'lqin odatda to'lqin uzunligi – λ , to'lqin balandligi – A va uning tarqalish tezligi – C bilan xarakterlanadi. To'lqin uzunligi, tezligi va chastotasi (v) orasida quyidagicha bog'liqlik mavjud:

$$\lambda = C / v \quad \text{yoki} \quad C = \lambda \cdot v \quad (1.8 \text{ va } 1.9)$$

Nurlanish va yutilish energiyasi kvantlar bilan belgilanadi:

$$\Delta E = E_1 - E_0 = h \cdot v = h \cdot C / \lambda \quad (1.10)$$

h – Plank doimiysi, $6,5 \cdot 10^{-27}$ erg sek; v – tebranish chastotasi, Hz yoki sek^{-1} ; C – yorug'lik tezligi; λ – to'lqin uzunligi, sm, mkm (10^{-6} m), nm (10^{-9} m), Å (10^{-10} m).

Demak, elektromagnit nurlanishning energiyasi tebranish chastotalariga to'g'ri va to'lqin uzunligiga teskari proporsional ekan. Nurlanishni tushuntirish uchun ba'zan to'lqin sonidan (v') ham foydalanadilar:

$$\nu' = \frac{1}{\lambda} = \frac{1}{c \cdot \nu} \quad (1.11)$$

birligi – sm^{-1} , ya’ni 1 sm kesmadagi yorug‘lik nurining to‘lqinlar sonidir.

Shunday moslamalar borki, ular yordamida to‘lqin uzunliklari va shunga muvofiq kvant energiyalari ham bir xil nurlar olish mumkin va bu moslamalarga *monoxromator* deyiladi.

Elektromagnit nurlanishning yana bir muhim xarakteristik kattaligi ularning *intensivligidir* (E) – bu kattalik ma’lum birlik yuzadan vaqt birligida o‘tgan kvantlar soni bilan belgilanadi.

Nurlarning barcha turlari elektromagnit to‘lqinlar deb aytildi va ana shunday monoxromatik nurlar biror modda eritmasiga tushirilsa, uning ma’lum qismi yutilib, eritnidan o‘tgan nurning intensivligi kamayadi. Moddalarning eritmasidan o‘tgan nuring yutilish intensivligi Buger-Lambert-Ber qonuni bilan aniqlanadi:

$$\lg \frac{I_0}{I} = k \cdot n = D \quad (1.12)$$

I_0 – eritmaga tushayotgan nur intensivligi, I – eritnidan o‘tgan nur intensivligi, k – yorug‘lik oqimi yo‘lidagi nur yutadigan moddaning mollar soni yoki konsentratsiyasi, n – shu modda tabiatiga bog‘liq doimiylik, D – eritmaning optik zichligi.

Eritnidan o‘tayotgan nur chastotasi oralig‘ida nur yutmaydigan (tinig) erituvchidagi modda eritmasi uchun bu tenglama ko‘rinishi quyidagicha o‘zgaradi:

$$\lg \frac{I_0}{I} = \xi \cdot C \cdot l \quad \text{yoki} \quad D = \xi \cdot C \cdot l \quad (1.13)$$

l – eritmali kyuvetadan o‘tgan nur masofasi, sm; C – modda konsentratsiyasi, mol/l; ξ – ekstinksiya koeffitsiyenti, l/mol·sm.

Ekstinksiya yoki molyar yutilish koeffitsiyenti (ξ) 1 sm li kyuvetaga solingan va konsentratsiyasi 1 mol/l bo‘lgan eritnidan o‘tgan nuring yutilish kattaligi bilan ifodalanadi. Uning qiyinati tajriba yo‘li bilan aniqlanadi, ya’ni $C=1$ mol/l va $l=1$ sm bo‘lsa, eritmaning optik zichligi va ekstinksiya koeffitsiyenti o‘zaro teng bo‘ladi:

$$\lg \frac{I_o - \xi}{I} = D$$

Ekstinksiya koeffitsiyenti kattaligi modda tabiatiga va yutiladigan nuring to'lqin uzunligiga bog'liq. Yutilish intensivligining birligi sifatida nuring eritnadan o'tish foizi ishlataladi:

$$\frac{I}{I_o} \cdot 100\%$$

Eritmadagi moddalar yutilish spektrini o'rganish jarayonida Buger-Lambert-Ber qonunidan chetlanishlar ham bo'lishi mungkin:

- modda har xil tautomer shakllarda bo'lsa (ketone-yenol va hokazo),
- modda molekulalari o'zaro yoki erituvchi molekulalari bilan ta'sirlashsa.

Elektromagnit tebranishlar to'lqin uzunliklari juda katta oraliqni o'z ichiga oladi. Elektromagnit nurlarning yutilishi modda molekula-sidagi ayrim o'zgarishlar bilan belgilanadi, aniqrog'i nurlanishning yutilishi oqibatida uning energetik darajasi yuqoriroq holatga o'tadi. Molekulalarning ichki energiyasi kvantlangan bo'lib, ularga nur bilan

1.2-jadval

Elektromagnit toʻlqinlar shkalasi va spektr turlari

ta'sir etilganda har qaysi modda ayrim to'lqin uzunlikdagi yoki chastotadagi nurnigina yutadi. Pirovard natijada nurlanish yutilishi, binobarin, molekuladagi ichki energiyaning ortishi faqatgina kvant nurlanishi bilan moddaning ikki energetik darajasi orasidagi farq to'gri kelsagina sodir bo'ladi. Demak, moddaga tushirilgan nur ta'sirida uning o'zgarishlari nuring tabiatiga va ayni shu modda tuzilishiga bog'liq.

Elektromagnit to'lqinlarning intensiv yutilish sohasi yutilish maksimumining chiziqlari deb yuritiladi. Shunday maksimumlar yig'indisi yutilish spektri deyiladi.

1.2-jadvaldan ko'rinaridiki, eng qisqa to'lqinli radioaktiv γ -nurlar atom yadrolarining energetik holatini o'zgartiradi (γ -rezonans spektroskopiya). Gamma nurlarga nisbatan pastroq energiya va uzunroq to'lqin uzunligiga ega rentgen nurlari atomlarning yadro atrofidagi ichki va undan keyingi qavatlarda joylashgan elektronlarning energetik holatini o'zgartirib, ularni bir energetik pog'onadan ikkinchisiga o'tkazadi(elektronografiya, rentgenospektroskopiya).

Moddalarning yorug'lik nurlarini tanlab yutishini o'lchashga asoslangan fizik-kimyoviy usullar optik spektroskopik usullar deyiladi. Ultrabinafsha (UB) va ko'zga ko'rinarigan nurlar ta'sir etilganda molekula va atomlar valent elektronlarining energetik holatlari o'zgaradi, ya'ni ular bir energetik pog'onachadan yuqorisiga o'tadi. Molekulaning energiya yutgandan keyingi bunday holati qo'zg'olgan holat deb aytildi. Odatda ultrabinafsha nurlarning to'lqin uzunligi 120-800 nm atrofida bo'lib, 190 nm dan quyi to'lqinlar sohasiga uzoq UB-spektrlari yoki vakuum sohasi deyiladi. Amalda moddalarning UB-spektrlari yaqin UB-va ko'rish sohasi (200-800 nm) oralig'ida olinadi. Bu sohada havo tarkibidagi gazlar nur yutmaydi. Kvarts shishasi ham bu intervalda shaffof (ya'ni nurni yutmaydi) bo'lgani uchun har xil prizma va kyuvetalar yasash uchun optik material sifatida ishlatiladi. Shuning uchun ham lozirgi kunda UB-spektroskopiyasi organik moddalarni o'rganish uchun eng ko'p qo'llaniladigan fizik-kimyoviy tadqiqot usullaridan biri hisoblanadi.

Infracizil (IQ-) nurlar ta'sir etilganda, yutilgan energiya molekuladagi atomlar orasidagi bog'lar uzunligi va atomlar orasidagi valent burchaklarining o'zgarishiga olib keladi. Ba'zan IQ-spektroskopik usul tebranma spektrlar usuli ham deyiladi.

Moddalarga radioto'lqinlar bilan ta'sir etilganda, ularning energiyasi yanada kichikroq bo'lib, yadrolarning yoki elektronlarning spin energetik holatlari o'zgaradi (YaMR- va EPR spektroskopiyasi).

Nazorat savollari

1. Fizikaviy tadqiqot usullari haqida nimani bilasiz?
2. Moddalarning sindirish ko'rsatkichi va dipol momenti nima bilan ifodalanadi?
3. Elektromagnit to'lqin shkalasi mohiyatini tushuntirib bering.
4. To'lqin uzunligi nimani anglatadi?
5. Optik- va radiospektroskopiya orasidagi farqni izohlang.
6. Mass-spektrometriya va optik spektroskopiya farqini tushuntiring.
7. Buger-Lambert-Ber qonuni mohiyatini tushuntirib bering.
8. Spektroskopik usullarning eng muhim xarakteristikalarini ayting.
9. Fizikaviy tadqiqot usullarining integratsiyasi nimani anglatadi?
10. Fizikaviy usullarning kimyodagi ahamiyati nimadan iborat?
11. Rentgenografiya, elektronografiya va neytronourafiya usullari-ning qo'llanish sohasini qayd qiling.
12. Fizikaviy tadqiqot usullarining to'g'ri va teskari vazifalarini ta'riflang.



A d a b i y o t l a r

1. Юнусов Т.К., Зайнутдинов У.Н., Утениязов К.У., Салихов Ш.И. Кимёда физикавий усуллар.- Тошкент.- Университет.- 2007.- 336 б.
2. Вязмин С.Ю., Рябухин Д.С., Васильев А.В. Электронная спектроскопия органических соединений.- Санкт-Петербург.- 2011.- 43 с.
3. Карагаева Ф.Х., Клочков В.В. Спектроскопия ЯМР в органической химии, Часть 1. Общая теория ЯМР. Химические сдвиги ^1H и ^{13}C .-Казань.- 2012.- 95 с.
4. Пентин Ю.А., Вильков Л.В. Физические методы исследования в химии.- М.: Мир.- 2003.- 683 с.
5. Умаров Б.Б. Физикавий таддиқот усуллари, маъruzалар конспекти.- БухДУ.- Зиё-Ризограф.- 2000.- 187 б.
6. Драго Р. Физические методы в химии.- М.- Мир.- в 2х томах.- 1981.

II BOB. ULTRABINAFSHA (UB) SPEKTROSKOPIYA (Elektron yutilish spektroskopiyasi)

Reja:

- 2.1. *Elektron holatlar xossalaring umumiy tasnifi*
- 2.2. *Elektron holatlarning nomenklatura va simvollari*
- 2.3. *Elektron o'tishlar tasnifi, ularning nishbiy holati*
- 2.4. *Elektron spektrlarning qo'llanishi*
- 2.5. *Asosiy xromofor guruhi*
- 2.6. *Elektron spektroskopiyasida ishlataladigan asosiy tushunchalar*
- 2.7. *Vudvord-Fizer qoidasi*
- 2.8. *Nazorat savollari*
- 2.9. *Masala va mashqlar*
- 2.10. *Adabiyotlar*

Tayanch atamalar

Elektron yutilish spektrlari. Diffuzion sochilish spektrlari. Valent elektronlari (σ - va π -bog elektron jufti) va erkin n-elektron juftlarining asosiy holatdan qo'zg'algan holatga o'tishi. Bog'lovchi va ajratuvchi orbitallar. Batoxrom, gipsoxrom siljish. Giperxrom va gipoxrom effekt.

Elektron UB spektroskopik usullar guruhi faqat ultrabinafscha emas, balki ko'rish sohasi va yaqin IQ sohasidagi atom va molekulalarning turli elektron holatlar orasidagi o'tishlarni ham o'rganadi. Molekulyar elektron spektrlar haqida gapiradigan bo'lsak, yuqori haroratda olingen bunday emission spektrlar juda barqaror molekulalar uchun kuzatiladi. Ko'p atomli molekulalarning elektron spektrlari odatda yutilish spektri sifatida elektromagnit to'lqinlar kvantini yutib asosiy holatdan qo'zg'algan holatga o'tish tarzida, ikkinchisi molekulauing elektromagnit nurlarini sochib, qo'zg'algan holatdan asosiy holatga o'tishi natijasida qayd qilinadi.

Bundan tashqari elektron spektroskopiyaning yangi sohasi bo'lgan nurning kombinatsion sochilish usuli ham bor, ammo u endi tashkil topib, rivojlanib bornoqda. Sifat va miqdoriy tahlil uchun odatda absorbsion UB usulidan keng foydalanadilar, bu usulni to'ldirish uchun IQ, kombinatsion sochilish (KS) yoki YaMR spektroskopiysi ham ishlataladi. Bundan tashqari kimyoviy birikmalarning tuzilishini aniqlashda mass-spektrometriya usuli qo'l kelmoqda. Ammo hozirgi zamonda UB spektroskopiysi nazariy va kvant kimyosining tayangan usuli hisoblanadi. Ayni shu usul bilan molekulaning elektron holati, xususan energetik o'zgarishlar, geometrik konfiguratsiyasi, elektron bulut zichligining taqsimoti va boshqa molekulyar kattaliklar haqidagi ma'lumotlar uning asosiy energetik holatdan qo'zg'algan holatga o'tishi bilan aniqlanadi.

2.1. Elektron holatlar xossalaringning umumiylashtirilgan tasnifi

Molekulaning elektron holati Shredingerning elektron tenglamasi yordamida, elektron va yadro harakatlarining adiabatik yaqinlashuvi bilan aniqlanadi:

$$\mathcal{H}_e \Psi_e = E_e \Psi_e \quad (2.1)$$

bunda \mathcal{H}_e – Gamilton operatori, Ψ_e – to'lqin funksiyasi, E_e – elektron energiyasining xususiy qiymati. Ko'p elektronli molekula uchun bu tenglamaning aniq yechimini topish qiyin, uning faqat molekulyar orbital yoki valent bog' usullarini qo'llab, taxminiy yechish usullari mavjud xolos. Ammo Xartri-Fok-Rutin usulini qo'llab, ayrim sodda molekulalar uchun yuqori aniqlikdagi yechimiga olib kelish mumkin. Molekulalarning har qanday elektron holatinining asosiy tasnifi sifatida uning energiyasi, to'lqin funksiyasi, ayniye darajasi, multipletligi va yashash muddati qabul qilingan.

Molekula energiyasi ayni berilgan holat uchun yadro konfiguratsiyasining funksiyasi bo'lib, uning minimal qiymatini anglatadi. Bu holat muvozanatdagi yadro konfiguratsiyasiga mos keladi: $E_e = E(R_e)$ bunda R_e – yadro koordinatalarining


muvozanatdagi qiymati. Minimal qiymatdagi elektron energiyasi – asosiy elektron holat deyiladi, keying bosqichdagi energetik darajalar – qo'zg'algan holat deyiladi:

$$E_e^{(0)} \leq E_e^{(1)} \leq E_e^{(2)} \leq \dots < E_e^{(\infty)} < \dots \quad (2.2)$$

Asosiy holat X harfi bilan belgilanadi, qolgan holatlar lotincha A, B, C va hokazo harflar bilan belgilanadi. Har qaysi elektron holat uchun o'zining potensial energiya funksiyasi bor. Ikki atomli molekulaning holati quyidagi tenglama bilan aniqlanib, bu kattalik faqatgina atom yadrolari orasidagi masofa r bilan bog'liqdirdi:


$$U_r = D_e (1 - e^{-\beta(r-r_e)})^2 \quad (2.3)$$

bunda D_e va β – doimiyliklar. 2.1-rasmida ikki atomli molekulaning bir necha elektron holatlari uchun potensial egri chiziqlari ko'rsatilgan. Ko'p atominli molekula potensial energiyasining funksiyasi $(n+1)$ -o'lchamli maydoudagi n -tartibli giperyuza sifatida tasvirlanadi ($n=3N-6$ yoki chiziqli molekulalar uchun $n=3N-5$, bu tenglamalardagi N – atomlar soni). Ψ_e to'lqin funksiyasi, Shredinger tenglamasi yechimi sifatida elektronlarning fazoviy va spin koordinatalari funksiyasi hisoblanadi. Har qaysi elektron holat uchun o'zining to'lqin funksiyasi bilan ifodalanadi.



2.1-rasm. YZ ikki atomli molekulaning elektron holatlarini ko'rsatuvchi potensial egri chizig'i: 0-asosiy holat uchun (X); 1, 2-qo'zg'algan barqaror (A va B) holatlar uchun; 3-o'zaro itarish egri chizig'i.

Molekulaning har qanday elektron holati uchun muvozanatdagи turli yadro konfiguratsiyasi mavjud. Masalan, etilen molekulasining asosiy elektron holati tekis tuzilishga (sp^2 -gibrid) ega, atsetilen uchun -chiziqli (sp -gibrid) bo'лади:



Qo'зг'алган holatda etilenning CH_2 -guruhlari bir-biriga nisbatan fazoda perpendikulyar joylashadi, atsetilenning chiziqli tuzilishi buziladi. Bulardan tashqari atsetilen molekulasining asosiy holatida uglerod atomlari orasidagi masofa $r_{(C-C)}=1,208\cdot10^{-1}$ nm bo'lsa, birinchi qo'зг'алган holat uchun bu kattalik $r_{(C-C)}=1,388\cdot10^{-1}$ nm.

Har qaysi elektron holatda molekulaning faqat o'ziga xos potensial energiya funksiyasi bo'lib qolmasdan, balki barcha molekulyar doimiyliklari va xarakteristik qiymatlari ham bo'лади. Elektron holatlar energiyasiga elektron spinlarining yakuniy spini ta'sir etadi va multipletligi bilan tasniflanadi.

Spin-orbital o'zaro ta'sirlashuv, ya'ni spin bilan elektron harakati orbital momenti harakati elektron holatini $2S+1$ komponentga parchalaydi va bu multipletlikni belgilaydi; $S=0$ bo'lsa multipletlik 1 ga teng (*singlet* holat); $S=1$ bo'lsa, multipletlik 3 ga teng. Bu *triplet* holat deyiladi.

Atom holatlarida bo'lganidek, molekulaning ham elektron holati shu molekulaning tegishli n -holatiga xos bo'lgan barqarorligi (o'rtacha yashash davri) τ_n bilan belgilanadi. Bu kattalik spontan sochilish (A_n)ga yoki shu elektronning quyi darajadagi holatga o'tishiga teskari proporsional:

$$\tau_n = \frac{1}{A_n} = \frac{1}{\sum_m A_{nm}} \quad (2.4)$$

Asosiy elektron holat uchun $\tau_o = \infty$ bo'lsa, uzoq davom etuvchi (metastabil) holatlar uchun $\tau_n > 10^{-4}$ sek, qisqa muddatli (elektr dipol o'tishlar mavjud bo'lgan) holatlar kuzatilganda $\tau_n > 10^{-7} - 10^{-9}$ sekundga teng.

2.2. Elektron holatlarning nomenklatura va simvollari

Molekula va atomlarning elektron holati ularning to‘lqin funksiyasi xossalari bilan bir-biridan ajratib, alohidá sinflanadi. Dastavval simmetriya xususiyatlarining hisobga olinishini ko‘rib chiqish zarur. Har qanday elementning simmetriyasi undagi simmetriya elementlari yig‘indisi bilan belgilanadi. Quyidagi simmetriya element va operatsiyalari mavjud:

1. i – simmetriya markazi, markazga nisbatan inversiyasi (ko‘rinishi);

2. C_n – n tartibli simmetriya aylanma o‘qi – $2\pi/n$ burchakka burish operatsiyasi, $n=0$ dan $n-1$ gacha;

3. σ -simmetriya tekisligi; simmetriya operatsiyasining tekisligidagi ko‘rinishi;

4. S_n – n tartibli ko‘zgu-burilish simmetriya o‘qi.

Yadro konfiguratsiyasi simmetriyasi butun molekulaning simmetriyasini belgilaydi, ya’ni bu elektron zichligining taqsimoti simmetriyasidir. Simmetrik molekulalarning elektron holatini sinflashda uning to‘lqin funksiyasini hisoblab topishtalab etilmaydi, balki faqat ularning simmetriya xususiyatlarini aniqlash muhimdir.

Elektron holatlarini aniqlashda uning harakatdagi orbital va spin momentlarini ko‘rib chiqish kifoyadir. Molekuladagi barcha elektronlar juftlashgan bo‘lsa $L = 0$; L – kvant soni, uning qiymatlari 0, 1, 2, 3 ..., agar toq elektronlar bo‘lsa, ularning orbital momentlari bir-biridan farqli bo‘lib, quyidagicha ifodalanadi:

L 0, 1, 2, ...

Holatlar $\sigma, \pi, \delta, \dots$

Ma‘lum ajratib olingan yo‘nalish mavjud bo‘lsa, shu yo‘nalish bo‘yicha harakat miqdori momentining proyeksiyasi muhim kattalikdir:

$$L_z = \hbar \cdot M_L,$$

bunda M_L – kvant soni bo‘lib, uning qiymati $-L, -L+1, \dots 0$..., $L-2, L-1, L$ (jami $M=2L+1$).

Ikki atomli yoki chiziqli tuzilishdagi molekulalarning cheksiz tartibli simmetriya o'qi (C_∞) bo'lganda elektron harakat miqdorining yig'indi orbital momenti proyeksiyasi elektron holatlarining sinflanishi asosida molekula o'qi e'tiborga olinadi:

$$|M_L| = \Lambda$$

Molekula elektron holatining qiymatiga ko'ra quyidagi simvollar bilan belgilanadi:

Λ	0, 1, 2, 3, ...
Simvol	$\Sigma \Pi \Delta \Phi$

Harakat miqdorining spin momenti elektron momentlarining vektorial yig'indisiga teng bo'lib, quyidagi modul kvadrati bilan tavsiflanadi:

$$S^2 = \hbar^2 S(S + 1) \quad (2.5)$$

(S – kvant soni = 0, 1/2, 1, 3/2, 2, 5/2, ...) va uning tanlangan yo'nalishdagi proyeksiyasi:

$$S_z = \hbar \cdot M_S \quad (2.6)$$

(M_S – kvant soni = - S , - $S+1$, ... $S-2$, $S-1$, S).

Energiya darajalarining parchalanishi molekula spiniga bog'liq bo'lib, bu faqat magnit maydoni ta'sirida yuz beradi.

Ko'p atomli molekulaning elektron holati nomenklaturasi emperik xarakterga ega. Molekulaning elektron to'lqin funksiyasiri ko'rib chiqish uchun ko'p hollarda bir elektronli holatni tahlil qilish kifoyadir.

MO tuzishda ikki atomli molekula uchun bog'langan atom yadrolari o'rtasidagi o'zaro bir-birini qoplagan atom orbitallari bir xil simmetriyaga ega bo'lishi kerak.

AO va MO simmetriya tiplari kichik harflar bilan belgilanadi: a_1 , b_2 , c va $h.o.$. Shu bilan birga ular bog'lovchi orbitallar (σ - va π -, ya'ni atomlarni birlashtiruvchi) va ajratuvchi (bo'shashtiruvchi σ^* va π^* , ya'ni atomlarni bir-biridan ajratuvchi) orbitallarga bo'linadi, ularning birinchisi bu atomlar joylashgan tekislik va uning o'qiga nisbatan simmetrik, ikkinchi holda – antisimmetrik bo'ladi. Kimyoiviy bog' hosil qilmaydigan

umumlashgan erkin elektron juftlari (n) bo'shashtiruvchi orbitallar hosil qiladi.

Molekulaning asosiy elektron holatida bog'lovchi va ajratuvchi orbitallar to'liq bo'lib, ularning har birida ikkita elektron mavjud bo'ladi. Molekulyar orbitallarning spinlari juftlashgan ($\uparrow\downarrow$) elektronlar bilan to'lib borishida, elektron holatining yig'indi spin holati $S=0$ bo'ladi, bu *singlet* holat deyiladi va unga tegishli to'lqin funksiyasi to'liq simmetriyalii tipga aylanadi.


C_{2v} nuqtaviy guruhga mansub bo'lgan formaldegid (HCHO) molekulasi misolida MO ning hosil bo'lishi va simvollarini ko'rib chiqaylik. Bunda s-orbital sferik simmetriyalii, p-orbital esa koordinata o'qlari kesishgan joyda ishorasini o'zgartiruvchi gantelsimon (hajmli sakkiz \leftrightarrow) simmetriyaga ega deb qabul qilamiz (2.1-jadval).

2.1-jadval

Chumoli aldegidi valent elektronlarining AO simmetriyasi

C_{2v}	I	C_2	σ_1	σ_2	Tip	C_{2v}	I	σ_1	σ_2
$2H(1_s)$	2	0	0	2	$a_1 + b_2$	$O(2s)$	1	1	1
$C(2s)$	1	-1	1	1	a_1	$O(2p_x)$	1	1	-1
$C(2p_x)$	1	-1	1	-1	b_1	$O(2p_y)$	1	-1	1
$C(2p_y)$	1	-1	-1	1	b_2	$O(2p_z)$	1	1	1
$C(2p_z)$	1	1	1	1	a_1				

2.2-rasmda chumoli aldegidi molekulyar orbitallari energetik darajalarining taqsimlanishiga ko'ra nisbiy joylashuvi tasvirlangan, bunda asosan karbonil guruhnинг MO hisobga olingan. Eng quyi energiyali orbitallar – uchta bog'lovchi σ -orbitallar, eng yuqorisi – uchta bo'shashtiruvchi σ^* -orbitallar hisoblanadi. Xuddi shuningdek, bog'lovchi va bo'shashtiruvchi π -orbitallar, hamda kislород atomining ikkita bog'lamaydigan, taqsimlanmagan elektron juftlari orbitallarining energetik darajalari ko'rsatilgan (2.2-rasm). Uchta a_1 tipidagi orbitallarni shartli ravishda birlashtirish mumkin, chunki ular aralash va bir jinsli emas (2.3-rasin). Molekulaning asosiy holatida barcha



2.2.-rasm. Energetik darajasiga ko'ra formaldegid molekulyar orbitallarining nisbiy joylashuv sxemasi. Sonlar bilan bir xil tipdagi simmetriya darajalari ko'rsatilgan; molekulyar orbitallarni ifodalashda ko'rsatilgan yaxlit va punktir chiziqlar to'lqin funksiyasining har xil (musbat va manfiy) qiymatlarini ifodatalaydi, ularning katta-kichiklik konturlari rasm tekisligi (yz)ning osti va ustidagi hajmini bildiradi.


bog'lovchi va bo'shashtiruvchi orbitallar ikkitadan elektron bilan to'lgan. Ular orasida b_2 simmetriya ega bo'lgan bog'lamaydigan n -orbitallar eng yuqori (qo'zg'algan) holatda deb hisoblash qabul qilingan. Spin qiymati juft elektronlar bilan to'lgan MO uchun yig'indi spin qiymati $S=0$ bo'ladi, ya'ni singlet holatda bo'ladi, unga tegishli to'lqin funksiyasi to'liq simmetriyalı deyiladi. Formaldegid molekulasining asosiy holati uchun to'lqin funksiyasi simvoli ' A_1 , kabi ifodalanadi va quyidagicha yoziladi:

$$\Psi_A = a_1^2 \cdot b_1^2 \cdot b_2^2 \cdots = A_1$$

bu molekulaning qo'zg'algan elektron holati sxematik ravishda 2.3-rasm bilan ifodalanadi va uning simvoli 1A_2 harfi bilan ko'rsatiladi:

$$\Psi_A = a_1^2 \cdot b_1^2 \cdot b_2 \cdot b_1 = A_2$$

bu holatda elektronlar parallel spinga ega bo'lib ($S=1$), qo'zg'algan 3B_2 (triplet) holat deyiladi.




2.3-rasm. Qo'zg'algan bir elektronli holatidagi karbonil guruhi molekulyar orbitallari to'lishiga ayrim misollar.

2.3. Elektron o'tishlar tasnifi, ularning nisbiy holati

Molekulalar elektromagnit to'lqinlarni UB- va ko'zga ko'rinvuvchi sohada yutganda aylanma va tebranma holatga o'tkazish uchun kerakli energiya elektronlarni past pog'onadan yuqoriroq qo'zg'algan energetik pog'onachaga o'tkazish jarayonida sarflanadigan energiyadan kichik bo'lishi ma'lum. Shuning uchun molekulaga UB-nurlar ta'sir etilganda uning har uchała: aylanma, tebranma va elektron energiyalari o'zgaradi. Elektronlarning yutilish spektri yoki boshqacha qilib aytganda, UB-spektroskopiyada elektromagnit to'lqinlar energiyasi ta'sirida elektron-larning bog'lovchi orbitallardan ajratuvchi orbitallarga

o'tishi kuzatiladi. Molekulaning bu holati, ilgari qayd qilganimizdek, qo'zg'algan holat deyiladi. Elektronlar yorug'lik kvanti ($h\nu$) bilan o'zaro ta'sirlashganda energiya yutib yuqori egallab turgan orbitallaridan quyi vakant orbitallarga ham o'tishi muunkin. Elektronlar yadro bilan kuchli tortishib turganligi sababli ularni qo'zg'otish uchun katta energiyaga ega bo'lgan nur bilan ($\lambda=120\text{-}800$ nm) ta'sir etishimiz lozim. Bunda aylanma va tebranma spektrlar hain kuzatiladi, bu ajralish UB-spektrlarining uozik strukturasi deyiladi. Nozik strukturalar UB spektrlar talqinini qiyinlashtiradi, shuning uchun modda spektrlari eritmada olinadi (2.4-rasm).

Uzoq UB, ya'ni vakuum sohasida ($\lambda=120\text{-}190$ nm) havo tarkibidagi kislorod va azot molekulalari ham yutilish spektrlariga ega, shuning uchun bu sohada spektr olish uchun olimlarimiz vakuum moslamalari bo'lgan ancha murakkab uskunali spektroskoplarni tavsiya qiladilar. Shularni hisobga olib, yaqin UB va ko'tish sohasida ($\lambda\geq210$ nm havo va kvars tiniq bo'lgani uchun) to'lqin uzunligi 190-800 nm oralig'ida UB-spektrlarini olinadi. UB-spektrlarini olishning yana bir qulayligi shundaki, tadqiqot uchun bor-yo'g'i 0,1 mg modda kerak bo'ladi.




2.4-rasm. Sirka aldegidining gaz fazudagi (a) va spirtdagagi (b) UB-spektrlari
(Eritmadagi modda spektrida nozik strukturalar kuzatilmaydi).

Bizga ma'lumki, atomi va molekulalarda elektronlar faqat muayyan energetik qiymatlardagi orbitallardagina joylashgan. Bu energiya darajasi ma'lum tartibdagi kvant sonlari yig'indisi bilan


ifodalanadi. Modda molekulalaridagi molekululyar orbitallar atomi orbitallarining chiziqli kombinatsiyasi deb qabul qilingan. Bundan kelib chiqadigan xulosaga binoan elektronlar ikki xil holatlarda: asosiy va qo'zg'algan (odatda qo'zg'algan holat yulduzcha (*) bilan ifodalanadi) bo'lishi mumkin:

- bog'lovchi orbitallarda $\uparrow\downarrow$ (asosiy holat),
- ajratuvchi orbitallarda $\uparrow\uparrow$ (qo'zg'algan holat).

Molekulalarda bog' hosil qilishda qatnashgan elektronlar asosan ikki xil: σ - va π -bog'larni hosil qiladi. Agar ularning tarkibida geteroatomlar bo'lsa, geteroatomlarning bir yoki bir necha erkin elektron juftlari (n -elektronlar) ham uchraydi. Ularning nisbiy energetik darajalari va elektronlarning taxminiy energetik o'tishlari 2.5-rasm-diagrammada berilgan.



2.5-rasm. Molekulalar elektronlarining qo'zg'algan holatlari diagrammasi (molekululyar orbitallarga tegishli σ - va π - hamda erkin n -elektronlar).



2.6-rasm. Ikki qo'shbog' sistemasidan iborat oralatma molekulalar orbitallarining energetik diagrammasi.

Bu rasmdan ko'rinish turibdiki, elektronlarning $\sigma \rightarrow \sigma^*$ o'tishlari uchun, ya'ni eng mustahkam σ -bog' elektronlarini qo'zg'algan holatga o'tkazish uchun juda katta energiyali kvantlar (qisqa to'lqin uzunlikdagi surjlozim) bo'ladi, $n \rightarrow \sigma^*$ va

$\pi \rightarrow \pi^*$ -elektron o'tishlari uchun kuchsizroq energiyaga ega bo'lgan (yoki kattaroq to'lqin uzunlikdagi) nurlar ham kifoyadir. Erkin n-elektronlarning energetik darajasi π -energetik darajadan yuqori, shuning uchun $\pi \rightarrow \pi^*$ elektron ko'chishdan ko'ra $n \rightarrow \sigma^*$ elektron o'tishlari oson amalga oshadi. UB-spektrlarini yozib oluvchi spektroskoplarning ishchi diapazoniga asosan $n \rightarrow \sigma^*$ va $\pi \rightarrow \pi^*$ elektron o'tishlariga mos tushadigan to'lqin uzunlikdagi nurlarning yutilishi tanlab olingan.

Yutilish spektrlarini tushuntirishda, UB va ko'rish sohasining eksperimental tadqiqotlarini amalga oshiruvchi uskunalarning natijalarini umumlashtirib, *xromofor* va *auksroxromlik* konsepsiysi yaratilgan. Xromofor guruhlarga har xil alohida izolirlangan yoki tutash tizim hosil qiluvchi qo'shbog'lar, taqsimlanmagan erkin elektron jufti tutgan atom va radikallar, aromatik halqali birikmalar va hokazolar kiradi. Ba'zida ular K-xromoforlar deyiladi. Barcha molekulyar spektrlar: aylanma, tebranma, elektron o'tishlar kvant mexanikasi nuqtai nazaridan tegishli energetik holatlar orasidagi molekula o'tishlari bilan izohlanadi. Bu o'tishlar umumiyligi bo'lsa ham, har qanday molekulyar spektroskopiya usuli uchun spektrlarning tushuntirilishi va bu o'tishlarning sinflanishi va o'z terminologiyasi bor.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, dastlabki elektron nemischa *konjugiert* – tutashgan), R – xromoforlar (nemischa *radikal* – radikal) va aromatik xromoforlar (benzol halqasiga xos yutilish spektrlari beruvchi)ga ajratiladi. K-yutilishlar eng intensiv va to'lqin uzunligi katta bo'lib ($\xi \geq 10\,000$), R-yutilishlar qisqa to'lqinli va kuchsiz ($\xi \leq 100$). Ularning orasida intensivligi o'rtacha ($\xi = 250\text{--}300$) bo'lgan B-yutilishlar ham kuzatiladi. Ma'lumki, xromofor guruhlarning xarakterli yutilish spektrlarini to'lqin uzunligi katta tomonga siljituvchi atomlar guruhiga *auksroxromlar* deyiladi, ular ham formaldegid molekulasi kabi σ -, π -, n -, π^* - va σ^* - orbitallarga ega bo'lib, har qaysi molekulalar o'ziga xos yutilish chizig'iiga ega bo'ladi. Shved olimi Yu.R. Ridberg spektr seriyalarida uchraydigan doimiylik (R)-ni fanga

kitirdi, bu kattalik atomlarning spektri seriyalaridagi energiya darajalaridan birini ko'rsatadi. Bu ($N \rightarrow R$) elektron o'tishlaridan farqli ravishda, amerikalik olim R.S. Malliken vaient qobiqlari ichidagi elektron o'tishlari ($N \rightarrow V$ va $N \rightarrow Q$) darajasi haqidagi tushunchalarmi fanga kitirdi, bu yerda barcha hollar uchun N – normal, ya'ni asosiy elektron holatini anglatadi. Bog'lovchi va bo'shashtiruvchi darajalar orasidagi elektron o'tishlar ($\pi \rightarrow \pi^*$, $\sigma \rightarrow \pi^*$, $\sigma \rightarrow \sigma^*$) $N \rightarrow V$ sinfiga mansub. Bu o'tishlarda o'ttacha va yuqori intensivlikdagi spektr chiziqlari qisqa to'lqin sohasida qayd qilinadi. $N \rightarrow R$ o'tishlar undan ham kichik to'lqinli sohada (odatda UB spektrlarining vakuum sohasi) va intensivligi kattaroq spektr sifatida kuzatiladi. $N \rightarrow Q$ o'tishlar sinfiga elektronlarning bog'lanaydigan (erkin elektron juftlari) orbitalaridan ajratuvchi orbitalga ($n \rightarrow \pi^*$, $n \rightarrow \sigma^*$ tipdagi) o'tishini ifodalaydi. Odatda $N \rightarrow Q$ o'tishlar yo'nalishi qutblangan bo'lib, $N \rightarrow V$ -parallel yo'nalgan qutblanishdan farqli ravishda xromoforlar bog'(uning simmetriya o'qi)yo'nalishiga perpendikulyar holda yo'nalgan bo'ladi.

UB-spektroskopiyada jami elektron o'tishlar uchga ajratiladi:

$$N \rightarrow V; N \rightarrow Q; N \rightarrow R.$$

1. $N \rightarrow V$ nur yutilishi paytidagi umuman elektron o'tishlari $\sigma \rightarrow \sigma^$ va $\pi \rightarrow \pi^*$ o'zgarishlardan iborat bo'lib, molekula asosiy holatdan qo'zg'algan holatga o'tadi va elektronlar ko'chishi oqibatida molekulaning dipol momenti oshadi. Qutblanishning ortishi bilan UB-spektrlaridagi yutilish maksimumlarining intensivligi ham ortadi. $\sigma \rightarrow \sigma^*$ elektron o'tishlari optik spektroskopiyaning uzoq UB sohasida namoyon bo'ladi. Bog'lovchi π -molekulyar orbitallardagi elektronlar yadroga σ -bog' elektronlariga nisbatan kuchsizroq tortiladi va $\pi \rightarrow \pi^*$ o'tishlarni amalga oshirish uchun uncha katta energiya talab etilmaydi. $\pi \rightarrow \pi^*$ elektron o'tishlari asosan qo'shbog' tutgani birikmalarda uchraydi. Alovida izolirlangan $C=C$, $C=N$ qo'shbog'lari va $C \equiv C$, $C \equiv N$ uchbog'larining yutilish maksimumlari ($\lambda_{maks} = 160-180$ nm) bundan mustasnodir. Bu*


xildagi qo'shbog'lardan faqat karbonil C=O guruhi qo'shbog'i uchun yutilish maksimumi UB-spektrlari yozuvchi qurilmalarda kuzatiladi ($\lambda_{maks}=270$ nm). UB- va ko'rish sohasiga mos keluvchi elektromagnit tebranishlarini yutadigan molekula tarkibidagi bu xil funksional guruhlarga *xromoforlar* deyiladi. 200-800 nm oraliq'ida yutilish maksimumlarini namoyon qiluvchi asosiy xromofor guruhlar oralatma qo'shbog' tutgan birikmalardir. Ikkita oralatma qo'shbog' tutgan sistemaning elektron o'tish energetik diagrammasi 2.6-rasmida keltirilgan. Tegishli izolirlangan qo'shbog'larning o'zaro ta'siri oqibatida yana ikkita yangi orbitallar hosil bo'ladi: ularning biri boglovchi ($\pi+\pi$) va ikkinchisi ajratuvchi ($\pi-\pi$) orbitallardir. Asosiy holatdagi bu ikkita orbitallardan tashqari qo'zg'algan holatda ham ularga mos keluvchi xuddi shunday ikkita yangi orbital hosil bo'ladi.

Molekuladagi oralatma qo'shbog'lar soni ortib borishi bilan elektronlarni qo'zg'algan holatga o'tkazish uchun sarflanadigan energiya miqdori kamenayib boradi va nurning yutilishi to'lqin uzunligi katta tomonga siljiydi. Bir-biridan ajratilgan qo'shbog'lar sistemasiga nisbatan aromatik uglevodorolarning elektronlari osontoq qo'zg'algan holatga o'tadi. Shunday qilib, UB-spektroskopiyasining asosiy xromoforlari oralatma C=C-bog'lar, C=O-karbonil guruhi, C=C-C=O-sistemalari va aromatik yadrolar hisoblanadi.

Spektrlardagi yutilish intensivligi ayni shu holga to'g'ri keladigan elektron o'tishi bilan belgilanadi. Ammo shuni hanu uuutmaslik kerakki, hamisha elektron o'tishlari yuz bermaydi. UB-spektrda yutilish asosan xromofor guruhlari va uning yaqin atrofidagi o'rinnbosarlari bilan belgilanadi. Ayrim xromofor guruhlari yutilish maksimumlarining o'rni ba'zan uning yaqin atrofidagi o'rinnbosarlari ta'siri ostida qisman o'zgarishi mumkin. Oralatma qo'shbog'li sistemada spektriarga mos keluvchi energiya kamayadi va maksimumlarning o'rni katta to'lqin uzuuligi (quyi chastotali soha) tomoniga siljiydi va bu *batoxromi* siljish deyiladi. Agar yutilish maksimumi to'lqin uzunligi qisqa tomonga (ya'ni yuqoriga) siljisa – *gipsoxrom* siljish deb nomlashi-

qabul qilingan. Yutilish maksimumi intensivligining ortishi *giperxrom*, kamayishiga – *gipoxrom* effekt deyiladi (2.7-rasm).

2.7-rasm *Elektron spektridagi yutilish chiziqlari siljishining turli ko'rinishlari va intensivligining o'zgarishi.*



Umuman, qo'shbog'lardagi $\pi \rightarrow \pi^*$ elektron o'tishlari bilan boradigan istalgan xromoforga elektronodonor guruhlar oralatma holatda bog'langan bo'lsa, batoxrom siljish kuzatiladi. Bu guruhlar *auksroxromlar* deyiladi: H_3N^+ ; H_2N^+ ; R_2N^+ ; HO^- ; C-X^- ; RO^- ; HS^- ; RS^- :



$\text{N} \rightarrow \text{V}$ elektron o'tishlari maksimumlariga K-yutilish chizigi, benzol halqasi tutgan organik birikmalarning maksimumlari A-yoki E-yutilish chizig'i deyiladi. Odadta $\pi \rightarrow \pi^*$ elektron o'tishlari K-yutilish chizig'i, $\text{n} \rightarrow \pi^*$ elektron o'tishlar R-yutilish chizig'i deb yuritiladi. Karbonil guruh tutuvchi moddalar (aldegidlar, ketonlar, kislotalar, murakkab efirlar)da K-yutilishdan ($\pi \rightarrow \pi^*$) tashqari R-chiziqlari ($\text{n} \rightarrow \pi^*$) ham bo'ladi. Umuman molekulada elektron o'tishlar qancha ko'p bo'lsa, spektrda maksimumlar soni shuncha ko'p bo'ladi, lekin kuzatilishi lozim bo'lgan barcha maksimumlar hamisha qayd qilinmaydi. Valent elektronlari yuqori energiyali molekulyar orbitallarga o'tganda ularning spinlari qiymati o'zgarishi va o'zgarmasligi ham mumkin:

1. Elektronlarning spin qiymati o'zgarmaydigan o'tishlariga – singlet yoki ta'qiqangan o'tishlar deyiladi.



2. Elektronlarning spinlari o'zgarsa – triplet (ta'qiqangan) o'tish yuz beradi. Triplet o'tishlarda molekula nur yutmaydi. Agar elektron o'tishlar paytida molekulaning dipol momenti o'zgarmasa (ya'ni orbital simmetriya o'zgarmasa) ham elektronlar energiya qabul qilmaydi.

To'yinmagan birikmalar molekulasidagi qo'shbog'lar sonii ko'p bo'lsa-yu, ular bir-biridan uzoqda joylashgan bo'lsa,

spektrdagι yutilish maksimumlарining o'mи o'zgarmaydi, анино intensivligi ortади:



Agar qo'shbog'lar oralatma holatda joylashgan bo'lsa, birikmada bunday additivlik kuzatilmaydi:




Molekuladagi oralatma qo'shbog'larning soni ortib borsa, bu molekulalaming yutilish maksimumlari ko'zga ko'rindigani ($\lambda_{\max}=400\text{--}800$ nm) nurlarni yutadi va bu moddalar ayrim ranglarga bo'yalgandir.

UB-spektrlаридаги yutilish intensivliklari elektronlar o'tishi ehtimolligi bilan belgilanadi. Odатда, tanlash qoidasi degan tushunchaga muvofiq spektrda yutilish kuzatiladi, ular ta'qiqlanmagan va ta'qiqlangan o'tishlar bo'lishi mumkin. Bu qoida asosan molekula simmetriyasini, hamda asosiy va qo'zg'algan hollardagi elektronlar simmetriyasini hisobga oladi.

Benzolning UB-spektrida (2.8-rasim) uchta yutilish maksimumlari qayd qilinadi: $\lambda_{\max}=180$ nm, $\xi=50000$; $\lambda_{\max}=200$ nm, $\xi=7000$ va $\lambda_{\max}=250\text{--}260$ nm $\xi=204$. Benzol halqasidagi vodorod atomlari boshqa o'rindbosarlarga almashtirilganda, uning spektridagi yutilish maksimumlарining batoxrom siljishi kuzatiladi. Agar halqadagi o'rindbosarlar soni ikkita bo'lsa, yutilish maksimumlari ularning bir-biriga nisbatan halqada joylashishiga va ularning tabiatiga bog'liq bo'ladi (2.2-jadval).

2. $N\rightarrow Q$ o'tishlarda $n\rightarrow\sigma^*$ va $n\rightarrow\pi^*$ elektron ko'chishlar kuzatiladi. $n\rightarrow\sigma^*$ elektron o'tishlari uzoq va yaqin UB sohaga, $n\rightarrow\pi^*$ elektron o'tishlari to'lqin uzunligi kattaroq bo'lgan yaqin UB va ko'rish sohasiga muvofiq keladi. Elektronlarning $n\rightarrow\pi^*$ o'tishiga mos keluvchi yutilish maksimumlarini C=O, C=S, N=N kabi xromofor guruhlari belgilaydi.



2.8-rasm. Aromatik halqa tutgan birikmalar UB spektridagi B-yutilish chiziqlari: 1 – benzol(geksandagi eritma); 2 – piridin (spirtdagagi eritma).

3. $N \rightarrow R$ o'tishlariga atomlar yoki Ridberg elektron o'tishlari deyiladi. Modda molekulasiga yuqori energiya berilib nurlantirilsa, undan elektronlar chiqib ketishi mumkin(bu hodisaga fotoionlanish deyiladi). Bu o'tishlar uzoq UB sohasida sodir bo'lib, spektrda intensiv o'tkir maksimumlar tarzida kuzatiladi.

2.2-jadval

Aromatik va geteroaromatik birikmalardagi $\pi \rightarrow \pi^*$ elektron o'tishlarning kattaliklari

Birikmalar	λ_{maks} , nm	ξ , l/mol·sm	Erituvchi
Toluol	206	7 000	Suv
	261	225	
ortho-Ksilol	210	8 500	metanol–suv
	263	300	
meta-Ksilol	212	7 200	metanol–suv
	265	300	
para-Ksilol	216	7 500	geksan
	269	750	
Uchlamchi-butilbenzol	208	7 800	etanol
	257	170	
1,2,3-trimetilbenzol	214	9 000	izooktan
	265	165	
1,3,5-trimetilbenzol	215	7 500	etanol
	265	220	
Pentametilbenzol	270	270	geptan

Geksametilbenzol	215	12 000	dipropil efiri
	278	260	
Fenol	211	6 200	suv
	270	1 450	
para-xlorfenol	225	9 000	0,1 M HCl
Tiofenol	236	10 000	geksan
	269	700	
Feniletilsulfid	205	12 500	etanol
	255	8 600	
	208	1000	
Ftorbenzol	204	6 200	etanol
	254	900	
Anilin	230	8 600	suv
	280	1 430	
Piridin	195	7 500	geksan
	251	2 000	
	270	450	


Elektron o'tishlardagi eng kichik energiya $n \rightarrow \pi^*$ o'nishga ($N \rightarrow Q$) mos keladi. Bu o'tishga mos keluvchi yutilish kuchsiz bo'lib, ($\xi \sim 20$) $\lambda = 270\text{--}300$ nm sohasiga to'g'ri keladi, hamda alifatik aldegid va ketonlar ucun xos kattalikdir. Ularning bir-biridan tuzilishidagi farqiga qarab ($\text{CH}_3\text{--COH}$, $\text{CH}_3\text{--CO--CH}_3$, $\text{CH}_3\text{--COCl}$)yoki elektromanfiyligi ortib borish tartibida yutilishning to'lqin uzunligi kamayib boradi (spektrdagи ko'k rang tomonga *gipsoxrom* siljish): $\lambda_{\text{maks}} = 293,4; 279,0; 235,0$ nm va intensivligi ortadi – *giperxrom* effekt: $\xi_{\text{maks}} = 11,8; 14,8; 53,0$. Tolqin uzunligi oshgan tomonga o'zgarish – *batoxrom* (qizil rang sohasi) effekt, bunda intensivlik kamayib, *gipoxrom* effekt qayd etiladi.

UB spektrlari olishda erituvchining ta'sirini atsetonning turli erituvchilardagi eritmasi misolida ko'rib chiqamiz: atsetonning geksandagi eritmasi – $\lambda_{\text{maks}} = 279$; xloroformda – 277; etanolda – 272; metanolda – 270; suvda – 264,5 nm qiymatga tengdir, ya'ni erituvchi ning qutbliligi ortib borishi bilan gipsoxrom siljish kuzatiladi. Benzol va piridinning UB spektrlari bir-biridan farq qilishi lozimdek tuyulsa ham, ularning B-yutilishi (~250 nm) bir-biriga juda yaqin va o'xshaydi (2.8-rasm).

UB spektroskopiyada faqat elektron o'tishlar kuzatilmasdan, balki molekulaning tebranma holati ham o'zgaradi, ya'ni elektron-tebranma o'zgarishlar kuzatiladi va bu hodisa *vibron o'tishlar* deb nom olgan.

Elektron spektroskopiyasida *zaryad ko'chgan*(ZK) o'tishlar deb nom olgan alohida spektrlar ham bor. Bunda elektron molekulaning bir qismidagi lokal orbitaldan ikkinchi qismidagi boshqa lokal orbitalga ko'chadi. Natijada elektron ko'chgan orbital – donor, elektron qabul qilgan orbital – akseptor deyiladi. Elektron ko'chishlar *ichki molekulyar zaryad ko'chishi* (IMZK) va *komplekslardagi zaryad ko'chishi* (KZK) bilan amalgashadigan o'tishlar bo'lishi mumkin. IMZK elektron ko'chishlar quyidagi molekulyar ionlarda kuzatiladi: ClO_4^{2-} , SO_4^{-} , MnO_4^- , CrO_4^{2-} . Bu jarayonda kislороднинг ajratuvchi orbitalidagi elektron (yoki bog'lovchi π -orbital elektroni) Mn^{+7} yoki Cr^{+6} ioni orbitaliga ko'chib, uni qaytaradi va qo'zg'algan elektron holatga o'tkazadi.

Komplekslarda zaryad ko'chishi bir yaxlit molekula hosil qiluvchi zarrachalar orasida elektron ko'chishi sodir bo'ladi. Masalan, o'zaro ta'sirlashuvchi molekulalarning biridagi elektron ikkinchi molekula orbitaliga ko'chadi:



KZK o'tishlari bundan tashqari oraliq metallarning ML_6 (M – metall, L – ligand) tipidagi oktaedrik kompleks birikmalarida ko'p kuzatiladi. Bu jarayonda ko'pincha ligandning to'lgan σ -yoki π -orbitalining elektroni metallning bo'sh d-orbitaliga ko'chadi ($\text{L} \rightarrow \text{M}$ ko'chish), bu holat yuqori chastotali KZK deyiladi. Ba'zida kompleks birikmaning markaziy ionidan ligandga ham elektron ko'chadi ($\text{M} \rightarrow \text{L}$ ko'chish), eng quyi chastotali ko'chishlar ko'rish soyasiga mos keladi va ularning intensivligi juda past bo'ladi. Ular odatda bog'lovchi va ajratuvchi d-orbitallar orasida sodir bo'lib, unga d-d-o'tish deb aytildi.

2.4. Elektron spektrlarning qo'llanishi

Odatdag'i darslik va ma'lumotnomalarda elektron spektrlarining xarakterli yutilish chiziqlari 180–800 nm sohalarida qayd qilinadi. Bu sohada siz o'rganayotgan moddaning yutilish maksimumi bo'lmasa, ular optik shaffof deyiladi. Ammo uzoq UB sohasida ular o'z yutilish spektriga ega bo'lishi mumkin. Bu turkummoddalarga alkanlar, siklanlar va boshqa ko'pgina to'yingan organik moddalar misol bo'ladi. To'yingan organik birikmalarining tarkibida turli geteroatomlarning (O, N, S, galogenlar) bo'lishi kuchsiz va o'rtacha intensivlikdagi yutilish chiziqlarini ($n \rightarrow \sigma^*$) ko'rsatadi.


Oddiy izolirlangan xromoforlar uzoq UB sohasida o'z maksimumlariga ega. Turli organik birikmalar vakillarining UB yutilish spektrleri haqidagi ma'lumotlar 2.3-jadvalda keltirilgan. $\pi-\pi$ tutash tizim hosil qilgan birikmalarda elektron spektrlar effekti kuchayadi. Tutash tizim hosil qiluvchi qo'shbog'lar qancha uzun bo'lsa, yutilish (λ_{maks}) va intensivlik (ξ_{maks}) shuncha ortib boradi. Tutash tizim hosil qiluvchi qo'shbog'lar sonining ortishi yutilish maksimumi holatiga ta'siri 2.9-rasinda difenil ($C_6H_5-C_6H_5$) molekulasidan difenilpoliyenga ($C_6H_5-(CH=CH)_n-C_6H_5$) o'tish misolida ko'rsatilgan. Elementlar davriy sistemasining dastlabki kichik davr elementlari noorganik birikmalarining eritmasi rangsiz, ular UB va ko'rish sohasida spektr bermaydi.

2.3-jadval

Ayrim izolirlangan xromoforlarning UB spektrdag'i yutilishlari

Xromofor guruh	λ_{maks} , nm	ξ_{maks}	Elektron o'tishlar	Erituvchi
----------------	-----------------------	--------------	--------------------	-----------

Etilen, $\text{CH}_2=\text{CH}_2$	165	15 000	$\pi \rightarrow \pi^*$	Gaz
R-CH=CH ₂	162	10 000		Geptan
R-CH=CH-R trans	173	11 000		Geksan
R-CH=CH-R sis	177	10 000		Geksan
Atsetilen CH≡CH	175	11 000		Geksan
CH ₃ -C≡CH	173	9 000	$\pi \rightarrow \pi^*$	Geksan
Atseton $(\text{CH}_3)_2\text{C}=\text{O}$	187	10 000	$\pi \rightarrow \pi^*$	Geksan
	190	1 000	$n \rightarrow \pi^*$	-Geksan
	280	16	$n \rightarrow \pi^*$	
CH ₃ -C=O	290		$n \rightarrow \pi^*$	Geptan
Karboksil CH ₃ -COOH	204	5 000	$n \rightarrow \pi^*$	Suv
Azometin >C=N-	190		$\pi \rightarrow \pi^*$	Suv
(asetoksim)				
Nitril -C≡N	<160			
(atsetonitril)				
Azo -N=N- (azometan)	347	4,5	$n \rightarrow \pi^*$	Dioksan
Nitrozo -N=O	300	100		Efir
(nitrozobutan)				
Nitrat -ONO ₂	270	12	$n \rightarrow \pi^*$	Dioksan
(etilnitrat)				
Nitro-NO ₂ (nitrometan)	271	1120	$\pi \rightarrow \pi^*$	Spirt
	210	5 000		Geksan
Nitrit -ONO (amilnitrit)	218,5	(keng)	$n \rightarrow \pi^*$	Petroley efir
	346,5	1 500		
Sulfoksid >S=O	210			Spirt
(siklogeksilmetsulfoksid)				
Sulfonlar >SO ₂	< 180	-		-



2.9-rasm. Difenilpoliyen tarkibidagi qo'shbog'larning takroriligi (n) ga qarab tutash tizim yutilish chizig'ning o'miga ta'siri

Ayrim elementlarning yuqori oksidlanish darajasidagi birikmalari kuchli rang beruvchi xususiyatga ega (CrO_4^{2-} , $\text{Cr}_2\text{O}_7^{2-}$). Noorganik birikmalardan ayrim anionli tuzlarining suvda

eritmalar rangli bo‘ladi. Ular haqidagi ma’lumotlar 2.4-jadvalda keltirilgan.

2.4-jadval

Ayrim noorganik anionlarning suvda va spirtdagi eritmalarining yutilish chiziqlari

Anion	λ_{maks}	$\varepsilon_{\text{maks}}$	Anion	λ_{maks}	$\varepsilon_{\text{maks}}$
Cl^-	1810	10 000	$\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$	2200	4 000
Br^-	1995	11 000			
	1900	12 000	NO_2^-	3546	23
I^-	2260	12 600		2100	5 380
	1940	12 600		2870	9
OH^-	1870	5 000	NO_3^-	3025	7
SH^-	2300	8 000		1936	8 800

Og‘ir elementlar akvakomplekslarining rangli bo‘lishi d-orbitaldagi elektronlar soni bilan belgilanadi. d^{10} ionlari (rux, kadmiy) hosilalari rangsiz, agar d-orbital qisman to‘lgan bo‘lsa, ular rangli bo‘ladi (2.5-jadval). Bu ionlarning kompleks birikinalari rangini markaziy ion d-orbitallarining parchalanishi belgilaydi. Markaziy ionning ligandlar qurshovidagi d-orbitallarining parchalanishi va ayniya holatlar orasidagi farq ularning yutilish spektrini va rangini belgilaydi. Masalan, Cu^{2+} ioni uchun besh karra ayniya holatdagi 3d-orbitalining energetik darajasi ligand maydoni ta’sirida hosil qilgan konfiguratsiyasiga qarab turlicha parchalanadi va har xil spektrlar hosil qiladi (2.5-jadval). Masalan, tetraedrik, kubsimon, va oktaedrik qurshovli kompleks birikinalardan ikkita, tetragonal (tekis-kvadrat va kvadrat-piramidal) poliedrli tizimlardan to‘rtta parchalanish spektrlari kuzatiladi. Natijada birinchi holdagi (yuqori simmetriyalı qurshov) spektrda bitta yutilish chizig‘i, ikkinchisida – uchta yutilish chizig‘i qayd etiladi. Bundan ko‘rinadiki, yutilish maksimumlari soniga qarab ham solvatlangan ionning tuzilishi haqida xulosa chiqarish mumkin.


Ayrim elementlar akvakationlarining rangi

Kation	d-elektronlar soni	Toq elektronlar soni	Rang
Mn ²⁺	5	2	Kuchsiz-pushti
Co ²⁺	7	3	Pushti
Ni ²⁺	8	2	Yashil
Cu ²⁺	9	1	Ko'k
Zn ²⁺	10	-	Rangsiz
Cd ²⁺	10	-	Rangsiz

Nazariy hisoblab topilgan yutilish chiziqlarining to'lqin uzunliklari qiymati va eksperimental olingan spektr kattaliklari bilan solishtirish orqali yanada mukammalroq xulosalar chiqarishga imkoniyat yaratildi. Molekulyar ionlar zaryad ko'chgan komplekslar hosil qilishga moyil bo'ladi. Assotsiatlar entalpiyasi qiymatini aniqlash bilan to'yinmagan va aromatik molekulaning donorlik qobiliyati haqida xulosa chiqarish mumkin. Masalan, karbonil va sulfoksid guruhlarining donorlik xususiyatlari solishtirilganda shu narsa aniqlandiki, C=O qo'shbog'ining donorlik xossasi oltingugurt-uglerodning π -bog'iga nisbatan kuchliroq ekan.

2.5. Asosiy xromofor guruhlar


Kuzatiladigan moddaning UB spektridagi 200-800 nm soha oralig'ida yutilish maksimumlari qayd qiliunmasa, bu modda iarkibida oralatma qo'shbog' sistemaları, polien sistemalar, atomatik halqa, karbonil guruhlari yo'qligining ishonchli isbotidir.




200 nm dan yuqorida $\lambda_{\max} = 258 \text{ nm}$ yutilish maksimumi yo'q ($\xi = 7200$)

Bu xil belgilar modda tuzilishini osonlik bilan aniqlashga imkoniyat yaratadi. Oralatma diyen sistemalarining UB-

spektrlarida ruxsat etilgan yutilish ($\pi \rightarrow \pi^*$) maksimumlari 210-270 nm oralig'ida kuzatiladi va ularning tuzilishi bilan belgilanadi, ammo erituvchining tabiatini spektrga ta'sir etmaydi. Oralatma diyen sistemalaridagi ($\pi \rightarrow \pi^*$) yutilish maksimumlariga ularning konformatsion holati katta ta'sir etadi. Ma'lumki, ochiq zanjirli diyenlar ko'pincha transoid shakllarda barqarordir va energetik jihatdan qulaydir. Yopiq zanjirli birikmalarda diyen sistemalarining konformatsion tuzilishlari odatda stabillashgan bo'lib, ularning tuzilishi va taysiflari quvidagicha (2.6-jadval):



(1)




(2)




(3)




(4)



(5)



(6)



(7)



(8)

2.6-jadvaldan ko'rinib turibdiki, ichki halqali diyenlardan transoid sistemali diyenlarga o'tish jarayonida yutilish maksimumlarining 15-20 nm ga siljishi va molyar yutilish koeffitsiyenti $\xi = 10000-20000$ chegarasida oshadi. Oddiy hollarda diyenlarning izomerlarini bir-biridan UB-spektrlar yordamida parametrlarning o'rtacha qiymatlaridan foydalanib hisoblash mumkin: $\lambda_{\text{max}} = \pm 18$ nm va $\xi \approx \pm 12000$. Oralatma diyen sistemalarining UB-spektrlaridagi yutilish maksimumlariga alkil o'rnbosarlari ma'lum ta'sir ko'rsatadi, bu ta'sirni ularning kuchli induktiv effekti bilan izohlash mumkin. Bu ta'sirlarning kattaligi Vudvord qoidasiga ko'ra aniqlanadi: qo'shimcha alkil guruuhlar oralatma qo'shbog' sistemasidan uzoqda joylashgan bo'lsa, aynan uning ta'siri kuchli emas; diyen sistemalarining 1- va 4-holatdagisi uglerod atomlari bilan birikkan alkil o'rnbosarlari yutilish

maksimumlarini 7-10 nm gacha, 2- va 3-holatdagи o'rinbosarlar – 3-4 nm gacha batoxrom siljitadi.

2.6-jadval

Ochiq va yopiq zanjirli birikmalarda diyen sistemalarining konformatsion tuzilishlari


T/r	Xromofor guruhlar	Konformatsiya	λ_{\max} , nm	
1	trans-CH ₂ =CH-CH=CH ₂	T	218	23 000
2	CH ₃ -CH ₂ =CH-CH=CH ₂		223	25 000
3	3-metilensiklopenten	BT	234	14 000
4	Siklopentadiyen-1,3	BSI	240	3 400
5	Siklogeksadiyen-1,3	BSI	258	7 200
6	1,2-dimetilensiklopentan	BSE	243	12 000
7	3-metilensikloksen	BT	231	19 800
8	1,2-dimetilensikloksan	BSE	243	12 000
9	Sikloheptadiyen-1,3	BSI	248	76 000
Yenallar				
10	H ₂ C=CH-CHO		203	12 000
11	H ₂ C=C(CH ₃)-CHO		214	11 700
12	(CH ₃) ₂ C=C(CH ₃)-CHO		240	13 500
Yenonlar				
13	H ₂ C=CH-CO-CH ₃		203	9 600
14	(CH ₃) ₂ C=C-CHCO-CH ₃		231	11 520
To'yinmagan karbon kislotalar				
15	H ₂ C=CH-COOH		200	10 000
16	(CH ₃) ₂ C=CH-COOH		216	12 000

Izoh: T - transoid, BT - biriktirilgan transoid, BSI - biriktirilgan sisoid halqa ichkarisida, BSE - biriktirilgan sisoid halqa tashqarisida (ekzosiklik).

Diyen sistemalariga 5- va 6-a'zoli halqlar birikkan bo'lsa, ular ikki alkil o'rinbosarlari kabi hisoblanadi. Amalda Vudvord qoidasi alitsiklik diyen sistemalarga qaraganda halqli sistemalar

uchun aniqroq bajariladi, bu o'zgarishlarning asosiy sababi ochiq zanjirli diyen uglevodorod molekulasi tuzilishining koplanarligi buzilishi bilan tushuntirish mumkin.

Poliyen tizimi bor organik modda molekulasi tarkibidagi oralatma qo'shbog' sistemasiga yangi qo'shbog'ning qo'shilishi UB-spektridagi yutilish maksimumini kuchli batoxrom siljishiga olib keladi:




$$\lambda_{\max} = 217 \text{ nm}$$

$$\xi = 21\,000$$



$$\lambda_{\max} = 267 \text{ nm}$$

$$\xi = 34\,600$$



$$\lambda_{\max} = 307 \text{ nm}$$

$$\xi = 58\,600$$

Oralatma qo'shbog'lar sistemasida ularning soni oshib ketsa, UB-spektrdagi yutilish maksimumi ko'rish sohasida qayd qilinadi va bunday moddalar rangli hisoblanadi.

Karbonil guruhi tutgan to'yingan aldegid va ketonlar UB-spektrlarida yutilish maksimumi $\lambda_{\max} = 275\text{-}290$ nm sohasiga to'gri kelib, elektronlarning $n \rightarrow \pi^*$ o'tishiga mos keladi ($\pi \rightarrow \pi^*$ elektron ko'chishiga mos keluvchi intensiv ruxsat etilgan yutilish maksimumi spektroskopning o'lchov diapazoni chegarasidan chetga chiqqib ketadi). Bu elektron o'tishi ta'qiqlangan ko'chish hisoblangani uchun uning maksimumi juda kichik qiymatga ega. Shuning uchun karbonil guruhi tutgan to'yingan aldegid va ketonlarni identifikatsiyalashda ma'lum qiyinchiliklar tug'iladi.


α, β -to'yinmagan aldegid va ketonlarni UB spektrlarida karbonil guruhining intensivligi katta $\pi \rightarrow \pi^*$ o'tishlar va intensivligi juda kichik bo'lgan $n \rightarrow \pi^*$ taqiqlangan o'tishlari kuzatiladi. To'yingan aldegid va ketonlarning spektrlariga nisbatan bu yutilish chizig'i to'lqin uzunligi katta tomoniga kuchli siljiydi. α , β -to'yinmagan aldegid va ketonlarning qo'shbog'iga nisbatan har bir α - va β -holatiga nisbatan o'rinosarlarning kiritilishi asosiy yutilish ($\pi \rightarrow \pi^*$) maksimumlarini ≈ 10 nm. gacha batoxrom siljishiga olib keladi. Bu kattalik oddiy hollarda quyidagi asosiy xromoforlar (I)–(IV) uchun o'rinosarning

kiritilishi natijasida har bir yutilish maksimumlarining siljishlarini hisoblab topish uchun imkoniyat beradi:


$\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CHO}$ (I)	$\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CO}-\text{CH}_3$ (II)		(III)		(IV)
$\lambda_{\text{maks}} = 203 \text{ nm}$ $\xi \approx 12\,000$	$\lambda_{\text{maks}} = 203 \text{ nm}$ $\xi \approx 9\,600$		$\lambda_{\text{maks}} = 217 \text{ nm}$ $\xi = 11\,600$		$\lambda_{\text{maks}} = 225 \text{ nm}$ $\xi = 13\,800$

Bu qoida α , β -to'yinmagan aldegid va ketonlarning faqat trans-izomerlari spektrlariga xos bo'lib, sis-izomerlari uchun qoidadan ancha chetlanishlar kuzatiladi.

α , β -to'yinmagan karbon kislotalar. To'yingan karbon kislotalar tarkibidagi karbonil guruhi uchun $n \rightarrow \pi^*$ o'tishlarining yutilishi kichik intensivlikka ega bo'lib ≈ 200 nm sohasida kuzatiladi va amalda bu spektr yordamida ularning tuzilishini aniqlash imkoniyati bo'lmaydi. Masalan sirka kislotasining UB spektrida:



α, β -to'yinmagan karbon kislotalar, masalan akril kislotasining UB-spektridagi yutilish maksimumi ($\pi \rightarrow \pi^*$) deyarli shu sohada qayd etiladi, ammo uning intensivligi yuqori bo'ladi:



Bu kislotalarning tarkibidagi α -holatiga o'rinnbosarlar kiritilsa, yutilish maksimumi taximinan ≈ 10 nm ga batoxrom siljiydi, β -holatidagi o'rinnbosar – ≈ 5 nm ga batoxrom siljitadi. Akril kislotasi uchun olingan yutilish spektri kattaliklaridan foydalanib, boshqa to'yinmagan karbon kislotalari uchun spektr parametrlarini hisoblash mumkin hamda ularning geometrik tuzilishidagi farq uncha katta ta'sir ko'rsatinaydi. α , β -to'yinmagan karbon kislotalarning efirlari, amidlari, xlorangidrid va angidridlarining spektrlari hain amalda to'yinmagan karbon kislotalarning spektrlaridan deyarli farq qilmaydi.

Nitrobirikmalar uchun UB-spektrlarining intensiv yutilish ($\pi \rightarrow \pi^*$) maksimumi sohasi ($\lambda_{\text{maks}} \approx 200$ nm, $\xi \approx 5\,000$) bo'lib, undan tashqari intensivligi kichik bo'lgan ta'qiqlangan ($n \rightarrow \pi^*$)

o'tish esa $\lambda_{\text{maks}} \approx 276$ - 380 nm sohasida ($\xi \approx 15$ - 35) kuzatiladi. O'rribosarlarning tabiatini spektr ko'rinishiga deyarli ta'sir etmaydi. Erituvchining qutbliligi oshgan sari $n \rightarrow \pi^*$ yutilish chizig'i quyi chastotali sohaga siljiydi. Shuning uchun nitrobirkmlarning UB-spektrlaridan ko'p ma'lumot olish imkoniyati yo'q.

Besh a'zoli geterohalqali birikmalar benzol kabi UB-spektrida ikki yutilish chizig'ini namoyon qiladi: ularning biri qisqa to'lqinli sohada intensiv va to'lqin uzunligi katta sohada kichik intensivlikdagi yutilish chiziqlariga ega boladi.


Fizik-kimyoviy tadqiqotlar jarayonida UB-spektroskopiyasidan turli maqsadlarda foydalanish mumkin:

1. Ma'lum va noma'lum moddalarning UB-spektrini bir xil sharoitda olib, ularni o'zaro bir-biriga taqqoslash yo'li bilan o'xshash va farqlarini aniqlash.

2. Molekulada vodorod bog'i mavjudligi batoxrom siljish borligi bilan aniqlanadi.

3. Aromatik uglevodorodlar hosilalarining UB-spektrlari yordamida benzol halqasidagi o'rribosarlar o'mini aniqlash mumkin.

4. *Sis-trans* izomerlarni farq qilishda UB-spektrlaridan unumli foydalanish imkoniyati katta. *Trans*-izomerlar (2.9-rasm.) odatda *sis*-izomerlarga nisbatan nurni ko'proq yutadi, natijada yutilish maksimum-lari to'lqin uzunligi katta sohaga siljiydi.



2.9-rasm. *Sis*- (1) va *trans*- (2) stilben(1,2-difeniletilen)ning UB-spektri.

2.6. Elektron spektroskopiyasida ishlataladigan asosiy tusbunchalar

Yutilish chiziqlari – bir yoki bir necha aniqlanadigan maksimum-lar tutgan spektr sohasi.

Elektron o'tishlar – elektronning bir molekulyar orbitaldan boshqasiga o'tish hodisasi.

Nozik tebranish strukturasi (nozik struktura) – ayni bir elektron holatning turli elektron yutilish darajalariga o'tishi natijasida vujudga kelgan murakkab yutilish spektrlari.

Izobestik nuqta – bir-biriga aylanishi mumkin bo'lgan birikmalarning bir xil ekstinksiya koeffitsiyentiga ega bo'lism hodisasi.

Xromofor – elektron yutilish spektrida tanlangan yorug'lik yutilishini ta'minlaydigan organik birikma tarkibidagi funksional guruh. Odatda bu guruhlar uchun $\pi \rightarrow \pi^*$ va $n \rightarrow \pi^*$ o'tishlar xarakterlidir: C=C, C≡C, C=O, N=N, N=O, NO₂, aromatik tizimlar va h.o.

Auksoxrom guruh – organik birikmalar tarkibidagi xromoforga biriktirilgan to'yingan va yutilish chizig'inining o'mi va intensivligini o'zgartiruvchi guruhlar tizimi: -Alk, -NR₂, OR, Hal.

Batoxrom (qizil) siljish – spektrdagji yutilish chizig'inining to'lqin uzunligi katta tomoniga siljishi (λ qiymati ortib boradi).

Gipsoxrom (ko'k) siljish – spektrdagji yutilish chizig'inining to'lqin uzunligi kichik tomoniga siljishi (λ qiymati kamayib boradi).


Giperxrom effekt – yutilish intensivligining ortishi.

Gipoxrom effekt – yutilish intensivligining kamayishi.

2.7. Vudvord-Fizer qoidasi

Ayrim xromofor guruhlar yutilish (λ_{max}) maksimumlarining ($\pi \rightarrow \pi^*$) o'mini aniqlashda Vudvord-Fizer qoidasining empirik qoidalardan foydalanib hisoblash mumkin. Bu qoidaga muvofiq murakkab molekulalarning har bir struktur fragmenti uchun

ortuvchi qiymat (inkrement)lar hisoblangan bo'lib, ular alohida jadval tarzida keltirilgan (2.7- va 2.8-jadvallar). Yutilish maksimumlari (λ_{maks}) qiymatlarini hisoblab topish uchun 2.7- va 2.8-jadvallardagi inkrement kattaliklarini asosiy xromofor guruhi qiymatlariga qo'shish bilan aniqlanadi. Vudvord-Fizer qoidasiga ko'ra berilgan modda uchun λ_{maks} qiymatlarini hisoblab topish va olingan natijalarni eksperimental aniqlangan kattaliklari bilan solishtirish namunalari 2.10- va 2.11-rasmlarda berilgan.




$$\lambda_{eksperiment} = 280 \text{ nm},$$

$$\lambda_{hisoblangan} = 253 \text{ nm } (\lambda_0, s-sis-) + 5 \text{ (CH}_3\text{)} + 3 \cdot 5(\text{halqa qoldig'i}) + 5 \text{ (C=C ekzobog')} = 278 \text{ nm}$$

2.10-rasm. Vudvord-Fizer qoisasiga ko'ra dienlar uchun yutilish chizig'i (λ_{maks}) qiymatini aniqlash; o'rinnbosarlar tutgan xromofor guruhi punktir chiziq bilan belgilangan.

2.7-jadval

Oralatma diyen qo'shbog'lar tutgan xromoforlardagi $\pi \rightarrow \pi^*$ o'tishlarga mos keluvchi yutilish liniyalarining (λ_{maks}) kattaligini hisoblab topish uchun Vudvord-Fizer qoidasi




$$\lambda_{maks} = \lambda_0 + \Sigma \lambda_i$$

s-sis-gomoanulyar diyen


$$\lambda_0 = 253 \text{ nm}$$

s-trans-geteroanulyar diyen

$$\lambda_0 = 214 \text{ nm}$$



Diyen tizimidagi o'rinnbosarlar	Inkrement λ_i , nm
Alkil guruhi yoki halqa qoldig'i	5
Cl	5
Br	5
O-alkil guruhi	6
S-alkil guruhi	30
NR ₂	60
Tutash tizimni uzaytiruvchi C=C bog'i	30
Ekzotsiklik C=C-bog'i	5



$$\lambda_{eksperiment} = 257 \text{ nm},$$


$$\lambda_{hisoblangan} = 215 \text{ nm} (\lambda_0, \text{atsikl. yenon}) + 10 (\alpha-\text{CH}_3) + 2 \cdot 12 (\beta-\text{halqa qoldig'i}) + 5 (\text{C}=\text{C ekzobog'}) = 254 \text{ nm}$$

2.11-rasm. Vudvord-Fizer qo'sasiga ko'ra yenonlar uchun yutilish chizig'i (λ_{maks}) qiymatini aniqlash; o'rinnbosarlar tutgan xromosor guruhi punktir chiziq bilan belgilangan.


2.8-jadval

Oralatma diyen qo'shbog'lar tutgan yenon xromoforlardagi $\pi \rightarrow \pi^*$ o'tishlarga mos keluvchi yutilish liniyalarining (λ_{maks}) kattaligini hisoblab topish uchun Vudvord-Fizer qoidasi

$$\lambda_{maks} = \lambda_0 + \sum \lambda_i$$



Atsiklik yenon




$$\lambda_0 = 215 \text{ nm}$$

Siklogeksenon



$$\lambda_0 = 215 \text{ nm}$$

Atsiklik yenal



$$\lambda_0 = 207 \text{ nm}$$

Siklopentenon



$$\lambda_0 = 202 \text{ nm}$$

Yenon tizimidagi o'rinnbosar	Inkrement λ , nm			
	α	β	γ	δ
Alkil guruhi yoki halqa qoldig'i	10	12	18	18
Cl	15	12		
Br	25	30		
O-alkil guruhi	35	30		
S-alkil guruhi		85		
NR ₂		89		
OH	35	30		50
Atsetoksi guruh -OC(=O)CH ₃	6	6	6	6
C=C ekzohalqali bog'i			5	
Gomoannulyar diyen fragmenti			39	
C=C (γ - δ) bog'i va keyingi tutash tizimni uzaytiruvchi zanjir			30	

Nazorat savollari

1.Elektron yutilish spektrlari molekulaning tuzilishini haqida nima ma'lumot beradi?

2.Qaysi paytda yutilish maksimumlari kuzatiladi?

3.UB-spektroskopiyasida elektronlarning bir energetik darajadan ikkinchisiga o'tishi necha xil bo'lishi mumkin?

4.Xromofor guruhlar deganda nimani tushunasiz?

5.Xromofor guruhlarning rangiga auksoxrom guruhlar qanday ta'sir etadi?

6.Batoxrom va gipsoxrom siljishlar nimani anglatadi?

7.Asosiy xromofor guruhlarga qanday misollar keltira olasiz?

8.Molekulalarning elektron holatini ifodalovchi asosiy xususiyatlarinin ayting.

9.UB spektrlari dagi $n \rightarrow \pi^*$ yutilish chizig'ini qanday belgilaridan aniqlaysiz?

10.UB-spektroskopiya yordamida sis-trans izomerlarning tuzilishidagi farqni aniqlash mumkinmi?

11.UB-spektroskopiyadan qanday maqsadlarda foydalanish mumkin?

Masala va mashqlar

1-masala.

Uch marta ketma-ket suyultirilgandan keyin $3,061 \cdot 10^{-4}$ g siklopentadiyen-1,3 ning 9,3721 g geksandagi ($d=0,6603$ g/ml) eritmasi $l = 1$ sm li kyuvetadagi eritmaning yutilish maksimumi $\lambda = 240$ nm. bo'lgandagi optik zichligi $D=1,1$ ga teng bo'lsa, shu eritmaning molyar yutilish koeffitsiyenti (ξ) qiymatini hisoblab toping.



2-masala.


Siklopentadiyen-1,3 ning geptandagi eritmasining yutilish maksimumi $\lambda=240$ nm bo'lgandagi optik zichligi $D = 0,83$ ga teng

bo'lsa, nurning yo'li $l = 1$ sm va $\xi = 3400$ l/(mol·sm) qiymatga ega. Shu eritma konsentratsiyasini aniqlang.




3-masala.

Jadvaldagи qiymatlardan foydalanib, 3-metilensiklogepten-1 uchun UB-spektr parametrlarini hisoblang.




4-masala.

2,3-dimetilbutadiyen-1,3 uchun λ_{maks} qiymatini toping.




5-masala.

1,3-dimetsiklogeksadiyen-1,3 uchun λ_{maks} qiymatini toping.



6-masala.

1,2,3-trimetilpentadiyen-1,3 uchun λ_{maks} qiymatini aniqlang.



7-masala.

4,5,6,7-tetragidro-1*H*-inden uchun λ_{maks} qiymatini aniqlang.




8-masala.

1,2,4,5,6-pentahydro-2H-inden uchun λ_{maks} qiymatini aniqlang.




9-masala.

2,5-dimethylcyclopenten-2-one uchun λ_{maks} qiymatini aniqlang.




10-masala.

Atsetilatsetonning geksandagi, etanoldagi va suvdagi eritmalari-ning molyar yutilish koeffitsienti 11 200, 9 500 va 1 900 bo'lsa, keto-enol tautomeryasining muvoznat holatini aniqlang.



Keto-shakl

$$\lambda_{\text{maks}} = 275 \text{ nm} (\xi = 100)$$



Yenol-shakl

$$\lambda_{\text{maks}} = 270 \text{ nm} (\xi = 12 000)$$

11-masala.

Konsentratsiyasi $2,442 \cdot 10^{-4}$ mol/l bo'lgan siklopentadiyenning geptandagi eritmasidan olingan UB spektrida $\lambda_{\text{max}} = 240$ nm, molyar yutilish koeffitsiyenti 3400 l/mol·sm, nur

yo'lining uzunligi 1 sm bo'lsa, eritmaning optik zichligini hisoblang.

12-masala.

Etilsiklopentadiyen namunasi ($\lambda_{\max}=247$ nm, $\epsilon=3400$) 60°C da 0,5; 1,0; 1,5; 2,5 va 4,0 soat davomida qizdirilganda geksandagi eritmasining UB spektrida molyar yutilish koeffitsiyenti 0,5 soatdan keyin-2800; 1,0 soatda-2400; 1,5-soatda-2050; 2,5 soatda-1650; 4,0 soatda-1100 ga teng bo'lishi aniqlandi. Qizdirish yana davom ettirilganda UB spektrda 247 nm sohada yutilish maksimumi kuzatilmadi. Etilsiklopentadiyenning 0,5; 1,5; 2,5 va 4 soatdan keyingi dimerlanish darajasini (%) aniqlang.

A d a b i y o t l a r

1. Юнусов Т.К., Зайнутдинов У.Н., Утениязов К.У., Салихов Ш.И. Кимёда физикавий усуллар.- Тошкент.- Университет.- 2007.- 336 б.
2. Вязмин С.Ю., Рябухин Д.С., Васильев А.В. Электронная спектроскопия органических соединений.- Санкт-Петербург.- 2011.- 43 с.
3. Пентин Ю.А., Курамшина Г.М. Основы молекулярной спектроскопии.- М.: Мир.- 2008.
4. Пентин Ю.А., Вильков Л.В. Физические методы исследования в химии.- М.: Мир.- 2003.- 683 с.
5. Преч Э., Бюльман Ф., Аффольтер К. Определение строения органических соединений.- М.: 2006.
6. Умаров Б.Б. Физикавий тадқиқот усуллари, маъruzalар конспекти.- БухДУ.- Зиё-Ризограф.- 2000.- 187 б.
7. Миронов В.А., Янковский С.А. Спектроскопия в органической химии.- М.: Химия.- 1985.- 232 с.
8. Драго Р. Физические методы в химии.- М.- Мир.- в 2х томах.- 1981.

III BOB. INFRAQIZIL (IQ-) SPEKTROSKOPIYASI

Reja:

- 3.1. IQ-spektroskopiyasining mohiyati.*
- 3.2. Tebranma spektrlarning klassik nazariyasi asoslari,*
- 3.3. Tebranma spektrlarning amaliy hisoblashlari,*
- 3.4. Ko'p atomli molekulada valent va deformatsion tebranishlar,*
- 3.5. Atomlar massasi va tebranish chastotalari orasidagi uzviy bog'liqlik,*
- 3.6. Molekuladagi simmetriya elementlari,*
- 3.7. Guruhli va xarakteristik chastotalar,*
- 3.8. Izotop effekti,*
- 3.9. Nazorat savollari,*
- 3.10. Adabiyotlar.*

Tayanch atamalar

To'lqin soni. Keltirilgan massa. Garinovik ossilyator. Dipol moment. Valent(simmetrik va antisimmetrik) tebranishlar. Deformatsion(qaychisimon, yelpig'ich-simon, aylanma, mayatniksimon) tebranishlar. O'xshashlik operatsiyasi. Simmetriya elementlari. Simmetriya markazi. Simmetriya o'qi. Simmetriya tekisligi.

3.1. IQ spektroskopiyasining mohiyati

Optik spektroskopiyaning ikkinchi eng ko'p tarqalgan turi infraqizil spektroskopiyadir. Bu usul moddalarning tuzilishini o'rGANISHda eng kerakli ma'lumotlarni beradigan fizik usullardan biri hisoblanadi. Molekulalarning tebranina spektrlari amalda infraqizil spektroskopiya usuli bilan aniqlanadi. Tebranma spektroskopiyaning yutug'i shundaki, amalda har qanday noorganik yoki organik moddalarni gaz, suyuq va qattiq agregat holatida tadqiqot qilish mumkin.

Moddaga ma'lum kvant energiyali ($h\nu$) nur ta'sir etilganda uning ichki energiyasi, aylanma, tebranma harakatlari va valent elektronlarining energiyalari ortadi. Aylanma va tebranma harakatlar molekulaning normal harakati bo'lib, nur energiyasi uning kinetik energiyasini oshiradi. Faqat nurlar $\Delta E = h\nu$ energiyasi elektronlar kvant pog'onalariga o'tish energiyasiga (ΔE) mos kelsagina, energiya yutiladi va spektr kuzatiladi. IQ-spektr sohasi ingliz olimi U. Gershel(1738-1822 y.y.) tomonidan 1800-yilda kashf qilingan bo'lsa ham, taxminan 100 yildan keyin amerikalik olim Koblens IQ-spektroskopiyaga bag'ishlangan monografiya chop etib, moddalarning tuzilishi va ularning spektrlari orasidagi bog'lanishni bayon qildi. Molekuladagi atomlarning tebranishi bilan bog'liq ilmiy ishlar olib borilgan bo'lsa ham, olingen natijalarning amalda qo'llanilishiga hech kim e'tibor bermagan edi. IQ-spektroskopiyani amalda qo'llanishi ikkinchi jahon urushi yillari davrida kimyo sanoati uchun har xil rezina mahsulotlari, neftdan olinadigan mahsulotlar sifatini tekshirishda, antibiotiklardan penitsillining tuzilishini aniqlashda keng qo'llanildi. Hozirgi davrda bu usul boshqa fizikaviy tadqiqot usullarining ajralmas bir qismi bo'lib qoldi.


Odatda molekula tebranishi uchun kvant energiyalari elektromagnit to'lqinlar tebranish chastotasi 10^{12} - 10^{14} Hz qiymatga ega bo'lib, $\lambda=1\text{-}15 \text{ mkm}$ yoki to'lqin soni $\nu=400\text{-}4000 \text{ sm}^{-1}$ oralig'ida bo'lgan nurlar energiyalariga mos tushadi.

IQ-spektrlarini olish shartli ravishda asosan uchga bo'linadi:

- yaqin IQ soha $4000\text{-}14300 \text{ sm}^{-1}$
- o'rta IQ soha $400\text{-}4000 \text{ sm}^{-1}$
- uzoq IQ soha $400\text{-}700 \text{ sm}^{-1}$

Bu sohalardagi nur to'lqin uzunliklarini to'la o'tkazish uchun spektroskoplarda uch xil monokristall linzalari ishlataladi (3.1-rasm):

$\text{LiF} - 2000\text{-}3800 \text{ sm}^{-1}$, $\text{NaCl} - 700\text{-}2000 \text{ sm}^{-1}$, $\text{KBr} - 400\text{-}700 \text{ sm}^{-1}$.



3.1-rasm. Zamonaliv IQ spektroskoplar.

IQ spektrlardan foydalanib quyidagilar aniqlanadi:

1.Har xil moddalarning IQ-spektrlarini solishtirib, ma'lum moddadan yangi olingan modda farqini va uning tozaligini aniqlash mumkin.

2.Izomerlarni bir-biridan ajratish mumkin: C_2H_6O formula bilan etil spirti va dimetil efirining ham tarkibini ifodalash mumkin. Suv molekulasi uchun $\nu_{(O-H)}=3200-3600\text{ sm}^{-1}$ oralig'ida qayd qilinsa, spirtlarda va fenollarda bu valent tebranish chastotasi ularning tuzilishiga ko'ra turlicha sohada namoyon bo'ladi:

- a) birlamchi spirtlarda – 3640 sm^{-1} ; b) ikkilamchi – 3630 sm^{-1}
 - c) uchlamchi – 3620 sm^{-1} ; d) fenollarda – 3610 sm^{-1} ;
 - e) polimerlarda – $3200-3400\text{ sm}^{-1}$.
- C_2H_5OH ning IQ-spektrida $\nu_{(O-H)}$ va $\nu_{(C-O)}$ kuzatiladi.
 - CH_3-O-CH_3 spektrida faqat $\nu_{(C-O)}$ kuzatiladi.

3.Noma'lum modda molekulasi qanday funksional guruhi borligini aniqlash mumkin. Misol uchun, amino guruhi (NH_2) yoki hidroksil guruhi (OH) tutgan birikmalarda vodorod atomlari biror radikal bilan almashtirilsa, tegishli $\nu_{(N-H)}$ yoki $\nu_{(O-H)}$ yo'qoladi.


Aldegidlar uchun $\nu_{(C=O)}=1705-1725\text{ sm}^{-1}$ sohada qayd etiladi. Agar aldegid tarkibidagi radikalning vodorod atomlaridan biri

elektrono-akseptor guruhlar (F , Cl , $\text{C}\equiv\text{N}$ va boshqa) bilan almashtirilsa, $\nu_{(\text{C}=\text{O})}$ valent tebranishlari yuqori chastotali sohaga ($1725-1745 \text{ sm}^{-1}$) siljiydi. Aksincha, elektron donor guruhlar, qo'shbog'li o'rribosar yoki aromatik halqa kiritilsa, tebranishlar quyi chastotali sohaga ($20-40 \text{ sm}^{-1}$) siljiydi.

4.Qaytar organik reaksiyalarni sifat va miqdoriy jihatdan aniqlash mumkin.

5.Molekulalarning konfiguratsiyasi va konformatsiyalari haqida tegishli xulosalarni chiqarish mumkin.

6.Bosqichli reaksiyalar yo'nalishini IQ-spektrlari yordamida kuzatish mumkin:



A-modda uchun: $\nu_{(\text{O}-\text{H})}=3360 \text{ sm}^{-1}$, $\nu_{(\text{C}-\text{Cl})}=663 \text{ sm}^{-1}$, $\nu_{(\text{O}-\text{C})}=1080 \text{ sm}^{-1}$,

B-modda uchun: $\nu_{(\text{C}-\text{Cl})}$ yo'qoladi, yangi $\nu_{(\text{C}\equiv\text{N})}=2252 \text{ sm}^{-1}$ paydo bo'ladi,

C-modda uchun: $\nu_{(\text{O}-\text{H})}$ yo'qoladi va yangi $\nu_{(\text{C}=\text{C})}=1620 \text{ sm}^{-1}$ paydo bo'ladi,

D-modda uchun: $\nu_{(\text{C}\equiv\text{N})}$ yo'qoladi va yangi $\nu_{(\text{C}=\text{O})}=1720 \text{ sm}^{-1}$ paydo bo'ladi.


IQ spektrlarning qo'llanish sohalari:

- moddalarni identifikatsiyalash;
- molekuladagi alohida kimyoiy bog'lar mavjudligini aniqlash;
- ichki va molekulalararo o'zaro ta'sirlarni aniqlash;
- izomeriya hodisalarining tadqiqoti;
- vodorod bog'lar mavjudligini aniqlash;
- zarracha o'chamlarini aniqlash;
- materialshunoslikda har qanday noorganik va organik moddalar va materiallarni aniqlash;
- organik sintezda reaksiya mexanizmlarini aniqlash va isbotlash;


- har qanday ishlab chiqarish jarayonlarining nazorati.

IQ spektroskopiyadan foydalanish yo'llari:

- tebranish chastotalarinin tahlili bilan noma'lum modda tuzilishini isbotlash;
- spektrda keragidan ortiqcha tebranish chastotalari mavjud bo'lgan hollarda modda tozaligi haqida xulosa berish;
- spektrdagи "barmoq izlari" sohasini ko'rib, alohida yangi moddalarni identifikatsiyalash (3.2, 3.3-rasmlar).



3.2. rasm. Toluolning IQ spektri.



3.3-rasm. Sirka kislota etil efririning IQ spektri.

3.2. Tebranma spektrlarning klassik nazariyasi asoslari

Kvant mexanikasi qonunlariga binoan molekulalardagi yadro skeletining tebranishini klassik nuqtayi nazardan yaxshi tahlil qilish mumkin. Hozirgi zamonda klassik sxemalar bilan tebranishlarning chastota va shakllarini hisoblashdan tashqari, tebranishlarga teskari bo'lgan kuch doimiyliklari (potensial energiya funksiyasi koeffitsiyenti)ni ham aniqlash mumkin.

Tebranma harakatlarning yechimini topish uchun fizik model sifatida nuqtaviy massalar tizimi asos qilib olingan. Ular bir-biri bilan mustahkam kuchlar bilan bog'langan bo'lib, nazariy fizika tenglamalarining xususiy hosilasi kabi (Lagranj va Gamilton shaklida) harakat tenglamalaridan foydalanadilar. Tenglamani tuzish uchun kinetik energiyani ifodalovchi (T) yoki potensial energiyani ifodalovchi (V) umumiy koordinatalar yoki ular bilan bog'liq impulslardan foydalanadilar. Material (fizikaviy) nuqtalar tiziimini olib qarasak, ularning ichki tebranishlar soni $3N-6$ (yoki $3N-5$) deb qabul qilingan edi (UB spektroskopiya mavzusiga qarang). ularning tabiiy koordinatalari $q_i (i=1,2,\dots,n)$ bo'lsa, bu koordinatalar uchun energiyalar

$$T = \frac{1}{2} \sum_{i,j=1}^n t_{ij} \cdot q_i \cdot q_j; \quad V = \frac{1}{2} \sum_{i,j=1}^n f_{ij} \cdot q_i \cdot q_j \quad (3.1)$$

bunda muvozanat nuqtadagi t_{ij} -massa funksiyasini ifodalovchi kinetik energiya koeffitsiyentlari (birinchi hosila); f_{ij} -potensial energiyaning ikkinchi hosilasi bo'lgan kuch doimiyliklari ($\frac{\partial^2 \theta}{\partial q_i \partial q_j}$).

Endi kinetik va potensial energiyaning ifodasini matritsa shaklida yozsak:

$$T = \frac{1}{2} \{q\} T \|q\|; \quad V = \frac{1}{2} \{q\} F \|q\| \quad (3.2)$$

Bu yerda $\{\}$ chiziqli matritsan, $\|\cdot\|$ ustunli matritsan ifodalaydi; $T = [t_{ij}]$ va $F = [f_{ij}]$ kinetik va potensial energiyalar koeffitsiyentlarining simmetrik matritsalari.

Endi (3.1) va (3.2) tenglamalardan Lagranj funksiyasi kelib chiqadi:

$$L = T - V$$

bu qiymatni Lagranj shaklidagi harakat tenglamasiga qo'yib chiqamiz:

$$\frac{d}{dt} \left(\frac{dL}{dq_i} - \frac{dL}{dq_i} \right) = 0$$

bu esa ikkinchi tartibli differensial tenglamalarning n -liniyali tizimiga olib keladi:

$$\sum_{j=1}^n (t_{ij}q_j + f_{ij}q_j) = 0$$

Garmonik tebranishlarning differensial tenglamasining ma'lum yechimini qabul qilsak:

$$q_j = l_j \cos \sqrt{\lambda} t + \delta$$

bu yerdagi (l_j -amplituda; $\sqrt{\lambda} = 2\pi\nu$; ν - chastota; t - vaqt; δ - faza) qiyatlardan integral shaklidagi tenglamalar tizimini hosil qilamiz:

$$\sum_{j=1}^n (f_{ij} - \lambda t_{ij})l_j = 0$$

yoki matritsali shakli:

$$(F - \lambda T) \|A\| = 0 \quad (3.3)$$

$\|A\|$ – q_j -koordinata o'zgarishlari amplitudasining ustunli matritsasi.

Bu chiziqli tenglamalar bir jinsli tizimining amplituda $\|A\|$ ga nisbatan noodatiy yechimini aniqlash uchun uning aniqlovchisi nolga intilsa yetarli bo'ladi, ya'ni:

$$|F - \lambda T| = 0 \quad (3.4)$$

Har qanday normal tebranishlarni ifodalash uchun yangi bиргина координата- (Q_k) ni kiritish yetarli bo'ladi; unda (3.4) tenglama quyidagi shaklga o'tadi:

$$F \|A\| = \lambda T \|A\|$$

Barcha $\|A\|^{(k)}$ ustunlardan ($k = 1, 2, \dots, n$) kvadrat matritsa (L) va barcha ildizlardan (λ_k) diagonal matritsanı (Λ) aniqlasak, to'la matritsali tenglama keşib chiqadi:

$$FL = TL\Lambda \quad (3.5)$$

Amplitudalar $\|A\|^{(k)}$ yig'indisini ko'paytiruvchisi yordamida normallashtirsak:

$$N_k = \sqrt{\frac{\lambda_k}{\{I\}^k F \|l\|^{(k)}}}$$

Bularidan keyin \tilde{L} -tebranishlar shaklining to'liq matritsasi tuzilgach, normal koordinatalar chiziqli o'zgarishining matritsasi quyidagi ko'rinishga aylanadi:

$$\|q\| = L\|Q\| \quad (3.6)$$

$\|\Lambda\|^{(k)}$ normallashtirishdan keyingi (3.5) tenglamani keltirilgan matritsa (\tilde{L})ga ko'paytirsak:

$$\tilde{L}FL = \tilde{L}TL\Lambda$$

Har ikki T va F matritsalar diagonallashadi:

$$\tilde{L}TL = E$$

(E – yagona matritsa) va $\tilde{L}FL = \Lambda$

Normal koordinatalardagi kinetik va potensial energiyaning ifodasi o'zgaradi:

$$T = \frac{1}{2} \sum_{k=1}^n Q_k^2; \quad V = \frac{1}{2} \sum_{k=1}^n \lambda_k Q_k^2$$

yoki matritsa holida yoziladi:

$$T = \frac{1}{2}\{Q\}E\|Q\| \text{ va } V = \frac{1}{2}\{Q\}\Lambda\|Q\|$$

Bundagi har bir Q_k -koordinatasi v_k -chastotali bir normal tebranishni ifodalaydi. Demak, normal koordinatalarni aniqlash uchun normallashtirilgan tebranishlar L shaklining matritsasini bilsak kifoya qiladi.

Shunday qilib, to'g'ri tebranish masalasi normal tebranishlar chastotasini hisoblash, ya'ni diagonal Λ matritsanı topish va L matritsanı aniqlash hamda normal tebranish shaklini topishdan iborat. Amalda esa koordinatadagi T-kinetik energiya matritsasini aniqlashdan ko'ra uning G-matritsa deyiladigan teskari T⁻¹ matritsasini topish qulaydir.

Natijada to'liq tebranish tenglamasi (3.5) quyidagi (3.7) ko'rinishga aylanadi:


$$GFL = L\Lambda \quad (3.7)$$

3.3. Tebranma spektrlarning amaliy hisoblashlari

Chastotalarni hisoblab topish va normal tebranish shakllarini aniqlash uchun ma'lum elektronografik yoki mikroto'lqinli qiyumlarning geometrik parametrlaridan foydalanish mumkin. Agar o'rganilayotgan modda namunasi shu usullar bilan analiy eksperimentlar yordamida tadqiqot qilinmagan bo'lsa, umumiyl qonuniyatlar yordamida yoki turdosh modda molekulasi kattaliklaridan foydalaniлади. Agar berilgan aniq tuzilishdagi modda bu usullar bilan amalda tadqiqot qilinmagan bo'lsa, uni o'rganishda umumiyl qonuniyatlardan foydalaniлади yoki unga yaqin molekula parametrlari yordamida hisoblanadi.

Molekula modelining geometrik konfiguratsiyalari kiritilgandan keyin shu molekulaning atomlari orasidagi kimyoviy bog'larni hisobga olib ichki tabiiy koordinatalari kiritiladi. Valent-sxemalarini aniqlash uchun quyidagi tabiiy koordinatalar ko'rinishidan foydalaniлади:

1. Kimyoviy bog'lar (bog' uzunliklari) bo'yicha atomlar orasidagi masofaning o'zgarishi $q_i = \Delta r_i$:




2. Valent burchaklarining o'zgarishi $q_i = \Delta \alpha_i$:




3. Ikki qirrali tekislik orasidagi burchaklarning o'zgarishi:


a) $q_i = \Delta \rho_i$



b) $q_i = \Delta \phi_i$



Tabiiy koordinatalar tizimining ko'rsatilgan ehtimolligi to'liq ko'rinishlari kiritilgach, ularning soni $N = 3n-6$ dan ortiq bo'lishi mumkin. Bu molekulaning hajinli strukturalari (tetraedr, oktaedr va hokazo)ning va halqali strukturalarining ayrim koordinatalari chiziqli bo'lib qoladi, masalan:



Yuqoridagi molekula uchun valent α_i burchaklarining o'zgarishi $\Delta \alpha_i$ yig'indisi nolga teng: $\Delta \alpha_1 + \Delta \alpha_2 + \Delta \alpha_3 = 0$.

Tebranma misolning yechimini aniqlash uchun keyingi vazifa kinetik energiya matritsasi shaklidagi yechimini topishdir. Bog'langan nuqtaviy massalar tizimining tebranishlar kinetik energiyasini aniqlash uchun dekart koordinatasidagi atomlar siljishining tezlik funksiyasi tarzida tasavvur etiladi:

$$2T = \sum_{k=1}^n m_k (x_k^2 + y_k^2 + z_k^2) \quad (3.8)$$

Muvozanat holatidan og'gan molekula atomlari koordinatasi quyidagicha ko'rsatiladi:

$$x_k = x_{0k} + \Delta x_k; \quad y_k = y_{0k} + \Delta y_k; \quad z_k = z_{0k} + \Delta z_k$$

0-indeksi muvozanatdagagi koordinata qiymati, Δ -siljishi. Bu holda k -atomni uchun uch o'lchovli vektor N_k o'z komponentlari: $\Delta x_k, \Delta y_k, \Delta z_k$ bilan quyidagicha yoziladi:

$$2T = \sum_{k=1}^n m_k r_k^2$$

yoki matritsali ko'rinishda: $2T = \{r\} M \|r\| \quad (3.9)$

Bu yerda M -kinetik energiyaning diagonal matritsasi, m_k esa uning elementlari.

Undan ko'ra *kinematik o'zaro ta'sirlashuv koeffitsiyenti* deb atalgan matritsa $G = [g_{ij}]$ elementlarini izlash ancha oson kechadi (3.10):

$$g_{ij} = \sum_{k=1}^N \epsilon_k (\mathbf{b}_{ik} \times \mathbf{b}_{jk}) \quad (3.10)$$

buning uchun matritsa elementlari bo'lgan uch o'lchamli dekart koordinatalar tizimidagi chiziqli B matritsa elementlari hisoblangan b_{ijk} vektorlar kerak bo'ladi:

$$\|q\| = B \|r\| \text{ yoki } \{q\} = \{r\} \bar{B} \quad (3.11)$$

Barcha ko'rinishdagi tabiiy koordinatalar asosiy b vektorlarining analitik qiymatlari molekula tebranma spektrlarini hisoblash va topishga bag'ishlangan maxsus adabiyotlarda keltirilgan. Bulardan tashqari barcha kinematik o'zaro ta'sirlar τ_{ij} ning analistik ifodalari (3.10) maxsus adabiyotlarda jadval sifatida rasmiylashtirilgan. (i,j) juftligi uchun tabiiy koordinata asosiy ko'rinishlari qiymatlardidan foydalanib har qaysi berilgan molekula uchun G matritsa tuzish va uning geometrik modelini yasash hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi (bugungi kunda bu ishni bajarishda EHMdan foydalanish odatiy hol bo'ldi). F matritsaning sonlar bilan ifodasini tuzish qiyinchiliklar bilan kechadi, ya'ni bular f_{ij} kuch doimiyliklari yoki dinamik o'zaro ta'sir koefitsiyentlari deb ham yuritiladi. Har holda ionlar bilan ifodalangan G va F matritsalarni tuzish (3.7) tenglama yechimini aniqlash bilan amalga oshiriladi, oqibatda bu hisoblashlar molekulaning normal tebranish chastotalari (ν_k) majmuasini beradi. Shu modda uchun eksperimental topilgan tebranish chastotalarini solishtirish bilan har qanday normal tebranishlar $\|\cdot\|^{(k)}$ uchun tabiiy koordinatalarning nisbiy amplitudasi o'zgarishlari, ya'ni tebranish shakli aniqlanadi.

Eksperimental kuzatilgan asosiy tebranish chastotalarini aniqlanishi ularni molekulaning ma'lum tebranish shakllarini topishga imkon yaratadi. Tebranma spektrlarning yakuniy interpretatsiyasi albatta IQ spektr eksperimental qiymatlaridan foydalanish va tahlil qilish bilangina amalga oshiriladi, bunda bir-biriga yaqin molekulalarning IQ ma'lumotlarini solishtirish ham lozim bo'ladi:

1. Molekula simmetriyasiga bog'liq holda olingan IQ spektrlaridagi yutilishlarning nisbiy intensivligi va tebranish faolligi;

- 2.Spektr liniyalarinig qutblanish darajalari;
- 3.Gazlarning IQ spektrida aylanma strukturalar konturlari tipidagi chiziqlarni;
- 4.Molekula turli izotop ko'rinishlari spektrlarining kattaliklari;
- 5.Guruh chastotalari ma'lumotlari va boshqalar.

Tebranish shakllarining aniqlanishi to'g'ri va teskari elektrooptik masalalar yechimini topish uchun ham kerak. Elektromagnetizmning klassik nazariyasiga ko'ra v-chastotali tizimning elektr dipol momenti o'zgarishi shu chastota (ω)ga xos nur yutilishlariga olib keladi. Molekulaning o'z dipol momenti (μ) yoki uning proyeksiyasi har qanday kichik tebranishlar ko'rinishida ham normal koordinatalar bo'yicha (Q_k) parchalangan darajalar shaklida aniqlanadi. Amallarni soddalashtirish oqibatida ω chastota orqali dipol momenti o'zgarishi haqida so'z yuritish mumkin, ya'ni muvozanat nuqtasidagi birinchi hosila $(\frac{\partial \mu}{\partial Q_k})_0$ qiymatlari yordamida shu chastotaga mos IQ spektridagi yutilish chiziqlari intensivligiga qarab molekulaning dipol momentlari o'zgarishi haqida fikr yuritish mumkin.

3.4. Ko'p atomli molekulalarning valent va deformatsion tebranishlari

Keyingi tadqiqotlardan ko'rindiki, eng oddiy molekulalar ham murakkab IQ spektrlarni ko'rsatadi. Kimyogarlar odatda noma'lum moddalarning spektrlarini ma'lum yaxshi o'rganilgan modda spektri bilan taqqoslash orqali aniqlaydilar. Barcha tebranish chastotalarining o'zaro mos kelishi – ularning yaqin tuzilishiga ega ekanligini isbotlaydi. IQ spektrlar yaxlit molekula tasnifi hisoblansa ham, ayrim atom guruhlari (funksional guruhlari) doimo molekulaning qolgan qismi tuzilishidan qat'iy nazar, bir xil chastota sohasida nur yutadi. Bu kattaliklar shu funksional guruhlarning xarakteristik tebranish chastotasi deb yuritiladi. Bu xildagi xarakteristik chastotalarni jadval sifatida

ifodalash qabul qilingan bo'lib, organik-kimyogar olimlar undan eng ko'p foydalanadilar. Demak, IQ spektr ayrim organik molekulalar tarkibidagi funksional guruhlarning tebranish chastotalarini solishtirish bilan aniqlanadi. Molekula tuzilishini to'liq isbotlash uchun olimlar IQ spektrlari natijalarini boshqa zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari orqali olingan ma'lumotlar bilan solishtirib va to'ldirib ishlaydilar. Buning uchun juda ko'p olimlar IQ spektr natijalarini umumlashtiruvchi jadvallardan iborat bibliografik to'plamlarni nashr etganlar.

Zamonaviy IQ spektroskop va spektrometrlarning chiziqli shkalasi sm^{-1} bilan ifodalanadi. Shuni qayd qilish lozimki, spektrdagi to'lqin sonini (ν) ko'pincha "chastota" deb atash qabul qilingan. Aslida to'lqin soni $1/\lambda$, chastota esa $\nu = C/\lambda$ bo'lsa ham qulaylik uchun mutaxassislar orasida to'lqin soni va chastotani umumlashtirib, bir xil atash qabul qilingan. Yutilish chiziqlarining intensivligi o'rganiladigan namunaga tushgan nuring o'tishi (T) yoki optik zichlik (A) orqali ifodalanadi. Nuring o'tishi (T) o'rganiladigan namunaga tushgan yorug'lik energiyasiga nisbati bo'lsa, optik zichlik o'tgan nur logarifmiga teskari qiymat hisoblanadi:

$$A = \lg \left(\frac{1}{T} \right) \quad (3.12)$$


Ko'p atomli molekuladagi tebranishlarning matematik modelini ikki katta guruhga ajratish mumkin:

1. *Valent (stretching – inglizcha cho'zilish, garmonik harakat) tebranishlar.* Molekuladagi normal tebranishlar natijasida kimyoviy bog'larning uzunligi o'zgaradi va bu xildagi tebranishlar ν (nyu) harfi bilan ifodalanadi. Ular simmetrik (ν_s) yoki antisimmetrik (ν_{as}) tebranish chastotalariga bo'linadi.

2. *Deformatsion (bending, burilish, bukilish) tebranishlar.* Modda molekulasidagi tebranishlar oqibatida valent bog'lari orasidagi burchaklar o'zgarganda deformatsion tebranishlar qayd etiladi. Molekuladagi deformatsion tebranishlar bir tekislikda sodir bo'lsa, δ (delta) va bu tebranishlar bir tekislik chegarasidan chiqsa, π (pi) harflari bilan belgilanadi.

Birinchi holda atomlar orasidagi masofa cho'zilishi yoki qisqarishi mumkin. Molekula atomlari orasidagi harakatlar bir xil bo'lsa, (bog' uzuligining qisqarishi yoki cho'zilishi) *simmetrik*, agar har xil bo'lsa, *antisimetrik* tebranishlar deyiladi.


Deformatsion tebranishlarda bir atom bilan bog'langan qo'shni 2-atom bog'lari orasidagi burchak o'zgaradi, yoki bir guruh atomlar molekulaning qolgan qismiga nisbatan harakatlanadi, amma bunda shu atomlar orasidagi masofa o'zgarmasdan qoladi. Bu xildagi tebranishlar aylanma (*twisting*-inglizcha burlish, o'ralish), mayatnikiimon (*rocking*-tebranish) va torsion (*torsion*-burama), qaychisimon (*seissoring*-qaychi bilan kesish), yelpig'ichsimon (*wassing*-yelpish) deyiladi. Molekuladagi atomlarning erkinlik darajasi ko'p bo'lib, ularning yig'indisi uning umumiy erkinlik darajalari yig'indisini ifodalaydi. Molekuluning har bir atomi dekart koordinatalari (x , y , z)ga ko'ra uchta erkinlik darajasiga ega. Shuning uchun " n " atomdan iborat molekuluning $3n$ ta erkinlik darajasi bor. Agar molekuladagi atomlar chiziqli tuzilishdan farq qilsa, uchta erkinlik darajasi uning aylanma harakatini belgilaydi va uchtasi chiziqli harakatdir. Bulardan qolgan $(3n-6)$ erkinlik darajasi tebranma harakatlatga to'g'ri keladi yoki ular asosiy tebranma harakatlar deyiladi. Suv molekulasida 3ta atom borligi uchun unda 3ta asosiy tebranish chastotasi bor $(3n-6=3 \cdot 3-6=3)$ ular 3.4 a-rasmga keltirilgan. Bunday molekulaga suvdan tashqari SO_2 molekulasini ham keltirish munkin. 3ta atomdan iborat chiziqli molekula uchun (masalan, CO_2) $(3n-5)$ ta erkinlik darajasi bor (3.4 b-rasm) .



$v_s(\Sigma_g^+)$ $\delta_d(\Pi_u)$ $v_{as}(\Sigma_u^+)$ **b)**

3.4-rasm. Burchakli (a) va chiziqli (b) uch atomli molekulaning normal tebranishlari.

Asosiy harakatlarda molekulaning og'irlik markazi holati o'zgarmaydi. Simmetrik tebranishlar (v_s) molekulaning dipol momentini o'zgartirmaydi, shuning uchun ular faol emas. Deformatsion tebranishlar (δ_d) o'zaro ekvivalent bo'ladi va ular bir xil chastotaga ega (3.4b-rasm). H_2O , SO_2 kabi burchakli tuzilishdagi molekulalarda simmetriya tekisliklaridan biri molekulaning tekisligi bilan mos tushadi, simmetriya o'qi esa valent burchagining (3.5-rasm) bissektrissasidan o'tadi. Rasmdan ko'rindiki, burchakli molekulalarda bitta ikkinchi tartibli (C_2) simmetriya o'qi bor, undagi bir-biri bilan to'g'ri burchak ostida kesishgan simmetriya tekisliklari (σ_1 va σ_2) C_{2v} simmetriya nuqtaviy guruhga kiradi (3.5-rasm). ω_1 va ω_3 chastotali tebranishlar (3.4-rasm) asosan bog'larning fazadagi yoki undan tashqari cho'zilishni ko'rsatadi va ularni bir-biridan farqlash uchun simmetrik (v_s) va antisimmetrik (v_{as}) valent tebranishlar deb ataladi. Ularning birinchisi (ω_1) A_1 tipidagi to'liq simmetriyaga ega, ikkinchisi (ω_3) - C_2 o'qi va molekula tekisligiga perpendikulyar bo'lgan simmetriya tekisligiga nisbatan antisimmetrik bo'ladi.



3.5-rasm. Uch atomli burchakli molekuladagi yadrolarning C_{2v} nuqtaviy guruh elementlarining asosiy simmetriya o'qiga nisbatan fazoviy joyiashuvni.

3.5. Atomlar massasi va tebranish chastotalari orasidagi uzviy bog'liqlik

Mexanika fani uchun yaratilgan Guk qonunidan foydalanim, garmonik valent tebranishlarni taxminan aniqlash mumkin:

$$\nu = \frac{1}{2\pi c} \sqrt{\frac{F}{m_z}} \text{ yoki } \nu = \frac{1}{2\pi c} \left(\frac{F}{\frac{M_x M_y}{M_x + M_y}} \right)^{\frac{1}{2}}$$

bu yerda ν – tebranish chastotasi (sm^{-1}), C – yorug'lik tezligi (sm/sec), F – bog'ning kuch doimiyligi (din/sm) yoki bosblang'ich holatga qaytaruvchi kuch, M_x va M_y – x va y atomlarining tegishli massasi (g). m_z – atomlarning keltirilgan massasi, ya'ni ayrim massalarning o'rtacha miqdori:

$$\frac{1}{m_z} = \frac{1}{m_1} + \frac{1}{m_2}; \quad m_z = \frac{m_1 \cdot m_2}{m_1 + m_2}$$

Ma'lumki, molekulada atomlar kimyoviy bog'lar orqali bog'langan va ularning harakatini prujina orqali bog'langan sharchalar harakatiga o'xshatish mumkin, ya'ni ularning harakati cho'ziluvchi va qisqaruvchi prujina harakatlarining yig'indisi deb qarash mumkin:



Agar molekuladagi atomlar soni n ta bo'lsa, uning asosiy tebranishlar soni $3n+6$ ga tengligi isbotlangan va yuqorida keltirilgan edi. Bu tebranishlardan $n-1$ soni valent tebranishlariga ya'ni molekuladagi atom yadrolarining bog' chiziqlari bo'ylab tebranishlariga (ν_{C-H} , ν_{C-O} , ν_{C-N} , $\nu_{C=C}$, $\nu_{C=O}$, $\nu_{C=N}$, $\nu_{C \equiv N}$ va hokazo) mos keladi.

Valent tebranishlari chastotasi atom massasi va bog' energiyasi bilan xarakterlanadi. Molekuladagi atomlarning massasi oshgan sari valent tebranish chasteotalari pasayadi:

$$\nu_{C-H} \approx 3000 - 2950 \text{ sm}^{-1} \quad \nu_{C-C} \approx 1000 \text{ sm}^{-1}$$

Bog' larning karraligi (ya'ni, mustahkamligi) ortgan sari ularning tebranish chastotasi ham ortadi:

$$\nu_{C-C} \approx 1000 \text{ sm}^{-1} \quad \nu_{C-N} \approx 1050 \text{ sm}^{-1} \quad \nu_{C-O} \approx 1100 \text{ sm}^{-1}$$

$$\nu_{C=C} \approx 1600 \text{ sm}^{-1} \quad \nu_{C=N} \approx 1650 \text{ sm}^{-1} \quad \nu_{C=O} \approx 1700 \text{ sm}^{-1}$$

$$\nu_{C=C} \approx 2200 \text{ sm}^{-1} \quad \nu_{C=N} \approx 2250 \text{ sm}^{-1}$$

Odatda, "v"-valent tebranishlarini ifodalaydi. IQ-spektrlarida valent tebranishlarini kuzatish uchun ikkita tanlash qoidasi bor:

1. IQ-yutilishi uchun molekula tebranish paytida o'zining dipol momentini o'zgartirishi lozim.

2. Nurning yutilishi paytida faqat $\Delta\nu = +1$ qiymatga teng energetik o'tishlar sodir bo'ladi.

Odatda IQ-spektrlarida yutiladigan nur intensivligi foizlarda ifodalanadi va quyidagi sifatlar bilan bir-biridan ajratiladi: a) juda kuchli (j.k.), b) kuchli (k), c) o'rtacha kuchli (o'r.), d) kuchsiz (ks.) (3.1-jadval).

Birlamchi amin va amidlarning IQ spektrlarida ikki xil $\nu_{(N-H)}$ valent tebranish chastotalari $\nu = 3497 - 3077 \text{ sm}^{-1}$ sohada kuzatiladi, $C=O$ uchun ham $\nu_{(C=O)} = 1818 - 1720 \text{ sm}^{-1}$, karbon kislota angidrid va imidlari uchun ikki xil, $\nu_{(C-H)} = 3000 - 2760 \text{ sm}^{-1}$ sohasida metilen va metil guruhlariga xos tebranishlar qayd etiladi. Spirtlarning IQ spektrlarida $\nu = 1212$ va $\sim 1000 \text{ sm}^{-1}$ sohada intensiv yutilish ($\nu_{(C-H)}$) chizig'i bor, masalan metanol uchun $\nu_{(C-O)} = 1034 \text{ sm}^{-1}$, etanol uchun $\nu_{(C-O)} = 1053 \text{ sm}^{-1}$. Ammo bu ko'rsatkich spirtlar uchun xarakteristik tebranish emas. Ular uchun muhim xarakteristik tebranishlar $\nu_{(O-H)}$ bo'lib, $3650 - 3584 \text{ sm}^{-1}$ oralig'ida kuzatiladi. Spirit va fenollarga xos IQ spektrlar 3.6 - 3.8 rasmlarda keltirilgan. Erkin gidroksil (OH) guruhi uchun xos bo'lgan $\nu_{(O-H)}$ gaz fazada yoki qutbsiz erituvchida kuchli juda suyultirilgan spirtlar uchun qayd etiladi. Molekulalararo vodorod bog'larning paydo bo'lishi spirit eritmasi konsentratsiyasi ortishi bilan kuzatiladi va IQ spektrining quyi chastotali sohasida qo'shimcha tebranishlar hosil qiladi.

3.1-jadval

Organik birikmalarning IQ spektridagi asosiy tebranish chastotalari

Chastota, sm^{-1}	Intensivlik	Tebranish tabiatи	Birikma turi
----------------------------	-------------	-------------------	--------------

3620-3600	kuchli, o'rt.	ν_{OH} (erkin)	Spirtlarning suyultirilgan eritmaları
3600-3500	kuchli, o'rt.	ν_{OH} (bog'l.)	Spirtlardagi IMVB
3500	kuchli, o'rt.	$\nu_{NH_2}^{as}$ (erkin)	Birlamchi aminlarning suyultirilgan eritmaları
3400-3350	o'rt.	ν_{NH} (erkin)	Ikkilamchi aminlar, N-almashingan amidlar
3550-3520	kuchli, o'rt.	ν_{OH} (erkin)	Kislotalarning suyultirilgan eritmaları
3500-3400	kuchli, o'rt.	ν_{NH_2} (erkin)	Birlamchi aminlar, amidlar
3400	kuchli	$\nu_{NH_2}^s$ (erkin)	Amidlarning suyultirilgan eritmaları
3330-3260	o'rt.	$\nu_{=CH}$	Monoalmashingan atsetilenlar
3300-3280	o'rt.	ν_{NH} (bog'l.)	N-monoalmashingan amidlar
3200-2500	o'rt.	ν_{OH} (bog'l.)	Kislota dimerlari
3100-3020	o'rt., kuchsiz	ν_{CH}	Arenlar
3100-3000	o'rt., kuchsiz	ν_{-CH}	Alkenlar
2962	kuchli	$\nu_{CH_3}^{as}$	Alkanlar
2930-2910	o'rt.	$\nu_{CH_3}^{as}$	Benzol halqasidagi CH_3
2926	kuchsiz	$\nu_{CH_3}^{as}$	Alkanlar


3.1-jadvalning davomi

2890	kuchsiz	ν_{C-H}	Alkanlar
2880-2860	o'rt., kuchsiz	$\nu_{CH_3}^s$	Alkanlar, benzol halqasidagi CH_3
2860-2850	o'rt.	$\nu_{CH_2}^s$	Alkanlar
2695-2830	kuchsiz	$\nu_{C(O)H}$	Aldeigidlar
2250-2100	kuchsiz	ν_{O-C}	Alkinlar
2240-2260	o'rt.	$\nu_{O=N}$	Nitritilar
1850-1650	juda kuchli	ν_{C-O}	Karbonil birikmalar, kislotalar va ularning hosilalari


1680-1600	o'rt., kuchsiz	$\nu_{C=C}$	Alkenlar
1600-1585, 1500-1400	kuchli, o'rt., kuchsiz	$\nu_{C-C(\text{aromatik})}$	Arenlar
1550-1580	o'rt., kuchsiz	$\nu_{NO_2}^{as}$	Nitrobirikmalar
1460	o'rt.	$\delta_{CH_3}^{as}$	Alkanlar
1450-1300	kuchsiz	δ_{CH}	Almashingan etilenlar
1410-1390	o'rt., kuchsiz	δ_{CH}	<i>Uchlamchi</i> -butil guruhi
1420-1330	o'rt.	δ_{OH}	Spirtlar, fenollar, kislotalar
1385-1370	o'rt.	$\delta_{CH_3}^s$	<i>Gem</i> -dimetil guruhi
1385-1375	o'rt.	$\delta_{CH_3}^s$	Metilbenzollar
1380-1370	kuchsiz	$\delta_{CH_3}^s$	Alkanlar
1370-1390	o'rt., kuchli	$\nu_{NO_2}^s$	Nitrobirikmalar
1280-1230	kuchsiz	ν_{C-N}	ArNHR
1280-1200	kuchli	ν_{COC}	Murakkab efirlar
1250-1180	o'rt.	ν_{C-N}	ArNR ₂ , (RCH ₂) ₃ N
1220-1125	kuchli	ν_{C-O}	Ikkilamchi, uchlamchi spirtlar
1200-1160, 1145-1105	kuchli, o'rt.	ν_{C-O}	Ketallar, atsetallar
1150-1050	kuchli	ν_{COC}^{as}	Efirlar
1085-1050	kuchli, o'rt.	ν_{C-O}	Spirtlar
970-950	o'rt.	δ_{CH}	<i>Trans</i> -alkenlar
900-650	kuchli	δ_{CH}	Arenlar

3.1-jadvalning davomi


850-550	o'rt.	ν_{C-Cl}	Alkilxloridlar
750-650	o'rt.	δ_{-CH}	<i>Sis</i> -diyenlar
700-500	o'rt.	ν_{C-Br}	Alkilbromidlar
600-500	o'rt.	ν_{C-I}	Alkilyodidlar



3.6-rasm. Benzil spiritining siyiq pylonkada olingan IQ spektri: molekulalararo vodorod bog'lanishli O-H guruhining valent tebranishi, 3300 cm^{-1} (A); C-H valent tebranishlari: aromatik, 2985 cm^{-1} ; metilen, 2857 cm^{-1} (B); obertonlar yoki tarkib chiziqlari, 2000 - 1667 cm^{-1} (C); aromatik halqanining C-C valent tebranishlari 1497 , 1453 cm^{-1} , CH₂-guruhining $\sim 1471\text{ cm}^{-1}$ dagi qaychisimon tebranishlari bilan qoplanadi (D); C-H guruhining tekis deformatsion tebranishi, 1208 cm^{-1} (E); birlamchi spirtning C-O valent tebranishi, 1017 cm^{-1} (F); aromatik halqanining C-H notejis deformatsion tebranishi, 735 cm^{-1} (G); halqanining C-C deformatsion tebranishi, 697 cm^{-1} (H).




3.7-rasm. Pentanol-2 ning IQ spektri: vodorod bog'lanishli O-H guruhining valent tebranishi, 3333 cm^{-1} (A); C-H valent tebranishi, 2907 cm^{-1} (B); C-H deformatsion tebranishlari, 1460 , 1361 cm^{-1} (C); C-O valent tebranishi 1101 cm^{-1} (D); CH₂-guruhining mayatniksimon tebranishi, 757 cm^{-1} (E).



3.8-rasm. Fenolning yupqa plynokada olingan IQ spektri: molekulalararo vodorod bog'igan O-H ning keng valent tebranishlari, 3333 cm^{-1} (A); aromatik C-H valent tebranishlari, 3045 cm^{-1} (B); obertonlar yoki tarkib chiziqlari, $2000-1667\text{ cm}^{-1}$ (C); halqaning C-C bog'i valent tebranishlari, 1580 , 1495 , 1468 cm^{-1} (D); O-H ning tekislikdagi deformatsion tebranishlari, 1395 cm^{-1} (E); C-O valent tebranishi, 1223 cm^{-1} (F); C-H ning notejis deformatsion tebranishlari, 805 , 745 cm^{-1} (G); C-C ning notejis deformatsion tebranishi, 685 cm^{-1} (H); O-H guruhining vodorod bog'li keng va notejis deformatsion tebranish chiziqlari, 650 cm^{-1} (I).



3.9-rasmdagi $\nu_{(O-H)}=3623\text{ cm}^{-1}$ erkin yutilish monomerga tegishli bo'lsa, yutilish chizig'inining kengayishi (b) ($\nu_{(O-H)}=3333\text{ cm}^{-1}$) molekulalararo vodorod bog' hisobidan polimer zanjiri hosil qilgan spirtga tegishli bo'ladi.




3.9-rasm. Siklogeksilkarbinolning CCl_4 eritasidagi IQ spektrining 1-erkin; 2-molekulalararo vodorod bog'igan O-H valent tebranish sohalari:

0,03 M – (a), 1,00 M – (b);

Ko'pincha spirt va fenollardagi OH-guruh proton akseptorlari bilan qo'shni bo'lganda ham quyi chastotali sohaga siljiydi. Masalan metilsaltsilat yoki *orto*-oksiatsetofenon kabi moddalar kuchli ichki molekulyar vodorod bog' hosil qiladi:



Kuchli IMVB hisobidan ularning IQ spektrida qayd qilingan intensiv tebranish $\nu_{(O-H)}=3333\text{ sm}^{-1}$ chegarasida kuzatiladi. 2,6-di-*uchlamchi*-butilfenol kabi molekulalardagi fazoviy omillar IMVB hosil qilish uchun imkoniyat qoldirmaydi va $\nu_{(O-H)}$ o'zgarmaydi, chunki ikkita hajmi katta *uchlamchi*-butil o'rindbosarlari bunga imkoniyati bermaydi:



Molekulalardagi bog'lar orasidagi valent burchaklarining o'zgarishi ikki xil tebranishlar (valent va deformatsion) chastotalarining o'zaro qo'shilishi hisobidan o'zgarishlarga olib keladi. Masalan, ikkilamchi amidlar asosan *trans*-konformatsiya hosil qiladi. Natijada deformatsion $\delta_{(N-H)}$ va valent $\nu_{(N-H)}$ tebranishlarning o'zaro ta'siri oqibatida yangi intensiv tebranish chastotasi $\nu=1563-1515\text{ sm}^{-1}$ sohada kuzatiladi.

3.6. Molekuladagi simmetriya elementlari

Ikki atomli molekuladagi yadrolar ularni tutashtiruvchi chiziq bo'ylab tebranishi mumkin. Ko'p atomli molekulada bu

holat ancha murakkab, chunki uning tarkibidagi barcha atomlarning yadrolari uchun garmonik tebranishlar mavjud. Shunga qaramasdan, soddalashtirish maqsadida molekula tarkibidagi barcha murakkab tebranishlarni ayrim normal tebranishlar superpozitsiyasi (yig'indisi) sifatida tasavvur qilish mumkin. Muvozanat holatidan chetga chiqish, kinetik energiyalarni aniqlovchi har bir yadroning harakatini Dekart sistemasining koordinatalari orqali formulalar yordamida topish mumkin. Ammo butun sistemaning potensial energiyasi umumlashtirilgan koordinatalarining murakkab funksiyasi kabi ifodalanadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, n -atomdan iborat molekulaning normal tebranishlar umumiyligi soni $3n-6$ (chiziqli molekula uchun $3n-5$) bo'ladi. Ammo har qaysi alohida molekulaning IQ-spektrida tebranishlar chastotasi faqatgina tanlash qoidasi bilan ta'qilanganmagan o'tishlar uchun kuzatiladi. Tanlash qoidasi molekula simmetriyasi bilan belgilanadigan tushuncha bo'lgani uchun avval molekulaning simmetriya elementlarini ko'rib chiqaylik.

Simmetriya xossasi molekuladagi atomlar yadrolarining fazoviy joylanishi bilan belgilanadi. Koordinatalar sistemasida biror harakat (burilish, akslantirish yoki har ikkalasi) natijasida molekula konfiguratsiyasi dastlabki shaklini egallasa, bu o'zgarish simmetriya operatsiyasi deyiladi va molekula tegishli simmetriya elementiga ega deb sanaladi. Molekuladagi simmetriya elementlari quyidagilardan iborat:

1. *O'xshashlik operatsiyasi (I)*. Bu tushuncha har qanday molekula uchun, hatto asimmetrik tuzilishga ega bo'lganda ham, mavjud va matematik ifodalar bilan belgilanadi. Chunki har qanday molekula uchun tegishli simmetriya operatsiyasining mavjudligi uning turg'un holatda bo'lishi bilan belgilanadi.

2. *Simmetriya markazi (ii)*. Molekulaning biror nuqtaga nisbatan aksi, ya'ni uning inversiyasi dastlabki shakl konfiguratsiyasini hosil qilsa, bunday nuqta simmetriya markazi


deyiladi. Bu operatsiya molekuladagi barcha koordinatalarni teskari qiymatiga olib keladi:

$$X_i \rightarrow -X_i; Y_i \rightarrow -Y_i; Z_i \rightarrow -Z_i$$

3. *n-tartibli simmetriya o'qi* (C_n ; n – tartib raqami). Agar molekula fazoviy biror o'q atrofida $360^\circ/p$ [bunda p-ning qiymati 1 dan -lgacha bo'lishi mumkin] burchak kattaligiga aylantirilsa, va uning dastlabki shakli to'liq takrorlansa, bu o'q uning n (C_n) tartibli simmetriya o'qi bo'ladi. Masalan: (C_2)-ikkinchi tartibli o'q atrofida molekula 180° burchakka burilsa, simmetriya qayta tiklanadi. Xuddi shuningdek chiziqli molekulalar uchun $C_n \rightarrow \infty$ cheksizgacha bo'lishi mumkin.

4. *Simmetriya tekisligi* (σ). Molekulaning simmetriya o'qidqn o'tkazilgan fazoviy tekislik uning dastlabki shaklidan farqsiz konfiguratsiyasini akslantira olsa, u simmetriya tekisligi deyiladi.

5. *Ko'zgu-burilish simmetriya o'qi* (S_n). Agar molekula fazoviy biror o'q atrofida $360^\circ/n$ burchak kattaligiga aylantirilsa va uning shu o'qqa perpendikulyar tekislikdagi dastlabki shakli to'liq takrorlansa, bu o'q ko'zgu-burilish simmetriya o'qi deyiladi. Xuddi C_n kabi S_n o'qi ham ∞ gacha bo'lishi mumkin.



3.10-rasm. Karbonat angidridi va suv molekulalarining normal tehraniishlari chastotalarining qutblanuvchanlik ellipsoidlarining o'zgarishlari.

Molekulada bir qancha simmetriya elementlari bo'lishi mumkin. Molekulaning simmetriya elementlaridan qancha ko'pi umumlashsa, ushbu molekula shuncha yuqoriroq simmetriyaga ega bo'ladi. Ammo simmetriya elementlarining barcha kombinatsiyasi bajarilmaydigan hollar ham uchraydi. Buni misol tariqasida qarab chiqadigan bo'lsak, har qanday molekula uchun yo'nalishlari mos tushuvchi C_3 va C_4 tartibli simmetriya o'qlari bo'lmaydi, aks holda bu molekulaning o'n ikkinchi C_{12} -tartibli simmetriya o'qi bo'lishi lozim edi. Ikkinci tomondan, shuni hisobga olish kerakki, molekulaning ayrim simmetriya elementlari orqali uning boshqa simmetriya elementlarini aniqlash mumkin.

Agar molekulaning 90° li burchak ostida kesishuvchi ikkita σ -simmetriya tekisligi bo'lsa, ular kesishgan chiziq ustida albatta ikkinchi tartibli C_2 simmetriya o'qi joylashadi. Simmetriya operatsiyalari uchun ular o'qlari kesishgan nuqtalari mavjudligi nuqtaviy guruh tushunchasini anglatadi. Nazariy jihatdan nuqtaviy guruhlar cheksiz (∞) bo'lishi mumkin. Ammo amalda oltinchi tartibli o'qdan (C_6) yuqori simmetriyaga ega bo'lgan molekula va ionlar deyarli uchramaydi. Muntazam oktaedr yoki kub tuzilishdagi molekulalar 3 ta o'zaro perpendikulyar C_4 , va 4 ta C_3 o'qlariga va i - simmetriya markaziga ega.

3.7. Guruhli va xarakteristik chastotalar

Kimyoda, ayiniqsa organik kimyoda ancha ilgari tebranma spektrlar uchun struktur-guruh tahlili amalda keng joriy qilindi. Shu narsa aniqlanganki, har qanday normal tebranish – bu bir butun molekulaning tebranishidir. Ularning ayrimlari alohida bog'lar, tuzilish fragmentlari, atomlar guruhlari orasida ma'lum darajada lokallashgan. Ayrim guruh va bog'lar qaysi molekulada bo'lishidan qat'iy nazar o'ziga xos qisqa intervaldagi chastotalarni namoyon qiladi. Shulardan biri $>\text{C}=\text{O}$ karbonil guruhi bo'lib, u $\sim 1700 \text{ cm}^{-1}$ sohada intensivligi kuchli chiziq namoyon qiladi. Spektrlarning tahlili jarayonida shu guruhga xos tebranish chastotalari lokal simmetriyaga ega. Masalan, AX_2 -guruhlari

uchun lokal C_{2v} simmetriya xos bo'lib, oltita asosiy tebranish chastotalari kuzatiladi, AX_3 guruhda – C_{3v} lokal simmetriya va 9ta tebranish chastotalari erkinligi bo'lsa ham, asosan 6ta yutilish kuzatiladi (3.11-rasm).

Molekulaning normal tebranish va tanlash qoidasidan foydalanib, teskari amal, ya'ni molekulaning geometrik konfiguratsiyasining muvozanat simmetriyasini aniqlash mumkin. Misol tariqasida buni AX_3 molekula uchun ko'rib chiqamiz, u piramidal yoki tekis tuzilishli bo'lishi mumkin.

Valent tebranish		Ichki deformatsion		Tashqi deformatsion	
simmetrik	antisimmetrik	qaychisimon	yelpig'ich-simon	aylanma	mayaqtik-simon
$\nu_s(A_1)$ (CH ₂ :~2870)	$\nu_{as}(B_2)$ ~2960	$\delta(A_1)$ ~1470	$\omega(B_1)$ ~1300	$t(A_2)$ ~1200	$r(B_2)$ ~720 cm^{-1}

Valent		Deformatsion			
simmetrik	antisimmetrik	Simmetrik soyabonsimon	antisimmetrik	mayaqtik-simon	aylanma
$\nu_s(A_1)$ (CH ₃ :2940-2860)	$\nu_{as}(B_2)$ 3040-2940	$\delta_s(A_1)$ 1380-1200	$\delta_{as}(E)$ 1470-1400	$\tau(E)$ 1200-900	$\tau(A_2)$ 250-200 cm^{-1}

3.11-rasm. Metilen (AX_2) va metil (AX_3) guruhlarining tebranishi va ularga tegishli chastota qiymatlari.


PH_3 molekulasi uchburchak-piramidal tuzilish va C_{3v} simmetriya o'qiga ega. Bu ma'lumotlarni IQ spektridan aniqlash mumkin:




BF₃ molekulasi kabi NO₃⁻ molekulyar ionining spektroskopik kattaliklari ularning tekis-uchburchak tuzilishli D_{3h} simmetriyaga ega ekanligini isbotlaydi. Ular uchun katta ehtimollik bilan C_{2v} simmetriyalı konfiguratsiyani ham taklif qilish mumkin. Amino eksperimental olingan IQ spektrlarning natijalariga ko'ra uchtadan fundamental (asosiy) chastotalar qayd qilingan. Ular uchun bu tajribalar natijasida yagona D_{3h} simmetriya bo'lishi mumkinligi isbotlandi.

	ν_s	ν_{as}	δ_s	δ_{as}	sm ⁻¹
BF ₃	888	1446	681	480	
NO ₃ ⁻	~1050	~1400	~820	~720	

Etilenning ikki almashining *sis*- va *trans*-C₂H₂X₂ molekulasi uchun har xil simmetriyaning mavjudligi yoki 1,2-dialmashining etanning CH₂X-CH₂X gosh- va anti- aylanma konformatsiyalarini Nyumen proyeksiyon formulalari yordamida ifodalab, aniqlash (identifikatsiyalash) mumkin. ularning spektri birinchi guruh spektridan keskin farq qiladi.



Bu xildagi molekulalar tarkibiga og'ir atomlar kiritilganda simmetriya elementlari o'zgaradi (Si, Ge, Hg). Bu og'ir atomning baryer effekti deyiladi. Masalan, kremliy atrofidagi uglerod-kislorod atomlari qurshovining o'zgarishi quyidagicha simmetriya nuqtaviy guruhlariga olib keladi:




Simmetriyani hisobga olmasdan molekuladagi valent va deformatsion (ν , δ) tebranishlarni aniqlab bo'lmaydi. Natijada Si-C va Si-O ν_s va ν_{as} chastotalarini ham adashtiramiz. Bu xulosa 3.2-jadval tahlilidan ham ko'rindi. Xuddi shuningdek, 4ta uglerod atomidan iborat butan yoki 1,4-almashingan dibrombutan molekulasida 10 xildagi konfermerlar uchraydi. Ulardan eng oddiy 3ta vakilini ko'rib chiqamiz (3.12-rasm).

3.2-jadval


OsO₄Py kompleks birikmasining har xil modellari uchun
Os-O valent tebranish chastotalari soni

Konfiguratsiya	Nuqtaviy guruh	Tebranishlar soni	IQ spektrida
	C _{2v}	4	4
	C _{3v}	4	3
	C _{4v}	4	2
	C _s	4	4
	C _{2h}	C _i	C ₂




(a) TIT

$$\nu_{C-Br} \sim 646 \text{ cm}^{-1}$$



(b) GTG


$$\nu_{C-Br} \sim 555 \text{ cm}^{-1}$$




(c) GTG'

3.12-rasm. 1,4-dibrombutan ayrim bargaror konformatsion izomerlari: *trans-trans-trans* (TTT) – a, *gosh-trans-gosh* (GTG) – b, *gosh-trans-gosh'* (GTG') – c.

Ba’zida birikmalarni individualligini aniqlash uchun, yoki uning bir qismini tahlil qilishda faqatgina xarakteristik yutilishlardan emas, balki spektrning butun bir qismidan ham foydalaniладilar.





1,2,4,5-tetra

penta

geksa

3.13-rasim. Har xil tipda almashingan benzol halqasi IQ spektrining 1650-2000 cm^{-1} sohadagi xarakterli yutilish chiziqlari.

Bunda ularning xarakterli xususiyatlari qo'1 keladi. Masalan, benzol halqasidagi turli o'rinnbosarlar bo'lganda, vodorod atomlari almashinmagan uglerodning xarakterli asosiy yutilish maksimumlarini ~700-900 va 1650-2000 cm^{-1} sohalaridan aniqlashimiz mumkin. 3.13-rasmdan foydalanib, benzol halqasidagi almashingan o'rinnbosarlarning o'rnnini ishonechli aniqlash mumkin.

3.8. Izotop effekti

Ayni bir modda molekulasi dagi izotoplar almashinuvni uning kinetik (E_k) energiyasini o'zgartiradi va molekuladagi izotoplar farqiga ko'ra tebranish chastotalari ham o'zgaradi. Masalan, sianid kislotadagi (H) atomi (D) yoki (T) bilan almashtisha, IQ spektrdagiv($C-X$) va $\delta_{(C-X)}$ da farq seziladi (3.3-jadval).

3.3-jadval

IQ da sianid kislotasi izotoplarida v spektrilar (cm^{-1})

XCN	$\nu_{(C-N)}$	$\nu_{(C=N)}$	δ
HCN	3311	2097	712
DCN	2630	1925	569
TCN	2460	1724	513

Ayrim hollarda izotop almashtirish (deytero nishonlash) tebranish chastotalarini keskin o'zgartiradi, bu esa IQ spektrda yaqqol ko'rindi. Izotop siljishlar ^{10}B , ^{11}B , ^{12}C , ^{13}C , ^{14}N , ^{15}N , ^{16}O , ^{18}O juftliklarida doimo kuzatiladi.

3.4-jadval

Oddiy va karrali bog'larning tebranish chastotalari

a) Azot bog'lari	H ₂ N-NH ₂	HN=NH	N≡N	
v _{NN} , sm ⁻¹	1100	1552	2331	
r _{NN} , 10 ⁻¹ nm	1,45	1,24	1,097	
f _q , Nsm ⁻¹	3, 4	10,0	19,64	
b) Uglerod bog'lari	C - C	C = C	C ≡ C	
f _q , Nsm ⁻¹	~ 5	~ 10	~ 15	
c) Azot-kislorod bog'lari	H ₂ N - OH	O ≡ N ≡ O	ClN = O	N ≡ O ⁺
f _q , Nsm ⁻¹	4,0	8,0	14,1	23,9

Molekulaning kuch maydoni doimiyligi degan tushuncha IQ spektroskopiyasida qo'llaniladi. Ikki atomli molekulalarda bu doimiylik bilan garmonik tebranish chastotasi orasida uzviylik bor.

$$k_c = 4\pi^2 c^2 \omega_e^2 \mu$$

k_c – kuch maydoni doimiyligi, ω_e – garmonik chastota, μ – keltirilgan massa, ya'ni ayrim massalarining o'rtach qiymati.

$$\mu = \frac{1}{m_1} + \frac{2}{m_2} \quad \text{yoki} \quad \mu = \frac{m_1 m_2}{m_1 + m_2}$$

Kuch maydoni doimiyligi, atomlar orasidagi masofa va tebranish chastotasi orasida masofa va tebranish chastotasi (v) o'zaro bog'liq, bular haqidagi ma'lumotlar 3.4-jadvalda keltirilgan.

Nazorat savollari


1. IQ-spektroskopiyasi mohiyatini tushuntiring.
2. Valent va deformasion tebranishlar farqini bilasizmi?
3. Tebranish chastotalari nimani anglatadi?
4. Valent tebranish chastotalarining quyi va yuqori sohaga siljishi nima bilan tushintiriladi?
5. Deformatsion tebranish turlariga misollar keltiring.
6. Simmetrik va antisimmetrik valent tebranishlari farqini tushintiring.

- Oddiy bog', qo'shbog' va uchbog' tabiatи valent tebranishlariga ta'sir etadimi?
- Moddalarning tebranish chastotalariga elektronodonor va elektrono-akseptor guruhlar ta'sir etadimi?
- Normal koordinata va normal tebranishlar nimani anglatadi?
- Simmetriya elementlari valent tebranish chastotalariga ta'sir etadimi?
- Organik molekuladagi funksional guruhlarning asosiy tebranish chastotalariga misollar keltiring?
- Dixloretan $\text{Cl}-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{Cl}$ va tetraxloreten $\text{Cl}_2\text{C}=\text{CCl}_2$ molekulalari IQ- spektridagi farqlarni tushintiring.
- CH_3OH , CH_3OD , CD_3OD spirtlarining IQ- spektrlaridagi farqlarni aytib bering.

Masala va mashqlar


1-masala.

Rasmda keltirilgan IQ spektrdan foydalanib, $\text{C}_3\text{H}_6\text{O}$ tarkibli moddaning tuzilish formulasini yozing.





2-masala.

Rasmda keltirilgan IQ spektrni tahlil qiling va $\text{C}_2\text{H}_6\text{O}$ tarkibli moddaning tuzilish formulasini aniqlang.




3-masala.

Rasmida A va B formula bilan ifodalangan qaysi moddaning biriga IQ mos kelishini tushuntiring.






4-masala.

C_6H_{12} tarkibli moddaning IQ spektri quyidagi rasmda ifodalangan. Spektrga qarab uning tarkibida qo'shbog' boryo'qligini izohlab bering.



5-masala.


Quyidagi rasinda pentametilsiklopentadienga mos keluvchi IQ spektr keltirilgan bo'lsa, dienning tuzilish formulasini aniqlang.



1,2,3,4,5-pentametilsiklopentadien


1,2,4,5,5-pentametilsiklopentadien

1,2,3,5,5-pentametilsiklopentadien





6-masala.

C_8H_{14} tarkibli chiziqli tuzilishdagi uglevodorodning IQ spektri rasmida berilgan. Unuing tuzilishi va qaysi sinf vakili ekanligini isbotlab bering.




7-masala.

C_8H_{12} tarkibli siklogeksadien hosilasining IQ spektri berilgan. Uning yordamida va berilgan tebranish chastotalari kattaligidan ($\nu^s_{C=C}=1581\text{ cm}^{-1}$ va $\nu^{as}_{C=C}=1610\text{ cm}^{-1}$) foydalanib moddaning tuzilishini aniqlang.




8-masala.

Olingan IQ spektridan foydalanib, C_7H_5N tarkibli moddaning tuzilishini aniqlang.




9-masala.

Berilgan IQ spektr ma'lumotlaridan foydalanib, 2-fenilbutin-3-ol-2 moddaning tebranish chastotalarini tahlil qiling.




10-masala.

Keltirilgan penten-3-on-2 IQ spektridagi tegishli tebranishlarni tahlil qilib aniqlang.



11-masala.

Rasmda berilgan fenilatsetilen va difenilatsetilen spektrleridagi strelka bilan belgilangan tebranishlarni tahlil qiling va javobini aniqlang.



A d a b i y o t l a r

- 1.Пентин Ю.А., Вильков Л.В. Физические методы исследования в химии.- М.: Мир.- 2003.- 683 с.
- 2.Умаров Б.Б. Физикавий тадқиқот усуулари, маъruzалар конспекти.- БухДУ.- Зиё-Ризограф.- 2000.- 187 б.
- 3.Юнусов Т.К., Зайнутдинов У.Н., Утениязов К.У, Салихов Ш.И. Кимёда физикавий усууллар.- Тошкент.- Университет.- 2007. 336 б.
- 4.Миронов В.А., Янковский С.А. Спектроскопия в органической химии.- М.: Химия.- 1985.- 232 с.
- 5.Накамото К. ИК спектроскопия и спектры КР неорганических и координационных соединений.- М.: Мир.- 1991.- 536 с.
- 6.Драго Р. Физические методы в химии.- М.- Мир.- в 2х томах.- 1981.

IV BOB. MASS-SPEKTROMETRIYA

Reja:

- 4.1. Mass-spektrometriya haqida tushuncha*
- 4.2. Ionlanish jarayoni va ionlarning tiplari*
- 4.3. Ionlanish usullari*
- 4.4. Molekulalarning ionlanish potensialini aniqlash*
- 4.5. Nazorat savollari*
- 4.6. Masala va mashqlar*
- 4.7. Adabiyotlar*

Tayanch atamalar

Mass-spektrometriya. Izotoplар. Ion manbai. Analizator. Molekulyar ion. Ionlanish minimumi. Oq'ir izotoplар. Izotoplarni almashtirish (nishonlash). Qayta guruhlanuvchi ionlar. Skeletli qayta guruhlanish. Metastabil ionlar. Manfiy zaryadli ionlar. Ko'p zaryadli ionlar. Elektronlar ta'sirida ionlash. Ionlanishning tezlashtirish potensiali. Fotoionlanish. Elektr toki bilan ionlanish. Maydon gradiyenti. Adiabatik ionlanish potensiali. Ekstrapolyatsiya. Molekulalarning dissotsilanish energiyasi. Bo'lakli ionlarning kinetik energiyasi. Qo'zg'alish energiyasi. Hosil bo'lish potensiali. Maydon gradienti. Kimyoviy ionlanish. Sirt yuzasida ionlanish. Ionlanishning kombinatsion usullari. Doimiy magnit maydoni. Sektor tipidagi mass-spektrometr. Qo'sh fokuslash. Xromato-mass-spektrometriya. Termoionizatsion mass-spektrometr.

4.1. Mass-spektrometriya haqida tushuncha

Mass-spektrometriyaning nazariy, amaliy asosfari va usuli hamda uskunalarini D.D. Tompson tomonidan 1912-yilda yaratildi. Uning shogirdi F. Aston 1918-yilda ion oqimi fokuslanish darajasini oshirib, o'zi yaratgan mass-spektrografida elementlarning izotoplarni aniqladi. F.Aston bilan bir paytda

Chikagoda A.Dempster birinchi mass-spektrometrni yaratdi. Bu uskunadagi ionlanish kamerasiga nisbatan perpendikulyar yo'nalishda magnit maydoni qo'yildi va ionlar oqimi elektr usullar bilan aniqlandi. O'tgan asrning 50-yillarida qo'sh fokuslash usuli bilan ta'minlangan (analizatorda qo'shimcha statik elektr va magnit maydonlari bor) mass-spektr oluvchi yangi moslamalar yaratildi. Barcha moddalar qatori, organik moddalarni mass-spektrometriya usulida o'rganishning asosi 1960-yillarda to'la shakllandi. Shunga e'tibor qilishimiz lozimki, mass-spektrometriya spektroskopik tadtiqot usuli emas. Optik spektroskopiyada modda nurlanishi to'xtatilgandan keyin shu molekula boshlang'ich holatiga o'zgarmasdan qaytadi. Ammo mass-spektrometyada molekula qo'zg'aladi va molekulyar ionlarga parchalanadi, o'z-o'zidan tushunarlik, bu parchalangan ionlardan boshlang'ich molekulaning qayta hosil bo'lishi mumkin emas.

Mass-spektrometriya ion massalarining spektrini olish usulidir. Mass-spektrometr sxemasi oddiy bo'lib, asosan 3 qismdan iborat: ion manbai, analizator, detektor.

Turli usullarning qo'llanilishiga ko'ra qo'yilgan vazifasiga qarab manbadan ham musbat, ham manfiy yoki har ikki zaryadli ionlar oqimi yaratiladi. Mass-spektrometriya usulining boshqa usullardan farqi shundaki, bu usul bilan ishlash uchun namuna pikogrammlar (10^{-12} g) miqdorida bo'lsa ham yetarli bo'ladi. Ayniqsa, biologik faol moddalar, dorivor va gormonal preparatlarni aniqlash uchun ko'p modda sarflab bo'lmaydi, chunki ularni ajratib olishning o'zi juda mushkul vazifadir.

Mass-spektrometrik usullar bilan moddalarni o'rganish ayniqsa quyidagi sohalarda juda qo'l keldi: tabiiy gazlar, havo,sanoat chiqindilari, yonish natijasida hosil bo'lgan gazlar, aerozollar.

Shu narsa muhimki, mass-spektrometriya yordamida birinchi marta DDT (dust, insektitsid, ilgarilari me'yordan ortiq qo'llangan, bozirgi kunda ta'qiqlangan, sistematik nomi: 1,1,1-trixlor-2,2-di(*para*-xlorfenil)-etan, an'anaviy nomi


dixlordifeniltixloretan) o'ttizga yaqin metabolitlar hosil qilishi aniqlangan. Mass-spektrometriyada molekulada bo'ladigan ionlanish va dissotsilanish hodisalari elektronlar, fotonlar oqimi va kuchli elektr maydoni ta'sirida ro'y beradi.

Hozirgi zamон mass-spektrometrlarida yadro massalarini o'n milliondan bir atom birligida tartibidagi xatolik bilan o'lchash mumkin. Demak, mass-spektrometriya gaz holidagi moddani kuchli vakuum ($P=10^{-7}$ - 10^{-9} mm. sim. ust.) da elektronlar oqimi bilan bombardimon qilib parchalash va hosil bo'lgan ion "bo'lak" larini analiz qilishga asoslangan usul ekanligi bizga ravshan bo'ldi.

4.2. Ionlanish jarayoni va ionlarning tiplari

Mass-spektrometriya usulida magnit va elektr maydoni yordamida birikmalarni ionlargacha parchalash amalga oshiriladi. Gaz fazadagi molekula atom yoki radikalning (M) elektron, foton, ion va tezlashgan molekula (X) yoki yuqori gradiyentli elektr maydoniga ega makroskopik jism bilan o'zaro ta'siri natijasida musbat zaryadli ionlar hosil bo'ladi.

Ionlanish sxemasi quyidagicha ifodalanadi:



n_M , n_X , n_1 , n_2 - hajm birligidagi zarrachalar soni, E_M , E_x , E_1 , E_2 - tegishli zarrachalar energiyasi, q -ionlanish darajasi.


Odatda M zarracha atrofidagi muhit bilan termik muvozanatda bo'ladi. Zarrachalarning ionlanishi uzlucksiz bo'lgani uchun n_M va n_X -doimiy qiymatga ega bo'ladi.

Atomlarning ionlanishi turlicha kechsa ham, bu jarayon ancha sodda kechadi. Hosil bo'lgan ion asosiy va qo'zg'algan holatda bo'lishi mumkin.



Ikki atomli molekulaning ionlanish minimumi erkin molekula minimumidan o'ngga siljiydi (4.1.a. rasm). $AB \rightarrow AB^+$, bunda vertikal o'tishi past natijasida (ko'rsatgich bilan

belgilangan) molekulyar ion hosil bo'ldadi. Agar AB molekuladan AB^+ ion energiyasi katta bo'lsa, (D_0) dissotsiativ ionlanish deyiladi. Agar AB^+ ioni energiyasi uning dissotsilanish energiyasi (D_0) dan katta bo'lsa, va (A) atomning ionlanish energiyasi (B) dan kichik bo'lsa, AB molekula A⁺ atom ionini hosil qiladi (4.1.b rasm). Bu jarayonda molekulyar ion hosil bo'lmaydi. Odatda 2 atomli molekulaning dissotsilanishi 10^{-13} sek davom etadi. Ionning quyi elektron holati asosiy, ikkinchisi – elektron – qo'zg'algan holat deyiladi (4.1d-rasm). Molekulaning dissotsiyatanmasdan ionlarga parchalanishi yoki ko'p atomli molekulaning dissotsiativ ionlanishi juda murakkab kechadi. Molekulyar ion hosil bo'lishi uni barqarorlashtiradi, aks holda u fragmentli parchalanadi. Ionning parchalanishi ekzotermik jarayon bo'lib, bir qism tebranish energiyasi qisman chiziqli harakatlanish energiyasiga aylanadi.




4.1-rasm. Turli elektron holadagi molekulalar va ular ionlarining potensial egri chiziqlari: dissotsilanmagan – a, qisman dissotsilangan – b, to'lig dissotsilangan – c, qo'zg'olgan ion hosil bo'lgan – d.

Demak, ko'p atomli molekulaning ionlanishi murakkab jarayon bo'lib, bir qancha ionlarga olib keladi.

Molekulyar ionlarning massasi parchalangan molekula massasiga teng bo'ladi. Bu jarayon oddiy molekulalar uchun osou kechadi, masalan, benzol molekulasi guruhi ham molekulyar ion hosil qiladi. Molekula tarkibidagi NO_2 , $\text{O}-\text{N}=\text{O}$, ONO_2 , Cl , Br , kabi o'rincbosarlar molekulyar ion (M^+) barqarorligini pasaytiradi.

Bo'lakli ionlar. Mass-spektral analizda M^+ ion turlicha parchalanishi mumkin. Masalan, CCl_4 molekulasi CCl_3^+ , CCl_2^+ , CCl^+ , Cl^+ , C^+ kabi ionlar hosil qiladi. Juda ko'p moddalar parchalanishining eksperimental qiymatlarini fragmentlanish qonuniyatları bilan izohlash mumkin. Ammo molekulyar ionlarning parchalanishini tushintiruvchi umumiy nazariya hali ishlab chiqilmagan. Har qanday molekula parchalanishining yarim emperik sifat tushunchalarini bilish uchun har qaysi fragmentning turli xil ion bolati, ularning elektron tuzilishi haqida tasavvurlari bo'lishi lozim. Masalan, benzoy kislota efirining ionlarga parchalanishi jarayonida oddiy $\text{C}_6\text{H}_5\text{CO}^+$ ionining hosil bo'lishi $\text{C}-\text{O}-\text{bog}'ining uzilishi bilan borishini e'tiborga olish lozim.$

Molekulyar ionlar dissosilanganda doimo bo'lakli ionlar hosil bo'ladi. Neytral molekuladan parchalanganda hosil bo'lgan molekulyar ion kation-radikal bo'lib, undan keyin hosil bo'lgan bo'lak ionlar yoki kation, yoki kation-radikal bo'lishi, molekulyar iondan ajralib chiqayotgan zarracha m° radikal yoki neytral molekula bo'lishi mumkin.




Agar hosil bo'lgan A^+ ionning ichki energiyasi yetarli bo'lsa, u o'z navbatida parchalanadi va turli xildagi ion bo'laklarini hosil qiladi. Mass-spektrometriyada bunday ketma-ketlikdagi parchalanishni o'rganish fragmentlarning hosil bo'lish yo'llari deyiladi. Molekulyar ionlar va istalgan bo'lakli ionlar (A^+ , B^+ , C^+ ...) bir necha yo'nalishlar bo'yicha parchalanishlari mumkin. Bir yo'nalish bo'yicha bo'lakchalarining hosil bo'lish chegarasi molekulyar kationning dastlabki ichki energiyasi bilan belgilanib, ionning hosil bo'lishi va spektrlarda yozib olinish vaqtiga bog'liq.

Mass-spektrometriyada neytral molekula o'rganilmaydi, shuning uchun ham mass-spektrlarni tahlil qilishda eng avval qaysi bog' uzilishini va qaysi bo'lak musbat zaryadni o'zida saqlab qolishini bilishimiz kerak. Ionlanish jarayonida barcha bog'lar ham zaiflashadi, bunda bir bog' boshqasiga nisbatan ozmi-ko'pmi turli darajada kuchsizlanishi mumkin. Ionlarning parchalanishi bosqichma-bosqich ro'y beradi. Ular asosan boshlang'ich bo'lakli ionlarning dissotsilanishi natijasida hosil bo'ladi.

Odatda elektronlar oqimining energiyasi 50-70 eV atrofida bo'ladi. Bombardimon qilayotgan elektronlar ta'sirida moddadan bir dona elektron ajraladi, natijada molekulyar-ion deyiluvchi kation (M^+) hosil bo'ladi.




So'ngra molekulyar ionning (M^+) bir qismi, ba'zan hammasi parchalanadi. Ionlar asosan musbat va bir zaryadlidir. Mass-spektrometriya usuli bilan o'rjaniladigan modda namunasi 10^{-3} mg miqdorda bo'lsa ham tajriba uchun yetarli bo'ladi. Modda bombardimon qilinishidan avval bug' holatiga o'tkaziladi. Qizdirish natijasida modda molekulasi barqaror bo'lishi va parchalanmasligi lozim:




Aks holda ular o'miga yuqori termik ta'sirga chidaydigan hosilalari olinadi. Hosil bo'lgan ionlar massasiga ko'ra tashqi magnit maydoni ta'sirida ajraladi. Har qanday zaryadlangan zarra magnit maydonida o'zining harakat yo'nalishi (trayektoriyasi)ga

ega. Oqimdag'i barcha molekulyar ionlarga o'rtacha bir xil energiya ta'sir etgani uchun ionlarning magnit maydonidagi og'ishi paytida uning massasi muhim rol o'yndaydi.

Mass-spektrlardagi har bir signal (cho'qqi) muayyan (m/e) massadagi ionga mos keladi. Ionlar aralashmasida qaysi ion miqdori ko'p bo'lsa, unga muvofiq keladigan signal shuncha intensiv bo'ladi. Nisbiy intensivlikni ordinata (y) o'qiga, massa sonlarini abssissa (x) o'qiga qo'yilib, mass-spektrning grafik tasviri olinadi. Bunda eng baland cho'qqi 100 % deb olinadi. Bu fikrimizni oydinlashtirish uchun moy aldegidining mass-spektrini tahlil qilaylik.



Spektrni tahlil qilib, baland signal $m/e = 44$ (100 %) ekanligini osonlik bilan aniqlashimiz mumkin, ikkinchi $m/e=29$ ($M-43$) signalining intensivligi 55 % ekanligini aniqlaganimizdan keyin uchinchi intensiv signallardan biri $m/e= 72$ (M^+)ga mos kelib, uning intensivligi 75% ga tengligi rasmdan ko'rinish turibdi. Demak, analiz uchun olingan moy aldegidining 75 foizi o'zgarmasdan, qolgan qismi C-C va C-H bog'lari bo'yicha parchalanadi.



4.2-rasm. Moy aldegidining mass-spektri.

Ba'zan mass-spektrlarda $M+1$ va $M+2$ kabi ionlar uchun ham signallar qayd etiladi. Benzolning mass-spektrida $m/e = 78$

(M⁺) signallari bilan birga m/e = 79 (M+1)⁺ va hattoki m/e = 80 (M+2)⁺ signallari ham kuzatilgan. Bular benzol tarkibida ¹³C yoki D izotoplari borligi bilan izohlanadi. Og'ir izotoplarning miqdoriga mos ravishda bu signallarning intensivligi katta yoki kichik bo'ladi. Molekuladagi og'ir izotoplarning miqdori uning tabiatda tarqalganligi bilan mos tushadi.

4.1-jadval yordamida signal cho'qqilari intensivliklarining foiz miqdorini aniqlab, izotoplarni signallarini ajratish mumkin. Benzolning mass-spektrlaridagi m/e = 78 (M⁺) signallari 100 %, m/e = 79 (M+1)⁺ ga tegishli signallar 6,58% va m/e = 80 (M+2)⁺ signallari 0,18 % gacha qayd qilingan. Bu signallarning m/e=78 (M⁺) qismi C₆H₆-benzolga


4.1-jadval
Og'ir izotoplarning tabiatda tarqalishibi

Og'ir izotop	D	¹³ C	¹⁵ N	¹⁸ O	³³ S	³⁴ S	³⁷ Cl	⁷⁹ Br	⁸¹ Br
Izotop miqdori, %	0.015	1.11	0.37	0.20	0.78	4.4	32.5	50.5	49.5


taaltuqli bo'lsa, m/e = 79 (M+1)⁺ signali ¹³CC₅H₆⁺ yoki C₆H₅D⁺ birikmasidan kuzatiladi. m/e = 80 (M+2)⁺ signallari esa ¹³C₂C₄H₆⁺ yoki C₆H₄D₂⁺ kabi molekulyar ionlar borligini bildiradi. Demak, o'r ganiladigan modda tarkibidagi elementlardan birining tabiatda bargaror uchraydigan izotopi bo'lsa, shu izotoplarga mos keluvchi fragmentdan hamisha birdan ortiq signallar qayd etiladi. CH₃-Br spektrida intensivligi bir xil bo'lgan ikkita m/e = 94 va m/e = 96 kabi signallar qayd etiladi, bu xil signallar (CH₃⁷⁹Br)⁺ va (CH₃⁸¹Br)⁺ molekulyar ionlarga tegishli ekanligini 4.1-jadval yordamida osonlik bilan aniqlay olamiz.

Mass-spektrlar olishda izotoplarni almashtirish (nishonlash) usuli ham qo'llanadi. Ko'p hollarda molekulaning qaysi qismidan yoki signal intensivligiga muvofiq keluvchi bo'lagini bilish uchun ayrim izotoplarni [²H, ¹³C, ³³S, ³⁴S] molekula tarkibiga aynan keritiladi. Bu ishlar natijasida spektrdagisi m₁ ionga muvofiq keluvchi signal bir birlik miqdorida o'ngga siljigan bo'lsa [ya'ni


(m₁ - H) + D], qilingan taxmin to‘gri chiqqan hisoblanadi. Nishonlash yo‘li bilan benzoy kislota va metil spirti o‘zaro reaksiyaga kirishganda efir hosil qiluvchi kislorod atomi metanol molekulasiga tegishli ekanligi va suv hosil qilishda benzoy kislotaning karboksil guruhidan OH ajralishi aniqlandi:



Fikrimizni yanada oydinlashtirish uchun quyidagi o‘rin olish reaksiyalarini ikkinchi misol shaklida ko‘rib chiqaylik:



R-alkil yoki vinil radikali, X-xlor yoki brom, bu reaksiyalar natijasida tegishli mahsulotlarga to‘gri keluvchi fragmentlar olindi, ammo reaksiya mahsulotlari ajratilganda faqat dastlabki reagentlarga hosil bo‘lgani aniqlandi. O‘rin olish jarayonida quyidagicha to‘rt markazli murakkab oraliq mahsulot hosil bo‘ladi:



$3 \text{ RBX}_2 + 2\text{BF}_3 \rightarrow 3 \text{ RBF}_2 + 2 \text{ BX}_3$ (va BF_nX_m) reaksiya jarayonida alkil guruhlari almashinadimi yoki yo‘qmi degan savolga javob topish uchun bor(III)-ftoridi tarkibidagi bor o‘zining ^{10}B izotopi bilan boyitilganda shu narsa aniqlandiki, reaksiya jarayonida RBX_2 barqaror bo‘lgan sharoitda hech qanday alkil va vinil radikallari o‘rin olish reaksiyasiga kirishmas ekan.


Ba’zida izotoplarni almashтирish o‘rniga molekuladagi ayrim atomlar funksional guruhlar (CH_3 , C_2H_5 , CH_3COO , HO , H_2N va hokazo) bilan almashтиrladi:




Bunda molekulaning shu qismi signallarining cho'qqisi 15, 29, 59 va hokazo birlikka o'ngga siljiydi. Mass-spektrometriyada bu usul yordamida signallarning tahliliga aniqlik kiritish *deyteronishonlash* deyiladi.

Qayta guruhlaniruvchi ionlar. Oddiy dissotsiativ ionlanish hodisasi molekulaning katta guruhlanishi bilan belgilanadi. Masalan, talliy oksidining ($Tl-O-Tl$) mass-spektrida Tl_2^+ ioni mavjud bo'ladi va TlO^+ ioni hosil bo'lmaydi.

Molekulaning ionlanishi oqibatida, doimo bir xil bog'larning uzilishi va yangi bog' hosil bo'lishi kuzatiladi. Bunga misol qilib tropiliy ioni hosil bo'lishini ko'rsatish mumkin. Bu ionning hosil bo'lishi toluolning ko'p hosilalarida ham uchraydi. Tropiliy ionining halqali tuzilishi va barcha uglerod atomlarining teng qiymatli ekanligi fizikaviy usul – izotoplar almashinuvi bilan isbotlandi:




Vodorod atomi ishtirok etmagan qayta guruhlanish skeletli qayta guruhlanish deyiladi. Vodorod atomi ishtirokida boradigan qayta guruhlanishga neopentan ionining fragmentlanishini ko'rsatish mumkin:




Ko'pgina birikmalar mass-spektrometriya jarayonida zaryadli yoki zaryadlanmagan zarrachalar hosil qiladi. Bularning barchasini oddiy bog'larning uzilishi bilan tushuntirib bo'lmaydi. Bunday ionlarning dissotsilanishida atomlarning qayta guruhlanishi sodir bo'ladi. Qayta guruhlanish natijasida hosil bo'lgan ma'lum xususiyatli ionlar ayrim kimyoviy guruhlarga gina xosdir. Spirtlar uchun doimo $m/e = 19$ intensiv signallar xarakterlidir. Ba'zan ko'pgina molekulalarning spektrida

atomlarning qayta guruhlanishidan hosil bo'lgan ionlarning signallari olinadi.




Moddalar uchun aksariyat hollarda vodorod atomining ko'chishi kuzatiladi. Ba'zida vodorodning ko'chishi natijasida ko'chgan vodorodning geteroatom bilan birikib neytral molekula sifatida ajralib chiqishi kuzatiladi:




Alken, alkinlarda qayta guruhlanish ko'p uchraydigan holdir, ammo shuni e'tirof etishimiz lozimki, barcha qayta guruhlanish jarayonlari osonlik bilan kechmaydi. Ko'pgina hollarda shu narsa qayd qilinganki, spektr olish jarayonida musbat zaryadli ionning barqarorligi juda muhim ahamiyat kasb etadi, u esa o'z navbatida hosil bo'lgan oxirgi fragmentdagi musbat zaryadning qayta taqsimlanishi (delokallanishi) bilan belgilanadi. $\text{HOCH}_2\text{-CH}_2\text{NH}_2^+$ ioni bo'laklarga ajrilishini ko'rganimizda CH_2OH radikali va CH_2NH_2^+ ioni ($m/e = 30$) yoki CH_2NH_2 radikali va CH_2OH^+ ioni ($m/e = 31$) kabi zarrachalar hosil bo'lishining guvochi bo'lamiz. Azot atomi kislород atomiga nisbatan kichik elektromanfiyligi bilan farqlangani uchun $\text{CH}_2=\text{OH}^+$ rezonans shaklga nisbatan $\text{CH}_2=\text{NH}_2^+$ rezonans shaklidagi ionning barqarorligi katta ekanligini e'tirof etishimiz lozim. Shuning uchun ham CH_2NH_2^+ zarrachaning musbat zaryadi CH_2OH^+ zarrachaga nisbatan samaraliroq delokallahsgan va $m/e=30$ massaga mos keluvchi ion signali $m/e=31$ massali zarracha signaliga nisbatan 10 marta intensivroq namoyon bo'ladi. Mass-spektrometriya usuli bilan shu narsa aniqlanganki, oltingugurt atomi tutgan birikmalarda oltingugurt atomi molekulyar ionlarining musbat zaryadini kislородга nisbatan ancha zaifroq barqarorlashtiradi, chunki $\text{C}=\text{S}$

π -bog'ining effektivligi C=O π -bog'iga nisbatan juda pastdir. Shuning uchun ham HSCH₂—CH₂OH birikmasining mass-spektrida CH₂OH⁺ ioniga tegishli m/e=31 massali cho'qqi intensivligi CH₂SH⁺ ionining m/e=47 massadagi cho'qqisiga nisbatan ikki marta yuqori.


Skeletli qayta guruhanish. Ko'rib chiqqanimizdek, qayta guruhanish molekula tuzilishiga uzviy bog'liqidir. Skeletli qayta guruhanishda eng ko'p alkil- va aril guruhlari qatnashadi va bunda neytral zarrachalar ajralib chiqadi (CO, CO₂, SO₂, SO₃, CH₂O, HCN, S va hokazo).




Ajralib chiqqan neytral zarracha boshlang'ich modda tuzilishi to'grisida aniq ma'lumot beradi; karbonat angidridining ajralib chiqishi moddaning tarkibida karboksil guruhni yoki murakkab efir fragmenti tutgan organik birikma borligidan darak beradi.



Qayta guruhanishning umumiyo ko'rinishi:




Mass-spektrometrik jarayonda barqaror modda hosil bo'lsa, qayta guruhanuvchi ionlarining signallari intensivligi ortadi. Birinchi ionining tuzilishga e'tibor bersak, u oson olti a'zoli getero halqali birikmaga o'tadi. Bu birikmaning hosil bo'lishidan kuzatilgan signal intensivligi besh a'zoli geterohalqa signaliga nisbatan ancha baland bo'ladi, chunki musbat zaryad ikkinchi ionda ko'proq delokallahshgan.



Metastabil ionlar. Ionlanish jarayonida beqaror ionlar ham hosil bo'ladi. Parchalangan ion hosil bo'lishining vaqtı $\sim 10^{-5}$ sek bo'lsa, buni mass-spektrometr qayd qiladi, ammo olingan signallar diffuz xarakterga ega bo'ladi.


Mass-spektrlarda ba'zida massasi kasr sonlar bilan ifodalanadigan ionlar ham qayd qilinadi. Bu signallar eniga cho'zilgan va intensivligi juda past bo'ladi. Bunday signal beruvchi ionlarga **metastabil ionlar** deyiladi. Metastabil cho'qqilar hosil bo'lish sababini quyidagicha izohlaymiz. Bombardimon qilish kamerasida ko'pincha beqaror ionlar hosil bo'ladi, bu ionlar mass-spektrometrning tezlashtiruvchi elektr maydonida harakat qilayotganida ionlanish kamerasidan otilib chiqib bir xillari kollektorga yetib keladi, ayrimlari yetib kelmasdan dissotsilanadi. Parchalangan iondan nisbatan kichik m/e ga ega ion va neytral molekula hosil bo'ladi, bu jarayon magnit maydoniga yetib kelguncha amalga oshgani sababli spektrda har ikki (parchalangan va hosil bo'lgan) ion cho'qqilar o'rtaida (o'zi aslida bo'lмаган) massasi kasr songa teng bo'lgan beqaror ion signali narnoyon bo'ladi. Bu cho'qqilarga ba'zan "yolg'on" signal ham deyiladi. Bu xildagi metastabil ionlar hosil bo'lishi ko'pincha kompleks birikinalarning mass-spektrlarida kuzatiladi. Metanol yoki uning deyteriyli hosilasi quyidagicha metastabil ion hosil qilishi mumkin:



Aminlarga xos metastabil ion hosil bo'lishi:



Manfiy zaryadli ionlar. Ular quyidagi hollarda kuzatiladi. Elektronning rezonanslashuvi



Dissotsiativ elektron rezonansi:



Ion-molekulyar reaksiyalar:





Molekulaning juft ionlarga parchalanishi:



Elektron oqimi ta'sirida manfiy zaryad hosil bo'lish ehtimolligi juda past ($\sim 10^{-7}$ sek) bo'lib, musbat zaryadli ion hosil bo'lishi ($\sim 10^{-4}$ sek) ga teng keladi. Shuning uchun mass-spektrda manfiy zaryadli ionning hosil bo'lish ehtimolligi juda past bo'lsa ham, molekula tuzilishi haqida aniq ma'lumot beradi.

Ko'p zaryadli ionlar. Mass-spektrometriya eksperimentlarida ko'p zaryadli ion hosil bo'lishi juda kam kuzatiladi. Ammo, ba'zi hollarda, aromatik birikmalarda bu hodisa uchrab turadi. Bu xil ionlarning hosil bo'lishi zaryadning maksimal taqsimoti bilan belgilanadi:



4.3. Ionlanish usullari

Mass-spektroskopiyada molekula ionlanishining asosiy sharti shuki, molekulyar ionlar magnit maydonli kamerada boshqa molekula yoki ionlar bilan to'qnashmasligi lozim. Bu shart molekula va hosil bo'lgan ion orasidagi o'zaro uzviyligini (aloqadorligini) aniqlash uchun zarur. Odatda bu tajribani bajarish uchun molekulyar gazlar oqimi va molekulyar tutami to'qnashmasligi natijasida erishadilar. Molekulyar gaz oqimi olishning sharti tirqishning oqim chiqadigan d-diametri oqim erkin harakat uzunligi λ_M dan kichik bo'lishi lozim, ya'ni

$$d \ll \lambda_M \quad \text{yoki} \quad 30d \approx \lambda_M \quad (4.1)$$

Eritma harakat uzunligi bosimga teskari proprotsional bo'lgani uchun tirqish diametri bir necha mikrometrdan

millimetrning o'ndan birigacha bo'lishiga ruxsat etiladi. Gaz bosimi esa 10 Pa dan oshmasligi kerak. Molekulalarning ionlanishi bir necha usulda amalga oshirilishi mumkin.

Elektronlar ta'sirida ionlash. Osonligi, soddaligi va yuqori samaradorligi bilan bu usul eng ko'p tarqalgandir. Ionlarga ajrashuvchi elektronlarning energiyasi molekula ionlanish energiyasidan katta bo'lishi kerak (~ 10 eV) odatda 50-100 eV energiyali elektronlar qo'llaniladi, chunki du energiya chegarasida turli molekulalarning ionlanishi maksimal darajada yuz beradi. Elektron oqimi ta'sirida ionlanishi vaqt birligida hosil bo'ladigan ionlar soni ion toki tenglamasini keltirib chiqaradi:

$$I_j = I_e n_j \sigma_j l \quad (4.2)$$

Bunda I_j – j ko'rinishdagi ionlar oqimi, I_e – elektron toki (oqimi), n_j – hajm birligida j tipidagi ionlanadigan atom yoki molekulalar soni, l – ionlanadigan gazdaggi elektronlar oqimi o'tadigan masofa, σ – ionga parchalanadigan molekulaning uonlanish yuzasi, bu kattalik ionlantiruvchi oqimning kesimi (diametri), bu kattalik elektron energiyasiga bog'liq bo'ladi.

Bir dona molekulaning bir elektron bilan l -masofadagi ionlanish ehtimolligi:

$$I_j/I_e = n_j \sigma_j l / (4.3)$$


Bu tenglamadan ko'rinaridiki, σ_j o'lchami molekulaning ionlanish yuzasi (L^2)ga teng bo'ladi. Demak, sodda holda, atom va molekulalarning o'lchami qancha katta bo'lsa, σ ham shuncha katta bo'ladi. Ionlanish jarayonida bir va ko'p zaryadli zarrachalar hosil bo'lish ehtimolligi katta. Umuman olganda, ionlanish jarayonida asosan bir zaryadli ionlar miqdori ko'p bo'ladi. Dissotsiativ ionlanishda i-xildagi bo'lakli ionlar oqiminining j-tipidagi molekulalardan hosil bo'lgan bo'lakli ionlarga nisbati quyidagicha bo'ladi:

$$I_{i,j} = I_e n_j \sigma_j l \quad (4.4)$$

bundagi σ_j – dissotsiativ ionlanishining parsial kesimi (bu qiymat hisoblab topilishi ham yoki eksperiment davomida o'lchab

topilishi ham mumkin. σ va σ_j kattaliklarini molekula uchun hisoblab topish ancha qiyin kechadi. Bu hisoblashning xatoligi ham katta bo'lib, ba'zida bu farq 2-3 martagacha ortadi.

Ion hosil qiladigan elektronlar oqimining eng kichik energiyasi paydo bo'lish potentsiali (PP) deyiladi. Bu kattalik $\sigma(V)$ egri chizig'ining absissa o'qi bilan kesishgan joyiga mos keladi. Odatda ko'p molekulalar uchun $\sigma(V)$ maksumum 70 V chegarasida bo'ladi (4.3-rasm).




4.3-rasm. Ionlantiradigan elektronlar uchun ionlanish kesimining tezlashtirish potensialiga bog'liqligi.

Ionlanish jarayoni uchun ortib boruvchi kuchlanish 5dan 100 V chegarasida amalga oshiriladi. Elektron energiyasining quyi qiymatlari chtgarasida o'r ganiladigan molekulaning mass-spektrida asosan molekulyar ionlar hosil bo'ladi. Elektron energiyasini oshirish dissotsiativ ionlanishga olib keladi va molekulyar ionlar hosil bo'lishining nisbiy kamayishi kuzatiladi.

4.4-rasmda ion manbayi sxemasi berilgan bo'lib, gazsimon va oson uchuvchan birikmalar bevosita kameraga tushadi. Uchuvchanligi past bo'lgan va termik beqaror birikmalar bevosita kuzatish kamerasida bug'lantiriladi va molekulyar ionlar oqimi sifatida ionlanish kamerasiga uzatiladi. Ionlanish kamerasida hosil bo'lgan musbat zaryadli ionlar 1-3 kV kuchlanishdagi elektrodlar ta'sirida elektr maydoni tomon tortiladi. Kameradagi bosim $\sim 10^{-3}$ Pa. Ionlaydigan elektronlarning egri chiziqli harakatdan og'ishi yoki hosil bo'lgan tok ta'sirida monoxromativligining yo'qolishi bu usulning asosiy kamchiligidir.

4.4-rasm. Ion manbaining principial sxemasi. 1-ion o'tkazadigan kanal. 2-ionlanish kamerasi, 3-elektron manbai, 4-yig'uvchi linza, 5-fokuslovchi linza, 6-ionlar oqimi.



Fotoionlanish. Ionlarga ajratuvchi nurlanish energiyasi 7-15 eV va to'lqin uzunligi 80-120 nm intervalida bo'lgan. Fotoionlaydigan manbadagi ionlarning monoxromatikligi yuqori bo'lib (~0,01 eV gacha), bu usul bilan olingan mass-spektrda oz liniyalar qayd qilinadi.

Elektr toki bilan ionlanishi. Bu usul maydon gradiyenti $\sim 10^7\text{-}10^8$ V/sm bo'lgan ingichka simlar orqali amalga oshiriladi. Bunday kuchli bir jinsli bo'lmagan maydonda molekuladagi elektronning anodga tomon ta'qilangan o'tishi 10^{-12} sek vaqt birligida amalga oshiriladi.

Kimyoviy ionlanish. Bu ionlanish bevosita o'r ganiladigan molekula bilan iongaz-reagentning o'zaro to'qnashuvidan amalga oshadi. Kimyoviy ionlanishda molekulaning fragmentlar parchalanishi kamayadi. Gaz-reagent sifatida CH_4 , C_3H_7 , $(\text{CH}_3)_3\text{CH}$ ishlataladi. Kimyoviy ionlanishda metandan CH_3^+ va C_2H_5^+ kabi reaktiv ionlar olinsa, propandan $-\text{C}_2\text{H}_5^+$ va C_3H_7^+ , butandan $-\text{C}_3\text{H}_7^+$ va C_4H_9^+ ionlari chiqadi. Bu ionlar kuchli Lyuis kislotalaridir. Ion molekulyar reaksiyalarda molekulaga proton birikishi $(\text{M}+\text{H})^+$ yoki gidrid-ion ajralisbi $(\text{M}+\text{H})^-$ mumkin.

Sirt yuzasida ionlanish. Ionlar oqimi yuqori haroratgacha qizdirilgan metallar sirtidan musbat zaryadli ionlarni o'tkazib olinadi. Odatda ishchi metall sifatida volfram yoki oksidlangan volframu qo'llaniladi.

Ionlanishning kombinatsion usullari. Turli molekulalardan iborat tizimlarni o'r ganish uchun tadqiqot ikki xil ionlanish: elektron oqimi va elektr maydoni yoki elektron oqimi va kimyoviy ionlanish usullari qo'shish bilan olib boriladi. Bu ikki

usulda olingen spektrlarning fazoviy tuzilishini aniqlaydigan tadqiqot ishlarida qo'shgan hissasi katta bo'ladi.

Ayrim organik moddalarni bug' holiga o'tkazish imkoniyati yo'qligi yoki qizdirilganda parchalanganligi sababli bu usuldan foydalanadilar. Kombinatsion usullar qo'llanilganda o'r ganiladigan namuna sirti yaqinida maydon desorbsiyasi yoki ikkilamchi desorbsiya qo'llaniladi. Ikkilamchi ionlanish usulida dastlabki ionlar oqimi yaxshi tozalangan kumush plastinkalari sirtidagi o'r ganiladigan modda namunasiga yo'naltiriladi.

Birinchi magnitli mass-spektrometr 1918-yilda Dempster tomonidan yaratilgan bo'lsa ham bu uskunaning ish prinsipi hozirgi zamонавији qurilmalarda ham saqlanib qolgan (4.5-rasm). Ion manbayida (IM) tezlashtiruvchi V-kuchlanish ta'sirida monoenergetik ionlar oqimi vujudga keladi:

$$\frac{m\vartheta^2}{2} = eV \quad (4.5)$$

ϑ – ion tezligi, m – uning massasi, e – shu ionning zaryadi.

Magnit maydonida perpendikulyar yo'nalgan ionlar oqimi Lorens kuchi ta'sirida bo'ladi:

$$F = e[\vartheta \cdot B] \quad (4.6)$$

B – magnit maydonining induksiyasi.

Magnit maydonida ionlar turli radiusdagи aylana bo'yicha harakatlanadi. Musbat ionlar oqimi uchun bu harakat chap qo'l qoidasiga bo'ysunadi: kaftingiz V – o'qi bo'yicha yo'nalgan, va unga B – magnit maydonining kuch chiziqlari (liniyalari) kiradi; bosh barmoq F – kuch yo'nalishini ko'rsatadi. Vektorlar o'zaro perpendikulyar yo'nalgani uchun kuch tenglamasi soddalashib oddiy ko'rinishga ega bo'ladi:

$$F = e\vartheta B \quad (4.7)$$


Lorens kuchining dinamik ifodalanishi kinematik shakldagi markazga intilma kuchga tenglashtirish mumkin:

$$\frac{m\vartheta^2}{r} = e\vartheta B \quad (4.8)$$

yoki

$$r = \frac{m\vartheta}{eB} \quad (4.9)$$

r – ionlarning yoysimon trayektoriya radiusi.



4.5-rasm. Mass-spektrometr sxemasi: IM-ionlar manbi; D-ionlar detektori; s_1 -chiqish va s_2 -kirish tirkishlari; B-rasm tekistigiga perpendikulyar yo'nalgan magnit maydoni; M_1^+ , M^+ , M_2^+ -ionlar harakatlanadigan aylanalarining r_1 , r , r_2 radiuslari va O_1 , O , O_2 -markazlari.

Doimiy magnit maydonida (B) r – radius o'zgarmaydi, va ionlarning harakat trayektoriyasi aylana hosil qiladi. (4.5) va (4.9) tenglamalarni kombinatsiyalab, ϑ -ni olib qo'ysak, bir zaryadli ion uchun quyidagi tenglik hosil bo'ladi:

$$\frac{m}{e} = \frac{r^2 B^2}{2V} \quad (4.10)$$

r , B va V berilgan qiymatlari bo'lsa, m -massali ionlar oqimini o'lhash mumkin. Tezlashtiruvchi V-potensialini (elektrostatik kuchaytirish) yoki magnit maydoni (B) induksiyasini o'zgartirish (magnit maydonini kuchaytirish) orqali ionli mass-spektr olinadi. Ionlashtiruvchi elektronlar energiyasiga bog'liq ravishda ionlangan oqimning o'zgarishini aniqlashda B va V qiymatlari doimiy (const) bo'lishi lozim.

Metastabil ionlar (M_o^+) ionlar analizatorga kirdguncha yo'lda ikkita ionga parchalanadi: M_1^+ va neytal zarracha ($M_o - M_1$), ya'ni:

$$M_o^+ = M_o^+ + (M_o - M_1) \quad (4.11)$$

Bunda juda kam miqdorda energiya ajralgani uchun dastlabki dissotsilangan iondan ajralgan bo'laklar o'z tezligini o'zgartirmaydi (yo'qotmaydi):

$$eV = \frac{m_o v^2}{2} = \frac{m_1 v^2}{2} + \frac{(m_o - m_1)v^2}{2} \quad (4.12)$$

bu yerda m_o , $m_1 - M_o^+$ va M_1^+ ionlar massasi.

M_1^+ ionning kinetik energiyasini $\frac{m_1}{m_o} eV$ ifoda orqali M_o^+ ioni energiyasi qiyamatidan topish mumkin. M_o^+ ioni harakatlanadigan aylana radiusi ion massasi va energiyasi orqali (4.12) tenglama yordamida aniqlanadi:

$$r_0 = \frac{\sqrt{2m_o eV}}{eB} \quad (4.13)$$


Xuddi shunday tenglama bo'lakli ion uchun ham qo'llaniladi:

$$r_1 = \frac{\sqrt{2m_1 \frac{m_1}{m_o} eV}}{eB} \quad (4.14)$$

yoki (4.10) tenglama yordamida aniqlash mumkin:

$$\frac{r^2 B^2}{2V} = \frac{m^*}{e} = \frac{m_1^2}{em_o} \quad (4.15)$$

Bu tenglamadan ko'rindiki, bo'lakli ion ham $m^* = \frac{m_1^2}{m_o}$ effektiv massali normal ion kabi kollektor maydonida paydo bo'ladi. Masalan n -butan mass-spektrida nisbiy molekulyar massasi 31,9 bo'lgan diffuz cho'qqi qayd qilingan, chunki $43^2/58 = 31,9$ ga teng:



Mass-spektrometrning mubim tavsifiga ionlar oqimini fokuslashi, ajratuvchi kuchi va sezgirligi kiradi. Magnit maydonining muhim xususiyatlaridan biri ionlarni ular yo'nalishi bo'yicha fokuslashidir, chunki ionlar magnit maydoni yo'nalishiga nisbatan kichik burchak ostida otilib chiqadi va oqim sochiladi (tarqaladi). Moslamaning yaxshi fokuslashi uning sezgirligini va ionlarni ajratish kuchini (qobiliyatini) oshiradi.


Spektrometrning ajratuvchi kuchi (R) ikki qo'shni cho'qqilarni massasi (m) katta og'ir ionlar va ($m+\Delta m$) massali ionlarning nisbatini aniqlashga qaratilgan:

$$R = \frac{m}{\Delta m} = \frac{r}{s_1 + \delta + s_2} \quad (4.16)$$

s_1 va s_2 – chiqish va kirish tirkishlari o'lchami, δ – ion oqimining sochilishi (kengayishi). Bu oxirgi kattalik fokuslash mukammal bo'lмаган hollarda (magnit maydonining bir jinsli bo'lmasligi, ϑ – tezlikning o'zgaruvchanligi va h.o.) qayd etiladi. Mass-spektrometrning ajratish qobiliyati quyi ($R \leq 2000$) va yuqori ($R > 10\ 000$) bo'lishi mungkin. Mass-spektrometrning ajratish qobiliyati fokuslash shakli va sifati bilan belgilanadi.

Ionlar manbayi va kollektordagi ionlarga magnit maydoni ta'sirini kamaytirish uchun maxsus sektor tipidagi mass-spektrometrlardan foydalanadilar. Bu jihozlar har xil kattalikdagи sektorlardan iborat bo'lib, ularning qutblari orasida magnit maydoni hosil qilinadi. Dempster asboblarida bu sektor kattaligi 180° bo'lsa, bugungi spektrometrlarning sektori 90° ga teng (4.6-rasm). Hisoblashlarning ko'rsatishicha, agar magnit maydoniga kiradigan va undan otilib chiqadigan ionlar oqimi maydon chegarasiga perpendikulyar yo'nalgan bo'lsa, bu zarrachalar ionlar manbayining chiqish tirkishidan o'tib, to'g'ri chiziq yo'nalishida fokuslanadi va ionlar trayektoriyasi bilan sektor cho'qqisining egriligi mos tushadi. Bu holat bo'yicha fokuslanish 4.6-rasmda tasvirlangan.

4.6-rasm. Sektor tipidagi mass-spektrometri: s_1 – chiqish va s_2 – kirish tirkishlari; B – sektorli magnit maydoni; $\varphi = 90^\circ$, O – sektor markazi.




Spektrometrning ajratish qobiliyati sektor burchagi kattaligiga bog'liq emas. Sektorli spektrometrlarda magnitlar o'lchami kichraytiligan, ionlar manbayi va kollektor esa magnit maydoni chegarasidan tashqarida joylashtirilgan. Natijada sektorli

magnit bilan jihozlangan bu qurilmalarda magnit kichik bo'lsa ham yuqori natijalarga erishish mumkin. Ammo shuni qayd qilish lozimki, bu qurilmalarda ionlarni identifikasiyalashda va magnit fokuslashda spektrning maksimal ajralishiga erishish qiyin, chunki ionlarning energiyasi har xil bo'lgani sababli ular turlicha sochiladi.

Agar mass-spektrlarni yozish paytida magnit maydonida ajralgan ionlar yo'lida elektr maydoni hosil qilinsa, ionlarning bir-biridan ajralish qobiliyati ortadi. Bu jarayonga *qo'sh fokuslash* deyiladi (4.7-rasm). Ion manbayidan chiqqan ionlar oqimi radial elektr maydonli silindrsimon kondensatordan o'tkaziladi, energiyasi bir xil ionlar alohida filtrlanadi va o'z yo'naliishi bo'yicha fokuslanadi.

Amalda elektr maydonini magnit maydonidan avval yoki keyin qo'yilishi tajriba natijasiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Shundan keyin ionlar oqimi perpendikulyar yo'nalgan magnit maydonidan o'tkaziladi va detektorda mass-spektr qayd etiladi. Bir dona magnit analizatori bo'lgan mass-spektrometrarda ajratish qobiliyati $300+3000$ martagacha kuchayadi. Qo'sh fokuslashda bu kattalik 30000 martagacha, maxsus kuchaytirilgan spektrometrarda 10^6 martagacha yuqori natija beradi.




4.7-rasm. *Qo'sh fokuslovchi mass-spektrometr sxemasi: IM-ion manbai; A-elektrostatik va B-magnit analizatorlar; D-ionlar detektori.*


Ionlar hosil bo'lishini yaxshilash va ularni sifatli ajratish uchun spektrometrlar yuqori vakuum moslamasi ($10^{-6}+10^{-14}$ Pa) bilan jihozlanadi. Bu usulda mass-spektrometrning sezgirligi

ortadi. Bu analizda mikroqo'shimchalar miqdori 10^{-7} % gacha (real sharoitlarda 10^{-4} – 10^{-3} % miqdorgacha) aniqlanadi. Mass-spektrni qayd qilish uchun bor-yo'g'i bir necha mikro yoki nanogramm modda yetarli bo'ladi.

Misol tariqasida CO, N₂ va C₂H₄ gazlarining molekulyar massalari bir-biriga yaqin bo'lgani uchun oddiy mass-spektrda ularning signallari ajralmaydi (4.8-rasm). Qo'sh fokuslash yordamida bu moddalarning cho'qqilari alohida qayd etiladi (4.9-rasm).



4.8-rasm. Qo'sh fokuslash
bo'lmaganida.



4.9-rasm. Qo'sh fokuslash bilan olinganda.
bo'lganida.

Molekulyar ionlarning aniq molekulyar massalarini aniqlash bugungi kunda ularning molekulyar formulasini isbotlashda muhim o'rinni egallaydi. Bugungi kunda nisbiy molekulyar massa atom massa birligi (a.m.b.) sifatida aniqlanadi. Bu qiymat ¹²C-izotopining 1/12 hissasini ($A_r=12,000000$) tashkil etadi. Masalan, CO₂ va C₃H₈ massalari 44 ga teng deb qabul qilingan bo'lsa ham, ularning aniq nisbiy molekulyar massalari tegishlicha 43,989828 va 44,062600 ga teng, ya'ni ular orasidagi farq $\Delta M=0,072772$ a.m.b. ga farq qiladi. Ajratish qobiliyati 1000 bo'lgan mass-spektrometr CO⁺ ionlar oqimidagi nisbiy molekulyar massasi 27,9949 va 28,0062 ga teng bo'lgan zarrachalar borligini belgilab bera oladi. Ajratish qobiliyati 100 000 ga teng bo'lgan mass-spektrometr adrenalin (C₉H₁₃NO₃)ning molekulyar massasini yuqori aniqlikda topib berdi.

Molekularning atom tarkibini aniqlashda atom massalari aniq ko'rstilgan jadvallardan foydalanadilar, bular orasida eng

ko'p tarqalgan C, H, N va O atomlarning turli nisbatdagi qiymatlari ham belgilab olingan. Aniq massalarning topilishi element tahlil o'mini bosa olmaydi, shuning uchun ular bir-birini to'ldiradi. Element tahlil moddalar tozaligi va molekulyar formulasini aniqlash uchun muhim o'rinni tutadi. Ayni bir paytda modda molekulasi tarkibida bir necha izotoplarning mavjud bo'lish ehtimolligi kichik bo'lsa ham, buni e'tibordan chetga chiqarmaslik lozim. Molekulyar ionlarning $M+1$ massa miqdorini aniqlash uchun modda tarkibidagi element izotoplarining barcha nisbatdagi kombinatsiyalari e'tiborga olinadi (4.2-jadval).

4.2-jadval

Tabiiy moddalar tarkibida uchraydigan M^+ , $(M+1)^+$ va $(M+2)^+$ massali ion cho'qqilari intensivligining nisbati

Massa soni M		$I(M+1) / I(M)$	$I(M+2) / I(M)$
$M = 15$	NH	0,40	< 0,01
	CH ₃ *	1,13	< 0,01
$M = 30$	NO*	0,42	0,20
	N ₂ H ₂	0,79	< 0,01
	CH ₂ O	1,15	0,20
	CH ₄ N*	1,53	0,01
	C ₂ H ₆	2,26	0,01
$M = 31$	NOH	0,44	0,20
	N ₂ H ₃	0,81	< 0,01
	CH ₃ O*	1,17	0,20
	CH ₃ N	1,54	< 0,01

* – eng ko'p tarqalgan fragmentar ionlar


Odatda molekulyar ionlarning massasini aniqlashda izotoplarning tabiiy tarqalganlik darajasidan foydalanish hamisha ham yaxshi natija bermaydi, chunki $M \approx 250$ atrofida bo'lgan birikmalar uchun qabul qilingan M^+ , $(M+1)^+$ va $(M+2)^+$ ionlar intensivligining nisbatlari juda kichik bo'ladi.

Elektronlarning ionlanish energiyasi oshgan (~ 70 eV) sari mass-spektrlarda molekulyar ionlarning paydo bo'lishi va ularning kuzatilish ehtimolligi kamayib boradi. Bu paytlarda birikmalarning kimyoviy modifikatsiyasi amalga oshiriladi, ya'ni dastlabki olingan moddaning parchalanishi jarayonida

parchalanadigan barqaror molekulyar ionlarning hosil bo'lishi inobatga olinadi. Bu usul bilan aniqlangan moddaning molekulyar formulasiga qarab uning tuzilishi isbotlanadi. Olingan brutto-formula asosida organik birikmaning to'yinmaganlik darajasi aniqlanadi. Buning uchun CH_3 -guruhi o'miga galogen, yoki CH_2 -fragmenti o'miga kislorod va oltingugurt kiritish hamda CH-funksiyasini azot bilan almashtirish kabi hisoblashlar olib boriladi va uglevodorod yoki hosilasining formulasi topiladi. $\text{C}_n\text{H}_{2n+2}$ tarkibli moddani solishtirish bilan molekuladagi qo'shbog'lar yoki to'yingan halqalar soni aniqlanadi. Bunday alternativ tahlillar IQ-, UB- va YaMR spektral tadqiqot natijalari bilan solishtirish natijasida noma'lum birikmaning tuzilishi aniqlanadi.


Namuna mass-spektrining yechimini topishning keyingi bosqichi molekulaning fragmentlanish (parchalanish) qonuniyatları asosini hisobga olishamalga oshiriladi. Spektrda ko'p bo'lakli ionlardan m/e kamayishi bilan olingan cho'qqilar intensivligining ortib borishi odatda namunada alifatik uglevodorod yoki uning hosilasi borligini anglatadi. Aromatik birikmalarning molekulyar-ion cho'qqilari odatda yuqori intensivlikka ega. Spektdagi asosiy bo'lakli ionlardan intensiv cho'qqilarning olinishi dissotsiativ parchalanishning ehtimollik yo'nalishini ko'rsatib beradi. Bunga misol tariqasida fragmentlanish qonuniyatiga ko'ra quyidagicha bog'lar uzilishini ko'rsatishimiz mumkin:

1.Izo-tuzilishli uglevodorod hosilalarining tarkibidagi bog'ning uzilish ehtimolligi zanjir tarmoqlangan joydan boshlanadi:




2.Uglevodorod zanjirining uzayib borishi C-H bog'ining uzilish ehtimolligini kamaytiradi.

3.Aromatik uglevodorod hosilalaridagi β -bog'ning uzilishi va qayta guruhlanish oqibatida tropiliy (C_7H_7^+) kationining hosil bo'lish ehtimolligi juda yuqori bo'ladi:




4. Spirlarning mass-spektrlari uchun xarakterli bo‘lgan yo‘nalish massasi 31 va $M - I$ bo‘lgan ionlar paydo bo‘lishi bilan amalgalashadi:




Hosil bo‘lgan ionlarning barqarorligini oshiruvchi omil sifatida qo‘sibog‘ning paydo bo‘lishi va to‘yinmagan $\text{CH}_2=\text{OH}$ (31) yoki $\text{RCH}=\text{OH}$ ($M - I$) ionlarning mavjudligi bilan belgilanadi. Bu xildagi parchalanish sxemasi ko‘proq tarmoqlangan zanjirtutgan spirlar uchun xosdir.

5. $\text{R}-\text{CH}_2-\text{NH}_2$ kabi aminlar uchun asosan α -bog‘ining uzilishi kuzatiladi:



Bunda jarayon $\text{CH}_2=\text{NH}_2^+$ (30) kabi ionning hosil bo‘lishi bilan kechadi. Ba’zi hollarda $\text{RCH}=\text{NH}_2^+(M - I)$ ioni ham ajraladi.

6. Ketonlar $\text{R}_1-\text{C}(\text{O})-\text{R}_2$ mass-spektrida $\text{R}_1-\text{C}\equiv\text{O}^+$ va $\text{R}_2-\text{C}\equiv\text{O}^+$ kabi ionlarning hosil bo‘lishi ham qayd qilingan. Agar alkil radikalining kattaligi uch va undan ortiq uglerod atomidan iborat bo‘lsa, β -holatdagি C-C-bog‘ uzilishi kuzatiladi va vodorod atomi ishtirokida qayta guruhlanish sodir bo‘ladi:



Bu holda molekulyar-iondan tashqari neytral olefin molekulasi ham ajralib chiqadi.

7. Metallorganik birikmalarda metall-uglerod bog'i kiehik energiyali bo'lgani uchun mass-spektrda molekulyar ionning intensivligi keskin kamayadi.

8. Alifatik ftoridlar, xloridlar, bromidlar kichik molekulyar ion tokiga ega, ammo iodidlardan ancha intensiv molekulyar-ion cho'qqilari kuzatiladi.

Ko'p hollarda faqat mass-spektrlar natijalariga ko'ra birikmalar tuzilishini aniqlash qiyin bo'lgani uchun qo'shimcha fizik-kimyoviy tadqiqot usullaridan foydalanish yuqori samara beradi.


4.4. Molekulalarning ionlanish potensialini aniqlash

Kimyoviy bog' uzilishining energiyasini hisoblash. Frank-Kondon nazariyasiga ko'ra ionlanish bosqichida molekula ion holatga o'tganda yadroning geometrik konfiguratsiyasi o'zgarmaydi. Ko'pincha bu o'tish ionning qo'zg'algan tebranma holatiga olib keladi, chunki ionning sirti yoki potensial egri chizig'i neytral molekulaga nisbatan ozgina siljiydi.

Molekulaning nolinchisi tebranish darajasidan ionning asosiy nolinchisi tabranish holatiga o'tishiga adiabatik ionlanish potensiali deyiladi. Eksperiment jarayonida elektronlar oqimi bilan molekulaga ta'sir etib, uni yuqori qo'zg'algan holatga o'tishi oqibatida qo'zg'algan ionning vertikal siljishi yuz beradi. Oqibatda adiabatik o'tish o'miga vertikal ionlanish potensiali vujudga keladi va u doimo birinchi o'tishdan katta bo'ladi. Amaliy tajriba o'tkazuvchi tadqiqotchining asosiy vazifasi ionlanishni adiabatik jarayonga yaqinlashtirishdan iborat. Adiabatik ionlanish potensiali spektroskopik usul bilan ham aniqlanishi mumkin. Masalan, vodorod molekulasing adiabatik ionlanish potensiali 15,427 eV ga teng bo'lsa, vertikal ionlanish – 16,07 eV, ya'ni ular orasidagi farq 0,4 eV bo'ladi.

Murakkab molekulalar uchun potensial o'tish yuzalari ko'p o'chamli bo'lsa ham, ikki o'lchamli potensial egri chizig'ini saqlab qolsa bo'ladi. Buning uchun ko'p atomli molekulani ikki qism R^1 va R^2 radikallardan iborat zarracha sifatida qarash mumkin.

Ionlanish potensialini aniqlashda ularni tezlashtiruvchi kuchlanish energiyasiga bog'liqligi qayd etib boriladi. Bu jarayon uchun effektiv ionlanish $I(E)$ egri chiziqlari deb ataladigan $\sigma(E)$ grafiklar olinadi (4.10-rasm). Ionlaydigan elektronlar oqimi monoxromatik bo'lmasligi uchun ($\Delta E = 0,5 \div 1$ eV) egri chiziqlarning boshlang'ich qismi dastlab yoysimon bo'lib (ionlanish egri chizig'ining "dumi"), keyin u to'g'ri chiziqli sohaga o'tadi (4.10-rasm). Shuning uchun ham grafikning to'g'ri chiziqli sohasidan absissa o'qi bilan kesishguncha ekstrapolyatsiya qilish oqibatida ionlanish potensiali nuqtasi birmuncha katta chiqadi.



4.10-rasm. Tadqiq etiluvchi va standart modda (masalan, Ar)lar ionlanish egri chiziqlarining boshlang'ich sohalari: $IP(A)$ va $IP(B)$ – A va B moddalarining ionlanish potensiali.

Fotoionlanish usulidan foydalanish eksperiment natijalari qiymatini taxminan $\sim 0,01$ eV chegarasida aniqlashtiradi.

Molekulalarning ionlanishida ion-radikallar manbai sifatida bir modda [masalan $Pb(C_2H_5)_4$] ishlatisa, boshqa radikallarning ionlanish potensialini aniqlashda ayni shu usul bilan hosil qilingan radikallardan foydalanadilar.

Dissotsiativ ionlanish jarayonida bo‘lakli ionlar hosil bo‘lishi kuzatiladi va bu jarayondagi ionlanishning samaradorlik egrisi chiziqlari qayd etiladi. Parchalanadigan molekulaning dissotsiativ ionlanishida (*ionlanish potensiali* – IP) R₁ va R₂ radikallari hosil bo‘ladigan jarayon uchun *ion hosil bo‘lish potensiali* (HBP) quyidagi shaklda yoziladi:

$$HBP(R_1^+) = D(R^1 - R^2) + IP(R_1) + T(R_1^+, R^2) + E(R_1^+, R^2) \quad (4.17)$$

bu tenglamadagi HBP(R₁⁺) R₁⁺=M-R₂ ionning hosil bo‘lish potensiali; D(R¹-R²) – R₁R₂-molekulasining dissotsilanish energiyasi; T(R₁⁺, R²) – bo‘lakli ionlarning (R₁⁺, R) kinetik energiyasi; E(R₁⁺, R²) – shu ionlarning (R₁⁺, R) qo‘zg‘algan holatga o‘tish energiyasi.

Odatda iordlarning hosil bo‘lish energiyasi nolga teng deb qabul qilingan va u minimal qiymatdagи qo‘zg‘algan holatga o‘tish energiyasi bilan teng deb qabul qilingan. R₁⁺, R² – radikallarning energiyasi ham HBP va ionlanish potensiali energiyasi juda kichik bo‘lgani uchun e’tiborga olinmaydi.

Oqibatda ion hosil bo‘lish potensialini aniqlab, molekulaning dissotsilanish energiyasi ham hisoblanadi:

$$D(R^1 - R^2) \approx HBP(R_1^+) - IP(R_1) \quad (4.18)$$

Ayni shu holat uchun (4.18) tenglamadan foydalanim radikallarning ionlanish potensialini aniqlash mumkin:

$$IP(R_1) \approx HBP(R_1^+) - D(R^1 - R^2) \quad (4.19)$$

Olingan IP qiymatlari yordamida molekulalarning ionlanish potensiallarini solishtirishuchun foydalananish mumkin (4.3-jadval).

4.3-jadval

Ayriin molekula va radikallarning IP energiyalari

Molekula	IP, eV	Molekula	IP, eV	Molekula	IP, eV
CH ₃ -CH ₂ -CH ₃	11,21	CH ₂ =CH ₂	10,51	H ₃ C	9,95
CH ₂ =CH-CH ₃	9,73	CH ₂ =CH-CH=CH ₂	9,06	CH ₂ =CH-H ₂ C	8,16
CH=C-CH ₃	10,36	CH ₂ =C-CH=CH-CH=CH ₂	8,26	C ₆ H ₅ -H ₂ C	7,76

Agar molekula tarkibida qo'shbog' va tutash tizim hosil qilgan diyen tizimlar bo'lsa, IP qiymatlari pasayadi, bu esa tashqi elektronni uzish osonligi haqidagi nazariyaga mos keladi. Chunki qo'shbog' va tutash tizim tutgan molekulalarda yuqori bog'lovchi va ajratuvchi molekulyar orbitallar orasidagi energetik farq pasayadi.

Alkanlarning gomologik qatorida metandan (CH₄, IP=12,98 eV) boshlab, geptanga o'tganda (C₇H₁₆, IP=10,08 eV) ionlanish potensiali kamayadi. Bu ma'lumot alkandagi kabi boshqa birikmalarda ham molekulyar orbital bitta bog'ga tegishli bo'lmasdan butun molekulada tarqalganligini isbotlaydi.

Aminlar va efirlar, aminlar va alkil radikallari misolida IP kattaliklari orasidagi chiziqli korrelyatsiya (*mutanosiblik*) mavjudligi aniqlandi. IP parametrlari zaryad ko'chgan komplekslar, termokimiyoviy hisoblashlar, ionlarning tuzilishini o'rgasnishda muhim ahamiyat kasb etadi. Molekulalarning dissotsilanish energiyasi (D) haqidagi ma'lumotlarning ayrimlari 4.4-jadvalda keltirilgan. Allil va benzil hosilalaridagi C–H va C–Cl bog'lar uzilish energiyasi ancha pasayadi, bu esa ular molekulasidagi radikallarda tutash tizim borligini ko'rsatadi (4.4-jadval).

4.4-jadval

Kimyoviy bog'ning uzilish energiyalari, D, kJ/mol


Molekula	D	Molekula	D	Molekula	D
CH ₃ –H	428	CH ₃ –Cl	338	H ₂ N–NH ₂	252
C ₂ H ₅ –H	407	C ₆ H ₅ CH ₂ –Cl	254	O ₂ N–NO ₂	57
C ₆ H ₅ –H	428	(C ₆ H ₅) ₃ C–Cl	202	F ₂ N–NF ₂	80
CH ₂ =CHCH ₂ –H	323	CH ₂ =CHCH ₂ –Cl	254		

Kimyoviy bog'larning o'rtacha energiyasi bilan neytral molekula bog'larining uzilish energiyasi va ionlar uchun bog'larning uzilish energiyasi bir-biridan farq qiladi. Masalan, oddiy O–H bog' energiyasi E_(O–H)=461 kJ/mol bo'lsa, D_(O–H)=495,6 kJ/mol va D_(O–H)=461 kJ/mol ekanligi isbotlandi.

Kimyoviy tuzilish nazariyasi yaratuvchilari davriy sistema birinchi guruh elementlarining ikki atomli molekulalari va ular ionlarining dissotsilanishini o'rganish jarayonida energiya o'zgarishiga o'z e'tibor-larini qaratdilar. Masalan, D(H₂) (D=433,9 kJ/mol) >D(H₂⁺) (D=256,9 kJ/mol), chunki oddiy molekuladan bog' hosil qilgan elektron juftidan birining uzilishi ikki markazli bog'ni zaiflashtiradi. Ammo bu xulosa boshqa molekula va ionlarning parametrlari bilan bog' hosil qiluvchi juft elektronlarning oddiy konsepsiyasiga mos kelmaydi:

Molekula yoki ion	Li ₂	Li ₂ ⁺	Na ₂	Na ₂ ⁺	K ₂	K ₂ ⁺
D, kJ/mol	79,5	121,8	71,4	94,5	53,8	88

Mass-spektrometrik tahlil natijalari grafik shaklda (4.11-rasm) yoki jadval shaklida (4.4-jadval) ifodalanadi.




4.11-rasm. NaF bug'larining mass-spektri.

4.4-jadval


Natriy ftoridi bug'lari mass-spektrining parametrlari (1000 K).

Ion	Massa soni	Nisbiy intensivlik, %	Ion	Massa soni	Nisbiy intensivlik, %
F ⁺	19	1	NaF ⁺	42	5
Na ⁺	23	100	Na ₂ F ⁺	65	30

Bugungi kunda zamonaviy mass-spektrometrarning yangi imkoniyatlari kashf qilindi. Bu usul xromato-mass-spektrometriya deb ataladi (4.12-4.13-rasmlar). Bu jihozning asosiy vazifasi uning imkoniyatlaridan kelib chiqib, moddalarni ajratish, identifikatsiyalash va miqdoriy analizdan iborat.




4.12-rasm. DFSTM
mass-spektrometri.



4.13-rasm. Termoionizatsion mass-
spektrometr.



4.14-rasm. Xromato-mass-spektrometrlar



Nazorat savollari


1. Mass-spektrometrik usul mohiyatini bilasizmi?
2. Mass-spektrometriya va optik spektroskopiya farqlarini tushuntiring.
3. Mass-spektrometrik usul bilan izotoplар haqida ma'lumot olish mungkin mi?
4. Mass-spektrometrik tahlilda ionlanishning qaysi usullaridan samaralidir?
5. Mass-spektrometriyada ionlanish hodisasi qachon kuzatiladi?
6. Moddani mass-spektrometrga kiritishda qanday usullardan foydalaniladi?
7. Molekulyarion, kation-radikal va bo'lakli ionlar hosil bo'lishini izohlab bering.

8. Metastabil ionlar qachon kuzatiladi?
9. Qo'sh fokuslash nima uchun qo'llaniladi?
10. Qaytadan guruhlanuvchi ionlar qachon paydo bo'ladi?
11. Skeletli qayta guruhlanish nimani anglatadi?
12. Birikmalarning brutto-formulasi qanday aniqlanadi?
13. Molekulalarning ionlanish potensiali qanday topiladi?
14. Mass-spektrometrining sezish qobiliyati nimani anglatadi?


Masala va mashqilar

1-masala


Mass-spektrda intensivligi 100 % bo'lgan 86 va 73 massali ionlar qayd etilgan. Mass-spektrda 159 molekulyar-ionga mos keluvchi quyidagi qaysi birikma (A va B)ning formulasi berilgan?



A.





B.




2-masala

Moddaning mass-spektrida $m/e = 168$ (4,4); 139 (38); 125(14); 97 (18) ionlar mavjud, ionlar massasi A va B tuzilishdagi moddaning qaysi biriga mos kelishini tushuntiring.




3-masala

Brunto-formulasi $C_6H_{12}O$ ($M_r=100$) bo'lgan ketonning mass-spektri bo'yicha tuzilishini aniqlang ($M^+=71$).




4-masala

Berilgan mass-spektr C_4H_9Br ning qaysi izomeriga to'g'ri keladi? Mass-spektrda intensivligi eng yuqori bo'lgan ionlar 57, 41 va 29 qaysi tuzilishdagi galogenalkandan hosil bo'ladi?







5-masala





Moddaning tarkibida uglerod, kislorod, vodorod va galogen bo'lib, uning massasi 124 ga teng. Mass-spektr bo'yicha moddaning tuzilishini aniqlang.



6-masala




Rasmida berilgan mass-spektr quyidagi moddalarning qaysi biriga to'g'ri keladi?





7-masala

Mass-spektr qaysi aminokislota etil efirining spektriga mos keladi?



8-masala

Brutto-formulasi $\text{C}_2\text{H}_4\text{O}_2$ bo‘lgan moddaning mass-spektrida $m/e \sim 60, 45, 43, 42, 29, 27, 15$ bo‘lgan ion massalari, shu modda tuzilishini aniqlang.

9-masala

Mass-spektr bo‘yicha $\text{C}_5\text{H}_{10}\text{O}_2$ ning tuzilishini aniqlang. Onda quyidagi massali ionlar kuzatiladi: $m/e = 102, 87, 71, 59, 43$ (100), 41, 39, 29, 27.

10-masala

Mass-spektrida quyidagi ionlar hosil qilgan pentanolning tuzilishini aniqlang. $m/e = 87, 71, 70, 69, 55, 42$ (100), 31, 29.

11-masala

Mass-spektrida m/e qiymatlari 116, 99, 98, 56, 55, 45, 44, 43 (100), 29, 28, 27 bo‘lgan $\text{C}_5\text{H}_8\text{O}_3$ ning tuzilishini aniqlang.

A d a b i y o t l a r

- 1.Юнусов Т.К., Зайнутдинов У.Н., Утениязов Қ.У., Салихов Ш.И. Кимёда физикавий усуллар.- Тошкент.- Университет.- 2007.- 336 б.
- 2.Пентин Ю.А., Вильков Л.В. Физические методы исследования в химии.- М.: Мир.- 2003.- 683 с.
- 3.Умаров Б.Б. Физикавий тадқиқот усуллари, маъruzалар конспекти.- БухДУ.- Зиё-Ризограф.- 2000.- 187 б.
- 4.Драго Р. Физические методы в химии.- М.- Мир.- в 2х томах.- 1981.
- 5.Кукушкин Ю.Н. Химия координационных соединений.- М.: Высшая школа.- 1985.- 455 с.
- 6.Скопенко В.В., Цивадзе А.Ю., Савранский Л.И., Гарновский А.Д. Координационная химия.- М.: ИКЦ.- "Академкнига", 2007.- 487 с.

V BOB. MAGNETIZM

Reja:

- 5.1. *Magnit hodisalari va ularning turlari*
- 5.2. *Paskal konstantalari va ulardan foydalanish*
- 5.3. *Oddiy sistemalar uchun paramagnetizm*
- 5.4. *Atom orbitallari simvollari*
- 5.5. *Juflashmagan elektronlarning spin magnit momentlari (μ_{eff})*
- 5.6. *Kompleks birikmalarning magnit singdiruvchanligi*
- 5.7. *Kompleks birikmalar uchun μ_{eff} . kattaligi va almashinish integrallari*
- 5.8. *Nazorat savollari*
- 5.9. *Adabiyotlar*

Tayanch atamalar

Magnetizm. Diamagnit zarrachalar. Paramagnit zarrachalar. Ferromagnetizm. Ferrimagnetizm. Antiferromagnetizm. Magnit singdiruvchanlik. Paskal konstantalari. g –giromagnit nisbat (g-faktori, Lande faktori). Magnit induktivlanish. Kyuri qonuni. Kyuri nuqtasi. Neyel nuqtasi. Rassel-Saunders atom termlari. J –ikki molekuladagi toq elektronlarning o'zaro ta'siridagi almashinish energiyasi (almashinish integrali).

5.1. Magnit hodisalari va ularning turlari

Bu ma'ruzada bizlar magnetizmning ayrim aspektlarini ko'rib chiqamiz, chunki bu hodisalar mohiyatini o'rganmasdan turib anorganik va organik moddalarning, ayniqsa oraliq metallar kompleks birikmalarining YaMR va EPR spektrlarining mohiyatini tushunishga qiynalamiz. Molekulalarning magnit xususiyatlari ularning elektronlari soni va holatiga bog'liqidir va protonlarning tabiatи bilan belgilanmaydi (5.1-jadval). Moddalar magnit maydoni bilan o'zaro ta'sirlashuv munosabatiga ko'ra asosan 2ga bo'linadi: diamagnit va paramagnit zarrachalar.

Diamagnetizm va paramagnetizm hodisasini 1845-yilda ingлиз fizigi M. Faradey aniqladi va fanga tushuncha sifatida kiritdi.

Diamagnit moddalar ($\mu < 1$). Barcha moddalar bir xilda diamagnit xossalariга egadir. Diamagnitlik hodisasi oqibatida shu modda magnit maydonidan itariladi. Agar modda tarkibidagi barcha elektronlar juftlashgan bo'lsa, ular faqat diamagnitlik xossalarni namoyon qila oladi. Diamagnit jismrlarning magnit qiymati manfiy bo'lib, juda kichik ($\pm 1 \cdot 10^{-6}$) sonni tashkil qiladi.

5.1-jadval

Magnetizmning turli shakllari

Ko'tinishi	Ishorasi	Qiymati	Maydon ta'siri	Manbasi
Diamagnetizm	-	10^{-6}	Magnit maydoni ta'sir etmaydi	Juftlashgan elektronlar-ning aylanma harakat maydoni oqibatida
Paramagnetizm	+	$0 \cdot 10^{-4}$	Magnit maydoni ta'sir etadi	Juftlashmagan elektron-ning burchak momenti oqibatida
Ferromagnetizm	+	$10^{-4} \cdot 10^{-2}$	Magnit maydoni ta'sir etadi	Qo'shni atomlar dipol momentlari ta'sirida spinlarning chiziqli joylashuvi oqibatida
Antiferromagnetizm	+	$0 \cdot 10^{-4}$	Magnit maydoni ta'sir etadi	Dipol-dipol o'zaro ta'sir oqibatida elektron spin-larining juftlashuvi natijasida

Oraliq metallar kimyosini o'rganishda bu son kichik bo'lishidan qat'iy nazar uni inobatga olish lozim. Diamagnit jismrlar magnit maydonida joylashtirilganda, u tashqi maydon ta'sirida magnitlanadi, ammo magnit maydoni oqimi shu namuna ichida kamayadi. Oqibatda bu jismdan magnit maydoniga teskari yo'nalgan oqim paydo bo'ladi va diamagnit namuna magnit maydonidan "yengilgina" itariladi. Diamagnit singdiruvchanlik barcha jismrlarga xos bo'lib, juftlashgan elektronlar bilan tashqi magnit (H_0) maydonining o'zaro ta'siridan vujudga keladi (5.2-jadval). Ayniqsa, oraliq metallarning kompleks birikmlari

molekulasidagi ligandlar va tashqi sferadagi kationlarning diamagnit singdiruvchanligini Paskal konstantalaridan foydalanib, hisoblash mumkin. Masalan, $K_3[Fe(CN)_6]$ ning magnit singdiruvchanligiga K^+ va CN^- ionlarining hissasi jadval yordamida quyidagicha topiladi:

$$K^+ \quad 3(-14,9 \cdot 10^{-6}) = -44,7 \cdot 10^{-6}$$

$$CN^- \quad 6(-13,0 \cdot 10^{-6}) = -78,0 \cdot 10^{-6} \text{ Jami: } -122,7 \cdot 10^{-6}$$

5.2-jadval

Paskal konstantalari

Atom	$\mu_A \cdot 10^{-6}, \text{ sm}^3/\text{mol}$	Atom	$\mu_A \cdot 10^{-6}, \text{ sm}^3/\text{mol}$
H	- 2,93	F	- 6,3
C	- 6,00	Cl	- 20,1
C(aromatik)	- 6,24	Br	- 30,6
N	- 5,57	I	- 44,6
N(aromatik)	- 4,61	Mg^{2+}	- 5
N(monoamid)	- 1,54	Zn^{2+}	- 15
N(diamid, imid)	- 2,11	Pb^{2+}	- 32
O	- 4,61	Ca^{2+}	- 10,4
O_2 (karboksil guruh)	- 7,95	Fe^{2+}	- 12,8
S	- 15,00	Cu^{2+}	- 12,8
Se	- 23,00	Co^{2+}	- 12,8
P	- 26,30	Ni^{2+}	- 12,8

Ayrim ko'p tarqalgan molekulalar

H_2O	- 13	$C_2O_4^-$	- 25
NH_3	- 18	Atsetilatseton	- 52
C_2H_4	- 15	Piridin	- 49
CH_3COO^-	- 30	Bipiridil	- 105
$H_2NCH_2CH_2NH_2$	- 46	o-Fenantrolin	- 128

Ayrim bog' va struktur tuzilishlar

$C = C$	+ 5,5	$C = N$	+ 8,2
$C = C - C = C$	+ 10,6	$C = N - R$	+ 8,2
$C - C$	+ 0,8	$C - N - R$	+ 0,8
C (benzol halqasida)	+ 0,24	$C = O$	+ 6,3
$N = N$	+ 1,8	$N = O$	+ 1,7
$C - Cl$	+ 3,1	$C - Br$	+ 4,1

Bu usul aniq emas, har bir modda uchun o'lchangan kattaliklar bir-biridan farq qiladi. Diamagnit qo'shimchaning aniq qiymatini bilish uchun ba'zan ayni shu moddaning paramagnit

analogi uchun xona haroratidagi paramagnit singdiruvchanligi o'chanadi. Bu kattalik $(10^2+10^4) \cdot 10^{-6} \text{ sm}^3/\text{mol}$ birligi chegarasida bo'ladi. Ikkinci tomondan, paramagnit singdiruvchanlik xona haroratida $(10^2+10^4) \cdot 10^{-6} \text{ sm}^3/\text{mol}$ birligiga teng bo'lganligi uchun harorat pasaygan sari bu qiymat ortib boradi, shuning uchun ko'p hollarda diamagnitlik hissasini aniq bilish va hisobga olishga ehtiyoj ham qolmaydi.

Uzoq vaqtargacha magnit hodisalariga faqat fizika fani nuqtai nazaridan qaraldi. 1930-yilda L.Poling birinchi marta kompleks birikmalarda ularning magnit xossalari bilan metall-ligand bog'lari orasida korrelyatsiya (uzviy mutanosiblik) borligiga o'z e'tiborini qaratdi va uni hisobga olish kerakligini taklif etdi. Endi moddalarning magnit xossalarni o'rganish kimyoviy tadqiqotlarning asosiy maqsadiga aylandi. Ayniqa harorat o'zgarishi bilan magnit xossalining o'zgarishi barchaga ayon va ravshan bo'ldi. Magnit kimyoviy tadqiqotlar yordamida juftlashmagan elektronlar sonini aniqlashdan boshlab ularning o'zaro ta'siri va bu ta'sir haroratga uzviy bog'liq ekanligi ham aniqlandi. Bu jarayonda yadrodagи protonlar ham o'z ta'siri bilan ma'lum hissa qo'shar ekan. Umuman olganda, barcha moddalarning magnetizmining tadqiqoti ularning magnit maydonidagi qutblanishini o'rganishdan iborat. Juftlashgan elektronlarning harakati natijasida tashqi doimiy magnit maydoni yo'nalishiga qarama-qarshi yo'nalgan induktivlangan maydon vujudga keladi. Bu xildagi diamagnit effektlar barcha molekulalar uchun ular tabiatidan qat'iy nazar kuzatiladi. Atomlar diamagnit singdiruvchanligi ulardagi elektronlarning (N)ning soniga va shu elektron orbitallari o'rtacha radiuslari (r_i) kvadrati so'mmasiga to'gri proporsionaldir:

$$\chi_A = -\frac{Ne^2}{6mc^2} r_i^2 = -2,83 \cdot 10^{10} r_i^2 \quad (5.1)$$

Kichik massali kichikkina hajmi atomlarga nisbatan katta hajmdagi atomlarning diamagnit singdiruvchanligi katta qiymatga ega bo'ladi, chunki ularda elektronlarning soni ancha ko'p bo'ladi. Murakkab tuzilishdagi ionlar yoki molekulalarning

molyar diamagnit singdiruvchanligini aniqroq hisoblab topish uchun murakkab zarrachadagi barcha atomlarning (χ_A) va funksional guruuhlar tarkibidagi barcha valent bog'larining (χ_B) diamagnit qiymatlarining yig'indisidan aniqlash mumkin:

$$\chi = \chi_{Ai} + \chi_{Bj} \quad (5.2)$$

χ_A , χ_B parametrlari Paskal konstantalari deyiladi. Eng ko'p tarqalgan Paskal konstantalari 5.2-jadvalda keltirilgan. Bu jadvaldagi qiymatlar va (5.2) formuladan foydalanib, piridin va atseton misolida magnit singdiruvchanlikni hisoblab topish yo'llini ko'raylik:

C_5H_5N formula uchun χ ($\cdot 10^{-6}$, sm^3/mol) barcha atomlarning Paskal konstantalarini qo'shib chiqsak:

3ta C atomi (halqa) uchun $5 \cdot 6,24 = -31,2$

5ta H atomi uchun $5 \cdot 2,93 = -14,6$

1ta N atomi (halqa) uchun $-4,6 = -4,6$

$$\chi = \chi_{Ai} + \chi_{Bj} = (-31,2) + (-14,6) + (-4,6) = -50,4 \cdot 10^{-6} sm^3/mol$$

Uglerod va azot atomlarining funksional guruuh hosil qilgani hisobga olinmaydi, chunki ularning halqadagi atomlari Paskal konstantalari qiymati e'tiborga olindi va tenglamaning χ_{Bj} qismi yig'indisi nolga teng deb qabul qilindi.

$(CH_3)_2C=O$ formulasini uchun atomlarning barcha konstantalarni ($\mu_A \cdot 10^{-6}$, sm^3/mol) qo'shib chiqsak:

3ta C atomi uchun $3 \cdot (-6,00) = -18,0$

6ta H atomi uchun $6 \cdot (-2,93) = -17,6$

1ta O atomi uchun $-4,6 = -4,6$

Ularning yig'indisi: $\chi_{Ai} = (-18,0) + (-17,6) + (-4,6) = -40,2$

1ta C=O guruhi uchun musbat qiymatli $+6,3 \cdot 10^{-6} sm^3/mol$ yordamida hisoblash yakuniga yetadi:

$$\chi = \chi_{Ai} + \chi_{Bj} = -40,2 + 6,3 = -33,9 \cdot 10^{-6} sm^3/mol$$

Oraliq metallarning kompleks birikmalari uchun tajribada magnit singdiruvchanlikning umumiy yig'indisi o'lchanadi. Bu

kattalik paramagnit va diamagnit singdiruvchanliklar yigindisi bilan ifodalanadi:


$$\chi_{\text{umumiy}} = \chi_{\text{dia}} + \chi_{\text{para}} \quad (5.3)$$

Paramagnit moddalar uchun magnit singdiruvchanlik qiymati $-\chi$ musbat ishorali va bu kattalik haroratga bog'liq bo'ladi. Kyuri qonuni yordamida moddalarning magnit momenti (μ_{eff}) qiymatini ularning magnit singdiruvchanligidan (χ_M) foydalanib topish mumkin:

$$\mu_{\text{eff.}} = 2,84 \sqrt{\chi_M \cdot T} \text{ yoki } 2,84 = \frac{3R}{N_A} B. M. \quad (5.4)$$

5.2. Paskal konstantalari va ulardan foydalanish

Nazariy jihatdan emas, amalda magnit momenti qanday topilishini mis(II)-dimetilglioksimat kompleks birikmasi $\text{CuC}_4\text{H}_8\text{N}_2\text{O}_2\text{Cl}_2$ misolida ko'rib chiqaylik: $M_r = 250,5$; $t = 30^\circ\text{C}$ yoki $T = 273 + 30 = 303,0 \text{ K}$, $\chi = 5,47 \cdot 10^{-6} \text{ sm}^3/\text{mol}$ va $\chi_M = 1370 \cdot 10^{-6} \text{ sm}^3/\text{mol}$. Endi formulaga kiritish uchun Paskal konstantalaridan foydalanib, to'la diamagnit tuzatishlarni hisoblab chiqamiz:



C uchun $4 \cdot (-6,0) = -24,0$; H uchun $8 \cdot (-2,93) = -23,4$;
N uchun $2 \cdot (-5,6) = -11,2$; O uchun $2 \cdot (-4,61) = -9,2$;
Cl uchun $2 \cdot (-20,1) = -40,2$; C=N uchun $2 \cdot (+8,2) = 16,4$

$$\chi_{\text{dia}} = (-24,0) + (-23,4) + (-11,2) + (-9,2) + (-40,2) + 16,4 = -91,6 \cdot 10^{-6} \text{ sm}^3/\text{mol}$$

$$\text{Demak, } \chi_{\text{para}} = \chi_{\text{um}} - \chi_{\text{dia}} = 1370 \cdot 10^{-6} (91,6 \cdot 10^{-6}) = 1462 \cdot 10^{-6} \text{ sm}^3/\text{mol}$$

$$\mu_{\text{eff.}} = 2,84 \sqrt{\chi_M \cdot T} = 2,84 \sqrt{1462 \cdot 10^{-6} \cdot 303,0} = 1,89 B. M.$$

Kompleks birikmalarning magnit momenti (μ_{eff}) ularning elektron tuzilishi va strukturasiga bevosita bog'liq. Shuning uchun paramagnit koordinasion birikmalarning magnit singdiruvchanligini aniqlab markaziy ionning oksidlanish darajasi,

kompleks birikmaning elektron va hatto geometrik tuzilishi haqida xulosa chiqarish mumkin.

5.3. Oddiy sistemalar uchun paramagnetizm

Paramagnit moddalar ($\mu > 1$). Agar kimyoviy modda tarkibida juftlashmagan, toq elektronlar bo'lsa, bu xildagi birikmalar paramagnit xususiyatlariiga ham ega bo'ladilar va tashqi magnit maydoni ta'sirida unga tomon tortiladilar. Moddaning diamagnitlik hissasi juda kichik bo'lib unda paramagnitlik xossalari ustun keladi va ayrim atomlarning spin-orbital harakatini ifodalaydi, bu kattalik haroratga bog'liq emas. Bu xildagi birikmalar tashqi magnit maydoni bilan ta'sirlashadi, magnit maydoni kuchlanishi olinsa, ularning magnit xossalari yo'qoladi. Eng kuchli paramagnit xossalarni namoyon qiluvchi birikmalarga erkin radikallarni (CH_3 , $\cdot\text{C}_6\text{H}_5$ va h.o.), molekulyar radikallarni (NO , O_2) va oraliq elementlar, lantanoidlar, aktinoidlarning ionlarini misol tariqasida ko'rsatishimiz mumkin. Paramagnit singdiruvchanlik odatda tashqi magnit maydoni kuchlanishiga bog'liq emas, ammo haroratga bog'liq bo'ladi. Yuqori haroratlarda magnit singdiruvchanlik Kyuri qonuniga ko'ra haroratga nisbatan teskari chiziqli proporsionallikda o'zgaradi:

$$\chi = \frac{C}{T} \quad (5.5)$$

bu formuladagi χ - magnit singdiruvchanlik, C - Kyuri konstantasi, T - absolyut harorat (Kelvin shkalasida). Kyuri konstantasini ma'lum doimiyliklar qiymatlaridan foydalanib hisoblash mumkin (5.3-jadval):

$$C = \frac{Ng^2 \mu_B^2 S(S+1)}{3k} = \frac{6,02 \cdot 10^{23} \text{mol}^{-1} \cdot (9,27 \cdot 10^{-24} \text{J} \cdot \text{K}^{-1})^2 g^2 S(S+1)}{3 \cdot 1,38 \cdot 10^{-23} \text{J} \cdot \text{K}^{-1}} \quad (5.6)$$

bu tenglamadagi T^2 ishorani J/sm^3 bilan almashtirilsa, yuqoridagi tenglama quyidagi shakldan topiladi:

$$C = 0,125 \text{ g}^2 \text{S(S+1)} \text{ sm}^3 \cdot \text{K} \cdot \text{mol}^{-1}$$

Topilgan bu qiymatni haroratga (K shkalasi) bo'lish orqali hajmiy singdiruvchanlik (sm^3/mol) qiymatini aniqlaymiz. Magnit sistemalar uchun Kyuri qonuni ideal gazlar qonuniga o'xshab amal qiladi, faqat p , V , T (bosim, hajm, harorat) o'rniga H , M , T (tashqi magnit maydoni, magnitlanuvchanlik, harorat) o'zgaruvchilari kiritiladi.

5.3-jadval

Kyuri qonuniga bo'yasinadigan ayrim paramagnit zarrachalar

Birikmalar	S	S(S + 1)	$C_{eksp.}$	$C_{hisob.}$
			birligi, $\text{SGSM} \cdot \text{K/mol}$	
$\text{KCr}(\text{SO}_4)_2 \cdot 12\text{H}_2\text{O}$	3/2	3,75	1,84	1,88
$(\text{NH}_4)_2\text{Mn}(\text{SO}_4)_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$	5/2	8,75	4,38	4,38
$(\text{NH}_4)\text{Fe}(\text{SO}_4)_2 \cdot 12\text{H}_2\text{O}$	5/2	8,75	4,39	4,38
$\text{Cd}_2(\text{SO}_4)_3 \cdot 8\text{H}_2\text{O}$	7/2	15,75	7,80	7,87


Gazlar tabiatini tushuntirishda Van-der-Vaals tenglamalaridan foydalanganimiz kabi, Kyuri qonunini tushuntirishda ham xuddi shunday turli chekinishlar bo'lishi mumkin. Bu o'zgarishlar manbayi sifatida energetik darajalar, paramagnit ionlar orasidagi o'zaro ta'sirlarni va h.k. ko'rsatish mumkin. Shuni ham qayd qilishimiz lozimki, paramagnit moddalarning o'zi ham uchga bo'linadi:

Ferromagnitlar. Ularning ichida magnit maydoni mavjudligini hamisha bilib bo'lmaydi. Ferromagnit zarrachalarning magnit momenti $T=0$ K bo'lganda maksimal qiymatga ega bo'ladi. Harorat oshgan sari bu qiyamat kamayib boradi va Kyuri nuqtasida nolga tenglashadi. Undan yuqori haroratda jismlar oddiy paramagnet zarrachalarga aylanadi. Barcha atomlar va ionlar uchun magnit momentlarining yo'nalishi o'zaro parallelligini saqlab qoladi va bir xil yo'nalgan bo'ladi. Magnitlangandan so'ng magnit maydoning kuchlanishi olib tashlansa, yakuniy magnit momenti noldan farq qiladi ($\mu \neq 0$) va u "qoldiq magnitlanganlik" deyiladi. Ferromagnit zarrachalarning o'zi esa magnit maydoni manbai bo'lib qoladi.

Ferrimagnitlar. Ba'zi ferromagnit jismlar, ayniqsa shpinel va granat tipidagi oraliq elementlarning oksidlari, antiferromagnit panjaralardagi qarama-qarshi magnit momentlarining o'zaro teng

bo'lmaganidan kompensatsiyalanmagan antiferromagnetizm hodisasi yoki boshqacha, *ferrimagnetizm* vujudga keladi. Ma'lum haroratda spontan ravishda antiparallel tartiblanish vujudga keladi va bu namunalarda kichik, ammo doimiy magnit momenti paydo bo'ladi. Bunga eng oddiy misol sifatida shpinel tuzilishidagi magnetit (Fe_3O_4)ni ko'rsatishimiz mumkin. Bu kristallning tuzilishi bir-biridan farqli, o'zaro teng nisbatdagi, ikki oksiddan iborat: a)kislород bilan tetraedrik qurshovdagи $Fe(III)$ ionи, b) kislород bilan koordinatsion bog'langan oktaedrik qurshovdagи, $Fe(II)$ va $Fe(III)$ ionlarining aralashmasи. O'z-o'zidan tushunarlikи, bu ikki kristall panjaradagi oksidlar o'zaro magnit momentlarini so'ndira olmaydi. Oqibatda ularning bir-biridagi farqi oqibatida harorat Kyuri nuqtasidan past bo'lganda yig'indi magnit momenti paydo bo'ladi. Ularning kompensatsiyalangan magnit momentiga Neyel nuqtasi deyiladi. Harorat Neyel nuqtasidan oshganda ferrimagnetism so'nib boradi va magnit singdiruvchanlik to'liq yo'qoladi.

Antiferromagnitlar. Magnit maydoni tartiblangan (ferro-, ferri-, antiferromagnit) jismlar uchun ularning magnit xossalari kvant-mexanik tartibga ega. Ular tashqi magnit maydoni kuchlanishidan qat'iy nazar, elektronlar spinlarining magnit momentlari parallel bo'lsa ferromagnetizm va ularning parallelligi qarama-qarshi bo'lsa, antiferromagnetizm xususiyatlarini namoyon qiladilar. Bu xildagi birikmalarning magnit momenti haroratga bog'liq va ayrim atomlarning magnit momentlari o'zaro ta'siri natijasida vujudga keladi. Antiferromagnit zarrachalarning kristall panjaralarida magnitlanish bir-biriga qarama-qarshi yo'nalgan ($\uparrow\downarrow$) va uning magnitlanuvchanligi nolga teng. Zarrachalar Neyel nuqtasidan yuqori haroratda o'zining antiferromagnit xossasini yo'qotib, oddiy paramagnit jismga aylanadi.



5.1- rasm. Ferromagnit material zarrachalari magnit momentlarining parallel – (a) va antiferromagnitlarda antiparallel – (b) yo'nalishi

Kyuri nuqtasidan yuqori haroratda ferro-, ferri- va antiferromagnit jismlar oddiy paramagnit zarrachaga aylanadi. Moddalarning magnit xossalari ularning magnit singdiruvchanligi yoki magnit momenti kattaliklari bilan o'lchanadi. Magnit singdiruvchanlik (χ) Gyui va Faradey usuli bilan aniqlanadi. Xona haroratida magnit singdiruvchanlik qiymati bilan ishslash juda noqulay parametr bo'lgani uchun kimyogarlar orasida uni effektiv magnit momenti (μ_{eff}) tushunchasi bilan almashtirish qabul qilingan:

$$\mu_{eff} = \sqrt{\frac{3k}{T} \cdot \chi \cdot T} = \mu_B \cdot g \sqrt{S(S+1)} \quad (5.3)$$

K – Bolsman konstantasi, $1,38 \cdot 10^{-23}$ J/K, N-Avogadro soni, $6,022 \cdot 10^{23}$ mol⁻¹, μ_B -moddalarning magnit momenti (μ_{eff}) birligi sifatida Bor magnetoni (B.M.) qabul qilingan:

$$1 \text{ B.M.} = \frac{e \cdot h}{4 m C} = 9,27 \cdot 10^{-24} \text{ J/T} \quad (5.4)$$

e – elektron zaryadi, h – Plank doimiysi, m – elektron massasi, C –yorug'lik tezligi. Bir elektronning magnit momenti (5.3) formulaga ko'ra quyidagicha aniqlanadi:

$$\mu_s = g \sqrt{S(S+1)}$$

g – giromagnit nisbat (Lande faktori), ya’ni “elektronning g-faktori” yoki boshqacha aytganda, elektron magnit momentining to’liq burchak momentiga nisbati, S – spin kvant soni, $S(S+1)$ – elektronning spin burchak momenti. Erkin elektron uchun $g = 2,00023 \approx 2$, endi o’mniga qo’ysak:

$$\mu_s = 2 \sqrt{\frac{1}{2} \left(\frac{1}{2} + 1 \right)} = 1,73 \text{ B.M.}$$

Bu qiymat vodorod atomi, Cu(II) ioni va Cl_2O molekulasi uchun xosdir. Elektronlarning kompensatsiyalanmagan spin va orbital momentlari atom sistemasini mikromagnitli dipolga aylantiradiki, uning magnit momenti quyidagicha ifodalanganadi:

$$\mu = (L + 2S) \cdot \mu_B \quad (5.5)$$

bu formuladagi L-atomdagi barcha elektronlarning to’liq spin burchak momenti, $S=s_i$; o’z navbatida $s_i - i$ tartibli elektronning spin burchak momenti, L, S, s_i -atom birliklarida ifodalangan; $\mu_B=9,274 \cdot 10^{-24} \text{ J/T}$ – Bor magnetoni, bu qiymat atom birliklarini SI sistemasi birliklariga o’tkazadi.


Har xil birikmalarning magnit maydoni ta’siri ostida o’zgarishi 5.2-rasmda ko’rsatilgan. Moddalarning magnit maydonidagi bunday holatini tushuntirish uchun *magnit induktivlanish* deb ataluvchi parametrni – (B) aniqlash quayadir:

$$B = H_0 + 4\pi M \quad (5.6)$$

H_0 – tashqi magnit maydoni kuchlanishi, M – magnitlanuvchanlik (aniqrog’i magnitlanuvchanlik qiymatining hajm birligiga nisbati). Bu tenglamaning har ikki tomonini H_0 ga bo’lib chiqqanimizdan so’ng (izotrop sistemada H_0 va M yo’nalishlari bir xil deb faraz qilamiz) keyin (5.7) tenglama hosil bo’ladi:

$$\frac{B}{H_0} = 1 + 4\pi \left(\frac{M'}{H_0} \right) = 1 + 4\pi \chi_V \quad (5.7)$$

$\left(\frac{M'}{H_0}\right)$ nisbatni χ_V – simvoli bilan belgilanadi va u hajm birligidagi magnit singdiruvchanlik deb ataladi.



C

5.2-rasm. Vakuumdagi – (A) magnit maydoni yo'nalishi chiziqlari (ya'ni, doimiy magnit maydoni kuchlanganligi yo'nalishini ko'rsatuvchi chiziqlari), magnit maydonida joylashtirilgan paramagnit jismlar orqali o'tgan kuchlanish chiziqlari – (B) va magnit maydonida joylashtirilgan diamagnit jismlar orqali o'tgan kuchlanish chiziqlari – (C).

Moddalarning hajmiy magnit singdiruvchanligi (qiymatsiz kattalik) magnitlanuvchaulik bilan quyidagicha bogliq:

$$\chi_V = \frac{M'}{H_0}$$


B/H_0 – dielektrik o'tkazuvchanlikning magnit analogi bo'lib, muhitning magnit o'tkazuvchanligini ifodalaydi. χ_V qiymatini moddaning zichligiga bo'lganda, solishtirma singdiruvchanlik (χ_S) qiynatiga ega bo'lamiiz, uni molekulyar massaga ko'paytirganimizda molyar singdiruvchanlik – χ_M qiymati topiladi:

$$\frac{\chi_V}{d} = \chi_S \quad (5.8) \quad \text{va} \quad \chi_M = \chi_S \cdot M_r \quad (5.9)$$

5.2-jadval va 5.2-rasmdan ko'rindiki, diamagnit moddalar uchun molyar magnit singdiruvchanlik qiymati manfiy va paramagnit jismlar uchun bu kattalik musbat qiymatga ega.

Muntazam kristallar uchun molekulaning magnit singdiruvchanligi anizatrop qiymatlarga ega bo'ladi, ya'ni molyar siugdiruvchanlikni bir necha komponentlardan tarkib topgan tensor sifatida qabul qilish mungkin. Biz yuqorida magnetizmning to'rt xili haqida gapirgan edik va ularning xarakteristikalarini 5.2-jadvalda keltirdik. Ferromagnetik va antiferromagnetik jismlarning magnit singdiruvchanligi bilan muhit harorati o'zaro bog'liq va u jismning muhim xususiyatlaridan biri sanaladi.

Antiferromagnit jismlarning haroratli singdiruvchanlik egri chizig‘idagi maksimum nuqtasiga Neyel harorati (yoki nuqtasi) deyiladi. Xuddi shuningdek, ferromagnit jismlar uchun ham magnit singdiruvchanlikning haroratli grafigi tuzilganda aniqlangan sinish nuqtasiga Kyuri harorati deyiladi (5.3-rasm).



5.3-rasm. Ferromagnit, ferrimagnit va antiferromagnit jismlar magnit singdiruvchanligining harorat ta'sirida o'zgarish grafigi (T_N – Neyel nuqtasi. T_c – Kyuri nuqtasi).

Yuqorida ko'rsatganimizdek, modda molekulasida dipol momentining borligi ularning paramagnetizmini belgilaydi. Ayrim paramagnit zarrachalar uchun harorat Kyuri yoki Neyel nuqtasidan pasaytirilganda paramagnit markazlar orasida kuchli o'zaro ta'sir hosil bo'ladi (masalan, klasterlardagi metall atomlari orasida yoki paramagnit ion tutgan qo'sh yadroli kompleks birikmalarda) va bu o'z navbatida ferro- yoki antiferromagnetizmga olib keladi.

5.4. Atom orbitallarining simvollari

Har qanday elektronning 4ta kvant soni (n, l, m_l, m_s) bilan xarakterlanishi bizga yaxshi tanishdir. Bu kvant sonlari quyidagi qiymatlarga ega bo'lishi mumkin: $n, l, m_l, m_s = 1/2$. Odatda 3d-elementlar uchun $n=3$ va $l=2$ kvant sonlariga ega bo'ladi; va bundan kelib chiqqan holda m_l kvant soni 2, 1, 0, -1, -2 qiymatlarini qabul qiladi. Har bir m-kvant soni uchun m_s ikki xil

qiymatga (+1/2 va -1/2) ega bo'lishini hisobga olsak, shu elektron qavatda 10ta elektron bo'lishi mumkinligiga ishonch hosil qilamiz va bu Pauli prinsipi bilan mos keladi. Skandiydan misgacha bo'lgan elementlar 3d-elementlar yoki temir qatori elementlari deb yuritiladi. Qolgan elektron qavatlar holati quyidagicha sonlar bilan xarakterlanadi:

l	0	1	2	3
Elektron qavatlar	s	p	d	f
Elektron orbitallar soni	1	3	5	7
m_l	0	$0, \pm 1$	$0, \pm 1, \pm 2$	$0, \pm 1, \pm 2, \pm 3$

Kuchsiz spin-orbital o'zaro ta'sirlashuvchi atom yoki ionning holatini tasvirlashda elektronlarning kvant sonlarini Rassel-Saunders atom termlari bilan kombinatsiyalab chiqamiz. Odatda atom termlari ^{2S+1}L shaklida yoziladi va bu termlar $L = 0, 1, 2, 3, \dots$ kvant sonlari uchun mos ravishda quyidagicha: $L = S, P, D, F, \dots$ ifodalanadi.

Agar atomning elektronlar bilan to'lgan qavati uchun kvant sonlari $L=0$ va $S=0$ deb ifodalangan bo'lsa, tegishli ravishda uning termi 1S deb yoziladi. Atom termlari simvollarining kelib chiqishini $2p^2$ konfiguratsiyali uglerod atomi uchun ko'rib chiqish qulaydir. Bu elektronlarning har biri uchun kvant sonlari: $n = 2$ va $l = 1$ qiymatiga ega bo'lib, Pauli prinsipi ko'ra m_l va m_s – kvant sonlarining barcha qiymatlari 5.3-jadvalga keltirilgan. Uchinchi kvant sonining qiymatlari $m_l = 0, +1$ va -1 bo'ladi, o'z navbatida m_s – kvant soni $+1/2$ yoki $-1/2$ qiymatlarga ega; chunki bir atomda barcha kvant sonlari bir xil bo'lgan ikkita elektron bo'lishi mumkin emas. 5.3-jadvalga qarasak, bu 2 elektronni 15 xil kombinatsiyadagi "buzilgan" orbitallarda joylashtirish mumkin yoki boshqacha qilib aytganda S atomining bu 2 elektroni uchun 15 xildagi "buzilgan" mikroholatlar mavjuddir. L kvant soni uchun $|M_L|_{\max}$ mos keladi; avval $L=2$ kvant soni holatini ko'rib chiqamiz. Unga to'g'ri keladigan beshta mikroholatlar bor ($M_L = 2, 1, 0, -1, -2$) va ular uchun $S = |M_S|_{\max} = 0$. Bu beshta kombinatsiyadan iborat elektronlarning "buzilgan" holatini 1D deb belgilash qabul qilingan.

5.3-jadval

2p² elektron konfiguratsiyali C atomining ¹D, ³P, ¹S asosiy termrlari

1- m _l	J-m _s	2- m _l	2-m _s	M _L	M _S	
1	1/2	1	-1/2	2	0	¹ D
1	1/2	0	-1/2	1	0	
1	1/2	-1	-1/2	0	0	
0	1/2	-1	-1/2	-1	0	
-1	1/2	-1	-1/2	-2	0	
1	1/2	0	1/2	1	1	³ P
1	-1/2	0	1/2	1	0	
1	-1/2	0	1/2	1	-1	
1	1/2	-1	1/2	0	1	
1	-1/2	-1	1/2	0	0	
1	-1/2	-1	-1/2	0	-1	
0	1/2	-1	1/2	-1	1	¹ S
0	-1/2	-1	1/2	-1	0	
0	-1/2	-1	-1/2	-1	-1	
0	1/2	0	-1/2	0	0	¹ S

$$L = (M_L)_{\max}$$

$$(M_L)_{\max} = 2, M_S = 0 \quad ^1D \quad (M_L = 0, 1, 2; M_S = 0)$$

$$(M_L)_{\max} = 1, M_S = 0 \quad ^3P \quad (M_L = 0, 1; M_S = 0, 1)$$

$$(M_L)_{\max} = 0, M_S = 0 \quad ^1S \quad (M_L = 0; M_S = 0)$$

Yuqorida ko'rib chiqilgan ¹D-termiga tegishli beshta "buzilgan" elektron mikroholatlardan tashqari 5.3-jadvalga qarasak, tag'in ³P-termiga mos keluvchi 9ta "buzilgan" mikroholatlar borligini aniqlaymiz. Bu mikroholatlar M_L=+1, M_S=0, ±1; M_L=0, M_S=0, ±1; M_L=-1, M_S=0, ±1 sonlariga to'g'ri keladi. M_{L,max}=L=1 kvant sonlariga mos keluvchi P-elektron orbitali uchun 2S+1=3 ekanligidan kelib chiqqan holda ³P-termiga mos keluvchi 9ta "buzilgan" mikroholatlar haqiqatan ham mavjud bo'ladi. Bulardan tashqari ¹S-termiga to'g'ri keluvchi yana bir mikroholat mavjud. Demak, Gund qoidasiga binoan S atomining asosiy holatiga ³P-termi to'g'ri keladi.

Ayrim atom mikroholatlarining "buzilgan"ligi kuchsiz oktaedrik yoki tetraedrik kristall maydon ta'sirida yana o'z o'rniiga tushadi, chunki bu holatda maksimal orbital "buzilish"lar soni uchtadan oshmaydi. Bunda atomning S-holatlari ham, P-

holatlari ham o'zgarmaydi, ammoy ular qisman boshqacha ifodalananadi: S-holat uchun A_1 (yoki A_2) va P-holat uchun T_1 atom termlari shaklida yoziladi va shunday deb yuritiladi.

5.5. Juflashmagan elektronlarning spin magnit momentlari ($\mu_{\text{eff.}}$)


Yuqorida ko'rganimizdek, paramagnetizm hodisasi juftlashmagan elektron tutgan zarrachalarning asosiy xossasidir. Bu zarracha har xil molekulalar (O_2 , NO), ko'pgina erkin organik radikallar, oraliq va siyrak yer metallarniug ionlari bo'lishi mumkin. Paramagnit zarrachalar tashqi magnit maydoni kuchlanishini o'ziga yig'adi va pirovard natijada o'zi ham kuchli magnit maydoni hosil qiluvchi manbaga tortiladi. Paramagnit singdiruvchanlik tashqi magnit maydoni kattaligiga bog'liq emas, ammoy haroratga bog'liqdir. Dastlabki (yuqori haroratda) sharoitda singdiruvchanlikning qiymati haroratga teskari proporsional ravishda (Kyuri qonuniga ko'ra) o'zgaradi:

$$\chi = \frac{C}{T} \quad (5.10)$$

χ – o'lchanadigan singdiruvchanlik (o'rjaniladigan birikma uchun diamagnit tuzatishlar kiritildi yoki unga ehtiyoj yo'q deb faraz qilamiz C – Kyuri konstantasi ($C = H \cdot g^2 \cdot \beta^2 / 4k$), T – absolyut harorat bo'lsa, (5.10) tenglama:

$$\chi = \frac{H \cdot g^2 \cdot \beta^2}{4kT} \text{ shaklida yoziladi.}$$

5.3-rasmida namuna tarzida olingan $[(NH_4)_2Mn(SO_4)_2 \cdot H_2O]$ kompleks birikmasining singdiruvchanlik va teskari singdiruvchanlik kattaligi bilan harorat orasidagi o'zaro bog'liqlik grafigi keltirilgan.



5.3-rasm. $(NH_4)_2Mn(SO_4)_2 \cdot H_2O$ kompleks birikmasining magnit singdiruvchanligi va uning haroratga bog'liqlik grafigi ($C_{Kyuri} = 4,375$).

Odatda Kyuri konstantasini aniqlash uchun harorat bilan teskari singdiruvchanlik qiymati $\chi^{-1} = S^{-1} \cdot T$ grafigidan topiladi, shunga ham e'tibor berish lozimki, bu grafik chizig'i doimo koordinata boshidan o'tadi.

Magnit singdiruvchanlikni aniqlash jarayonida molekulaning tarkibidagi juftlashmagan (toq) elektronlar tutgan ionlarning paramagnitlik hissasi tashqi magnit maydoni bilan ta'sirlashuvchi spin va orbital burchak momentlari shaklida belgilanadi. Dastlab, biz bir dona juftlashmagan elektron tutgan va sferik simmetriyaga ega bo'lgan sistemanı ko'rib chiqamiz, chunki bu sistemaning magnit momentidagi orbital burchak momenti hissasi nolga teng bo'ladi. Bunday sistemaning magnit momenti vektor kattalik bo'lib, quyidagi (5.11) formula bilan hisoblab topiladi:

$$\mu = -g \cdot \beta \cdot S \quad (5.11)$$

S – spin burchak momentining operatori;

g – elektronning g -faktori (Lande faktori ham deyiladi);

β – Bor magnetoni, $\beta = 0,93 \cdot 10^{-20}$ erg / E.

Mana shu topilgan magnit (μ) momentining tashqi magnit maydoni bilan o'zaro ta'sirini ifodalovchi \mathcal{H} -gamiltoniani quyidagicha yoziladi:

$$\mathcal{H} = \mu \cdot H = -g \beta \cdot S \cdot H$$

Bu gamiltonian spin to'lqin funksiyasi bilan ifodalanadi va ikki xil ($m_s = \pm 1/2$) qiymatga ega bo'ladi:

$$E = m_s \cdot g \cdot S$$

(5.12)

ular orasidagi farq hisoblanganda quyidagi ifoda kelib chiqadi:

$$E = g \cdot \beta \cdot S$$

Cr^{3+} yoki Mn^{2+} kabi ionlar tutgan birikinlalar juftlashmagan elektronlari hisobidan effektiv magnit momentiga egadirlar. Bu xildagi birikmalarning magnit momentlari faqat elektronlarning spini bilan belgilanadi, chunki kristall maydon ta'sirida orbital momentlarning qiymati "so'ndirilgan" bo'ladi. Faqat diamagnit ligandlar va H_0 tashqi magnit maydonigina ta'sir etuvchi (Zeyeman effekti) alohida ionni ko'rib chiqaylik: $\text{Mn}(\text{II})$ ionining asosiy holati uchun kvant sonlari $L=0$, $S=5/2$ bo'ladi va m_s kvant soni uchun xarakterli $\pm 1/2$, $\pm 3/2$, $\pm 5/2$ oltita orbitallari mayjud. Uning orbitallar odatdagি sharoitda "buzilgan", ammo magnit maydonida bu ta'sir yo'qoladi, ya'ni elektronning barcha orbitallari uchun energetik qiymatlar bir xil bo'ladi.

$$E = m_s \cdot g \cdot H \cdot \mu_B \quad (5.13)$$

Marganes(II) ionining ${}^6\text{C}$ asosiy holati uchun energiyasi nolga teng deb faraz qilinganda (5.13) tenglamaning sharti bajariladi. Bu holat 5.4-rasmida ko'rsatilganidek, qo'shni energetik pog'onachalar uchun ΔE – parchalanish energiyasi maydon kuchlanishiga bog'liq:

$$\Delta E = g \cdot H \cdot \mu_B = 2 H \cdot \mu_B \quad (5.14)$$

Magnit maydoni kuchsiz bo'lganda: ($H = 0,1 \text{ T}$):


$$\Delta E = 2 \mu_B H = 2 \cdot 9,27 \cdot 10^{-24} \cdot 0,1 = 1,85 \cdot 10^{-24} \text{ J}.$$

$T = 1 \text{ K}$ bo'lsa, $kT = 1,38 \cdot 10^{-23} \text{ J}$. Demak, $H=0,1 \text{ T}$ kuchsizligicha qolganda va $T=1 \text{ K} / E < kT$, va bunda hosil bo'lgan barcha energetik pog'onachalarni elektronlar Bolsman taqsimotiga muvofiq to'ldirib boradi:

$$N_i / N_{\text{asosiy}} = \exp(-\Delta E_i / kT)$$

ΔE_i – asosiy va i -ga tegishli holat orasidagi energetik kattalik.


Birikmalarning har xil energetik holatlarida tashqi magnit maydonga nisbatan mikrospinlar orientasiyasi har xil bo'lgani uchun o'rtacha magnitlanuvchanlik kichik bo'ladi; boshqacha so'z bilan aytadigan bo'lsak, tashqi maydon spinlarni bir yo'nalishda tartiblamoqchi bo'lsa ham, termik aktivlanish bu ishga xalaqt beradi.



5.4-rasm. Mn(II) ioni uchun quyi energetik holatning tashqi magnit maydoni ta'siri ostida parchalanishi.

Boshqa tomondan, magnit maydon qiymati $H=2Tl, \Delta E=4 \cdot 10^{-23} J$ va $T=1K$ bo'lganda $\Delta E > kT$. Bunday sharoitda asosan quyi energetik holat $-5/2 (2\mu_B H)$ elektronlar bilan (95 %) to'ladi. Bu paytda magnit momentlarning deyarli barchasi tashqi maydoniga parallel yo'nalgan va sistemaning magnitlanuvchanligi maksimal qiymatga (M_{maks}) ega bo'ladi. Bu xildagi xossalarni namoyon qiluvchi birikmalarga $KCr(SO_4)_2 \cdot 12H_2O$ va $(NH_4)_2Mn(SO_4)_2 \cdot 6H_2O$ kabi moddalarni ko'rsatish mumkin. Bu tuzlardagi paramagnit xossalari ionlar bir-biridan juda yaxshi ekranlangan (ya'ni to'silgan), shuning uchun bu sistemalarga magnit suyultirilgan sistema deyiladi. Ularning xossalari o'zaro kuchsiz ta'sir etuvchi ideal gazlarni eslatadi, va shuning uchun ham bu kabi hollarda o'zaro zaif ta'sirlashuvchi zarrachalarning statik mexanizmini qo'llash mumkin. $S=1/2$ spinli zarrachalarni ko'rib chiqaylik: Magnit maydoni ta'siri bo'limganda, $m_s=\pm 1/2$ ga mos keluvchi energetik pog'onachalar "buzilgan", ya'ni bu energetik pog'onalar bir xil qiymatga ega, ammo tashqi magnit

maydoni H_z kuchlanishi bilan ta'sir etsa, ular ajralib ketadi (5.5-rasm).



5.5-rasm. Tashqi magnit maydoni (H_z) ta'sirida elektron spinii energetik darajalarining ajralishi.

Har qaysi pog'onaning energiyasi $m_s gH_z \mu_B$ -ga teng bo'lib, quyi energetik pog'onalar uchun $E = -gH\mu_B/2$ va yuqori energetik pog'ona uchun esa $E = +gN\mu_B/2$ qiymati to'gri keladi, ular orasidagi ajralish energiyasi $\Delta E = gH_z \mu_B$ bilan ifodalanadi.

5.4-jadval

Juftlashmagan elektronlarning spin magnit momentlari

Juftlashmagan elektronlar soni	S	$\mu_{eff.} (B.M)$ Bor magnetoni
1	1/2	1,73
2	1	2,83
3	3/2	3,87
4	2	4,90
5	5/2	5,92
6	3	6,93
7	7/2	7,94

Paramagnit ionlardagi juftlashmagan elektronlarning soni har xil bo'lishi ham mumkin, shunga muvofiq ularning spin magnit momentlari ham o'zgaradi (5.4-jadval). Ko'p kompleks birikmalardagi oraliq metallarning ionlari uchun kuzatiladigan magnit momentlarining qiymati faqat ulardag'i spinlarni hisobga oluvchi tenglama bilan hisoblab topilgan effektiv magnit momentlariga mos keladi. Ammo, ayrim kompleks birikmalar uchun magnit momentlarining bu qiymatlari va magnit singdiruvchanligi doimo ham mos kelavermaydi. Bunday hollarda magnetizmning boshqa effektlarini hisobga olish kerak bo'ladi.

5.6. Kompleks birikmalarining magnit singdiruvchanligi

Umuman olganda, kompleks birikmalarining magnit momenti ($\mu_{\text{eff.}}$) ularning elektron tuzilishi va strukturasiga bevosita bog'liq. Shuning uchun paramagnit kompleks birikmalarining $\mu_{\text{eff.}}$ aniqlash katta ahamiyatga ega: nikel va mis komplekslarining magnit momentini ($\mu_{\text{eff.}}$) aniqlab, ularning tetraedrik yoki oktaedrik tuzilishi haqida xulosa chiqarsa bo'ladi. Oktaedrik tuzilishdagi Ni(II) kompleks birikmali uchun $\mu_{\text{eff.}} = 2,8\text{-}3,3$ B.M. atrofida bo'ladi. Demak, bu qiymat faqat spin kvant sonidan kelib chiqqan 2,83 B.M. kattalikka yaqin (5.4 va 5.5-jadvallar).

5.5-jadval

Metall ionlari uchun nazariy hisoblangan va eksperimental
aniqlangan
magnit momenti ($\mu_{\text{eff.}}$) kattaliklari

Ion	Asosiy holat kvantsonlari		Spektroskopik termlar	μ_S	μ_{S+L}	Tajribada topilgan $\mu_{\text{eff.}}$ qiymati
	S	L				
V ⁴⁺	½	2	² D	1,73	3,00	1,7 – 1,8
Cu ²⁺	½	2	² D	1,73	3,00	1,7 – 2,2
V ³⁺	1	3	³ F	2,83	4,47	2,6 – 2,8
Ni ²⁺	1	3	³ F	2,83	4,47	2,8 – 4,0
Cr ³⁺	3/2	3	⁴ F	3,87	5,20	3,8
Co ²⁺	3/2	3	⁴ F	3,87	5,20	4,1 – 5,2
Fe ²⁺	2	2	⁵ D	4,90	5,48	5,1 – 5,5
Co ³⁺	2	2	⁵ D	4,90	5,48	5,4
Mn ²⁺	5/2	0	⁶ S	5,92	5,92	5,9

Tajribada topilgan $\mu_{\text{eff.}}$ qiyatlari nazariy hisoblangan ($\mu_{\text{eff.}}$) dan kattaroq chiqishining sababi shundaki, kompleks birikmada Ni(II) ionining asosiy holatiga qisman qo'zg'olqan multiplet holat ham qo'shiladi va bunda spin-orbital o'zaro ta'sir kuchlari mavjud bo'ladi. Tetraedrik Ni(II) kompleks birikmalarida orbital magnit momenti umumiymagnit momentiga katta hissa qo'shadi. Natijada, tetraedrik kompleks birikmalar uchun uning effektiv magnit momenti $\mu_{\text{eff.}} \sim 4,0$ B.M. atrofida topiladi. Oktaedrik va

tetraedrik tuzilishdagi kobalt(II) kompleks birikmalari uchun teskari qiymatlar topilgan: Oktaedr Co(II) kompleksi uchun $\mu_{\text{eff}} > 5$ B.M. bo'lsa, tetraedrik Co(II) kompleks birikmasi uchun $\mu_{\text{eff}} < 4-5$ B.M.

5.7. Kompleks birikmalar uchun μ_{eff} kattaligi va almashinish integrallari



Ikki-, uch- va ko'p yadroli kompleks birikmalar tuzilishini aniqlashda effektiv magnit momentining qiymati asosiy ma'lumotlarni beradi. Bunday birikmalarda metallarning magnit momentlari bir-biriga o'zaro ta'sir etadi:



Bu ikki molekuladagi juftlashmagan elektronlar bo'lsa, bunday komplekslarda ikki molekulyar orbitallarining bir-biriga ta'siri quyidagicha bo'ladi:



$$H = 2J \cdot S_i \cdot S_j \quad (5.15)$$

S_i va S_j – i va j metallarning umumiyl spin kvant sonlari, J – o'zaro ta'sir natijasidagi almashinish energiyasi, ammo ko'pincha bu kattalik almashinish integrali deb ham yuritiladi. Agar molekulalardagi metallar bir-biriga teskari antiferromagnit tabiatga ega bo'lsa (ya'ni metallardagi juftlashmagan elektronlar o'zaro antiparallel bo'lib juftlashishga harakat qilsa), J – qiymati manfiy, agar teskaricha bo'lib, metallar bir-biriga ferromagnit ta'sir etsa (ya'ni metallardagi elektronlar o'zaro parallel bo'lishga intilsa), unda J – musbat qiymatga ega bo'ladi. Bu xildagi misol mis atsetatining hidratli kompleks birikmasi dimeri uchun chuqur o'r ganilgan:



Bu birikma uchun xona haroratida ikki xil: antiferromagnit o'zaro ta'sir ($-2J=284 \text{ sm}^{-1}$), past haroratda esa diamagnit ($-2J=0 \text{ sm}^{-1}$) o'zaro ta'sir kuzatilgan ($d_{\text{Cu-Cu}}=2,61 \text{ \AA}$). Har bir Cu(II) ioni uchun $S=1/2$ va juftlashmagan elektron $d_{x^2-y^2}$ -orbitalida joylashgan. Mis(II) atsetatidagi CH_3 -radikalni o'miga $R=\text{CH}_3-\text{CH}_2-\text{CH}_2-$ ya'ni mis(II)-butirati kompleksi olinsa, $-2J=284 \text{ sm}^{-1}$ dan $-2J = 339 \text{ sm}^{-1}$ gacha o'zgaradi, ya'ni $R=\text{CH}_3$ -ning o'miga $R=\text{C}_3\text{H}_7$ radikalining almashtirilishi $-2J$ qiymatini ancha (55 sm^{-1}) gacha oshiradi.

Mis(II) ioni β -diketonlarning atsil yoki tioatsil gidrazonlari bilan monomer tuzilishdagi kompleks birikmalar hosil qiladi. Ular vakuumda ($10^{-4}-10^{-5} \text{ mm. simob ustuni}$) ikki soat davomida 200°C haroratgacha qizdirilsa, dimerlanadilar. Bu dimer tuzilishli kompleks birikmalarda atsilgidrazonli ligandlar uchun kislored atomlari va tioatsilgidrazonli birikmalar uchun oltingugurt atomlari ko'priq ligand vazifasini bajaradilar. Kislored ko'priq ligandlari tutgan dimerlar xona haroratida qisman paramagnit bo'lsa, oltingugurt ko'priq ligandli dimerlar shu sharoitning o'zida diamagnit xossalarni namoyon qiladi.



**Mis(II) dimer komplekslarining magnitokimyoviy
xarakteristikalarini**

Modda	R	X	μ_{eff} (300k)	μ_{eff} (81k)	-J	g
1	4-CH ₃ OC ₆ H ₄	O	1,09	0,31	225	2,14
2	C ₆ H ₅	O	1,07	0,29	238	2,14
3	4-NO ₂ C ₆ H ₄	O	0,97	0,00	276	2,14
4	C ₆ H ₅	S	0,00	0,00	cheksiz katta	

Agar jadvaldagi moddalarga e'tibor qilsak, mis dimerlaridagi ko'prikligligi ligand sifatida kislород atomi tutgan hosilalariga nisbatan oltingugurt atomi tutgan komplekslarida juftlashmagan elektronlar orasidagi o'zaro ta'sirlashuv ancha kuchli namoyon bo'ladi. Undagi 4-moddaning monokristallari rentgenostruktur analiz yordamida talqin qilinganda Cu-Cu dimeri orasidagi masofa 2,66 Å ekanligi isbotlandi. Bu xildagi dimer kompleks birikmalarining magnit singdiruvchanligi qiyamatining haroratga bog'liqligi Geyzenberg-Dirak-Van-Flek (GDVF) ning o'zaro almashinish gamiltonianiga muvofiq topiladi:

$$H = -2J \cdot S_1 \cdot S_2 + g \cdot \beta \cdot H \cdot (S_1 + S_2) \quad (5.16)$$

S_1 va S_2 – o'zaro ta'sirlashuvchi atomlarning spin operatorlari.

Dimer kompleks birikmalar uchun $2J < 0$ bo'lganda magnit singdiruvchanlik Blini-Bauers tenglamasiغا muvofiq topiladi:

$$\chi_m = N \cdot g^2 \cdot \beta^2 / 3kT \cdot [1 + 1/3 \exp(-2J/kT)]^{-1} \quad (5.17)$$

Nazorat savollari

1. Molekulalar magnit xususiyatlarini nima belgilaydi?
2. Magnetizmning qanday shakllari sizga ma'lum?
3. Diamagnit birikmalarining magnit xossalari qaysi zarrachalar belgilaydi?
4. Paramagnit moddalar va ularning uch xilini misollar bilan tushuntiring.

5.Moddalarning magnit singdiruvchanligi qanday aniqlanadi?

6.Magnit induktivlanish va magnitlanuvchanlik farqini ko'rsating.

7.Paskal konstantalari yordamida butanon molekulasingin magnit singdiruvchanligini aniqlang.

8.Paskal konstantalari yordamida piperidin molekulasingin magnit singdiruvchanligini aniqlang.

9.Parainagnit moddalar magnit singdiruvchanligi qanday aniqlanadi?

10.Magnit momentlari va metallar elektron tuzilishi orasida qanday mutanosiblik bor?

A d a b i y o t l a r

1.Юнусов Т.К., Зайнутдинов У.Н., Утениязов Қ.У., Салихов Ш.И. Кимёда физикавий усуллар.- Тошкент.- Университет.- 2007.- 336 б.

2.Пентин Ю.А., Вильков Л.В. Физические методы исследования в химии.- М.: Мир.- 2003.- 683 с.

3.Карлин В. Магнетохимия.- Москва.- Мир.- 1989.- 400 с.

4.Умаров Б.Б. Физикавий тадқиқот усуллари, маърузалар конспекти.- БухДУ.- Зиё-Ризограф.- 2000.- 187 б.

5.Калинников И.Т., Ракитин Ю.В. Введение в магнетохимию.- Москва.- Наука.- 1980.

6.Ракитин Ю.В., Ларин Г.М., Минин В.В. Интерпретация спектров ЭПР координационных соединений.- М.: Наука.- 1993.- 399 с.

7.Драго Р. Физические методы в химии.- М.- Мир.- в 2х томах.- 1981.

8.Кукушкин Ю.Н. Химия координационных соединений.- М.: Высшая школа.- 1985.- 455 с.

9.Костромина Н.А., Кумок В.Н., Скорик Н.А. Химия координационных соединений.- М.: Высшая школа.- 1990.- 432 с.

VI BOB. YADRO MAGNIT REZONANS SPEKTROSKOPIYASI

Reja:

- 6.1. YaMR spektroskopiyasi haqida tushuncha
- 6.2. YaMR spektroskopiyasining nazariy asoslari
- 6.3. YaMR hodisasining klassik nuqtai nazardan tahlili
- 6.4. YaMR spektrlarining parametrlari
- 6.5. Kimyoviy almashinish (migrasiya) hodisasi
- 6.6. ^1H yadrolarining kimyoviy siljishi va signallar soni
- 6.7. Signallar intensivligi
- 6.8. Ayrim organik moddalarning YaMR- ^1H spektrlari
- 6.9. Signallarning ajralishi, spin-spin ta'sir
- 6.10. ^{13}C yadrolarining kimyoviy siljishi
- 6.11. Siljituvcchi reagentlar
- 6.12. Nazorat savollari
- 6.13. Adabiyotlar

Tayanch atamalar

Yadrolarning magnit xususiyatlari. Burchak momentining qiymati. Harakat miqdori momenti. Massa soni. Vektoriallik. Larmor tenglamasi. Elektronlar pretsessiyasi. Kimyoviy siljish. Diamagnit izotrop ekranlashuv. Paramagnit anizatrop deekranlashuv. Kimyoviy siljish. Signallar intensivligi. Spin-spin ta'sir. Spin-spin ta'sir konstantasi (SSTK). Multiplet cho'qqilarning nisbiy intensivligi (Paskal jadvali). Signallarning ajralishi. Spin-spin ta'sir konstantasi. Paskal konstantalari. Past aniqlikdagi YaMR- ^1H spektri. Yuqori aniqlikdagi YaMR- ^1H spektri. YaMR- ^1H spektrining differensial chiziqlari. YaMR- ^1H spektrining integral chiziqlari. Signallarning ajralishi. Spin-spin ta'sir konstantasi. Paskal konstantalari. Past aniqlikdagi YaMR- ^1H spektri. Yuqori aniqlikdagi YaMR- ^1H spektri. YaMR spektrining differensial va integral chiziqlari.

6.1. YaMR (yadro magnit rezonans) spektroskopiysi haqida tushuncha

YaMR spektroskopiysi diamagnit zarrachalar, kompleks va organik birikmalarning tadqiqotini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi, jadal rivojlanib borayotgan zamонави, samaradorligi yuqori bo'lgan fizik-kimyoviy tadqiqot usullaridan biridir. YaMR hodisasi dastlab 1945-yilda F. Blox (Stanford universiteti) va E. Parsell (Garvard universiteti) rahbarligidagi ikki guruh nazariy fizika asoslari bilan shug'ullanuvchi AQSh olimlari kashf etdilar va bu kashfiyotlari uchun 1952-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'ldilar. Bu usul inglez olimi Rollin tomonidan amalda qo'llanilgan. Ammo uning kimyo fani uchun naqadar ahamiyatli ekanligi 1949-1961-yillar davomida to'la anglandi. 1960-yillardan boshlab YaMR kimyoviy moddalarni o'r ganuvchi asosiy fizik usullarning biriga aylandi. YaMR spektroskopik usul bilan xossalari tadqiqot qilinadigan modda atomlarining yadrosi magnit xususiyatiga ega bo'lishi kerak, ya'ni yadro spini noldan farq qilishi ($I \neq 0$) lozim. Spin deganda o'z magnit maydoniga ega bo'lgan, harakatdagi zaryadli zarrachani tushunamiz.

YaMR spektroskopiysi radioto'lqinlarning yutilishiga asoslangan. Uning yordamida bir xil magnit xossalari yadrolarning turli kimyoviy qurshovlarda har xil chastotalardagi radioto'lqinlarini yutib, signallar berishi qayd qilinadi. Oqibatda kimyoviy jihatdan ekvivalent, ammo fazoviy va magnit qurshovi turlicha bo'lgan noekvivalent yadrolarning signallari molekula tarkibidagi boshqa magnit xususiyatli yadrolar soni va tabiatiga muvofiq o'ta nozik strukturani hosil qiladi. Ya'ni molekuladagi yadrolarning o'zaro bevosita va bilvosita spin-spin ta'siri oqibatida signallar yig'indisi (majmuasi)-YaMR spektrlari olinadi. Hosil bo'lgan spektrdagi signal intensivligi (signal cho'qqlarining yuzasi) molekula tarkibidagi har qaysi guruh magnitli yadrolari soniga to'g'ri proporsionaldir. Bu esa murakkab aralashmalarning (reaksiya mahsulotlari, oraliq moddalar, izomerlar, konfiguratsion shakllar va hokazo.) miqdoriy tarkibini aniqlash uchun imkoniyat beradi. YaMR

spektrlari yordamida molekulalarning fazoviy tuzilishi, organik modda molekulalarining kimyoviy reaksiya jarayonidagi yoki eritmadagi dinamikasi haqidagi ma'lumotlar ham hisoblab topiladi.

YaMR spektroskopiyasi molekulalararo o'zaro ta'sir va molekulyar dinamika, vodorod bog'lari, kompleks hosil bo'lish bosqichlari, suyuq kristallar va mitselyar sistemalar tuzilishini aniqlash va o'rganishda muvaffaqiyat bilan qo'llanilmoqda. YaMR usulining dastlabki yutug'i vodorod yadroси (^1H) spektrlarini statsionar holatda qayd qilish bilan belgilandi va bu jarayon odatda svip-spektroskopik usul deyildi. Tabiatda organik molekulalar tarkibidagi boshqa magnitli yadrolarga nisbatan vodorod izotopining yadroси (^1H)—proton tabiatan juda katta miqdorda (99,98 %) bo'lib, ular kuchli intensivlikka ega signallar beradi. Shuning uchun vodorod yadrosining spektrlari YaMR spektroskopiyasining xususiy holi va boshqa magnitli yadrolar spektridan farqli ravishda YaMR- ^1H (proton magnit rezonans) spektri deb yuritiladi.

1980-yillar davomida yuqori mukammallikdagi YaMR spektroskopik tadqiqotlarning keskin rivojlanishi organik moddalar tarkibidagi asosiy element bo'lgan uglerodning og'ir izotopi (^{13}C) yadroси spektrlarini olish bilan xarakterlanadi. Shuningdek azot (^{15}N) va kislород (^{17}O) izotoplari yadrolarining spektrlarini tadqiqot qilish texnik imkoniyatining yaratilishi kimyoda yangi nazariy tushunchalar asosini yaratdi.

Barcha afzalliklari bilan birga YaMR spektroskopiya usulining kamchiligi shundan iboratki, bu usul bilan faqat yadro spin $I>0$ bo'lgan magnitli yadrolarning tadqiqotini amalgaloshirish mumkin. Magnit xususiyati bo'lmagan kvadrupol paramagnit (masalan, ^{14}N) yadrolar ishtirokidagi modda eritmalarining spektrida liniyalar juda keng yoziladi va ulardan aniq ma'lumotlarni olib bo'lmaydi.

6.2. YaMR spektroskopiyasining nazariy asoslari

Ko'pgina yadrolar magnit xossaliga egadir, ya'ni ular magnit maydonida o'zini kuchsiz magnit zarrachalaridek tutadi. Ko'z oldimizga yadroni sharsimon model sifatida tasavvur qilib, undagi musbat zaryad shu sferik hajmda bir tekis tarqalgan deb faraz qilaylik. Bilamizki, har qanday yadro o'z o'qi atrofida aylanadi. Zaryadlangan zarracha aylanishi oqibatida uning atrofidagi orbitasiga mos elektr toki paydo bo'lib, elektromagnit maydon bosil qiladi. Demak, atom tuzilishi haqidagi kimyoviy planetar model tushunchasiga ko'ra aylanayotgan zarracha o'zining burchak momentiga (harakat miqdori momenti) ega. Burchak momenti qiymati $h\nu$ birligida kvantlangan bo'ladi:

$$\hbar = h \cdot v / 2\pi \quad h - \text{Plank doimiysi}$$

Burchak momentining maksimal qiymati yadro spin bilan belgilanadi:

$$P=I \cdot h = I \cdot h / 2\pi \quad (6.1)$$

I – butun yoki kasr sondek bo'ladi. Yadro spin kvant soni (I) yoki oddiyroq qilib aytsak, yadro spinini tushunchasi elektron spinini tushunchasiga mos qabul qilingan. Yadro spinini qiymati shu yadro atomining tartib raqami (z), uning massa soni (M) - ya'ni yadrodaagi protonlar va neytronlar soni yig'indisi bilan belgilanadi (6.1-, 6.2-jadvallar). Tabiatda eng ko'p tarqalgan izotoplar ($^{12}_6C$, $^{16}_8O$, $^{32}_{16}S$) juft son tartib raqami va massa soniga ega ($I=0$), ularning magnit xossasi yo'q va YaMR spektroskopiyasi bilan o'rGANIB bo'lmaydi. Toq massa soni va toq tartib raqamli yadrolarning spin kvant soni kasr sonlarga muvofiq keladi: $I=1/2$ (1_1H , $^{19}_9F$, $^{13}_6C$, $^{31}_{15}P$); $I=3/2$ ($^{11}_5B$, $^{35}_{17}Cl$).

6.1-jadvval

z -tartib raqamli, A -massa soniga ega yadrolarning spin kvant sonlari

z	A	I	$^z_A X$
Juft	Juft	0	$^{12}_6C$, $^{16}_8O$, $^{32}_{16}S$

Toq	Toq	$1/2, 3/2, 5/2$	${}^1_1\text{H}, {}^{11}_5\text{B}, {}^{15}_7\text{N}, {}^{19}_9\text{F}, {}^{31}_{15}\text{P}$
Juft	Toq	$1/2, 3/2, 5/2$	${}^{13}_6\text{C}, {}^{17}_8\text{O}, {}^{29}_{14}\text{Si}$
Toq	Juft	1, 2, 3	${}^2_1\text{H(D)}, {}^{14}_7\text{N}$

Bundan keyin faqat $I \neq 0$, yanada aniqrog'i $I = 1/2$ spinli yadrolarni o'rganishga e'tibor qilamiz, chunki ular magnit dipol momentiga (soddaroq qilib aysak, magnit momentiga) egadir. Yuqoridagi soddalashtirilgan oddiy tushunchalardan spini $I \neq 0$ bo'lgan yadrolar magnit momentiga ega bo'lishini aniqladi. Bu mitti magnitchalarning yadro magnit momenti vektori - μ va burchak momenti vektori - P o'zaro kolleniardir (ya'ni, kolleniarlik atamasi vektorlarning bir chiziqda yoki o'zaro parallel ekanligini ifodalovchi tushuncha):

$$\mu = \gamma \cdot P \quad (6.2)$$

μ – yadro magnit momenti vektori, P – burchak momenti vektori, γ – giromagnit nisbat yoki proporsionallik koefitsiyenti (radian/gauss·sek). Giromagnit nisbat yadro magnit momentiga o'xshab bir xildagi yadrolarning asosiy xossasi bo'lib, bevosita YaMR tajriba yo'li bilan aniqlanadi. Yadro magnit momentining tashqi doimiy magnit maydonidagi holatini ham klassik kvant mexanikasi nuqtayi nazaridan qarash mumkin. Unga ko'ra, radiochastotali nurlanish ta'sirida magnit maydonidagi yadro spini o'zgarishlarini izohlash qulaydir. Kvant mexanikasi yordamida kimyoviy siljish va yadrolarning o'zaro spin-spin ta'siri tushuntirish ham osonroq bo'ladi.


6.2-jadval

Turli yadrolarning spin holati va ularning qiymatlari


Yadro	I	Holatlar soni	Yadro spini
${}^{11}\text{B}$	$3/2$	4	$-3/2, -1/2, 1/2, 3/2$
${}^{12}\text{C}$	0	1	0
${}^{14}\text{N}$	1	3	$-1, 0, 1$
${}^{17}\text{O}$	$5/2$	6	$-5/2, -3/2, -1/2, 1/2, 3/2, 5/2$
${}^{31}\text{P}$	$1/2$	2	$-1/2, 1/2$

6.3. YaMR hodisasining klassik nuqtayi nazardan tahlili



Kuchlanishi H_0 bo'lgan doimiy tashqi magnit maydonidagi yadroning magnit dipoli – μ tashqi magnit maydon yo'nalishiga nisbatan ma'lum ϕ burchak ostida yo'naladi (6.1-rasm). Ammo, yadroning aylanma harakati oqibatida μ vektori H_0 -ga nisbatan parallel holda bo'la olmaydi va unga nisbatan fazoda erkin aylanadi (6.2-rasm). Bu erkin harakatning fizikaviy mohiyatini bolalar o'yinchog'i (pildiroq) yordamida tahlil qilishga urinamiz. Agar stol ustida aylantirib qo'yilgan pildiroqning aylanish o'qi vertikal bo'lmasa, ya'ni og'irlik kuchi yo'nalishidan ozgina farq qilib og'gan bo'lса, u o'z o'qi atrofida aylanishi bilan birga doirasimon shaklda ham stol ustida harakatlanadi. Bu hodisa pretsessiya deyiladi va klassik mexanika nazariyasiga ko'ra aylanma moment hosil qiladi.



6.1-rasm. Yadro magnit momenti vektorining Larmor erkin harakati. 1 – pretsessiya orbitasi, 2 – yadroning magnit dipoli (μ), 3 – aylanayotgan proton.



6.2-rasm. Yadro spin. Tashqi magnit maydoni (H_0) bo'lmaganda – (a) va H_0 mavjudligida – (b) yadro dipolinig yo'nalishi.



6.3-rasm. H_0 -magnit maydondagi spin qiymati $1/2$ va 1 bo'lgan yadroning P -harakat miqdorining burchak momentlarining oriyentatsiyalari.

Aylanma moment quyidagi vektorial ko'paytmadan topiladi:

$$L = \mu \cdot H \quad (6.3) \quad \text{yoki} \quad L = dP/dt \quad (6.4)$$


ekanligini hisobga olsak:

$$dP/dt = \mu \cdot H_0 \quad (6.5)$$

Bu ifodani (6.2) tenglamaga o'tkazsak:

$$dP/dt = \gamma \cdot dR/dt = \gamma \cdot \mu \cdot H_0 \quad (6.6)$$

Bu tenglamadan ko'rindiki, magnit momentining harakat vektori faqatgina bitta erkinlik darajasiga, ya'ni H_0 ga nisbatan fazoda aylanish imkoniyatiga ega.



6.4-rasm. Spin qiymati $I = 1/2$; $m = +1/2$ (α -holat) va $-1/2$ (β -holat) dagi yadro dipollarining presessiyasi.

Magnit momenti (μ) ning presessiyalanishi burchak aylanish chastotasining ω_0 – burchak tezligi va yo'nlatishi bilan bog'liqligini hisobga olish kerak ya'ni:

$$d\mu/dt = -\omega_0 \cdot \mu \quad (6.7)$$


(6.6) va (6.7) tenglamalarni solishtirsak:

$$\omega_0 = -\gamma H_0 \quad (6.8)$$

Bundan kelib chiqadiki, yadro magnit momenti doimiy tashqi H_0 ga nisbatan v_0 chastota bilan erkin harakat qiladi (ya'ni, pretsessiyalanadi):

$$v_0 = \frac{|\omega_0|}{2\pi} = \frac{\gamma}{2\pi} \cdot H_0 \quad (6.9)$$

(6.8) va (6.9) tenglamalar Larmor tenglamasi yoki YaMRning asosiy tenglamasi deyiladi. Demak, v_0 - yadro magnit momentining pretsessiya chastotasi H_0 -doimiy tashqi magnit maydon kuchlanganligiga proporsionaldir. Faraz qilaylik, H_0 -doimiy magnit maydoni vektoriga to'g'ri burchak ostida H_1 -kuchlanishidagi kichik magnit maydoni yo'naligan bo'lsin. Uning trayektoriyasi va chastotasi ham μ magnit



6.5-rasm. *Yadrolarning magnit maydonida energetik jihatdan ajralishi.* momenti bilan bir xil bo'lib, v_0 -ga teng va bu uch vektor: H_0 , μ , H_1 bir tekislikda joylashgan (6.1-rasm). Bu holda μ -magnit momentiga vektorial ko'paytmasi $\mu \cdot H_1$ bo'lgan ikkita kuch ta'sir etadi va ϕ -burchagini oshirishga harakat qiladi. Natijada μ -magnit momenti H_0 -ga nisbatan o'z yo'nalishini o'zgartiradi va yadro

spini sistemasi H_1 -maydon energiyasini yutib rezonanslashadi. Agar H_1 vektorining aylanish chastotasi $v=v_0$ bo'lsa, energiya yutilishi kuzatilmaydi. Demak, H_0 -doimiy tashqi magnit maydonidagi magnit xususiyatli yadrolarning chastotasi bilan yuqori chastotali generatorning H_1 - radiochastotali maydon vektorlari Larmor presessiyasi chastotasiga mos tushsa, energiya yutilishi sodir bo'ladi. Bu hodisa yadro magnit rezonansi deyiladi. Yutilgan energiya doimiy H_0 magnit maydoniga nisbatan yadro magnit momentlarining yo'nalishini o'zgarishiga olib keladi.

YaMR yutilishini kuzatish uchuy Larmor tenglamasiga ko'ra o'zgarmas magnit maydonida ($H_0=\text{const}$) v_0 -chastotasini o'zgartirish kerak, yoki aksincha, chastota o'zgarmas bo'lganda H_0 -doimiy magnit maydoni kuchlanishini sekin o'zgartirish lozim. YaMR spektroskopiyasida ishlataladigan magnit maydoni kuchlanishi $H_0=1$ dan 14 teslagacha bo'ladi, bu bir necha birlikdan yuzlab megagers qiymatli Larmor chastotasiga mos keladi. 6.2-jadvalda magnit xossali eng muhim yadrolarning kattaligi $H_0=2,35$ va $11,74$ Tl (tesla) bo'lgan doimiy tashqi magnit maydonidagi v_0 -rezonans chastotalarining qiymati keltirilgan.

6.2-jadval

Ayrim magnitli yadrolarning tabiatda uchrashi va fizikaviy doimiyliliklari

Izotop	Spin I (h bir- ligi)	Giro- magnit nisbat	YaMR chastotasi v_0 , MGs		Izotop- ning tabiiy %	H_0 -dagi signal intensivligi	
			2,35	11,74		nisbiy	absolyut
1_1H	1/2	2,675	100	500	99,98	1,00	1,00
2_1H	1	0,411	15,351	76,753	$1,56 \cdot 10^{-2}$	$9,56 \cdot 10^{-3}$	$1,45 \cdot 10^{-5}$
$^{11}_5B$	3/2	0,858	32,084	160,42	80,42	0,17	0,14
$^{13}_6C$	1/2	0,673	25,144	125,72	1,108	$1,59 \cdot 10^{-2}$	$1,76 \cdot 10^{-4}$
$^{14}_7N$	1	0,193	7,224	36,118	99,63	$1,01 \cdot 10^{-3}$	$1,01 \cdot 10^{-3}$
$^{15}_7N$	1/2	-0,271	10,133	50,664	0,37	$1,04 \cdot 10^{-3}$	$3,85 \cdot 10^{-5}$
$^{17}_8O$	5/2	-0,363	13,557	67,784	$3,7 \cdot 10^{-2}$	$2,91 \cdot 10^{-2}$	$1,08 \cdot 10^{-5}$

$^{19}_{9}F$	1/2	2,517	94,077	470,39	100	0,83	0,83
$^{29}_{14}Si$	1/2	-0,531	19,865	99,325	4,7	$7,84 \cdot 10^{-3}$	$3,69 \cdot 10^{-4}$
$^{31}_{15}P$	1/2	1,083	40,481	202,40	100	$6,63 \cdot 10^{-2}$	$6,63 \cdot 10^{-2}$

6.4. YaMR spektrining parametrlari. Kimyoviy siljish tabiatı

Molekuladagi barcha protonlar bir xil bo'lib, ular Larinor formulasiga ko'ra yagona umumiy signal namoyon qilishi lozim edi, chunki barcha protonlar uchun ν , γ , H_0 bir xil qiymatga ega va o'zgarmasdir. Amalda esa hatto bir molekuladagi protonlarning YaMR spektridagi rezonans chastotasi bir-biridan farq qiladi. Chunki har bir proton uglerod atomining C-C bog'idagi boshqa funksional guruuhlar elektron bulutlarining zichligini turlicha his qiladi. Boshqacha qilib aytganda, protonlarni har xil elektron bulut zichliklari doimiy tashqi magnit maydonidan turlicha ekranlaydi. Bunday protonlar kimyoviy ekvivalent bo'lsa ham, elektromagnit xossalari bilan noekvivalentdir. Mana shu hodisani tushuntiradigan YaMR spektroskopiyasining asosiy parametri-kimyoviy siljishdir. Shunday magnit ekranlashishning oddiy model sistemasini sferik simmetriyaga ega elektron bulutli izotrop magnit zarracha misolida ko'rib chiqamiz. Bu zarracha tashqi H_0 magnit maydonida joylashtirilganda elektronlar yadro atrofida va tashqi H_0 maydon atrofida aylana boshlaydi. Natijada tashqi H_0 maydonga qarshi yo'nalgan ikkilamchi lokal H_{lok} elektromagnit maydon hosil qiladi (6.3-rasm).

$$H_{lok} = -\sigma \cdot H_0 \quad (6.10)$$

bunda σ – yadroning ekranlashish konstantasi bo'lib, σ -ning qiymati yadro atrofidagi elektronlar soniga to'g'ri proporsional. Biz kuzatayotgan izotrop magnitli sistemada σ kattaligi H_0 qanday joylashganligiga bog'liq emas.

Demak, sferik simmetriyadagi yadroning elektron ekranlanishi oqibatida u doimiy H_0 -ga nisbagan kichikroq bo'lган H_{eff} maydonda rezonanslashadi. Shuning uchun (ν_0 chastota o'zgarmas bo'lsa ham) biz o'rghanayotgan atom yadrosi elektron


qobig'i bo'lmagan yadroga nisbatan $\sigma \cdot H_0$ -cha kattaroq bo'lgan magnit signal beradi.

$$H_{\text{eff}} = H_0 - \sigma \cdot H_0 = H_0(1-\sigma) \quad (6.11)$$

Molekuladagi atomlarning elektron qurshovi sferik simmetriyali emas, shuning uchun umumiy holda kimyoviy siljish δ -qiymati molekuladagi atomlarning tashqi H_0 -ga nisbatan joylanishiga bog'liq. Amalda elektron qobig'i bo'lmagan yadro rezonans chastotasini tajriba yo'li bilan o'lchab bo'lmaganligi uchun δ -konstantaning absolyut qiymatini o'lchab bo'lmaganligi sababli δ -ki myoviy siljishning kattaligini biror-bir standart etalonga nisbatan aniqlaymiz:

$$\delta = (\delta_{\text{et}} - \delta_{\text{modda}}) \cdot 10^6 = \Delta\delta \cdot 10^6 \quad (6.12)$$

bundagi δ_{et} – etalon modda protonlari yadrosining ekranlash konstantasi, δ_{modda} – o'r ganiladigan modda tarkibidagi protonlarning ekranlash konstantasi. Agar modda (yoki uning eritmasi)ning atom va molekulyar hissalarini molekulalararo o'zaro ta'sirlari hisobga olinib, ekranlash konstantasi (δ) aniqlansa, bu qiymat ayni shu yadroning absolyut kimyoviy siljishi deyiladi:



6.3-rasm. *s*-elektronlar presessiyasi natijasida izotrop magnitli zarrachaning tashqi H_0 -maydonida ekranlashishi: 1-yadro, 2-aylanuvchi elektronlar, 3-magnit kuchlanish chiziqlari H_{lok} .

Etalon va o'r ganiladigan moddaning shu konstantalari orasidagi farq (δ_{modda}) kimyoviy siljish deb aytildi va u eksperimental aniqlangan magnit maydoni kuchlanishi yordamida topiladi:

$$\delta = \frac{H_0 \text{ etalon} - H_{\text{namuna}}}{H_{\text{etalon}}} \quad (6.13)$$

yoki bu qiymat rezonans chastotalari yordamida ham topilishi mumkin:

$$\delta = \frac{\nu_{\text{etalon}} - \nu_{\text{namuna}}}{\nu_{\text{etalon}}} \quad (6.14)$$

Rezonans chastotalar ayirmasi qiymati ($\Delta\nu = \nu_{\text{et}} - \nu_{\text{namuna}}$) juda katta son bo'lgani uchun ($> 10^6$ Hz) kimyoviy siljish soddaroq qilib million hissa (m.h.) bilan ifodalanadi.

YaMR-¹H spektroskopiyasida etalon sifatida juda o'tkir va yuqori intesivlikdagi liniya bergani uchun tetrametilsilan (TMS, Si(CH₃)₄) ishlatiladi va unga nisbatan boshqa protonlarning kimyoviy siljishi TMS δ-shkalasida δ, m.h.) o'chanadi:

$$\delta_H = \frac{\nu_{\text{TMS}} - \nu_H}{\nu_0} \cdot 10^6 \quad (6.15)$$

Bunda TMS o'zining nisbiy siljishi nolga teng deb qabul qilingan, 6.14–6.16 tenglamalarga ko'ra boshqa protonlarning musbat kimyoviy siljishi magnit maydoni kuchlanishi kuchsiz tomonda kuzatiladi. Proton yadrosi qancha kam ekranolansa, uning kimyoviy siljish qiymati δ-shkalada shuncha ortib boradi. TMS protonlarining ekranolishi eng katta bo'gani uchun kimyoviy siljish qiymati δ = 0,00 m.h. deb qabul qilingan.





Bundan juda mulim ikki xulosa chiqarishimiz mumkin:

1)kuchli ekranolangan yadrolarning rezonansi kuchliroq magnit maydonida va quyi chastotada sodir bo'ladi (6.4-rasm);

2)kuchsiz ekranolangan namunalar etalonga nisbatan ($\Delta\delta > 0$) musbat δ qiymatga ega bo'ladi, kuchli ekranolangan yadrolar, aksincha, ($\Delta\delta < 0$) manfiy δ qiymatga ega bo'ladi. Bularning barchasi umumiyl holda protonlarning kimyoviy siljishi bilan ular atrofidagi elektron zichligi orasida ma'lum uzviy aloqa borligini ko'rsatadi.

Izoelektron seriyali va tuzilish simmetriyasi juda yaqin aromatik birikmalardan benzol(7,26 m.h.), siklopentadiyenil (5,37 m.h.) va tropiliy kationi(9,17 m.h.)protonlarining kimyoviy siljishi solishtirilganda shu narsa ko'rindiki, musbat yoki manfiy zaryad birgina uglerod atomida lokallashganda ekranolangan va deekranlangan protonning kimyoviy siljishi orasidagi farq har bir

elektron zaryadiga nisbatan taxminan 4-10 m.h. gacha bo'lishi mumkin:




6.4-rasm. CHBr_3 , CH_2Br_2 , CH_3Br va TMS aralashmasining YaMR- ^1H spektri.

Kimyoviy siljish qiymatiga proton atrofidagi elektron bulut zichligi katta ta'sir etishini e'tirof qildik, ammo tajribada bu hamisha to'g'ri kelavermaydi. Hodisaning bunday bo'lishiga asosiy sabab, magnitli yadrolar atrofida qo'shni elektronlarning ikkilamchi lokal magnit maydoni ta'sirlari o'z-hissasini qo'shadi. Proton yaqinidagi elektron bulut zichligi hech qachon bir elektron zaryadidan oshmasligini yaxshi bilamiz va bu kattalik qo'shni ko'p elektronli atomlar atforidagi zichlikdan doimo kichik bo'ladi. Shuning uchun YaMR- ^1H spektroskopiyasida qo'shni atomlar yoki guruhlarning ta'siri ostidagi ekranlashish konstantasi shu atom yadrosiga kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Bu hodisa atsetilen va etilen protonlari kimyoviy siljishida yaqqol namoyon bo'ladi. Atsetilendagi protonlar kuchliroq ekranlangan(1,80 m.h.),

etilennen protonlari aksincha, zaifroq ekranlangan, ya'ni deekranlangan(5,25 m.h). YaMR-¹H spektridagi kimyoviy siljishlar qiymati buni tasdiqlasa ham, aslida etilendagi protonlarning elektron bulut zichligi atsetilenga nisbatan kattaroq ekanligi sizga organik kimyo kursidan ma'lum. Demak, bu hollarda kimyoviy siljishga atomlarning, guruhlarning magnit anizatropiyasi o'z hissasini qo'shadi. Bu hissa doimiy H₀ maydoni yo'nalishiga nisbatan qo'shni atomlarning fazoviy qanday yo'nalishda joylashganiga ko'ra(oriyentatsiyalanishiga muvofiq) yonidagi proton signallarini kuchli (ekranlanish) yoki kuchsiz (deekranlanish) maydonga siljitaldi. Magnit anizatropiya hodisasi C=C, C=O, C=S, C=N, C=P kabi qo'shbog'lar, C≡C, C≡N uchbog'lar, galogen atomlari, ayniqsa aromatik halqa ishtirokida kuchli namoyon bo'ladi. Bu xil magnit-anizatrop ta'sirlashuv 2 qismdan iborat (6.5 va 6.6-rasmlar):

- diamagnit hissa, izotrop ekranlashuv;
- paramagnit hissa, anizatrop deekranlashuv.


Organik kimyo kursidan benzol halqasining tuzilishi bizga ma'lum. Agar halqa doimiy H₀-magnit maydoniga nisbatan perpendikulyar joylashgan bo'lsa, H₀ ta'sirida benzolning π -elektronlari yopiq kontur (halqa) bo'ylab induksiyalanadi (magnit maydoni hosil qiladi, 6.5-rasm). Natijada halqa tashqarisida joylashgan protonlar ikkilamchi magnit maydon ta'sirida deekranlanadi va YaMR-¹H spektrida signallar kuchsiz maydon sohasiga (δ 7,26 m.h.) siljiydi. Bordi-yu benzol halqasi tekisligi doimiy H₀ maydon yo'nalishiga nisbatan parallel joylashganda elektron oqimi ta'siri sezilmaydi, ya'ni ekranlanish konstantasi nolga teng bo'ladi.



6.5-rasm. Benzol halqasi protonlarining π -elektron magnit maydoni ta'sirida deekranlanishi.


Ko'pgina to'yinmagan organik moddalar, aldegid, keton, karbon kislota, murakkab efirlarning magnit anizatropiyasi shu molekula tarkibidagi o'rinnbosarlar tabiatiga bog'liq. Protonlarning har xil magnit anizatrop guruhi ta'sirida ekranlanishini qiyosiy taqqoslash uchun Mak-Konnel taklif etgan ekranlanish konusi grafik formulalaridan foydalanish mumkin (6.6-rasm). Boshqa yadrolarning magnit ekranlashuvini nazarda tutib ekranlanish konstantasi qiymatlarini hisoblaganda magnit maydoni ta'siri ostida asosiy elektron holatiga qo'zg'algan holat qo'shilishini ham unutmasligimiz kerak. Nazariy jihatdan olinganda, bu hodisa elektronning orbital burchak momenti bilan yadro spinii momentining o'zaro ta'siri oqibatida hosil bo'lgan diamagnit ekranlanish natijasidir.

Ko'pgina organik moddalarning YaMR-¹H spektrlari solishtirilganda, ayrim guruhlarning kimyoviy siljishi xarakteristik bo'lib, ular bir xil elektron qurshovlari bilan bir-biriga o'xshaydi. Bu xildagi yadrolar kimyoviy ekvivalent yadrolar deyiladi va ular YaMR-¹H spektrida umumiy yagona signal namoyon qiladilar.



6.6-rasm. C-C (a), C=O, C=C (b), C≡C (c) bog'larining anizatrop ekranlash modellari: + ekranlanish sohasi, - deekranlanish sohasi.

Bunga misol tariqasida, etil spirtining YaMR-¹H spektrini keltirishimiz mumkin (6.7-rasm). CH₃CH₂OH formuladan ko'rindaniki, uning tarkibida uch xil magnit xossalni protonlar bor. Metil (-CH₃) guruhining uchta protoni ko'p




6.7-rasm. Etil spiritining YaMR- ^1H spektri.

ekranlangan bo'lib, kuchli magnit maydonida (1,17 m.h.), metilendagi ikkita protonning ($-\text{CH}_2$) elektron buluti qisman siyraklashgan (deekranlangan) va metil guruhiga nisbatan kuchsiz maydonda (3,62 m.h.) signal beradi. Niroyat, eng kuchsiz maydonda (5,37 m.h.) gidroksil OH-guruhi protonining signali qayd qilingan.


6.5. Kimyoviy almashiaish (migrasiya) hodisasi

Ilgari ta'kidlaganimizdek, ayrim qutibli ($\text{O}-\text{H}$, $\text{N}-\text{H}$, $\text{S}-\text{H}$) bog'lar ($\text{C}-\text{H}$) kovalent bog'ga nisbatan ancha beqaror va ularagi vodorod atomlari harakatchan bo'ladi. Molekula ichidagi, qo'shni molekuladagi, erituvchi tarkibidagi faol protonlar bu guruh protonlar bilan osongina almashinadi. Bu dinamik hodisa haroratga bog'liq bo'ladi. Masalan, atsetilatsetonning suyuq azot va xona haroratidagi YaMR- ^1H spektrlari bir-biridan farq qiladi. Yuqori haroratda atsetilatseton keto-yenol tautomeriyasini namoyon qiladi, past haroratda esa bu jarayon kuzatilmaydi. Birinchi tautomer holat uchun YaMR- ^1H spektrida faqat 2 xil prononlar signali kuzatilsa, ikkinchi tautomerning protonlari bir-biridan farq qiladigan 4 xil signallar qayd etiladi:



Yoki soddarоq misol keltirsak, $(\text{HOCH}_2\text{CH}_2\text{NH}_2)\text{O}-\text{H}$ etanolamindagi va N-H guruhlari protonlari xona haroratida migratsiyalanishi (OH va NH protonlarining ko'chishi) natijasida bitta signal beradi. Azotning qaynash haroratida har qaysi protondan alohida signal qayd qilinadi. Demak, past haroratda protonlar almashinuvining dinamik hodisasi kuzatilmaydi. Spektr natijasi O va N atomlarining elektromanfiyligi haqidagi xulosalarimizga zid emas. Kislorod azotga nisbatan kattaroq elektromanfiylikka ega va u bilan bog'langan proton signali chaproqda, kuchsiz maydon sohasida, azot bilan bog'langan proton kuchli maydonda rezonanslashadi. Shu o'rinda "multipletlik" va "signallar guruhi" atamalarini almashtirmasligimiz kerak. Multipletlik – bir yoki bir guruh (magnitli yadrolar kimyoviy ekvivalent) protonlarning qo'shni magnitli yadrolar spin-spin o'zaro ta'sirida bosil qilgan rezonans signallardir.

"Liniyalar guruhi" yoki "signallar guruhi" kimyoviy noekvivalent yadrolar multipletlarining o'zaro aralashuvidir (yuqorida keltirilgan etanolaminning migratsiya bo'lgandagi signal kabi). Bu holdagi






6.8-rasm. Protonlar migratsiyasining (kimyoviy almashinish) signallarga ta'siri: etanolaminning past haroratda olingan spektri – a, xona haroratida olingan YaMR-¹H spektri – b.



noekvivalent yadrolarning signallarini yaxshiroq ajratish uchun YaMR spektrlarini chastotasi kattaroq, ya'ni mukammalroq spektroskoplarda olish tavsiya qilinadi.

6.6. ^1H yadrolarining kimyoviy siljishi va signallar soni

Diamagnit moddalardagi protonlarning kimyoviy siljishi taxminan 0–27 m.h. oralig'ida bo'ladi. Asosiy funksional guruhli organik moddalarda bu diapazon ancha kichik va 12 m.h. chegarasida bo'ladi. C–C bog'ining magnit anizatropiyasi natijasida alkanlar tarkibidagi CH_3 -, CH_2 -, CH- guruhlari protonlarining kimyoviy siljishi 0,75–0,95; 1,15–1,35 va 1,50–1,80 m.h. chegaralarida qayd qilinadi. Uglevodorod molekulasi dagi biror proton o'miga X-funksional o'rinnbosarning kiritilishi eng avval α -C atomi bilan bog'langan protonlar signalining kuchsiz maydonga siljishini belgilaydi. Bu kattalik $\Delta\delta = 4$ m.h. chegarasida bo'lsa, β -C atomi protonlari taxminan 1 m.h., keyingi C atomi protonlari 0,3–0,5 m.h. gacha kimyoviy siljiydi. Protonlarning o'zaro kimyoviy yoki magnit jihatdan ekvivalent bo'lishini bir necha misollarda ko'rib chiqaylik:




Protonlarning stereokimyoviy ekvivalent bo'lishi, ularning qo'shbog', uchbog' yoki funksional guruhga nisbatan qanday joylashganligi bilan belgilanadi.



Qo'sh bog' tutgan olefinlar protonlarining kimyoviy siljishi xarakteristik sohasi 4,50–8,00 m.h. chegarasida bo'ladi. Anizatrop o'rinnbosarlarning deekranlanish ta'siri natijasidagi kimyoviy siljish sis-izomer uchun *trans*-holatga nisbatan kuchliroq seziladi. Atsetilen uglevodorodlarining kimyoviy siljishi olefinlarga


nisbatan kuchliroq maydonda qayd qilinsa ham, ularning tabiatini erituvchi xossalariiga bog'liq bo'ladi. Bularidan tashqari uch bog'li C-atomining protonlari eritmada erituvchining deyteriyilar bilan oson almashinadi, yani kutilgan signal yo'qoladi.

Benzolning turli hosilalaridagi *ortho*-, *meta*- va *para*-almashingan guruhlarga nisbatan joylashgan protonlarning kimyoviy siljishi Gaminet tenglamasining σ -konstantalariga mos keladi. Aromatik birikmalar protonlarining kimyoviy siljishi halqadagi paramagnit toklar yo'nalishi bilan belgilanadi va sistemaning "aromatiklik" xossalari bor-yo'qligini isbotlashga yordam beradi: [16]-annulen yoki [18]-annulennenning ichki va tashqi protonlarining kimyoviy siljishi bir-biridan keskin farq qiladi.



Annulen-16

δ_{ichki} 10,3; δ_{tashqi} 5,28



Annulen-18

δ_{ichki} 4,22; δ_{tashqi} 10,7

Kimyoviy siljishlarning tablili shuni ko'rsatadiki, [16]-annulenda 4nta p-elektron bor, unda paramagnit halqali elektron oqimi yo'q va aromatiklik xossasini namoyon qilmaydi. [18]-Annulenda ($4n+2$)ta p-elektron mavjud "ichki" protonlar aromatik halqa tekisligida joylashgan va ekranlangan, "tashqi" protonlar halqa tashqarisida joylashgan va aksincha deekranlangan.

[10]-*para*-siklofan YaMR-¹H spektrida kimyoviy siljishlar farqi ham xuddi shu effektlar bilan tushuntiriladi. Geteroaromatik birikmalar protonlarining kimyoviy siljishlari ham aromatik uglevodorodlarnikiga yaqin, ammo geteroatom tabiatiga ko'ra bu signallarning rezonansi 6-9,5 m.h. sohalarida qayd qilinadi. Harakatchan vodorod atomi tutgan organik moddalar: spirtlar,

fenollar, aminlar, tiollar, kislotalardagi protonlarning kimyoviy siljishi faqatgina geteroatom tabiatini bilan emas, balki tashqi faktorlar (erituvchi tabiat, konsentratsiya, harorat)ga ham bog'liqdir. Bu faktorlar vodorod bog'lari orqali molekulalarning assotsilanishi, funksional guruh protonlari-ning migratsiyasi, protolitik dissotsiyalanish darajasini belgilaydi. Assotsilanish va proton migratsiyasi bo'limganda (bug' fazada yoki inert erituvchidagi suyultirilgan eritmalar) spirlarning OH-guruhi protoni kuchli maydonda (0,50 m.h.) rezonans signal berishi lozim.

$\text{CH}_2 - \text{CH}_2$	δ 0,51 m.h.
$\text{CH}_2 - \text{CH}_2$	δ 0,70 m.h.
$\text{CH}_2 - \text{CH}_2$	δ 1,08 m.h.
$\text{CH}_2 - \text{CH}_2$	δ 1,55 m.h.
$\text{CH}_2 - \text{CH}_2$	δ 2,63 m.h.



6.3-jadval

CH_3 -, CH_2 -, CH - guruhlaridagi protonlar signallarining kimyoviy siljishi (δ , m.h.)

- CH_3		- CH_2 -		> CH -	
Molekuladagi o'mi	δ m.h.	Molekuladagi o'mi	δ m.h.	Molekuladagi o'mi	δ m.h.
- $\text{CH}_2 - \text{CH}_3$	0,9	- $\text{CH}_2 - \text{CH}_2 -$	1,3	- $\text{CH}_2 - \text{CH} -$	1,5
= $\text{CH} - \text{CH}_3$	1,7	= $\text{CH} - \text{CH}_2 -$	1,9	= $\text{CH} - \text{CH} -$	2,1
$\text{C}_6\text{H}_5 - \text{CH}_3$	2,3	$\text{C}_6\text{H}_5 - \text{CH}_2 -$	2,6	$\text{C}_6\text{H}_5 - \text{CH} -$	2,9
$\text{O} = \text{C} - \text{CH}_3$	2,1	$\text{O} = \text{C} - \text{CH}_2 -$	2,4	$\text{O} = \text{C} - \text{CH} -$	2,5
- $\text{O} - \text{CH}_3$	3,3	- $\text{O} - \text{CH}_2 -$	3,5	- $\text{O} - \text{CH} -$	3,7
- $\text{COO} - \text{CH}_3$	3,7	- $\text{COO} - \text{CH}_2 -$	4,2	- $\text{COO} - \text{CH} -$	4,3
$\text{HOOC} - \text{CH}_3$	2,3	$\text{HOOC} - \text{CH}_2 -$	2,2	$\text{HOOC} - \text{CH} -$	2,4
$\text{ROOC} - \text{CH}_3$	2,3	$\text{ROOC} - \text{CH}_2 -$	2,2	$\text{ROOC} - \text{CH} -$	2,4
$\text{Cl} - \text{CH}_3$	3,1	$\text{Cl} - \text{CH}_2 -$	3,5	$\text{Cl} - \text{CH} -$	4,1
$\text{Br} - \text{CH}_3$	2,7	$\text{Br} - \text{CH}_2 -$	3,4	$\text{Br} - \text{CH} -$	4,2
$\text{I} - \text{CH}_3$	2,2	$\text{I} - \text{CH}_2 -$	3,2	$\text{I} - \text{CH} -$	4,2
- $\text{S} - \text{CH}_3$	3,1	- $\text{S} - \text{CH}_2 -$	3,3	- $\text{S} - \text{CH} -$	3,5
- $\text{N} - \text{CH}_3$	2,2	- $\text{N} - \text{CH}_2 -$	2,5	- $\text{N} - \text{CH} -$	2,9

6.7-rasmdagi YaMR- ^1H spektri bilan tanishganimizda, etil spirlining OH-guruhi protoning signalini δ 5,37 m.h. da qayd etilgan edi. Haqiqatdan ham, yuqorida ko'rsatilgan tashqi faktorlar ta'siri oqibatida standart sharoitda spirlarning OH-guruhi protonlari δ 4-6 m.h. chegarasida rezonanslashadi. Fenollarning OH-guruhi protonlari benzol halqasi anizatropiyasi va fenoksid guruhi

kislotali xossalari natijasida spirtlarga nisbatan kuchsizroq sohada rezonans signallar berishi o'quvchiga endi tushunarli bo'lsa kerak.

Aminlar protonlarining kimyoviy siljishi amin xossalari va muhitning pH qiymatiga ko'ra 0,5-5 m.h. sohalarida signallar beradi. Xullas, barcha turdag'i protonlar signallarini bir-bir qayd qilish ancha vaqt ni oladi va o'quvchini zeriktirmaslik uchun eng ko'p uchraydigan molekulyar fragmentlar va funksional guruhlar protonlarining kimyoviy siljishlarini jadval sifatida ilova qilingan. 6.3-jadvalda faqat har xil uglevodorodlar tarkibidagi turli o'rindbosarlar tutgan CH₃-metil, CH₂-metilen, CH-metin guruhni protonlariga xos kimyoviy siljish kattaliklari keltirilgan.

YaMR-¹H spektrida kuzatilayotgan protonning magnit ekranlanishida bir paytda ikki xil guruhlar ta'sir etadigan bo'lsa, signallarning kimyoviy siljishi yanada kuchsiz maydon tomonga siljiydi va bu signallar ma'lum bir interval oraliq'ida qayd qilinadi (6.4-jadval).

Biz keltirgan 6.3-jadvaldagi ko'pgina organik moddalar o'quvchilarga tanish, ammo aromatik va ferrotsen halqalaridagi protonlarning kimyoviy siljishiga o'rindbosarlarning qanday ta'sir etishi hali tushunarli emas. Shuning uchun ularning tabiatini tushuntirish maqsadida yana ikkita kichikroq jadvalni diqqatingizga havola qilamiz (6.5,6.6-jadvallar). 6.5-jadval qiymatlari tahlilidan avval ferrotsen haqida qisqa ma'lumotni talabalarga eslatish lozim. Ferrotsen Fe²⁺ ioni bilan siklopentadiyenil anionining hosil qilgan kompleks birikmasidir. Har ikki siklopentadiyenil anioni Fe(II) ioni bilan sendvich tuzilishidagi kompleks birikma hosil qilgan va bir manfiy zaryad halqadagi beshta uglerod atomlari orasida bir tekis delokallashgan. Shuning uchun uning halqasidagi beshta protonlar magnit, elektrokimyoviy jihatdan ekvivalent va ular YaMR-¹H spektrida yagona singlet signal beradilar.

6.4-jadval

Har xil protonlar signallarining kimyoviy siljishi (δ , m.h.)

Molekuladagi o'mi	δ , m.h.	Molekuladagi o'mi	δ , m.h.	Molekuladagi o'mi	δ , m.h.
-------------------	-----------------	-------------------	-----------------	-------------------	-----------------

R-CH ₃	0,9-1,0	C ₆ H ₅ -CO-CH ₃	2,6	R-COO-CH ₃	3,7
Siklo-C ₆ H ₁₂	1,42	C ₆ H ₅ -CH ₂ -R	2,5-3,0	R-O-CH ₂ -R	3,7-4,1
R-CH ₂ -R	1,3-1,5	R ₂ C=CR-CHR ₂	2,9-3,5	R-COO-CH ₂ R	3,6-4,5
Cl-CH ₂ -CH ₃	1,5	R-COOH	10-13	R ₂ CH-Cl (Br, I)	4,0-4,6
Cl-CH ₂ -CH ₂ -R	1,7	R-CH=CH-OH	15-18	R-CH ₂ -NO ₂	4,2-4,5
Cl-CH ₂ -CHR ₂	1,6-1,7	CH ₃ -I	2,2	C ₆ H ₅ -CH ₂ -Cl	4,5
R ₂ C=CR-CH ₃	1,7-2,0	R-CH ₂ -I	3,0-3,4	R-NH ₂	1,0-5,0
R-C≡C-CH ₃	2,0	CH ₃ -Br	2,7	R-OH	1,0-5,5
R ₃ C - H	1,5-2,5	R-CH ₂ -Br	3,4-3,6	R ₂ C=CHR	5,5-5,9
R-CO-CH ₃	2,1	R-O-CH ₃	3,3-3,7	R-CHCl ₂	5,6-5,9
R-CH ₂ -COOH	2,3	-S-CH ₃	3,1	Cp (a)	2,90
R-CH ₂ -COOR	2,0-2,3	-S-CH ₂ -R	3,3-3,5	Cp(b)	6,42
R ₂ C=CR-CH ₂ R	1,9-2,4	R-CH ₂ -OH	3,4-4,0	Fc	4,0-4,1
C ₆ H ₅ -CH ₃	2,2-2,4	C ₆ H ₅ -O-CH ₃	3,7-3,9	R-C(O)-H	8,5-11
R-C≡CH	2,3-3,0	R-CH ₂ -Cl	3,4-3,8	C ₆ H ₅ -H	6,5-8,6
R-CO-CH ₂ -R	2,0-2,8	R-O-CH ₂ -R	3,5-3,9	C ₆ H ₅ -OH	4,0-12

Cp-siklopentadiyen halqasidagi metilen - (a), metin - (b) guruhi protonlari signali va ferrotsen halqasi protonlari - (Fc) signali.


6.5-jadval

Umumiy formulasi [C₅H_{5-n}(CH₃)_n]₂Fe bo'lgan polimetilferrotsenlarning YaMR-¹H spektri parametrlari (δ , m.h.)

Ferrotsen va uning hosilalari	CH ₃	CH halqa protonlari
Ferrotsen [C ₅ H ₅] ₂ Fe	-	4,03
1,1'-dimetilferrotsen	1,87	3,88
1,1',2,2'-tetrametilferrotsen	1,86	3,62
1,1',3,3'-tetrametilferrotsen	1,86	3,63
1,1',2,2',3,3'-geksametilferrotsen	1,76	3,42
1,1',2,2',4,4'-geksametilferrotsen	1,77; 1,79	3,41
1,1',2,2',3,3',4,4'-oktametilferrotsen	1,66; 1,70	3,22
1,1',2,2',3,3',4,4',5,5'-dekametilferrotsen	1,62	-

6.6-jadval

Monoalmashigan benzol hosilalaridagi protonlar signallarining kimyoviy siljishi - Δ ($\Delta = \delta$ C₆H₆ - δ C₆H₅X), m.h.



6.5-jadvaldan ko‘rinadiki, elektronodonor CH_3 -guruhlarning soni ortib borishi bilan ferrotsenning siklopentadiyenil halqasidagi protonlarning elektron bulut zichligi oshadi va ularning kimyoviy siljishi kuchli magnit maydoni sohasiga siljiydi (4,03 m.h. dan 3,22 m.h. gacha).


6.6-jadvaldagи qiymatlar o‘quvchiga oydinroq bo‘lishi uchun uni jadval-grafik tarzida aks ettirdik. Unda benzol halqasidagi *ortho*-, *meta*- va *para*-holatdagi protonlarning kimyoviy siljishi o‘rnbosar tabiatiga nisbatan kuchli yoki kuchsiz maydon sohasiga siljish farqlari ketirilgan.

6.7. Signallar intensivligi

Biz ilgarigi qismlarda signal intensivligi va uning yutilish chizig‘i ostidagi maydon yuzasi bilan belgilanishi haqida qisman tanishgan edik. Endi molekula tarkibidagi har xil protonlarning

cho'qqilarini yuzasini o'lchaydigan bo'lsak, bu bizga ancha noqulaylik va qiyinchilik tug'diradi.

Hozirgi zamonda YaMR spektroskoplarda signallar (cho'qqilar) yuzasini o'lchaydigan maxsus elektron moslamalar – **integratorlar** bor. Integrator spektr signallari ustida xuddi zinapoya pog'onachalariga o'xshash egri chiziq chizadi. Har bir "zinapog'onachalari" ning balandligi shu "pog'onaga" tegishli signal yuzasini tafsiflaydi. Ularning balandligini mm yoki sm hisobida o'lchab, protonlar sonini aniqlash mumkin. Buni sirka kislota YaMR-¹H spektri misolida ko'ramiz (6.8-rasm).




6.8-rasm. Sirka kislotaning YaMR-¹H spektri.

Sirka kislota tarkibida (CH_3COOH) 4ta proton bo'lib, ularning uchtasi (CH_3) o'zaro kimyoviy ekvivalent. Metil guruhining protonlari signali kuchli maydonda qayd qilingan, unga mos keluvchi integral "zinapoyacha" balandligi o'lchanganda, kuchsiz maydonda qayd qilingan COOH-guruhi protoniga mos keluvchi "zinapog'onasi" dan uch marta kattaligi aniqlandi.

Sirka kislotasi metil guruhi protonlaridan biri C_6H_5 -fenil radikali bilan almashtirilganda YaMR-¹H spektridagi fenilsirka kislotasi protonlarining kimyoviy siljishi va ular signallarining intensivligi boshqacha qayd etiladi, chunki haqiqatdan ham fenilsirka kislota ($\text{C}_6\text{H}_5\text{CH}_2\text{COOH}$) ekvivalent protonlarining o'zaro integral intensivliklari nisbati o'lchanganda 2:5:1 kabi bo'lib chiqadi. Protonlarning kimyoviy siljishi sirka kislotaga

nisbatan fenil radikali anizatropiyasita'sirida CH_2 -guruhining protonlari signali kuchsiz maydonga siljiydi (6.9-rasm).




6.9-rasm. Fenilsirka kislotaning YaMR- ^1H spektri

6.8. Ayrim organik moddalarning YaMR- ^1H spektrlari

Organik birikmalar tarkibidagi protonlar va ularning YaMR- ^1H spektridagi signallari molekula tuzilishiga bog'liq va bir-biridan farq qiladi. Odadta vodorod eng ko'p tarqalgan element bo'lib, barcha organik birikmalar tarkibida uchraydi. Ikkinchini tomondan proton kimyoviy siljishi (signallari) intensivligi katta bo'lganligi uchun ularni YaMR- ^1H usuli bilan o'rghanish juda ko'p ma'lumot olishga imkoniyat yaratadi. Olib borilgan tajribalardan ko'rindiki, protonlar asosan $\delta = 0 \div 10$ m.h. sohasida signal beradi va spektr olishda etalon sifatida tetrametilsilan [$\delta_{(\text{TMS})} = 0,00$ m.h.] ishlatiladi. Turli funksional guruhlari tarkibidagi protonlarning xarakteristik signallari 6.10-rasmida berilgan bo'lib, ayrim signallar bir-birini qoplashi (ustna-ust tushishi) mumkin. Masalan, olefin protonlarining signallari aromatik halqa protonlari bilan yaqin sohada rezonanslashadi.

Alkanlar va sikloalkanlar. Normalalkanlar tarkibidagi protonlarning signallari kimyoviy sijishiga X-o'rribosarlar turlicha ta'sir ko'rsatadi (6.10-rasm). Alkandagi X-o'rribosarning elektromanfiyligi oshib borsa, metall guruhi protonlarning ekranlanishini kamaytiradi va protonning kimyoviy siljishi (δ , m.h.) qiymatini kattalashtiradi. O'rribosar va tahlil qilinmayotgan

proton orasidagi uglerod zanjiri soni ortib borganda, masofa uzoqlashgan sari ularning ta'siri so'niq boradi:



6.10-rasm. Organik moddalarning turli funksional guruhlar tarkibidagi protonlarining kimyoviy siljishlari (signallari, δ , m.h.).

X-elektromansifiy o'rribosarlarning metil guruhi protonlari
kimyoviy siljishiga ta'siri(δ , m.h.)

$X^a)$	Li	R_3Si	H	CH_3	NH_2	OH	I	Br	F
$\delta(XCH_3)$	-1	0	0,4	0,8	2,36	3,38	2,16	2,70	4,25
$E_X^{a)}$	1,0	1,8	2,1	2,5	3,0	3,5	2,5	2,8	4,00

$E_X^{a)}$ — Poling bo'yicha aniqlangan elektromansifiylik

Shu xildagi o'rribosarlar ($X=Cl$)ning soni ortib borishi bilan ham additiv ravishda kimyoviy siljish qiymati kattalashadi:

CH_4	CH_3Cl	CH_2Cl_2	$CHCl_3$	δ , m.h.
0,23	3,05	5,33	7,26	

O'rribosarlarning induktiv effektini δ -bog'lar bo'yicha elektron buluti siljishi oqibatidagi ta'siri bilan ifodalash mumkin. Nazariy jihatdan kimyoviy siljisblarni ifodalash imkoniyati bo'limgani uchun bu qiymatlar turli empirik usullar bilan aniqlanadi. Bu xildagi X-o'rribosarlarning ekranlash effekti $XCH_3 > XCH_2 > XCH$ qatorida kamayib boradi, masalan:

$(CH_3)_2CHCl$	CH_3CH_2Cl	CH_3Cl	δ , m.h.
4,13	3,51	3,05	

$X-CH_2-Y$ kabi ikkita turli (X va Y) o'rribosarlar tutgan metilen guruhi protonlarining kimyoviy siljishini aniqlash uchun *Shuteri* qoidasidan foydalanadilar:

$$\delta = 0,23 + S_x + S_y \quad (6.16)$$


S_x va S_y — effektiv ekranlash konstantalari (maqola, monografiya va bildirigichlardagi jadvallardan olinadi). Bu qoidadan foydalanib, N-benzometilamin ($C_6H_5-CH_2-NH-CH_3$) metilen guruhi protonlarining kimyoviy siljishini aniqlaymiz (6.11-rasm). Bu misolda $S(C_6H_5)=1,85$; $S(CH_3NH)=1,57$ bo'lsa, $\delta(CH_2)$ signalini hisoblab topish mumkin:

$$\delta(CH_2) = 0,23 + 1,85 + 1,57 = 3,65 \text{ m.h.}$$

bu signal kattaligi eksperimental aniqlangan kimyoviy siljish qiymatiga mos keladi. 6.11-rasmida barcha protonlarning signali

va ularning integral intensivligi (5:2:3:1 kabi nisbatda) ko'rsatilgan.

Sikloalkanlar. Sikloalkanlar protonlarining kimyoviy siljishi halqa kattaligi, konformatsion shakli va boshqa fazoviy ta'sirlar bilan belgilanadi. Alkil almashingan sikloalkanlardagi protonlarning kimyoviy siljishiga fazoviy effektlar eng ko'p ta'sir ko'rsatadi. 6.8-jadvalda bir necha sikloalkanlar halqasidagi protonlar kimyoviy siljishlarining qiymatlari berilgan. Bular orasida eng kuchli ekranlash ($\delta=0,22$ m.h.) siklopropan uchun kuzatiladi.



6.11-rasm. *N*-benzylmethylaminning ($C_6H_5-CH_2-NH-CH_3$) YaMR- 1H spektri.

6.8-jadval

Ayrim sikloalkanlar metilen guruhlari protonlarining kimyoviy siljishi (δ , m.h.)

Modda	$(CH_2)_3$	$(CH_2)_4$	$(CH_2)_5$	$(CH_2)_6$	$(CH_2)_7$	$(CH_2)_8$
δ , m.h.	0,22	1,94	1,51	1,44	1,54	1,54

Alkenlar. Etilen hosilalarining tarkibidagi protonlar kimyoviy siljishlarining diapazoni δ 4 + 7,5 m.h. chegarasida qayd etiladi. Alkenlardagi almashinish effektlari fazoviy va induksion effektlar bilan belgilanadi. Etilen hosilalari protonlarining kimyoviy siljishlari haqidagi ma'lumotlar 6.9-jadvalda jamlangan.

Etilen hosilalari protonlarining kimyoviy siljishlari **Paskual-Meyer-Saymon** qoidasi asosida hisoblab topiladi:

$$\delta = 5,28 + S_{\text{gem}} + S_{\text{sis.}} + S_{\text{trans}} \quad (6.17)$$

Masalan, *trans*-kroton kislotasi protonlarining kimyoviy siljishlari quyidagicha hisoblab topiladi.

$$\delta_{(\text{H-2})} = 5,28 + S_{\text{gem(COOH)}} + S_{\text{sis(CH}_3)} = 5,28 + 0,69 - 0,26 = 5,71 \text{ m.h.} \quad (5,82 \text{ m.h.})$$

$$\delta_{(\text{H-3})} = 5,28 + S_{\text{gem(CH}_3)} + S_{\text{sis(COOH)}} = 5,28 + 0,44 + 0,97 = 6,69 \text{ m.h.} \quad (7,04 \text{ m.h.})$$

Xuddi shuningdek, molekuladagi qolgan birgina proton uchun ham signaling o'mni hisoblab topilgan: δ (COOH) = 12 m.h.

6.9-jadval


Bir almashigan o'rribosarlar tutgan etilen hosilalari

$\text{XH}^1\text{C}=\text{CH}^2\text{H}^3$ protonlarining kimyoviy siljishlar (δ , m.h.)


X	CH ₃	C ₆ H ₅	F	Cl	Br	I	OCH ₃	OCOCH ₃	NO ₂
δ (H ¹) (gem)	5,73	6,72	6,17	6,26	6,44	6,53	6,44	7,28	7,12
δ (H ²) (trans)	4,88	5,20	4,03	5,39	5,97	6,21	3,88	4,56	5,87
δ (H ³) (sis)	4,97	5,72	4,37	5,48	5,84	6,57	4,03	4,88	6,55

Arenlar. Aromatik birikmalarda ekranlanish asosan mezomer effektlar ta'sirida kuzatiladi, ya'ni o'rribosarlar ta'sirida π -bog' elektron zichliklarining siljishi bilan belgilanadi. Masalan, anilin molekulasidagi elektron donor NH₂-guruh ta'sirida *meta*-holatga nisbatan *ortho*- vapara- holatlarida ekranlanish kuchliroq namoyon bo'ladi (6.12-rasm). Bu anilin misolida keltirilgan spektrdagи mezomer strukturalardan ma'lum bo'lmoqda. Bundan tashqari bu spektrdan fenil halqasi protonlarining barchasi enzolga nisbatan kuchli ekranlangani ham ko'riniib turibdi (6.12-rasm). Shu narsa ravshanki, aminoguruh o'zining musbat induktiv +M-effekti hisobidan halqadagi, ayniqsa yadroning *ortho*- va *para*-holatlardagi, elektron bulut zichligini oshiradi.

Elektron akseptor o'rribbosar tutgan nitrobenzolda, teskari, manfiy induktiv (-M) effekti hisobidan halqadagi barcha protonlar deekranlangan. Nitroguruh benzol halqasi elektron buluti zichligini kamaytiradi (6.13-rasm). Ayniqsa aromatik halqaning *ortho*- va *para*-holatdagisi protonlari kuchli (tegisbli ravishda $\delta=8,17$ m.h. va $\delta=7,69$ m.h.), *meta*-holatdagisi kamroq ($\delta=7,53$ m.h.) deekranlangan (6.13-rasm).



6.12-rasm. $CDCl_3$ dagi anilin eritmasining YaMR- 1H spektri. $\delta_{(NH_2)} = 3,45$ m.h.



6.13-rasm. $CDCl_3$ dagi nitrobenzol eritmasining YaMR- 1H spektri.

Almashingan benzol hosilalari protonlarining kimyoviy siljishlari (δ , m.h.) yaxshi darajada additivlik (mutanosiblik)ni ko'rsatadi. Ko'pgina o'rribosarlar uchun amaliy usul bilan ularning halqadagi protonlarning kimyoviy siljishlarga qo'shadigan hissasi aniqlangan. Bu uchun quyidagi empirik formuladan foydalanish qabul qilingan:

$$\delta_{(H)} = 7,27 + \sum S$$

chunki benzol protonlarining kimyoviy siljishi δ 7,27 m.h.da qayd etiladi. O'rribosarga nisbatan *ortho*-, *meta*- va *para*-holatlardagi protonlarning tegishli hissasi (inkrementi) ham aniqlangan.

6.10-jadvalda ayrim monoalmashingan benzol hosilalari (*ortho*-, *para*- va *meta*-holatlardagi) protonlari signallarining kattaliklari keltirilgan.

6.10-jadval

Monoalmashingan benzol halqasidagi protonlarning YaMR-¹H spektridagi kimyoiviy siljishlari qiymati (δ , m.h.)

O'rribosar	CH ₃	OCH ₃	C≡N	F	Br
δ (<i>ortho</i> -H)	7,10	6,84	7,54	6,97	7,49
δ (<i>meta</i> -H)	7,18	7,18	7,38	7,25	7,14
δ (<i>para</i> -H)	7,09	6,90	7,57	7,05	7,24


Masalan: *para*-nitroanizol uchun:

$\delta_{(H-2,6)} = 7,27 + S_o(OCH_3) + S_m(NO_2) = 7,27 - 0,43 + 0,17 = 7,01$ m.h.
(amalda 6,88 m.h.); $\delta_{(H-3,5)} = 7,27 + S_o(NO_2) + S_m(OCH_3) = 7,27 + 0,95 - 0,09 = 7,01$ m.h. (amalda 6,88 m.h.). Shu bilan birga $\delta_{(OCH_3)} = 5,9$ m.h.

Hisoblab topilgan va tajribada o'lchab aniqlangan signal qiymatlar bir-biriga juda yaqin sonlarni tashkil etadi. O'rribosar hajmining kattaligi, ikki va undan ortiq o'rribosarlarning qo'shni holatlarda bo'lishi additivlik (mutanosiblik)ni buzadi.




Alkinlar. Atsetilen protonlarining ekranlanishi ilgari (6.6-rasm) muhokama qilingan edi. Atsetilen protonlarining rezonanslashuv sohasi – $\delta_{(C-H)} \approx 2-3$ m.h. boshqa protonlarning

signallari bilan bir-birini qoplaydi, shuning uchun ham bu sohadagi kimyoviy siljishlar faqat atsetilanga tegishli deb xulosa chiqarish doimo ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Ammo atsetilen molekulasidagi protonlar uzoq o‘rnbosarlar bilan ham o‘zaro spin-spin ta’sirlashgani uchun, bu signallarning multipletligiga va spin-spin konstantalari qiymatiga qarab ham xulosa chiqarish mumkin. Misol tariqasida propinolning YaMR-¹H spektrini tahlil qilamiz (6.14-rasm). Bu spektrda atsetilen protoni bilan OH protonidan triplet signal shaklida qayd etilgan, chunki uchta bog‘ orqali o‘zaro spin-spin ta’sir natijasida metilen guruhining ikkita magnit ekvivalent protonlardan [⁴J(HH) = 2,4 Hz, ³J(HOH) = 5,8 Hz], CH₂-fragment protonlari signali dubletlar dubleti kabi namoyon bo‘ladi, chunki bu ikki proton ham atsetil, ham OH-guruh protoni bilan o‘zaro ta’sirlashadi.



6.14-rasm. Propinolning ($\text{HC}\equiv\text{C}-\text{CH}_2-\text{OH}$) YaMR-¹H spektri (250 MHz).




Atsetilen protonlarining kimyoviy siljishlari molekula tarkibidagi o‘rnbosarlarning elektromanfiyligi, tutash tizim va erituvchi tabiat bilan bog‘liq. Masalan, atsetilen tarkibidagi alkil guruh ekranlashni oshirsa, aril guruh kamaytiradi:



δ , m.h.


Aldegidlar. Aldegidlar protonining signali oson aniqlanadi, chunki bu protonning kimyoviy siljishi o‘ziga xos tabiatga ega va

$\delta=9\text{--}11$ m.h. maydonida rezonanslashadi. Spektr tahlili osonlik bilan karbonil guruh protonining signalini ajratishga imkon beradi. Masalan, propion aldegidi YaMR- 1H spektrining $\delta=9,8$ m.h. maydonidagi triplet signal shundan darak beradi (6.15-rasm). O'rinnbosarlarning ta'siri sezilmash bo'ladi. Hatto karbonil guruhi qo'shbog'ining benzol halqasi bilan tutash tizimi ham kimyoviy siljishlarga aytarli ta'sir etmaydi:



δ , m.h.

CH_3



6.15-rasm. Propion aldegidining ($\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CHO}$) YaMR- 1H spektri.

OH, SH va NH protonlarining kimyoviy siljishi. OH, SH va NH guruhlari protonlarining kimyoviy siljishi juda katta maydonda rezonanslashadi (6.11-jadval). Signallarning o'mi eritma konsentratsiyasi, harorat, erituvchi tabiatи va suv aralashgani bilan belgilanadi. Bundan tashqari, bu guruh protonlari ichki va molekulalararo vodorod bog' hosil qilishda ham qatnashadi. Shuning uchun bu birikmalarning YaMR- 1H spektrlarini tahlil qilishda ehtiyojkorlik talab etiladi.

Gidroksil guruh protonlarining signallari YaMR 1H shkalasi boyicha to'liq egallaydi. Spirtlarning spektrini olish jarayonida ular CCl_4 eritmasida cheksiz suyultiriladi va ichki molekulyar bog'lar yo'qotiladi. Fenollarning OH guruh protoni signallari

spirlarnikiga nisbatan 3.m.h. kuchsiz maydon sohasiga siljiydi. Meyer, Sayka va Gutovskiylar fenollardagi OH-protonlari ekranolishi kamayishini $C_6H_5=O^+-H$ rezonans struktura hosil bo'lishi bilan tushuntirishadi. Arilamindagi protonlar signallarining alkilamin protonlariga nisbatan kuchsiz maydonga siljishi ham elektronlar effekti bilan tushuntiriladi.

6.11-jadval

OH, SH va NH guruhlari protonlarining kimyoviy siljishi (δ , m.h.)


Guruh	Moddalar sinfi	$\delta(^1H)$, m.h.
-OH	Spirtlar	1 - 5
-OH	Fenollar	4 - 10
-OH	Enollar	10 - 17
-NH	Aminlar	1 - 5
-NH	Amidlar	5 - 6,5
-NH	Polipeptidlar	7 - 10
-SH	Alifatik tiollar	1 - 2,5
-SH	Aromatik tiollar	3 - 4

6.9. Signallarning ajralishi, spin-spin ta'sir (SST)


Har bir protonning spini baravar miqdorda +1/2 va -1/2 bilan ifodalanadi. Uning magnit ekranolishi qo'shni protonning ikki xil spin soniga mos keluvchi magnit maydonlari ta'sir etadi, ularning birida maydon kuchlanishi oshgan ($H_0+\delta H_0$) va ikkinchisida kamaygan ($H_0-\delta H_0$). Hozirgacha ko'rib kelayotgan YaMR- 1H spektrlarimiz har qaysi ekvivalent protonlar guruhiga mos keluvchi signallar kengligi va yuzasi bilan farq qiluvchi singlet signallar majmuasidan iborat edi. 6.6-rasmdagi etil spirtining YaMR- 1H spektri buning isboti bo'lishi mumkin. Undagi spektr past mukammallikda yozilgan va uch xil noekvivalent protonlar guruhiga oid uchta signallarning kimyoviy

siljishi ko'rsatilgan edi. Ilgari aytgan fikrimizni isbotlash maqsadida spektroskopning magnit maydoni kuchlanishini sozlab (bir jinsliligini yaxshilash) va erituvchini tozalagandan keyin, operatordan etil spirtining YaMR-¹H spektrini katta chastotali spektroskopda mukammallik bilan (katta aniqlikda) yozib berishini so'raymiz. Shu shartlar bajarilganda etil spirtining YaMR-¹H spektri butunlay boshqacha shaklga ega bo'ladi. Metil guruhining signali uchta, metilen guruhi nikki to'rtta cho'qqichalarga ajraladi, OH-guruhi protoni yakka (singlet) signal shaklida yozib olinishining guvohi bo'lamiz (6.16-rasm). Shunisi diqqatga sazovorki, CH₃- va CH₂-guruhlari signallarining cho'qqilari orasidagi masofalar bir xil kattalikka ega bo'lib, uni H_o maydon chastotasiga o'tkazsak, 7 Hz qiymatga ega bo'ladi (6.16-rasm). Bundan ko'rindaniki, qo'shni protonlar noekvivalent bo'lganda, bir-biriga o'z magnit maydoni bilan (yoki aniqroq qilib aytsak, yadro spini bilan) bir xil ta'sir etadi. Bu hodisa oddiy spektrlarni ancha murakkablashtiradi.

— 311 —



6.16-rasm. Etil spirtining yuqori mukammallikda yozilgan YaMR-¹H spektri.



6.17-rasm. YaMR-¹H spektridagi SSTKni ko'rsatish uchun kimyoviy siljish "m.h." emas, balki chastota "gers" qiymatlarida berilgan).


Noekvivalent protonlar bir-biridan uzoqlashgan sari bu effekt pasayib boradi. Noekvivalent protonlarning bir-biriga o'zaro ta'siriga spin-spin ta'sir (SST) deyiladi. Bu sodda energetik diagramma yordamida 6.16-rasmdagi etil spirti YaMR-¹H spektrini izohlaymiz. CH_3 - va CH_2 - guruhlari protonlarning kimyoviy siljishi 1,17 va 3,62 m.h. sohada qayd qilingan. Ular orasidagi farq $3,62 - 1,17 = 2,45$ m.h. Bu farqni gerslarda ifodalasak, $\delta \gg J$ (spektrometr ish chastotasi $v_0 = 60$ MHz.) $2,45$ m.h. $\cdot 60$ MHz = 147 Hz. Bu farq hisoblanganda SSTK ($J=7$ Hz)ga nisbatan ancha katta bo'lgani uchun CH_3 -guruhi protonlari singlet signallariga qo'shni protonning magnit maydoni ta'sir etib, yana ikki qo'shimcha signal cho'qqisi yozib olingan. O'z navbatida CH_2 -guruhi protonlari qo'shni uchta protonlarning magnit maydoni ta'siri ostida to'rtta rezonans signallar beradi, ya'ni yagona signal to'rtta cho'qqiga ajraladi. Etil radikal protonlari A_3X_2 sistemani tashkil etdi. Bu cho'qqilar nisbatini ham energetik diagramma yordamida ifodalash mumkin, chunki u faqat protonlarning tashqi magnit maydoniga nisbatan spin yo'nalishi bilan belgilanadi (6.12 va 6.13-jadvallar).

Etil spirtidagi C_2H_5 radikali protonlarining spin holatlari

CH_3 protonlari sijnallarining shakli		CH_2 protonlari signallarining shakli	
Spinlar yig'indisi	Signallarning SST natijasida parchalanishi	Spinlar yig'indisi	Signallarning SST natijasida parchalanishi
+3/2	↑↑↑	+1	↑↑
+1/2	↑↓↑ ↑↑↓ ↓↑↑	0	↑↓ ↓↑
-1/2	↓↑↓ ↓↓↑ ↑↓↓	-1	↓↓
-3/2	↓↓↓		

Bu ta'sir oqibatida signal cho'qqilarinining ajralib ketishi spin-spin ta'sir konstantasi (SSTK) qiymati bilan o'chanadi va J harfi bilan belgilanib, gers birligida ifodalanadi. Quyidagi diagrammada (6.13-jadval) etil guruhi protonlarining spin holatlari ta'sirida signal cho'qqilarinining ajralishi keltirilgan. SST va uning konstantasi ko'pgina hollarda muhit va haroratga bog'liq bo'lmaydi. Bu fikrlarni yaxshiroq tushuntirish maqsadida soddarroq fragmentli molekula signallarini qarab chiqamiz (6.18-rasm). Dixlorsirka aldegidi ($CH_3Cl_2CH_2O$) tarkibidagi A va X protonlarning har biri +1/2 va -1/2 spin soniga ega. Demak qo'shni protonlarning yarmi ($H_o + \delta H_o$) kattalikda magnit ekranlansa, ikkinchi yarmi ($H_o - \delta H_o$) ta'sirida bo'ladi.

Natijada, H_A signallari H_x maydoni ta'sirida ikkiga ajraladi, xuddi shuningdek, H_x protoni signali ham ikkiga ajraladi (6.18 b-rasm). Spektrning signallari ajralgan komponentlari orasidagi masofa bir xil va bu kattalik SSTK deyiladi:



6.18-rasm. 1,1-dixlorsirka aldegidining YaMR-¹H spektri: pasti aniqlikda –(a) va yugori aniqlikda – (b) yozib olingan.


Bu hodisani soddaroq energetik diagramma yordamida tushuntirishga harakat qilamiz. Protonning ikki xil magnit holatini α -orientatsiya ($+1/2$) va β -orientatsiya ($-1/2$) deb belgilaymiz (6.18-rasm). Magnit maydonidagi H_A protoni H_x protonning ikki xil sathdagi magnit maydoni ta'sirida yana ikkiga parchalanadi.

SST tushunchaning elementar qoidalardan foydalaniib, 2-metoksipropionitril YaMR-¹H spektrini ko'rib chiqamiz (6.19-rasm). Kuchli maydon sohasidagi (δ 2,62 m.h) triplet signal α -metilen guruhi protonlariga xosdir, quyi maydondagi δ 3,62 m.h. sohasiga to'g'ri keluvchi ikkinchi triplet signal β -metilen guruhi protonlariga xosdir. Tripletlardagi $J_{HH}=7$ Hz bo'lib, bu bir-biriga nisbatan fazoda erkin aylana oluvchi CH_2 -guruhi signallariga to'g'ri keladi. $\delta=3,40$ m.h.dagi singlet signal metoksi guruhgaga taalluqli, chunki uning yaqinida boshqa protonlar yo'q va SST komponentlari bo'lmaydi.


Bir yo'la o'quvchini YaMR spektrini talqin qilish tartibi bilan ham tanishtiramiz.

1. Spektrning umumiyo ko'rinishi;
2. Migratsion protonlar signalini aniqlash;
3. Integral chiziqlar nisbatini aniqlash;
4. Ingichkasinglet signallarni aniqlash;
5. Birinchi tartibili oddiy multiplet signallar;

6. Yuqori tartibli murakkab multiplet signallar.



6.19-rasm. 2-metoksi-propionitrilning YaMR-¹H spektri.



6.20-rasm. Dolchin kislotasi n-propil efirining YaMR-¹H spektri.

6.20-rasmdagi spektrning umumiy ko'rnishi kuchli maydondagi (δ 0,75 m.h.) metil guruhining triplet signali uning yonida metilen guruhi borligini ko'rsatadi (SSTK $J_{\text{HH}}=7$ Hz), propil radikalining -O-CH₂-guruhi protonlaridan kuchsizroq maydonda (δ 3,82 m.h.) triplet signal qayd qilingan, uning ham SSTK $J=7$ Hz. Bu signalning integral intensivligi birinchi CH₃-signali bilan solishtirilganda, ularning nisbati 3:2 kabi ekanligini o'lchash mumkin. Propil radikalidagi ikkinchi C-atomining metilen guruhi O-CH₂- fragmentiga nisbatan kuchliroq maydonda (δ 1,56 m.h.) integral intensivligi 2 protonga mos keluvchi multiplet signali kuzatiladi. Bu signal multipletliga $n+1$ qoidaga

ko‘ra qo‘sni protonlarni hisoblasak, $3H(CH_3) + 2H(CH_2) = 5n+1 = 6$ sekstetga parchalangan va SSTK qariyb $J_{HH} = 7$ Hz. Shuni ham qayd etishimiz lozimki, $-OCH_2-CH_2-CH_3$ radikalining o‘rtadagi CH_2 -guruhi protonlari ikki chetdagi CH_3 - va CH_2 - guruhlaringin noekvivalent protonlari bilan ta’sirlashganda 2-uglerod atomining protonlari signallaridagi SSTK 7 Hz dan farqlanishi va uning liniyalari multipletligi - $N = 12$ bo‘lishi kerak edi:

$$N = (m+1) \cdot (n+1) = (3+1) \cdot (2+1) = 4 \cdot 3 = 12$$

Demak, n-propil guruhi $A_3M_2X_2$ -spin sistemaga mos keluvchi spektr hosil qiladi. Endi spektrning chap qismi – kuchsiz maydonga diqqatimizni qaratamiz. Undagi integral intensivligi 1ta protonga mos keluvchi ikkita dublet signallar va intensivligi 5ta protonga mos keluvchi multiplet signal rezonanslashganiga guvoh bo‘lamiz. Bu ikki dublet signal olefin protonlariga (H_A va H_x) taalluqli bo‘lib, uning SSTK $J_{HH} = 17$ Hz ga parchalanishi protonlarning fazoviy trans-holatda joylashganini ko‘rsatadi. Fenil radikalining 5ta protoni aromatik uglevodorodlarga mos keluvchi multiplet markazi δ 6,78 m.h.da bo‘lgan signal beradi. $ABB'CC'$ spin sistemali bu murakkab signal analizi ushbu qo’llanma chegarasiga to‘g‘ri kelmaydi va uni o‘rganish uchun o‘quvchi diqqatiga boshqa [2-5] adabiyotlarni havola qilamiz.

Cho‘qqilarning nisbiy intensivligi qo‘sni protonlar spin holatiga bog‘liq. CH_2 -guruhibda ikkinchi spin holat 1- va 3-ga nisbatan ikki marta ko‘p bo‘lgani uchun CH_3 -guruhining signalidagi uchta cho‘qqilaridan 1- va 3- chetki cho‘qqilar intensivligi o‘rtadagi 2-cho‘qqi intensivligidan ikki marta kichikligi bilan ajralib turadi. CH_2 -guruhi signaliga ta’sir etuvchi CH_3 -guruh protonlarning to‘rtta spin holatidan 1,4-holatlar bir xil ehtimollikka ega, 2,3-holatlar esa ularga nisbatan uch marta ko‘proq ehtimollik bilan farqlanadi. Shuning uchun ham 6.17-rasmdagi etil sperti YaMR- 1H spektrida metil guruhi protonlarning cho‘qqilari 1:2:1 nisbat va metilen guruhi protonlari 1:3:3:1 nisbatdagi intensivlikka egadir. Ilgari ta’kidlaganimizdek, bitta cho‘qqidan SST natijasida bir necha cho‘qqilarga bo‘lingan murakkab multiplet signallar qayd

qilinadi. Etil spirtining YaMR-¹H spektri misolida ko'rdikki, multiplet signaldag'i cho'qqilar soni (N) qo'shni C atomidagi protonlar soni (n) ga bog'liq va $N=n+1$ ifoda bilan topilishi mumkin. Multiplet signallardagi cho'qqilar sonini aniqlash va ularning nisbiy intensivligini Paskal diagrammasi (6.14-jadval) asosida aniqlash mumkin. Diagrammadan ko'rinishi, har qanday son kattaligi undan yuqori qatordagi diagonal bo'yicha joylashgan ikki son yig'indisiga teng bo'ladi.

Shunday qilib, YaMR-¹H spektri multipletligidan foydalanib, sodda formulalar uchun signalni kuzatilayotgan protonning qo'shni C atomlaridagi protonlar sonini aniqlash mumkin. Shuni ham aytish lozimki, SST ko'rinishi $\Delta\delta$ farqi J qiymatidan ancha katta bo'lgandagina seziladi. Agar $\Delta\delta$ va J qiymatlari qancha yaqin bo'lsa, signal komponentalari nisbiy intensivligi buzilib ketadi, va nihoyat, $\Delta\delta=J$ bo'lganda protonlar ekvivalent hisoblanib, ulardan yagona singlet signal yozib olinadi.

6.13-jadval

Paskal konstantalari

n	Multiplet cho'qqilar nisbiy intensivligi	N	Signal
0		1	Singlet
1	1	2	Dublet
2	1 1	3	Triplet
3	1 1 1	4	Kvartet
4	1 1 1 1	5	Kvintet
5	1 1 1 1 1	6	Sekstet
6	1 1 1 1 1 1	7	Septet

SSTK qiymatlari o'zaro magnit ta'sirlashuvchi yadrolarning tabiatи va fazodagi o'mi bilan belgilanib, uning kattaligi 1Hz dan 20 Hz gacha bo'lishi mumkin, har xil spin-spin sistemalar uchun J qiymati taxminan bir xil bo'lib, doimiy tashqi H₀ magnit maydon bilan bog'liq bo'imasdan magnitli yadrolarning tabiatи bilangina belgilanadi. Misol uchun, o'zaro ta'sirlashuvchi protonlar orasidagi (H-C-H) burchak 90° bo'lsa, $J=0$ bo'ladi, burchak 0 yoki 180° bo'lsa, J maksimal qiymatga ega bo'ladi. Har xil faktorlar

ta'siridagi SSTK kattaliklarining son jihatdan o'zgarishi 6.13-jadvalda ko'rsatilgan.


6.10. ^{13}C yadrolari signallarining kimyoviy siljishi

YaMR- ^{13}C spektroskopiyasida kimyoviy siljish asosiy parametrdir. Odatda diamagnit organik moddalarning ^{13}C kimyoviy siljishlar diapazoni juda katta (600 m.h.) bo'ladi: musbat zaradli $(\text{C}_2\text{H}_5)_2\text{C}^+\text{CH}_3$ karboniy kationi markaziy uglerod atomining kimyoviy siljishi 334 m.h. bo'lsa, C^4 dagi uglerod atomining kimyoviy siljishi $\delta=292$ m.h. Odatda ko'p uchraydigan neytral organik moddalar uchun ^{13}C kimyoviy siljishi taxminan 220 m.h. atrofida bo'lib, ^1H -YaMR spektrlari kimyoviy siljishidan o'n martalar katta bo'ladi (6.21-rasim, 6.14-jadval). YaMR- ^{13}C va YaMR- ^1H kimyoviy siljishlari solishtirilganda (6.14- va 6.15-jadvallarga qarang), ular orasida unumiy qonuniyat mavjudligi kurzatiladi. Har ikki holda hain kimyoviy siljishlarning o'zgarishi birdek bo'ladi (alkanlar < alkinlar < alkenlar < arenlar < aldeigidlar). O'rindbosar tutgan metan formulasidagi ^1H va ^{13}C yadrolarining YaMR spektrlari solishtirilganda (6.3-, 6.5- va 6.15-jadvallar), ularning ekranlanishi X-o'rindbosarning elektromanfiyliги bilan belgilanadi.

YaMR- ^{13}C spektrlari eritmada olinganligi uchun tabiiyki, erituvchining ham signallari qayd etiladi. Eng ko'p ishlataligida erituvchilarning kimyoviy siljishlari haqidagi ma'lumotlar 6.15-jadvalda berilgau.

Alkanlar va sikloalkanlar. Odatda to'yingan uglevodorodlarning YaMR- ^1H spektridagi signallar kuchsiz parchalanuvchi va bir-birini qoplaydigan tor intervaldagi signallar yig'indisi sifatida qayd qilinadi va izomer strukturalarni ajratish uchun yetarli ma'lumot bermaydi. Amnio ayni shu moddalarning YaMR- ^{13}C spektri 10–60 m.h. maydonida rezonanslashsa ham, ularning kimyoviy silgishlari yaxshi ajraladi. Buni metilatsetatning YaMR- ^1H va ^{13}C spektrlarini solishtirganimizda oson anglashimiz mumkin (6.22-rasm).


Alkanlarda ^{13}C atomlarining kimyoviy siljishi shu atomga nisbatan α - va δ -holatlardagi qo'shni uglerod atomlari soni bilan hamda uglevodorod zanjirining tarmoqlanishi bilan belgilanadi. Ulardan ayrimlarini misol tariqasida 6.16-jadvalda keltiramiz. Alkanlardagi C atomlarining kimyoviy siljish chegarasi 5-60 m.h oralig'ida kuzatiladi: CH_3 -metil guruuhlaridan 5-30 m.h gacha CH_2 -melen guruhidan 15-60 m.h. gacha, CH -metin guruhidan 25-30 m.h. va nihoyat to'rtlamchi C atomlaridan 30-50 m.h chegarasida signallar yozib olinadi (6.17-, 6.18-jadvallar).



6.21-rasm. Ayrim organik birikmalarning YaMR- ^{13}C kimyoviy siljishi.

6.14-jadval

Asosiy sinf organik moddalar tarkibidagi guruhlarning YaMR-¹³C kimyoviy siljishi

Birikmalar	Funksional guruhi	Kimyoviy siljish chegarasi	Izoh
Alkanlar va sikloalkanlar	CH_3- , $-\text{CH}_2-$, $-\text{CH}-$, $-\text{C}-$	5-60	Siklopropandan tashqari (-2,8 m.h.)
Alkenlar va sikloalkenlar	$\text{C}=\text{C}$ $\text{C}-(\text{C}=\text{C})$	100-150 10-40	 orasidagi katta farq $\text{J}_{\text{H-C}} \ ^{13}\text{C}$ 50 Hz
Alkinlar	$\text{C}\equiv\text{C}$ $\text{C}-\text{C}\equiv\text{C}$	65-85 0-30	Nosoz rezonansa oson aniqlanadi
Arenlar	$\text{Ar}-\text{CX}$ $\text{Ar}-\text{CH}$ $\text{C}-(\text{ArC})$	120-150 110-130 10-60	Politsiklik arenlar kabi
Geteroaromatik hosilalar		100-160	
Galogenli hosilalar	$\text{AlkC}-\text{F}$ $=\text{C}-\text{F}$	70-100 125-175	$\text{C}-\text{F}$ 115 m.h.
Murakkab efirlar	$-\text{COOAlk}$ $\text{C}-(\text{C}-\text{COOAlk})$ $=\text{C}-\text{COOAlk}$ $-\text{COO}-\text{C}=$ $\text{ArC}-\text{COOAlk}$ $-\text{COO}-\text{Car}$	165-180 5-50 105-160 100-150 120-150 100-160	
Amidlar va laktamlar	CON $\text{C}-\text{CON}$ $\text{ArC}-\text{CON}$ $\text{ArC}-\text{NCO}$	165-170 20-70 120-150 100-150	


YaMR-¹³C spektrlari yordamida alkan zanjiridagi o'rribosarlar kiritilishini juda katta aniqlikda hisoblash mumkin: CH_3 -guruhi α -C atomining kimyoviy siljishini 6-9 m.h. gacha (α -effekt) va β -C atominikini 8-10 m.h.gacha kuchsiz maydon sohasiga siljitadi, ammo γ -holatdagi o'rribosar 2 m.h. gacha ¹³C signalini kuchli maydonga siljitadi. $\text{C}=\text{N}$ va $\text{C}=\text{C}$ bog'larga qo'shni C atomining YaMR-¹³C spektrida ham magnit anizatropiya ta'sirida C atomi kimyoviy siljish signallari kuchli maydon sohasida qayd qilinadi. Bu xildagi YaMR-¹³C

spektrlarining olinishi moddalarning tuzilishi va stereokimyosini aniqlashda juda muhim omil hisoblanadi YaMR-¹H spektrlaridan farqli ravishda YaMR-¹³C spektrlari protonlarning spin-spin ta'siriga juda sezgir bo'ladi, shuning uchun C atomi spektrlarini yozishda SST iloji boricha so'ndiriladi. Protonlardan tashqari molekulada assimmetrik C atomlarining borligi optik izomeriya hodisasini tug'diradiki, bu hodisa spektrlarni yanada murakkablashtiradi.

6.15-jadval

Ayrim erituvchilarning YaMR-¹³C kimyoviy siljishlari (δ , m.h.)

Erituvchi	Proton tutgan birikmalar	To'liq deyteriylangan birikmalar
Siklogeksan	27,5	26,1
Atseton (CH_3)	30,4	29,2
Dimetilsulfoksid (CH_3)	40,5	39,5
Metilen xloridi	54,0	53,6
Dioksan	67,4	—
Xloroform	77,2	76,9
Uglerod to'rt xloridi	96,0	—
Sirka kislota (CO)	178,3	175,7



6.22-rasm. Metilatsetatning YaMR-¹H spektiri - (a). YaMR-¹³C spektiri - (b).

6.16-jadval

Alkanlarning YaMR-¹³C kimyoviy siljishlari (δ , m.h)

Birikmalar	δ (C ¹)	δ (C ²)
CH ₄	- 2,3	
H ₃ C-CH ₃	6,5	
H ₃ C-(CH ₃) ₂	16,1	16,3
(H ₃ C-CH ₂) ₂	13,1	24,9
CH-(CH ₃) ₃	24,6	23,3
CH-(CH ₃) ₄	27,4	31,4

6.17-jadval

X almashingan metan hosilalari tarkibidaga X-o'rribbosarlarning elektromanfiyligiga bog'liq ravishda kimyoviy siljishlari (E_x)

X	⁶ CH ₃ X		E _x
	¹ H	¹³ C	
Si(CH ₃) ₃	0,0	0,0	1,90
H	0,23	- 2,3	2,20
CH ₃	0,88	5,7	
CN	1,97	1,3	2,60
C(=O)CH ₃	2,08	29,2	
NH ₂	2,36	28,3	3,05
I	2,16	- 20,7	2,65
Br	2,68	10,0	2,95
Ci	3,05	25,1	3,15
OH	3,38	49,3	3,50
F	4,26	75,4	3,90

X=Cl, Br, I o'rribbosarlar tutgan moddalarning YaMR-¹H va ¹³C spektrlari solishtirilganda YaMR-¹³C spektrlarida YaMR-¹H ga nisbatan ayrim o'zgarishlar kuzatiladi, qo'shni ko'p elektronli galogen atomlarining magnit anizatropiyasi natijasida uglerod atomlarining ekranlanishiga og'ir atomlar effekti deyiladi.

Uglevodorodlar juda qulay asosiy model sifatida ishlataladi. 1964-yilda Grant va Pol uglevodorod zanjiridagi k-C atomining kimyoviy siljishini nazariy aniqlash usulini taklif etdilar:

$$\delta (\text{k-C}) = -2,3 + 9,1n_{\alpha} - 9,4 n_{\beta} - 2,6 n_{\gamma} + 0,3 n_{\delta}$$

Bunda -2,3 soni metandagi C-atomining kimyoviy siljish konstantasi, n_a k-C atomi bilan bevosita bog'langan, n_B , n_T , n_6 – k-C atomidan uzoqlashib boruvchi o'rindbosarlar soni.



$\text{CH}_3\text{-CH}_2\text{-CH}_2\text{-CH}_2\text{-CH}_2\text{-CH}_3$ n-geksanning C atomlari kimyoviy siljishini hisoblaydigan bo'lsar, molekula chiziqli simmetrik tuzilishga ega va umumiy C atomlari kimyoviy siljishlari uchta signal beradi:

$$\delta(\text{C-1}) = -2,3 + 9,1 + 9,4 - 2,6 + 0,3 = 13,5 \text{ (amalda topilgani } 13,7)$$

$$\delta(\text{C-2}) = -2,3 + 2 \cdot 9,1 + 9,4 - 2,6 + 0,3 = 22,6 \text{ (amalda topilgani } 22,7)$$

$$\delta(\text{C-3}) = -2,3 + 2 \cdot 9,1 + 2 \cdot 9,4 - 2,6 = 31,7 \text{ (amalda topilgani } 31,7)$$

Ko'rinib turibdiki, hisoblab topilgan C-atomlarining kimyoviy siljish kattaliklari eksperimental (qavsdagi ko'rsatilgan) qiymatlarga juda yaqin. Molekula tarkibiga har xil funksional guruhlarning kiritilishi kimyoviy siljish qiymatlarini yanada o'zgartirib yuboradi. O'rindbosarlarda musbat zaryadning paydo bo'lishi α -, β -C-atomlari kimyoviy siljishini 3 va 6 m.h. ga o'zgartiradi, γ -C atomida bu ta'sir deyarli sezilmaydi:



6.18-jadval


1-X almashingan pentan hosilalari tarkibidagi X-o'rindbosarlarning n-pentanga nisbatan (qavsdagi qiymatlar)
YaMR- ^{13}C spektridagi kimyoviy siljishiga ta'siri (δ , m.h.)

X-o'rindbosar	$\Delta\delta_{\text{CX}} = \delta_{\text{C-X}} - \delta_{\text{C-H}}$				
	$\alpha\text{-CH}_2$	$\beta\text{-CH}_2$	$\gamma\text{-CH}_2$	$\delta\text{-CH}_2$	$\varepsilon\text{-CH}_3$
H	0(13,5)	0(22,2)	0(34,1)	0(22,2)	0(13,5)
F	70,1	8,0	-6,7	0,1	0,0
Cl	30,6	10,0	-5,3	-0,5	-0,1
Br	19,3	10,1	-4,1	-0,7	0,0
CH_3	9,3	9,4	-2,5	0,4	0,2
NH_2	29,7	11,2	-5,0	0,1	0,0
OH	48,3	10,1	-6,0	0,3	0,2

CHO	31,4	0,7	-1,9	0,8	0,5
C(O)CH ₃	30,7	2,1	-1,2	1,4	1,2
COOH	20,5	2,3	-2,7	0,2	0,3
C≡N	3,7	3,2	-2,9	-0,4	-0,8
C≡CH	5,0	5,8	-3,0	0,4	0,0
CH=CH ₂	20,3	6,2	-2,8	0,0	0,1

Qo'shni galogen atomlarining ^{13}C atomlari signallariga magnit-anizatrop ta'sirini qo'shni C≡N va C≡C-bog'lari signallarining kuchli maydonda joylashgani bilan ham izohlash mumkin. 6.18-jadvalda keltirilgan signallarning o'rni musbat qiymatli nisbiy siljishlar kuchsiz, manfiylari – kuchli maydon sohasiga qayd etilganiga ishora.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, har bir uglerod atomining YaMR spektrida o'z o'rni bor, va olingen signalning shakli ayni shu uglerod atomiga xos bo'ladi. ^{13}C yadrosi signallarining kimyoviy siljishini tahlil qiladigan bo'lsak, molekulada optik izomeriyarning paydo bo'lishi spektrni yanada murakkablashtiradi. Mana shunday xususiy hollardan biri oktan izomerlarining YaMR- ^{13}C spektrlarini diqqatingizga havola qilamiz (6.23-rasm).



6.23-rasm. C_8H_{18} izomer uglevodorodlarining vodorod atomi bilan spin-spin ta'siri so'ndirilgan YaMR- ^{13}C spektrlari (δ , m.h.).

Alkenlar. Alkenlardagi ^{13}C atomlarining kimyoviy siljishi 90-155 m.h. chegarasida bo'lib, alkil o'rinosbasar tutgan uglerod atomiga nisbatan chekka CH_2 guruhidan odatda 10-40 m.h. gacha kuchli maydon sohasida rezonans signallar qayd qilinadi (6.19-

jadval). Alkanlardan farqli ravishda alkenlar tarkibidagi ^{13}C atomlarining signallari kimyoviy siljishida kuchli qarama-qarshita sirlar seziladi, ya'ni o'rribosar tutgan uglerod atomi kimyoviy siljishi kuchsiz maydonda bo'lsa, qo'shni uglerod atomi kuchli maydon sohasida qayd etiladi.

YaMR- ^{13}C spektridagi kimyoviy siljishlari har qanday o'rribosarlar tabiatiga juda sezgir bo'ladi. Molekula tarkibiga har qanday funksional guruhlarning kiritilishi spektr o'zgarishlariga yanada kuchliroq ta'sir etadi.

6.19-jadval

Alken hosilalarining YaMR- ^{13}C kimyoviy siljishlari (δ , m.h)

Birikma	$\delta(\text{C}^1)$	$\delta(\text{C}^2)$	$\delta(\text{C}^3)$
$\text{H}_2\text{C}^1 = \text{C}^2\text{H}_2$	123,5	-	-
$\text{H}_3\text{C}^3\text{C}^1\text{H} = \text{C}^2\text{H}_2$	133,4	115,9	19,9
$\text{H}_3\text{CCH}=\text{CHCH}_3$ (sis-)	124,2	124,2	11,4
$\text{H}_3\text{CCH}=\text{CHCH}_3$ (trans-)	125,4	125,4	16,8
$(\text{H}_3\text{C})_2\text{C}=\text{CH}_2$	141,8	111,3	24,2
Siklogeksan-1-en-2	127,4		25,4(C ⁴ :23,0)


6.20-jadval

X – $^1\text{CH}=\text{CH}_2$ o'rribosar tutgan alkenlarning YaMR- ^{13}C spektridagi kimyoviy siljishlari, m.h.

X	$\delta(\text{C}_1)$	$\delta(\text{C}_2)$	$\Delta\delta = \delta(\text{C}_1) - \delta(\text{C}_2)$
H	122,8	122,8	0
CH_3	136,2	115,9	20,3
$\text{CH}=\text{CH}_2$	136,9	116,3	20,6
Ph	136,7	113,2	23,5
F	152,1	92,0	60,1
Cl	126,1	117,2	8,9
Br	114,3	122,4	-8,1
I	85,4	122,4	-45,1
OCH_3	153,8	84,6	69,2
CHO	138,6	137,6	1,0
$\text{CH}_3\text{C}(\text{O})$	137,7	129,5	8,2
COOH	128,5	132,4	-3,9
COOC_2H_5	129,7	130,1	-0,4

CN	108,2	138,0	-29,2
NO ₂	145,6	122,4	23,2

Arenlar. Benzol, alkilalmashining benzol hosilalari, polisiklik arenlar va annulenlardagi uglerod atomlarining YaMR-¹³C signallari kimyoviy siljishlarning keng diapazonida kuzatiladi (120÷140 m.h.). Bu haqidagi ma'lumotlar quyidagi sxema shaklida ko'rsatilgan:



Benzol halqasiga o'rinosarlarning kiritilishi δ(C) kimyoviy siljishini 100÷150 m.h. gacha o'zgartiradi. Yuqorida ko'rsatilganidek, alkenlar uglerod atomlarining kimyoviy siljishlari shu chegarada bo'lib, ba'zi hollarda δ(C) kimyoviy siljishlarini hisoblashda muammolarga olib keladi. 6.21-jadvalda ayrim monoalmashining benzol hosilalarining YaMR-¹³C spektridagi kimyoviy siljishlari haqidagi ma'lumotlar berilgan.

6.21-jadval

Monoalmashining benzol hosilalarining YaMR-¹³C spektridagi kimyoviy siljishlari

O'rinosar	H	CH ₃	COOH	OH	NH ₂	NO ₂	F	I
δ(C ¹)	128,5	137,7	130,6	155,4	146,7	148,4	163,3	94,4
δ(C ^{2,6})	128,5	129,2	130,1	115,7	115,1	123,6	115,5	137,4
δ(C ^{3,5})	128,5	128,4	128,4	129,9	129,3	129,4	131,1	131,1
δ(C ⁴)	128,5	125,4	133,7	121,1	118,5	134,6	124,1	127,4

Alkinlar. Atsetilen va etilen uchun YaMR spektridagi $\delta(^{13}\text{C})$ signallari solishtirilganda, atsetilen molekulasi dagi ^{13}C atomi yadrolari kuchli ekranlanganligi seziladi. Bu holni uchbog' anizatropiyasi bilan tushuntirish yetarli emas. Buning asosiy sababini σ -bog' paramagnit ekranlash konstantasi bilan tushuntirish mumkin (6.22-jadval).

Aldegid va ketonlar. Aldegid va keton hosilalari uglerod atomlarining YaMR- ^{13}C signallari kimyoviy siljishlari 6.23-jadvalda keltirilgan. Bu misollardan ko'rindiki karbonil guruhi uglerod atomlarining ekranlash kattaligi $\delta \sim 190 \div 220$ m.h. chegarasida bo'ladi. Biroq *diuchlamchi*-butilketon uchun bir-biriga ikki qarama-qarshi qiymatlar $\delta_{(\text{C}=\text{O})}=218$ m.h. va geksaxloratseton uchun $\delta_{(\text{C}=\text{O})}=175,5$ m.h. bundan mustasnodir.

6.22-jadval

Monoalmashingan atsetilen hosilalari YaMR- ^{13}C spektridagi kimyoviy siljishlari

X	$\delta(\text{C}_1)$	$\delta(\text{C}_2)$
H-	71,9	71,9
Alkil-	68,6	84,0
H-C≡C-	64,7	68,8
Fenil-	77,2	83,6
$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{O}-$	23,4	89,6

$\text{C}=\text{O}$ guruhining fenil, vinil kabi o'rinnbosarlar bilan tutash tizim hosil qilishi qo'shimcha ekranlanishga olib keladi va $\delta_{(\text{C}=\text{O})}$ ning kamayishiga olib keladi. O'rinnbosarlarning uglevodorod zanjiri uzaysa, $\text{C}=\text{O}$ -guruhning uglerod atomi ektanlanishi kamayadi va $\delta_{(\text{C}=\text{O})}$ qiymati kattalashadi.

6.23-jadval

Aldegid va ketonlarning YaMR- ^{13}C spektridagi kimyoviy siljishlari

Birikma	$\delta(\text{C}^1)$	$\delta(\text{C}^2)$	$\delta(\text{C}_3)$	$\delta(\text{C}_4)$
$\text{H}_3\text{C}^2-\text{C}^1\text{HO}$	200,5	31,2	—	—
$\text{H}_3\text{C}-\text{CH}_2-\text{C}^1\text{HO}$	202,7	36,7	5,2	—
$(\text{CH}_3)_2-\text{CH}-\text{CHO}$	204,6	41,1	15,5	—

$(CH_3)_3-C-CHO$	205,6	42,4	23,4	-
$H_2C=CH-CHO$	193,3	136,0	136,4	-
C_6H_5-CHO	191,0	-	-	-
$CH_3C^2-OC^1H_3$	30,7	206,7	-	-
$C^4H_3C^3H_2C^2-OC^1H_3$	27,5	206,3	35,2	7,0
$(CH_3)_2CH-COCH_3$	27,5	212,5	41,6	18,2
$(CH_3)_3CCOCH_3$	24,5	212,8	44,3	26,5
$(CH_3)_3CC^3OC^2(CH_3)_3$	28,6	45,6	218,0	-
$C_6H_5-CO-C_6H_5$	195,2	-	-	-
$Cl_3C^1C^2OCCl_3$	90,2	175,5	-	-
$H_2C^1=C^2H-C^3OCH_3$	128,0	137,1	197,5	25,7

1,3-diketonlarda $\delta_{(C=O)}$ qiymati ularga o‘xshash monokarbonillar bilan bir xil bo‘ladi. Masalan, atsetilatsetonning keton shaklidagi karbonil guruhi $\delta_{(C=O)}=201,1$ enol shakli uchun bu qiymat ancha kichik bo‘ladi – 190,5 m.h.

Karbon kislotalar. Monokarbon kislotalar uchun karborsil guruhining uglerod atomi aldegid va ketonlarga nisbatan yanada ko‘proq ekranlanadi ($\delta_{(CO)OH} \sim 150 \div 180$ m.h. va $\delta_{(C=O)} \sim 190 \div 220$ m.h.). Tegishli anionlar uchun bu signal 5-7 m.h. gacha kuchsiz maydonga tomon siljiydi. Erituvchilarning tabiatiga mos ravishda C=O-guruhning kimyoviy siljishi o‘zgaradi. Masalan, sirka kislotasining $\delta_{(C=O)}$ qiymati quyidagi erituvchilar qatorida kamayadi: atseton > xlorofonn > siklogeksan, bu esa C=O, OH guruhlar bilan erituvchi molekulasi orasidagi vodorod bog‘larning uzilishi bilan izohlanadi. 6.24-jadvalda ayrim karbon kislotalar va ular hosilalari uchun YaMR- ^{13}C spektridagi kimyoviy siljishlarining kattaliklari keltirilgan.

6.24-jadval

Karbon kislotalarining YaMR- ^{13}C spektridagi kimyoviy siljishlari

Binikma	$\delta(C^1)$	$\delta(C^2)$	
$C^2H_3C^1OOH$	176,9	20,8	(pH 1,5) ^{a)}
CH_3COO^-	182,6	24,5	(pH 8,0) ^{a)}
$CH_3CON(CH_3)_2$	170,4	21,5	$CH_3: 35,0; 38,0$
CH_3COCl	170,4	33,6	-
CH_3COCH_3	171,3	20,6	$OCH_3: 51,5$


$\text{CH}_3\text{COOCH}=\text{CH}_2$	167,9	20,5	=CH: 141,5; =CH ₂ : 97,5
$(\text{CH}_3\text{CO})_2\text{O}$	167,4	21,8	
CH_3COSH	194,5	32,6	

YaMR spektrlari va molekula tuzilishi. Ekvivalentlik, simmetriya va xirallik. YaMR tahlil qilingan adabiyotlarda yozilishicha, ikki qoida mavjud:

- kimyoviy ekvivalent yadrolar bir-biriga mos keluvchi signallar namoyon qiladi;

- YaMR spektrlaridagi ekvivalent yadrolardan o'zaro spin-spin ta'sir qayd qilinmaydi. Bu qoidalardan foydalananib, kimyoviy birikmalarning tuzilishi haqida xulosa chiqarish mumkin. Misol tariqasida ikki almashingan benzol molekulalarining YaMR-¹H spektrini (6.24-rasm) ko'rib chiqamiz.

Molekulyar simmetriya qoidalariga ko'ra bu spektrlarni sifatli tahlil qilish mumkin



6.24-rasm. Orto-dixylbenzol – (a), meta-dixylbenzol (b) va para-dixylbenzolning (c) CDCl_3 eritmasidagi YaMR-¹H spektri.

Para-dixylbenzolning tuzilishi o'zaro simmetrik bo'lgani uchun undagi $\text{H}^{2,6}$ va $\text{H}^{3,5}$ protonlar ham kimyoviy, fazoviy va magnit jihatidan o'zaro ekvivalent bo'ladi va ular bir xil signal


beradi (c). *Meta*-dixlorbenzol uch xil kimyoviy noekvivalent protonlar tutgani uchun murakkab AB_2C spin-spin sistema hosil qiladi (b). *Orto*-dixlorbenzol ham simmetrik spektr hosil qilishi lozim [$AA'BB'$ spin tizimi yoki $(AB)_2$]. Eksperimental spektrlar bu xulosalar to‘g‘riligini to‘liq tasdiqlaydi (6.24-rasm).

6.11. Siljituvchi reagentlar


Og‘ir atomlar yadrolarining YaMR spektroskopiyasi jadal rivojlanib borayotgan bo‘lsa ham, YaMR- 1H spektroskopiyasi hali ham o‘zining struktur organik kimyo masalalarini yechishda eng samarali usullardan biri bo‘lib qolmoqda. Ammo bu usulni keng masshtabda qo‘llashning bir tomoni borki, agar protonlar bevosita elektromanfiyligi katta atomlarga qo‘shti bo‘lsa yoki sp^2 -gibridlangan yaqin atomlar bilan bevosita ta’sirlashsa, ularning signallari YaMR shkalasining kichik chegarasida joylashgani uchun ularning ajralishi yomonlashadi. Natijada bu signallar bir-birini qoplab ustma-ust tushishi bilan spektr tahlilini qiyinlashtiradi. Erituvchini almashtirish, yoki o‘rganiladigan namunani qayta modifikatsiyalash usullari qollash esa katta samara bermaydi. Bu muammo yechimini hal qilish uchun paramagnit siljituvchi reagentlardan foydalanish katta samara beradi. Spektrdagи bunday o‘zgarishlar lantanoidli siljituvchi reagentlarning organik moddalardan spirtlar, oddiy efirlar, karbonil guruhi tutgan birikmalar kabi modda molekulasi tarkibidagi funksional guruh atomlari erkin elektron juftlari bilan kompleks bog‘lanishi oqibatida sodir bo‘ladi.

YaMR- 1H spektridagi signallarning kimyoviy siljishini paramagnit lantanoidli siljituvchi reagentlar (PLSR) ishtirotkida bir necha martagacha o‘zgartirish mumkin. Eu^{3+} , Pr^{3+} , Yb^{3+} kabi ionlarning 2,2,6,6-tetrametilgeptan-3, 5-dion va 1,1,1,2,2,3,3-peptaftor-7,7-dimetil-oktan-4,6-dion bilan hosil qilgan xelat kompleks birikmalarini ishlataladi. Bunday reagentlar Shift (inglizcha – siljish) reagentlar ham deyiladi. Quyidagi rasmlarda tris-(dipivaloilmetanato)yevropiy – $Eu(dpm)_3$ yoki tris-(2,2,6,6-

tetrametil-3, 5-peptandionato) yevropiy-Eu(thd)₃ va tris-(1, 1, 1, 2, 2, 3-peptaftor-7, 7-dimetil-4, 6-oktandionato) yevropiy-Eu(fod)₃ ning tuzilish formulalari berilgan (7.25-rasm).



YaMR-¹H spektroskopiyasida lantanoidli siljituvchi reagentlardan foydalanish oqibatida psevdokontakt (dipol mexanizm) o'zaro ta'sirlashuvdan samarali foydalanadilar; natijada paramagnit kationlarning anizatrop magnit maydonlari ta'siri yadrodan uzoqlashgan sari ortib boradi. Tashqi magnit maydoni H₀ ta'sirdan farqli ravishda kationlarning ichki magnit maydoni ta'siri oqibatida YaMR-¹H spektridagi signallaring kimyoviy siljishi chiziqli kengayishini amalga oshiradi. Signallarning induktivlanishi oqibatida kimyoviy siljishi o'rganiladigan modda namunasi va siljituvchi reagent bilan qaytar kompleks hosil qilishi orqali izohlanadi.



7.25-rasm. 0,3 M n-peptanolning Shift reagentlar bilan a-1:0, b-1:0,19, c-1:0,78 molyar nisbatda olingan YaMR-¹H spektrida signallarning ajralishi.

Nazorat savollari

1. Yadrolarning magnit xususiyatlari nima bilan belgilanadi?
2. Qaysi zarrachalar YaMR usuli bilan o'rganiladi?
3. Pretsessiya hodisasini tushuntiring?
4. YaMR spektri parametrlariga nimalar kiradi?
5. Kimyoviy siljish tabiatni nimaga bog'liq?
6. Signallar soni nazariy jihatdan qanday aniqlanadi?
7. Signallar intensivligi qanday omillarga bog'liq?
8. Signallar intensivligini tahlil qilish orqali qanday ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin?
9. Spin-spin ta'sir nima?
10. Paskal diagrammasi yordamida signallarning ajralishi haqida qanday ma'lumotlarni aniqlash mumkin?
11. Spin-spin ta'sir konstantasi deganda nimani tushunasiz?
12. YaMR-¹³C spektri YaMR-¹H spektridan qanday farq qiladi?
13. ¹³C kimyoviy siljishini nazariy hisoblash formulasini yozing.
14. Siljituvchi reagentlar nima maqsadda ishlataladi?
15. YaMR spektroskopiyasida moddalar tuzilishini aniqlash uchun qanday parametrlardan foydalilaniladi?
16. Yadro spini, yadrolarning massa soni va ularning magnit xossalari orasida uzviy bog'lanish bormi? Nima uchun?
17. Diamagnit zarrachalar, ularning tashqi magnit maydondagi holati va ta'sirini tushuntiring.

Masala va mashqlar

1-masala.

Metilbenzol, 1,4-dimetilbenzol, 1,3,5-trimetilbenzollarning YaMR-¹H spektrida δ 2,0 va 7,2 m.h. maydonida ikkitadan signallar qayd qilindi. Signallarning nisbiy intensivligi 3:5 (A), 3:2 (B), 3:1 (C) kabi bo'ldi. Qayd qilingan signallar qaysi (A, B, C) moddaga tegishli ekanligini toping.

2-masala.

$C_{17}H_{18}OSi$ tarkibli modda eritmasining YaMR- 1H spektrida 2 ta singlet signallar qayd qilindi. Bu qaysi modda ekanligini aniqlang va tuzilish formulasini yozing.

3-masala.

Ikkita organik moddaning YaMR- 1H spektrida singlet (yakka) signallar: biridan δ 3,60 va ikkinchisidan 5,00 m.h. maydonida kuzatildi. Tarkibi bir xil $C_3H_6O_3$ bo'lgan bu moddalarning formulasini aniqlang va nomlang.

4-masala.

C_5H_{12} tarkibli moddaning YaMR- 1H spektrida yagona singlet signal δ 0,82 m.h. maydonida kuzatiladi. Uning tuzilish formulasini yozing va nomlang.

5-masala.

C_6H_{12} tarkibli moddaning YaMR- 1H spektrida yagona singlet signal δ 1,42 m.h. maydonida kuzatiladi. Uning tuzilish formulasini yozing va nomlang.

6-masala.

C_8H_{10} tarkibli uglevodorodning YaMR- 1H spektrida intensivlik nisbati 3:2 kabi signallar δ 2,12 va 7,2 m.h. maydonida kuzatiladi. Uning tuzilish formulasini aniqlang va nomlang.

7-masala.

C_8H_{10} tarkibli uglevodorodning YaMR- 1H spektrida nisbiy intensivligi 3:2:5 kabi uchta signallar δ 1,15 (triplet); 2,8 (kvadruplet); va 7,15 (kengaygan singlet) m.h. maydonlarida qayd etildi. Moddaning tuzilish formulasini yozib nomlang.

8-masala.

C_5H_7Br tarkibli uglevodorod hosilasining YaMR- 1H spektrida ikkita signal mavjud: δ 1,9 (6H, dublet) va 4,3 (1H, multiplet). Modda formulasini aniqlang.

9-masala.

$C_6H_{10}O_4$ tarkibli moddaning YaMR- 1H spektrida intensivligi 3:2 kabi ikkita signal mabjud; δ 1,25 (triplet) va 4,4 (kvadruplet). Moddaning formulasini aniqlang.

A d a b i y o t l a r

1.Юнусов Т.К., Зайнутдинов У.Н., Утениязов К.У., Салихов Ш.И. Кимёда физикавий усуллар.- Тошкент.- Университет.- 2007.- 336 б.

2.Миронов В.А., Янковский С.А. Спектроскопия в органической химии.- М.: Химия.- 1985.- 232 с.

3.Пентин Ю.А., Вильков Л.В. Физические методы исследования в химии.- М.: Мир.- 2003.- 683 с.

4.Маров И.Н. Костромина Н.А. ЭПР и ЯМР в химии координационных соединений.- М.: Наука.- 1979.- 267 с.

5.Ершов Б.А. Спектроскопия ЯМР в органической химии.- Санкт-Петербург.- изд-во СП(Б)ГУ.- 1995.- 264 с.

6.Умаров Б.Б. Ядро магнит резонанс спектроскопияси.- Ўкув-услубий қўлланма.- Бухоро.- 1999.- 84 б.

7.Умаров Б.Б. Физикавий тадқиқот усуллари, маъruzалар конспекти.- БухДУ.- Зиё-Ризограф.- 2000.- 187 б.

8.Юнусов Т.К., Ауелбеков С. Кимёда тадқиқотнинг физикавий усуллари. Ўкув қўлланма.-Тошкент.- Университет.- 1992.- 115 б.

9.Драго Р. Физические методы в химии.- М.- Мир.- в 2х томах.- 1981.

10.Каратаева Ф.Х., Клочков В.В. Спектроскопия ЯМР в органической химии, Часть 1. Общая теория ЯМР. Химические сдвиги 1H и ^{13}C .-Казань.- 2012.- 96 с.

VII BOB. ELEKTRON PARAMAGNIT REZONANS SPEKTROSKOPIYASI

Reja:

- 7.1. *EPR spektroskopiyasi haqida*
- 7.2. *EPR spektrlarining parametrlari*
- 7.3. *Spin-gamiltonian*
- 7.4. *O'ta nozik strukturali EPR spektrlari*
- 7.5. *O'NS liniyalari yaxshi ajralgan spektrlar*
- 7.6. *O'NS liniyalari yomon ajralgan spektrlar*
- 7.7. *d^l-konfiguratsiyali oraliq metallar kompleks birikmalarining EPR spektrlari*
- 7.8. *d⁹-konfiguratsiyali oraliq metallar kompleks birikmalarining EPR spektrlari*
- 7.9. *Nazorat savollari*
- 7.10. *Adabiyotlar*

Tayanch atamalar

Radioto'lqinlar. Elektron paramagnit spektroskopiyasi. Erkin radikallar. Paramagnit ionlar. Erkin elektronning g-faktori. Elektronning spin burchak momenti operatori. Spin burchak momenti. Elektronning to'liq burchak momenti. Bor magnetoni. Zeeman effekti. Energetik pog'onachalar sathi. Bolsman qonuni, doimiysi. Elektromagnit to'lqinlar generatori (Klistron). EPR da Lorents va Gauss liniyalari. EPR spektrometrlarining diapazonlari. Elektron bilan uning yadrosi o'rtaisdagi o'ta nozik ta'sirlashuv (O'NT). O'ta nozik struktura (O'NS). Qo'shimcha O'NS (QO'NS). Difenilpikrildigrazil radikal (DFPG). Spin gamiltonian. Magnit anizatropiya. O'NS va QO'NS konstantalari. O'NS dubleti. 1:1:1 va 1:2:1 nisbatdagi triplet O'NS. Tripletlar tripleti. Ekvidistant liniyalarning buzilishi. d^l-konfiguratsiyali metallarning EPR spektrlari. VO(II) ioni monomer, dimer, trimer va tetramer tuzilishli kompleks birikmalarining EPR spektrlari. EHM yordamida nazariy EPR spektrlarini modellashtirish. Tekis-kvadrat, tetraedrik va oktaedrik tuzilishli Cu(II) ioni komplekslarining EPR spektrlari. Yomon ajralgan EPR

spektrlarining parametrlarini kompyuterda hisoblash. 7ta QO'NS liniyadan iborat Cu(II) komplekslarining EPR spektrlari. Ularni nazariy modellashtirish.

7.1. EPR spektorskopiysi haqida

Bugungi kunda kimyo fanining samarali rivojlanishining asosiy sabablaridan biri zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullarining keng qo'llanishi natijasidir. Bu usullar orasida EPR spektroskopiyasi asosiy o'rinni egallaydi. EPR usuli 1944-yilda Qozon universitetida rus olimi U.K. Zavoyskiy tomonidan kashf etildi. Bu usul dastlab fiziklarning turli nazariy modellarini tekshirishga qaratilgan edi. Ammo tez orada shu narsa aniqlandiki, EPR spektri parametrlari rezonans kuzatilayotgan moddaning tarkibi va tuzilishiga bog'liq ravishda o'zgaradi. Bu EPR spektroskopiyasining paramagnit moddalar ya'ni juftlashmagan (toq spinli) elektron tutgan zarrachalar (erkin radikallar, ion – radikallar, oraliq metallarning kompleks birikmalari, triplet holatdagi molekulalar) tadqiqotida keng qo'llanishiga sabab bo'ldi.

EPR spektroskopiyasi va uning nazariy tadqiqotlarining umumiy kimyo va koordinatsion kimyoda ishlatalishi taxminan 50-yillar boshida rivojlandi. EPR usuli kompleks birikmalarning eritmadagi tuzilishi kompleks hosil bo'lish termodinamikasi va kinetikasi, ligandlarning markaziy ionga bog'lanishi, metalligand bog'larining tabiatи, ularning bir-biriga o'zaro ta'siri magnit xususiyatlari kabi muammolarni tushuntirish uchun juda kerakli sanaladi.

Umumiy fizika va noorganik kimyo kursidan ma'lumki, yorug'lik ham zarracha, ham to'lqin xususiyatlariga ega (1.3 va 1.4-formulalar). To'lqin uzunligi va chastotasi o'zaro teskari bog'langan kattaliklardir, ya'ni λ oshsa, v kamayadi va aksincha. Turli xil elektromagnit to'lqinlar (yoki nurlar) to'lqin uzunliklarining ortib borish tartibida joylashtirilsa, elektromagnit spekr hosil bo'ladi. Elektromagnit spektrdagи har qanday nur muayyan energiyaga ega bo'ladi va bu kattalik uning chastotasiga

to‘g‘ri proporsionaldir. Moddaga tushurilgan nur undan o‘tib ketishi yoki unga yutilishi mumkin. Energiya yutilganda modda molekulasi turli o‘zgarishlarga uchraydi. Eng qisqa to‘lqinli nurlar (radioaktiv nurlar) yadrolarning energetik holatini o‘zgartiradi (gamma rezonans spektroskopiya). Gamma nurlarga nisbatan kattaroq to‘lqin uzunligiga ega bo‘lgan rentgen nurlari atomlarning ichki, yadroga yaqin qavatidagi elektronlar energiyasini o‘zgartiradi (rentgenospektroskopiya). Ultrabinafsha va ko‘zga ko‘rinadigan nurlar ta’sirida molekula va atomlarning valent elektronlari energetik holatlari o‘zgaradi (UB va elektron spektrlar). Infraqizil nurlar (IQ yoki tebranish spektrlari) molekuladagi atomlarni tebratadi. Katta to‘lqin uzunligi va kichik energiyali radioto‘lqinlar yadro (YaMR) va elektron (EPR) spinlarining energetik holatini o‘zgartiradi. Demak, EPR spektroskopiyasi elektronlarning magnit holatini o‘zgartiradigan radioto‘lqinlar yutilishini o‘lchashga asoslangan usuldir. EPR spektrlari kuzatilishining asosiy sharti – o‘rganiladigan modda tarkibida juftlashmagan elektron bo‘lishi lozim. Bu xildagi asosiy paramagnit ionlar (d^1 -, d^3 -, d^5 -, d^7 -, d^9 -, f^7 -elektron konfiguratsiyali) 7.1-jadvalda keltirilgan. EPR spektroskopiyasining qo‘llanish sohalari juda ko‘p va xilma-xil: tibbiyot, biokimyo, noorganik, analitik, koordinatsion kimyo, geologik izlanishlar va hokazo.

7.1-jadval

EPR usuli bilan o‘rganish mumkin bo‘lgan kompleks hosil qiluvchi asosiy paramagnit ionlar

Ionning elektron konfiguratsiyasi	Paramagnit ionlar
d^1	Ti^{3+} , V^{4+} , Cr^{5+} , Mo^{5+} , Re^{6+} , Os^{7+}
d^3	V^{2+} , Cr^{3+}
d^5	Mn^{2+} , Fe^{3+} , Mo^{+} , Ru^{3+} , Cr^{+}
d^7	Co^{2+} , Ni^{3+} , Rh^{3+} , Pd^{3+} , Fe^{+}
d^9	Cu^{2+} , Ag^{2+} , Au^{2+}
f^7	Cd^{3+} , Ru^{2+}

Ma'lumki, erkin elektron harakat miqdorining xususiy mexanik momentiga (spin) va unga mos keluvchi magnit momentiga(7.1) ega:

$$\mu = g \cdot \beta_e \cdot S \quad (7.1)$$

Bundagi, S – spin burchak momentining operatori, g – o'chamsiz kattalik, erkin elektronning g -faktori (ya'ni elektron magnit momentining uning to'liq burchak momentiga nisbati, Lande faktori ham deyiladi, $g=2,0023$), β_e – Borning elektron magnetoni,


$$\beta_e = \frac{e \cdot h}{2m_e \cdot c} = 4,699 \cdot 10^{-5} \frac{\text{erg}}{\text{sm}} \text{ yoki } 0,93 \cdot 10^{-20} \frac{\text{erg}}{e}$$

e va m_e – elektronning zaryadi va massasi, Bor magnetoni – elektronning orbitallar harakati va spini bilan bog'liq bo'lgan magnit momentining o'chov birligi). (7.3) tenglamadagi manfiy “-” ishora elektronning manfiy zaryadi bilan bog'liq (7.1-rasm). Agar erkin elektron tutgan modda namunasi H – kuchlanishli o'zgarmas magnit maydoniga kiritilsa, μ -magnit momentli elektron tashqi maydon (H) bilan o'zaro ta'sirlashadi va bu Zeeman effekti (7.2) deyiladi:

$$E = g \cdot h \cdot \mu \cdot \beta = 2 H \cdot \mu_B$$

$$E = \mu \cdot H \text{ yoki } E = g \cdot \beta \cdot S \cdot H \quad (7.2)$$

Ma'lumki, elektronning S -spin proyeksiyasi magnit maydoni yo'nalishiga nisbatan ikki xil qiymatga ega ($m_s=+1/2$ va $m_s=-1/2$), oqibatda elektron uchun tashqi H magnit maydonida ikki xil energetik (pastki $-1/2 g\beta H$ va yuqori $+1/2 g\beta H$) holat paydo bo'ladi va ular energiyalarining farqi kvantlangan bo'ladi (7.1-rasm). Elektron spini bir energetik holatdan (quyi, α) ikkinchi (yuqori, β) energetik holatga o'tishi uchun yutiladigan ΔE -energiya tashqi magnit maydoni energiyasiga ($E=h \cdot v$) to'g'ri kelgandagina bu o'zgarish amalga oshib spektrda rezonans yutilish signali paydo bo'ladi.



7.1-rasm. Magnit maydonida elektron energetik holatlarning ajralishi va rezonans signallari.

7.1-rasmdan ko‘rinadiki, magnit maydoni kuchlanganligi ortishi bilan spin proyeksiyalari orasidagi farq chiziqli tartibda ortib boradi. $|\beta\rangle=|+1/2\rangle$ doimo $|\alpha\rangle=|-1/2\rangle$ dan $\Delta E = gH$ qadar katta, bu farq kuchlanish $H=3000-10000$ Gs (gaus) magnit maydonida $0,3-1 \text{ sm}^{-1}$ qiymatga teng bo‘ladi.

Magnit maydoni o‘zgarmas bo‘lgani uchun boshqa elektronlar sistemasi ham yuqoridagidek energetik pog‘onalarga ega. Elektronlar sistemasining tashqi mulit (masalan, kristall panjaralari) bilan o‘zaro ta’sirini hisobga olsak, magnit maydon kuchlanishi berilganda ma’lum vaqtidan so‘ng harakatchan issiqlik muvozanati paydo bo‘ladi, ya’ni Bolsman qonuniga muvofiq elektronlarning taqsimlanishi $|\alpha\rangle - (N_\alpha)$ va $|\beta\rangle - (N_\beta)$ quyidagicha ifodalanadi:


$$\frac{N_\beta}{N_\alpha} = \exp\left(\frac{-E}{kT}\right)$$

Issiqlik muvozanati paydo bo‘lish tezligi spin-panjara relaksatsiyasiga teskari jarayon yani, spin sistemalarning atrof-mulitga energiyasini uzatishi bilan belgilanadi. Bu spin-panjara relaksatsiyasi paytida $|\alpha\rangle$ va $|\beta\rangle$ holatlari orasida to‘g‘ri va teskari o‘tishlar ehtimolligi tenglashadi. Rezonans paytida pog‘onalar orasidagi o‘tishlar ehtimolligi maksimal qiymatga teng

bo'ladi va bu jarayon EPR nazariyasining asosiy tenglamasi (7.3) bilan ifodalanadi:

$$E_\beta - E_\alpha = g \cdot \beta \cdot H = h \cdot v \quad (7.3)$$


Bu hodisani oddiyroq qilib tushintirsak, odatdagи haroratda quyи va yuqori energetik holatlardagi elektronlar soni bilan bir-biriga yaqin bo'ladi. Muvozanatda turgan shu sistemaga elektromagnit to'lqinlar bilan ta'sir ettilganda bu to'lqinlar energiyasi energetik holatlar farqi ΔE ga mos kelganda rezonans hodisasi kuzatiladi. Rezonans natijasida quyи energetik holatdagi elektronlar ΔE energiyani yutib yuqori pog'onaga o'tadilar va bu holat ikkala energetik holatdagi elektronlar soni tenglashguncha davom etadi. Elektron paramagnit rezonansni kuzatish uchun aniqlanayotgan modda kukuni, monokristali yoki uning eritmasi diametri 2-5 mm bo'lgan yupqa devorli ampulaga solinib, yuqori kuchlanishli magnit maydoniga kiritiladi (7.2-rasm).



7.2-rasm. EPR moslamasining oddiy chizmasi: 1-generator (klistron), 2-rezonator, 3-magnit, 4-detektor, 5-kuchaytirgich, 6-qayd qiluvchi moslama.

Elektromagnit to'lqinlar generator (klistron)dan ampula joylashgan yacheyska (rezonator)ga uzatiladi. Spektroskopning ishlash jarayonida rezonator va undagi modda o'zgarmas magnit maydoni ta'sirida bo'ladi. Rezonatordagi modda yuqori chastotali to'lqin energiyasini yutadi. Yutilgan magnit maydoni energiya miqdori detektor yordamida elektr energiyasiga aylanadi va kuchaytirgich orqali avtomatik ravishda maxsus (yoziб boruvchi) moslamada qayd qilinadi (7.2-rasm). Demak, EPR spektrlari yutilish energiyasi intensivligining katta-kichikligi ta'sir etayotgan tashqi magnit maydon kuchlanganligiga to'g'ri


proporsional deb qarash mumkin. EPR spektri yutilish liniyalari keng polosali va har doim yaxshi ajralmagani uchun ularning birinchi hosilasini yozish tajribada qabul qilingan.



7.3-rasm. EPR spektrining yutilish liniyalari: (a va b) hamda ularning birinchi hosilalari 1 – Lorens shakli va 2 – Gauss shakli liniyalari.


Bunda maksimum nuqtalari absissa o‘qi bilan kesishmasdan, uning yuqori va pastki tomonida qayd etiladi (7.3-rasm), hamda spektrdagи maksimum liniyalarining sonini aniqlash imkoniyati tug‘iladi.

Singlet signallarni qayd etishda spektrometring ishlash sharoitiga ko‘ra ularning shakli har xil bo‘ladi. Lorens liniyalari shakli Gauss liniyalari shakliga nisbatan o‘tkirroq maksimumga va uzunroq “qanotchalardek” yoziladi. Organik radikallar odatda Gauss liniyalari shaklida, paramagnit kompleks birikmalar spektrlari Lorens liniyari shaklida yozilishi maqsadga muvofiq (7.3-rasm).



7.4-rasm. Koordinatsion sferasi ikki azot atomi tutgan Cu(II) kompleks birikma eritmasining xona haroratidagi EPR spektrlari: L-diapazon – (a), S-Diapazon – (b), X-diapazon – (c) va Q-diapazon – (d).


7.5-rasmda to‘lqin uzunligi har xil bo‘lgan SVCh-generatorli (SVCh-o‘ta yuqori chastota) moslamada olingan ikki valentli nitrozil-NO radikallari eritmalari aralashmasining xona haroratidagi EPR spektrlari keltirilgan.



7.5-rasm. 3 sm – (a) va 2 mm – (b) dipazonli spektroskoplarda yozilgan ikkita nitrozil radikalni eritmalari aralashmasining xona haroratidagi EPR spektri.

Bu rasmdan ko‘rinadiki g-faktor qiymatlari bir-biriga yaqin moddalarning EPR spektrida liniyalarni alohida-alohida qayd

etish uchun yuqori chastotali spektroskoplardan foydalanish (7.5, 7.6-rasmlar) maqsadga muvofiqdir.



7.6-rasm. Spini $m_s = \frac{1}{2}$ bo'lgan elektronlar bilan spin $I = \frac{1}{2}$ qiymatli ikki yadro larning o'zaro ta'siri natijasida elektron energetik holatining o'ta nozik ajralishi.


7.2. EPR spektri parametrlari (a , g ; A , g_{\parallel} ; B , g_{\perp})

EPR spektri parametrlari (a ; g ; A , g_{\parallel} ; B , g_{\perp}) ning qiymatlari modda tuzilishi haqida ma'lumotlar olishga imkon beradi. EPR spektridagi yagona liniya (singlet, 7.3-rasm, b) uning intensivligi, kengligi, shakli va magnit maydonidagi holati bilan xarakterlanadi. Ko'pincha spektr birgina singlet liniyadan emas, balki bir yoki bir necha guruhlardan iborat bo'ladi. Buning sababi spektrlarda asosiy liniyalar bilan birgalikda o'ta nozik o'zaro ta'sirlashuv – O'NT, qo'shimcha o'ta nozik ta'sirlashuv – QO'NT liniyalarning paydo bo'lishidir. Bu liniyalarning xarakteristikalari juftlashmagan elektronlarning quyidagi o'zaro ta'sirlashuvi natijasida yuzaga keladi:

- paramagnit ionning elektronlari bilan,
- kristall panjaralarning ichki elektr maydoni bilan,

- paramagnit ionining yadro si bilan (agar yadro spini I_N noldan farq qilsa).

Spektr liniyalarning parametrlari (a , A , B) kattaligini aniqlash uchun absissa o'qi "ersted"larda kalibrланади. Tashqi standart sifatida erkin holdagi barqaror radikal — difenilpikrilgidrazil (DFPG) qo'llaniladi ($g_e=2,00370,0002$).




(DFPG)

Elektron magnit momentining spin qiymati $g_c=2,0023$. EPR spektridan topilgan g-faktori bu kattalikdan farq qiladi, chunki bu kattalik har qaysi individual moddag'i juftlashmagan elektronning spin va orbital momentlari (μ_s va μ_l) o'zaro ta'siriga bog'liqdir.


7.3. Spin gamiltonian (SG) – \mathcal{H}

Organik radikallarning spin-orbital o'zaro ta'sirlashuv natijasidagi energetik o'zgarish qiymati juda kichik bo'lGANI uchun ularning g-faktori erkin elektron spin qiymatlariga yaqin bo'ladi. Oraliq d-elementlar ionlarining g-faktorlari qiymati markaziy ion tabiatiga bog'liqdir. Masalan, Co^{2+} va Ni^{2+} ionlarining juda kam miqdordagi kub simmetriyali MgO bilan aralashmasida aniqlangan g-faktorlari $4,2780 \pm 001$ va $2,2270 \pm 005$, Fe^{2+} ionining MgO oktaedrik simmetriyali aralashmasidagi g-faktori $3,428$ ga teng. Paramagnit zarrachalarning magnit xususiyatlari fazoning har qaysi (x , y , z o'qlari bo'ylab) yo'nalishlarida turli qiymatlarga, ya'ni anizotropiya xossasiga ega. Shuning uchun bu birikmalarning g-faktorlari har xil kattalik bilan bir-biridan farq qiladi. Paramagnit ion atrofidagi ligandlar rombik yoki quyi simmetriyali maydon hosil qilsa (magnit anizotropiyasi) bu zarracha 3 xil qiymatli (g_x , g_y , g_z) g-faktorlari bilan xarakterlanadi.



7.7-rasm. Kristall, kukun yoki shishasimon moddalarda anizatropiya hodisasi, ya'ni kristallning tashqi magnit maydoni Hga nishbatan fazoda joylanishi har xil bo'lganda g-faktorining ajralishi.

Aksial simmetriyali maydonda modda g-faktori 2 xil qiymatga ega: $g_z = g_{\parallel}$ va $g_x = g_y = g_{\perp}$. g_{\parallel} -faktor magnit maydoni yo'nalishi bo'ylab moddaning effektiv magnit momentini (tashqi maydon (H_0) yo'nalishi bilan bir xil, ya'ni parallel), g_{\perp} -faktor x-y-tekislikdagi (magnit maydon yo'nalishiga perpendikulyar) qiymati belgilaydi. Izotrop spektrlar uchun O'NT konstantasi "a" harfi, anizatrop spektrlarning O'NT konstantalari parallel yo'nalishda "A", perpendikulyar yo'nalishi uchun "B" harflari bilan belgilanadi. Impuls va koordinatalar bilan ifodalangan zarrachaning energiyasi gamiltonian \mathcal{H} deyiladi.



7.8-rasm. Aksial simmetriyaga ega moddaning EPR spektri ko'rinishi ($S=1/2$).

Elektron gamiltoniani umumiy ko'rinishda ancha murakkab bo'lib, quyidagi a'zolardan tarkib topadi:

- 1.Elektronning kinetik energiyasi;
- 2.Elektronning kristall panjara bilan o'zaro ta'sir energiyasini hisobga olgan holdagipotensial energiyasi;
- 3.Spin-orbital o'zaro ta'sirlashuv. ϑ -tezlikda harakatlangan elektron bilan r-masofadagi E-elektr maydonida ekranlangan yadro orasida qo'shimcha magnit maydoni – $H = \vartheta E / Chosil$ bo'ladi.Bu maydon elektronning spin magnit momenti – μ_s bilan o'zaro ta'sirlashib, unga $\mu_s H$ ortiqcha energiyani qo'shadi.

4.Elektronning spin- μ_s va orbital- μ_L momentlari bilan tashqi magnit maydoni (H) ning o'zaro ta'sirlashuvi natijasida energetik o'zgarish:

$$-(\mu_s + \mu_L)H = \mu_B H(L + g_e S) \text{ ga teng bo'ladi.}$$

5.Yadro spini magnit maydoni bilan elektronning spin va orbital momentlari orasidagi o'zaro ta'sirlashuv.

6.Kvadrupol o'zaro ta'sirlashuv.

3-6 a'zolar hisobga olinmagandagi yechimini faraz qilaylik. U holda faqat spin-orbital, hamda elektronning spin va orbital magnit momentlari bilan tashqi magnit maydoni orasidagi o'zaro ta'sirlashuv a'zolari hisobga olinadi:

$$\mathcal{H} = \mu_B \cdot H \cdot (L + g_e S) + \lambda \cdot L \cdot S \quad (7.5)$$

G'alayonlanish nazariyasidan foydalaniib,(7.5) ifodani orbital o'zgaruvchilari bo'yicha integrallaymiz. U paytda (7.5) gamiltonian faqatgina spin o'zgaruvchilariga bog'liq bo'lib ancha soddalashadi:

$$\mathcal{H} = \mu_B \cdot H \cdot g \cdot S \quad (7.6)$$

Agar spin-orbital o'zaro ta'sirlashuv ham hisobga olinsa (7.6) tenglama quyidagicha o'zgaradi:

$$\mathcal{H} = 2 \cdot \mu_B \cdot H \cdot S \quad (7.7)$$

Anizatropiya hodisasi hisobga olinsa (7.6) ifoda boshqacha ko'rinishiga ega bo'ladi:

$$\mathcal{H} = \mu_B (g_x H_x S_x + g_y H_y S_y + g_z H_z S_z) \quad (7.8)$$

Bunda $g_x = 2$, $g_y = 2[1 - (\lambda/\delta)]$, $g_z = 2[1 - (\lambda/\Delta)]$; $\delta = E_x - E_x$ va $\Delta = E_y - E_x$ asosiy holat (E_x) enerqiyasi bilan qo'zg'algan holat (E_x va E_y) energiyalari orasidagi farq bo'lib, ularning qiymati elektron yutilish spektrlari yordamida topiladi.

Yuqorida (7.6) ifoda tashqi magnit maydonidagi toq spinli elektronning spin-gamiltoniani (SG) deyiladi. Bu formulaning amaliy qulayligi shundaki g_x , g_y , g_z qiymatlari bevosita eksperimental spektrlardan hisoblab topiladi. (7.5) va (7.6) formulalardan ravshanki, spin-orbital va Zeeman o'zaro ta'sirlarning yig'indisi bir-biridan qiymati va yo'nalishi farqli real H-magnit maydonini H_{eff} effektiv maydon bilan abmashtirilganda ekvivalent bo'ladi:

$$H_{eff} = H \cdot g/2$$

Bu hol uchun rezonans chastota (7.9) dan topiladi:

$$\begin{aligned} h\nu &= 2\mu_B \cdot H_{eff} = \mu_B \cdot (H_x^2 g_x^2 + H_y^2 g_y^2 + H_z^2 g_z^2)^{1/2} \\ h\nu &= \mu_B \cdot H (a_1^2 g_x^2 + a_2^2 g_y^2 + a_3^2 g_z^2)^{1/2} \end{aligned} \quad (7.9)$$

Bunda a_1 , a_2 , a_3 larx, x , y , z -o'qlari bilan tasliqi H-magnit maydoni yo'nalishi orasidagi burchak kosinusasi. Umumiy holdagi (7.9) ifoda (7.10) ko'rinishida yoziladi:

$$h\nu = g \cdot \mu_B \cdot H \quad (7.10)$$

$$\text{yoki } g = \sqrt{a_1^2 H_x^2 + a_2^2 H_y^2 + a_3^2 H_z^2} \quad (7.11)$$

Bundan tashqari, g-faktor ma'lumi va H orqali eksperiment yo'li bilan topiladi. Paramagnit ion g-faktorining anizatropiyasi shu ion atrofidagi ligandlar hosil qilgan kristall maydon tabiatiga ham bog'liq bo'ladi.

7.4. O'ta nozik strukturali (O'NS) EPR spektrlari

Ko'pchilik hollarda paramagnit moddalar juftlashunagan elektronidan tashqari yadro I_N -spini va unga tegishli μ_N -magnit momentiga ega bo'lgan element atomlaridan iborat bo'ladi. Bu ikki zarrachalar magnit momentlari orasidagi o'zaro ta'sir o'ta nozik ta'sirlashuv deyiladi. O'ta nozik ta'sirlashuv natijasida EPR spektridagi yakka singlet yaxlit liniya ma'lum komponenta (bo'lak)larga ajraladi va ular o'ta nozik strukturali spektrlar

deyiładi. EPR spektroskopiyasida O'NS katta ahamiyatga ega va uning xarakteriga ko'ra paramagnit zarrachalarni identifikasiyalash mumkin. O'NS ahamiyati faqatgina shu bilan belgilanmasdan, balki undan ko'ra muhimuroq ma'lumot, paramagnit birikmadagi juftlashmagan elektronlarning delokallashuvi, ya'ni toq spinli elektronning d-orbitallar ($d_{xy}, d_{xz}, d_{yz}, d_{x^2-y^2}, d_{z^2}$) ning qaysi biriga joylashganligi haqida ham ma'lumot beradi.

O'ta nozik o'zaro ta'sirlashuv (O'NT) o'z tabiatiga ko'ra anizatrop dipol-dipol yoki kontakt izotrop o'zaro ta'sirlashuvdan iborat bo'lishi mumkin. Elektronning $\mu_s = g_e \cdot \mu_B \cdot S$ magnit momenti bilan yadroning $\mu_N = g_N \cdot \mu_B \cdot I$ magnit momenti orasidagi o'zaro dipol-dipol ta'sirlashuvi juftlashmagan elektron p-, d-, f-orbitallarda bo'lganida kuzatiladi. Agar juftlashmagan elektronning to'lqin funksiyasida s-orbitalning hissasi bo'lsa, s va f orasida kontakt o'zaro ta'sir kuzatiladi. Buni to'liq tasavvur etish uchun yadro magnit momenti bilan elektronning orbital harakati o'zaro ta'sirini ham e'tiborga olib lozim. Shunday qilib, O'NS gamiltonianining ifodasi quyidagicha bo'ladi:

$$\mathcal{H}_{1,S} = \mathcal{H}_1 + \mathcal{H}_2$$

G'alayonlanish nazariyasini e'tiborga olib spin-gamiltonian ifodasiga o'tsak, (7.6) tenglama shunday yoziladi:

$$\mathcal{H} = \mu_B \cdot H_g \cdot B + I \cdot A \cdot B \quad (7.12)$$

A - o'ta nozik ta'sir tenzori

Paramagnit zarracha z-o'qi yo'naliishiga parallel bo'lgan lashagi H-magnit maydoniga kiritilsa uning (7.12) spin gamiltonianiga quyidagi energiyaviy holat mos keladi:

$$E = g \cdot \mu_B \cdot H_g \cdot m_s + A \cdot m_I \cdot m_s \quad (7.13)$$

m_I va m_s - spinlarning magnit maydoniga mos keluvchi z-o'qidagi proyeksiyasi. Agar (7.13) formulani

$$E = g \cdot \mu_B \cdot \left[H + \frac{A \cdot m_I}{g \cdot \mu_B} \right] \cdot m_s$$

shaklida yozsak, shu narsani aniqlaymizki, O'NS toq spinli elektron yaqinida joylashigan yadroning hosil qilgan $A_m/g\mu_B$ - magnit maydoni qiymatiga ekvivalent bo'lib chiqadi. Soddaroq


qilib aytganda, O'NS toq spinli elektron bilan shu ion yadrosi o'zaro ta'sirini ifodalovchi kattalikdir. Energetik holatlarning O'NS ta'sirida ajralishi 7.6-rasmida ko'rsatilgan. Energiyaviy o'tishlar elektronning 2 xil spin proyeksiyalari orasida yadro spinii o'zgarinaganda ($m_I=0$) yuz bergani uchun spektrda intensivligi bir xil bo'lgan to'rtta liniyalar kuzatiladi (7.6-rasm).

Umuman olganda, elektron spinii bilan bir xil yadro spinii I orasidagi o'zaro ta'siridan energiyalari jihatdan farq qiluvchi $(2I+1) \cdot (2S+1)$ holat paydo bo'lib uning natijasida bir xil intensivlikdagi $n = (2I+1)$ ta liniyadan iborat EPR spektri hosil bo'ladi.

Misol tariqasida 7.9-rasmida $\text{ON}(\text{SO}_3)_2^{2-}$ anion-radikalning EPR spektri ko'rsatilgan. Unda uchta bir xil intensivlikdagi singlet liniyalar juftlashmagan elektron bilan azot atomi yadrosini ($I=1$) o'ta nozik o'zaro ta'siri ($\text{O}'\text{NT}$) natijasida o'zaro vujudga keladi, yani

$$n=2I+1=2 \cdot 1+1=3 \text{ ta liniya.}$$

Juftlashmagan elektronning bir necha ekvivalent yadrolar bilan o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelgan O'NS – o'ta nozik strukturani CrOF_4^- kompleksi EPR spektri misolida ko'rib chiqamiz (7.10-rasm). EPR spektrida juftlashmagan elektron bilan to'rtta ekvivalent ^{19}F ($I=\frac{1}{2}$) yadrolari magnit momenti o'zaro ta'siri natijasida O'NS kuzatiladi. O'NS paramagnit zarracha tarkibidagi atom yadrosining o'z ta'sir doirasidagi toq spinli elektron bilan hosil qilgan $A_{\text{eff}}/\mu\text{B}$ magnit maydoniga ekvivalent bo'lgan energetik o'zgarishdir. Har qaysisi $m_I=+1/2$ va $m_I=-1/2$ momentli to'rttala ^{19}F -yadrolarning ehtimolligi mumkin bo'lgan spin oriyentatsiyalari 7.2-jadvalda keltirilgan.



7.9-rasm. $0,01 \text{ M } [\text{ON}(\text{SO}_3)_2\text{Na}_2]$ sıvili eritmasidagi $\text{ON}(\text{SO}_3)_2^{2-}$ anion-radikalining EPR spektri ($H_0=10 \text{ GHz}$)

Spektrda rezonans linyalari magnit maydoni $H_{rez} = H_o - 4 \cdot \frac{1}{2} \cdot \frac{A}{g \cdot \mu_B}$ va $H_{rez} = H_o + 4 \cdot \frac{1}{2} \cdot \frac{A}{g \cdot \mu_B}$ bo'lganda kuzatiladi.

Keyingi holda ^{19}F yadrolaridan uchtasi bir yo'nalishdagi spinga, to'rtinchisi esa teskari spinga ega, yani spinning umumiy yig'indisi qiymati $+1$ yoki -1 ga teng. Bu holdagi elektron spinlari qiymatlarining yig'indisi to'rt martaga ortadi ($m_l = 2$ bo'lgan hollarga nisbatan) va liniyalar intensivligi ham uzviy ravishda to'rt marta kattalashadi.

$$H_{rez} = H_o + \frac{A}{g \cdot \mu_B} \text{ yoki } H_{rez} = H_o - \frac{A}{g \cdot \mu_B}$$

Xuddi shuningdek, jadvaldan ko'rindaniki, $H = H_o (m_l = 0)$ bo'lganda rezonans liniyalar intensivligi $m_l = 2$ ga nisbatan olti marta yuqori bo'ladi. Natijada, CrOF_4^- kompleksining EPR spektri beshta liniyadan iborat bo'lib, ularning intensivliklari o'zaro 1:4:6:4:1 nisbatda bo'ladi. (7.2-jadval, 7.10-rasm).

7.2-jadval


Magnit maydoni (H_{rez}) kattaliklari va O'NS linyalarining nisbiy intensivligi

Yadro spinlarining H ga nisbatan oriyentatsiyasi (I = 1/2, n = 4)	$H_{eff.}$	H_{rez}	Nisbiy intensivlik
$\uparrow\uparrow\uparrow\uparrow$	$H + 4/2 H$	$H - 4/2 H$	1
$\uparrow\uparrow\uparrow\downarrow$	$H + 2/2 H$	$H - 2/2 H$	4
$\uparrow\uparrow\downarrow\uparrow$	H	H	6
$\downarrow\uparrow\uparrow\downarrow$	$H - 2/2 H$	$H + 2/2 H$	4
$\downarrow\uparrow\downarrow\uparrow$			
$\downarrow\downarrow\uparrow\uparrow$			
$\downarrow\downarrow\downarrow\uparrow$			
$\downarrow\downarrow\uparrow\downarrow$			
$\downarrow\downarrow\downarrow\downarrow$			

$\downarrow\downarrow\downarrow$	H - 4/2 H	H + 4/2 H	1
----------------------------------	-----------	-----------	---

Xuddi shuningdek, har xil spinga ega bo'lgan istalgan ekvivalent yadrolar uchun bu masalani yechish mumkin. Spektrdagи ekvivalent yadrolardan yozib olinadigan O'NS xarakterli xususiyati shundaki, bu liniyalar orasidagi masofa bir xil yani ekvidistant bo'ladi. Aksariyat hollarda tajriba yo'li bilan yozib olingan eksperimental EPR spektrlarda O'NS liniyalarining to'liq ajralishiga erishib bo'lmaydi. Bu moddaning eritmadiagi konsentratsiyasi kamligi yoki spektroskopning ayrim xarakteristikalar bilan bog'liq bo'ladi. Bu hollarda EHM yordamida shu moddalarning nazariy spektrlari hisoblab topiladi. Olingan nazariy spektr tajribadagi EPR spektrlari bilan solishtirilib tegishli xulosalar chiqariladi.


7.10-rasm. Xrom(V)-oksoftoro
 CrOF_4 - kompleksining
26 M li HF eritmasidagi
EPR spektri(258K).



Ba'zida boshqa elektronlarning magnit momentlari juftlashmagan elektron bilan spin-spin o'zaro ta'siri natijasida qo'shimcha maydonlarni vujudga keltiradi va bu spektr sifatini pasaytiradi. Sifatli spektr yozish uchun magnit momentlarining spin-spin o'zaro ta'sirlashuvini yo'qotish lozim. Buning uchun modda eritmasi suyultiriladi yoki uning monokristali (polikristall kukuni)diamagnit moddalarning namunasi bilan 1:50; 1:100 nisbatlarda qayta kristallanib "magnit suyultirilgan" namunalari tayyorlanadi va ularning spektrlari qayd etiladi.


7.5. O'NS liniyalari yaxshi ajralgan spektrlar

EPR spektrlari va ularning O'NS ko'rinishlari haqidagi ma'lumotlarni to'ldirish maqsida 7.11-rasmda paramagnit xususiyatli oraliq d-metallarning kompleks birikmalari eritmalarining xona haroratidagi (300 K) EPR spektrlaridan ayrim namunalar keltirilgan. Rasmdan ko'rindan, bu spektrlar bir-biridan individual liniyalarning ajralish darajasi bilan farqlanadi. Bu EPR spektrlariga e'tibor qilsak, Cu(II) va VO(II) kabi kuchli anizatrop g-tenzor va O'NS konstantali ionlarning komplekslari spektrida liniyalar yomon ajraladi, ammo, Mo(V), Cr(V) kabi ionlar kompleks biriknalarining EPR spektrlarida O'NS liniyalari aniq va ravshan ajraladi. Buni tushunish uchun O'NS va QO'NS konstantalari kichik bo'lган sodda spektrlarni tahlil qilamiz va ularda ikkinchi tartibli tuzatishlar hisobga olinmasligi mumkin ekanligini ham inobatga olaylik. Shunday sistemalarda O'NS liniyalari hosil bo'lishini ko'rib chiqamiz.



7.11-rasm. Ayrim oraliq metallar kompleks birikmalarning xona haroratidagi eritmalarining eksperimental EPR spektrlari: VO(II) ($J=7/2$) – a; Cr(III) $J=3/2$ – b; Mo(III) ($J=5/2$) – c; Cu(II) ($J=3/2$) – d.

Spinlarni $I=1/2$ bo'lgan ikki 1H yoki ^{31}P yadrolaridan hosil bo'ladigan O'NS liniyalarini tahlil qilsak, $I_1=I_2=1/2$ bo'lgani uchun umumiy holda ulardan to'rtta teng intensivliklardagi liniyalar kuzatiladi. Rasm-grafikdan ko'rinishdiki, $A_1=A_2$ bo'lganda o'rtafigi ikki liniyalar qo'shib ketish oqibatida signal intensivligi chetki signallarga nisbatan ikki marta yuqori bo'ladi, ya'ni $I = 1/2$ yadrolardan intensivligi 1:2:1 kabi nisbatdagi uchta ekvidistant (bir-biridan bir xil, teng masofada joylashgan) liniyalar qayd etiladi(7.12-rasm). Har qanday ekvivalent yadrolardan olingan EPR spektrlarda faqat unga xos bo'lgan intensivlikdagi liniyalar guruhi yozib olinadi, ular EPR spektrini talqin qilishga yordam beradi.




7.12-rasm. QO'NS liniyalarining ajralishi sxemasi va intensivlik nisbati.

EPR spektrlarida vodorod (1H) va azot (^{14}N) uchta ekvidistant liniyalardan iborat qo'shimcha O'NS konstantalariga ega bo'lsada, bu ikki spektr bir-biriga o'xshamaydi. Vodorod yadrosining O'N ta'siri tufayli yuzaga kelgan liniyalar intensivligi 1:2:1 nisbatda bo'lsa, azot yadrosi O'NT dan qayd qilingan triplet 1:1:1 nisbatda kuzatiladi (7.13-rasm). Murakkabroq ko'rinishdagi EPR spektriga asoslanib modda tuzilishini tahlil qilaylik. 7.13-rasmida shunday anion-komplekslardan biri bo'lgan $[(Et_3P)_2Cr(NO)(CN)_3]^-$ eritmasining spektri olingan, bu spektr uchta uchlik (tripletlar tripleti)dan iborat liniyalarga ega.


Katta konstantali O'NS liniyalarini intensivligining 1:2:1 kabi nisbatda bo'lishi trietilfosfin molekulalaridagi ikki o'zaro ekvivalent fosfor yadrosiga xos rezonans signallarga to'g'ri keladi. Kichik konstantali O'NS liniyalarining intensivligi bir xil, demak u NO - donor guruhining azotiga tegishli signal boladi.

Chunki uchinchi ligand anion (CN^-) uglerod atomi bilan koordinatsion bog' hosil qiladi va ulardag'i



7.13-rasm. $[(C_2H_5)_3P]_2Cr(NO)_2(CN)_3$ ²⁻ anionining eritmadagi EPR spektri.


azot atomi yadrosidan O'NS paydo bo'lmaydi. Spektr ko'rinishidan shuni aniqlash mumkinki, har ikki trietilfosfin molekulalari nitroksil (NO^-) anioniga nisbatan *sis*-holatda joylashgan (ya'ni bir xil ligandlar bir-biriga nisbatan *trans*-holatda), aks holda trietilfosfin molekulalaridagi fosfor atomlarining fazoviy va magnit ekvivalentligi buzilib, EPR spektrining shakli butunlay o'zgarishi lozim edi.



7.6. O'NS liniyalari yomon ajralgan spektrlar


Yuqoridagilarga asoslanib, EPR spektridagi O'NS liniyalarining talqin qilinishi eritmadagi kompleks birikmalarning tarkibi va tuzilishi tadqiqotida juda katta ahamiyat kasb etuvchi vosita ekanligiga guvoh bo'ldik. Ammo O'NS komponentlarining o'zi ayrim hollarda "katta kenglik" ga ega yoki ular orasidagi kichik qiymatli qo'shimcha O'NS signallari beruvchi guruhlarning bo'lishi bu liniyalarining o'zaro qoplanishiga olib keladi. Bu holda spektrlarni odatdagidek grafikaviy analizi

qiyinlashbadi yoki mumkin bo'lmay qoladi. 7.14-rasmda O'NS dubletining uch xil shaklda ajralishi ko'rsatilgan. Birinchi holda (a) liniyalar intensivligi aniq va signallar o'tkir bo'lib, ular orasidagi konstanta oson topiladi. Ikkinci spektrda (b) ajralishi ancha yomonlashgan, lekin ularning orasidagi masofani va dublet intensivligi bir xilligini tajribali operator tezda qiyalmadasan aniqlaydi. Uchinchi ko'rinishdagi (c) har xil kengaygan va o'zaro ustma-ust tushayotgan (qoplanayotgan) liniyalar juftidan ularning ekivalentligini grafik ravishda aniqlash mumkin emas.



7.14-rasm. EPR spektri O'NS dubletlarining sisalii (yaxshi)-(a) va yomon-(b, c) ajralishi.

Liniyalar sonining ortib borishi bilan vaziyat yanada murakkablashadi. 7.15-rasmda O'NS tripletlarining spektrlaridan (2 va 4) ularning triplet signal ekanligi va intensivliklarning o'zaro nisbatlarini aniqlab bo'lmaydi.



7.15-rasm. O'NS tripletlarining yaxshi (1, 3) va yomon (2, 4) ajratishi:
a)-1:2:1 va b) - 1:1:1 nisbatdagi intensivliklar.

7.16-rasmda Mn(II) kompleksiga xos bo'lgan intensivligi bir xil ekvidistant olti komponentli O'NS dan iborat spektrining uch xil yozilshi ko'rsatiilgan. Birinchi (a) shaklidan spektr parametrlarini analiz qilish oson va qulay. Ba'zan modda tozaligi, eritma konseentratyasi, operatorining mahoratiga bog'liq ravishda O'NS liniyalari juda kuchli kengayadi va eritma spektri shakliga o'xshagan ikki singlet (7.16-rasm b, c) yoki hech qanday O'NS



7.16-rasm. *Mn(II) ioni olti komponentli O'NS liniyalarga har xil diapazonli kengayishlar ta'siri: $H=2\text{ Hz}$ – (a); $H=20\text{ Hz}$ – (b); $H=50\text{ Hz}$ – (c).*

konstantalari sezilinaydigan yagona keng singlet shaklida qayd etiladi (7.17-rasin). Bu hollarda spektrni analiz qilishning yagona usuli EHM dan keng foydalanish va nazarli spektrlar tuzib ularni solishturish orqali modda tuzilishi haqida zaruriy xulosalar olish mumkin.




7.17-rasm. *Saklizta vodorod yadroси protonlaridan O'NS konstantalarining har xil kengliklalagi liniyalari: $H=0.5\text{ Gs}$ – (a); $H=5\text{ Gs}$ – (b); $H=20\text{ Gs}$ – (c).*

7.7. d¹-konfiguratsiyali oraliq metallar kompleks birikmalarining EPR spektrlari

Elektron konfiguratsiyasi d¹ bo'lgan oraliq metallar Ti³⁺, V⁴⁺ Cr⁵⁺, Mo⁵⁺, W⁵⁺ ionlari ichida VO(II) kompleks birikmalarini EPR usuli bilan o'rghanish ancha oson va qulaydir. VO²⁺ ionining tashqi elektron qavatida bitta toq elektron d_{xy} orbitalida joylashgan. V=O qo'shbog'i qisqaligi tufayli VO²⁺ komplekslari oktaedrik tuzilishidagi kuchli kristall maydoni aksial komponentasining ta'siri natijasida uning asosiy holati (C_{4v}) va qo'zg'algan holati orasidagi o'tish energiyasi (ΔE) katta qiyinatga ega bo'ladi. VO²⁺ komplekslarining boshqa d¹konfiguratsiyali ionlarning komplekslaridan yana bir afzalligi shundaki, vanadiy atomlari yadrosi tarkibini 100 %⁵¹V izotopi tashkil etadi. Bu izotop yadrosining spin soni (I_v=7/2) va effektiv magnit momenti (μ_{eff} =5,14)ning katta ekanligi, EPR spektri liniyalarining O'NS konstantasi av≈100 e atrofida bo'lishini ta'minlaydi. Bularning barchasi VO(II) komplekslarini EPR spektral usuli bilan o'rghanish uchun juda qulay imkoniyat yaratadi. Ammo EPR spektrida O'NT konstantalari qiymatlarining kattaligi VO²⁺ ioni atrofidagi ligandlarning donor atomlaridan qo'shimcha O'NS ajralishini qiyinlashtiradi.

VO(II) ioni kompleks birikmalari eritmalarining EPR spektridan g-faktor va O'NS konstantasi izotrop qiymatlarini topish ancha oson. Qattiq holatda VO(II) birikinalarining spektri bitta singlet liniyadan iborat bo'lib, bu spektr H va g-faktor bilan xarakterlanadi. Eritmalaridagi VO(II) ioni EPR spektri toq spinli elektronning ⁵¹V yadrosi (I=7/2) bilan O'NT natijasida sakkizta liniyadan iborat (7.18-rasm). O'NS konstantasi (av) qiymati 4- va 5-liniyalar orasidagi masofa kattaligi bilan ifodalanadi. Buning uchun dastlab EPR spektridagi spektroskopning masshtab belgilaridan foydalaniib, 4- va 5-liniyalariga mos keluvchi magnit maydoni kuchlanganligining (H₄ va H₅) ayirmasidan a_v topiladi:
a) H_m=2950 e dan H_n=3850 e gacha bo'lgan nuqtalar orasidagi masofa 147 mm. ga teng. 1 mm uchun mos keladigan maydon kuchlanishi qiymatini topamiz:

$$S_h = \frac{3850 - 2950}{147} = 6,12 \frac{\text{ersted}}{\text{mm}}$$



7.18-rasm. VO(II) ionining monokarbonil birikmalar asilgidrazoni bilan hosil qilgan kompleksi tohuoldagi eritmasining xona haroratidagi EPR spektri.

$$\text{b)} H_4 = H_m + S_h l_1 = 2950 + 6,12 \cdot 60,3 = 2950 + 369 = 3319,04 \text{ e.,}$$

$$H_5 = H_m + S_h l_2 = 2950 + 6,12 \cdot 76,3 = 2950 + 369 = 3416,96 \text{ e.,}$$

$$\text{c)} av = H_5 - H_4 = 3416,96 - 3319,04 = 97,92 \text{ e.}$$

Endi EPR spektridagi H_{DFPG} maydoni H₄, H₅ va g_{DFPG} qiymatlari-dan foydalanib vanadil(II) kompleksi uchun g-faktorni hisoblaymiz:

a) Kompleks birikmadagi VO(II) g-faktorini hisoblash uchun dastlab H₄ va H₅ komponentlari teng o'rtasidagi magnit maydoni kuchlanganligi qiymatini ikki usul bilan topamiz:

$$H_{4,5} = 2950 + 6,12 \cdot 68,3 = 2950 + 418 = 3368 \text{ e.}$$

yoki

$$H_{4,5} = \frac{H_4 + H_5}{2} = \frac{3319,04 + 3416,96}{2} = 3368 \text{ e}$$

H_{DFPG}'g_{DFPG} = H_{4,5}'g_{komp} formulasidan foydalanib kompleks birikmaning g-faktori qiymatini topamiz:

$$g_{komp} = \frac{H_{DFPG} + g_{DFPG}}{H_{4,5}} = \frac{3320,1 \cdot 2,0036}{3368} = 1,975$$

O‘rganilayotgan muddanining anizatrop parametrlarini (A_{\parallel} , g_{\parallel} , A_{\perp} , g_{\perp}) topish uchun uning “magnit suyultirilgan” namunasi yoki eritmasi azotning qaynash haroratigacha (-195,8°C) inuzlatilib, uning EPR spektri yoziladi. Agar EPR spektridagi liniyalarning ajralishi yaxshi bo‘lsa, anizatrop O‘NS konstantalari (A_{\parallel} va A_{\perp}) g-faktorlari (g_{\parallel} va g_{\perp}) tegishli parallel va perpendikulyar yo‘nalishdagi 4- va 5- liniyalar orasidagi masofadan topiladi (7.19 rasm), aks holda bu parametrlar spektrida yaxshi ajralgan liniyalardan topiladi. Ularning qiymatlarini hisoblash uchun quyidagi formulalardan foydalanamiz:

$$g = \frac{h\nu}{\beta \cdot H}$$

$$H_o = H_{(m)} + a \cdot m + \frac{a^2}{2H_{(m)}} [I(I+1) - m^2] + \frac{a^3}{4H_{(m)}^2}$$

Parallel yo‘nalishidagi g-faktor (g_{\parallel}) uchun:


$$H_o = H_{(m)} + A_{\parallel} \cdot m + A_{\parallel}^2 \cdot [I(I+1) - m^2] + 2H_{(m)}$$

Perpendikulyar yo‘nalishidagi g-faktor (g_{\perp}) uchun:

$$H_o = H(m) + A \cdot m + \frac{(A_{\parallel}^2 + A_{\perp}^2) \cdot [(I+1) - m^2]}{2H_{(m)}}$$

$H_{(m)}$ – magnit maydonidagi yadro m – proyeksiyasiga mos keluvchi liniyaning qiymati; ν – klistron chastotasi (MHz); I – yadroning to‘la spini; a , A_{\parallel} , A_{\perp} – yadroning O‘NT konstantalari.

Lekin EPR spektroskopiyasi usulining d¹-konfiguratsiyali paramagnit ionlar hosil qilgan muddalar xossa va tuzulishini o‘rganish bu bilan cheklanib qolmaydi. Buning dalili sifatida VO(II) ionining atsetatli tuzi tuzulishini aynan EPR usuli bilan aniqlanganligini keltirish mumkin.



7.19-rasm. $[VO(CN)_3]^{3-}$ -kompleks aninonininig KBr dagi magnit suyultirilgan monokristalining EPR spektri: \wedge - A_{\parallel} va \vee - B_{\perp} konstantalar.

Kimyoviy analiz va IQ spektroskopiya usuli bilan o'rghanish $VO[(CH_3COO)_2 \cdot 0,5H_2O]_n$ ($n=4$) tarkibli kompleks birikmada atsetat ionlar "ko'priksimon" bidentatli eritmasi xona haroratidagi EPR spektri 29 ta ekvidistant, lekin intensivliklari bir-biridan keskin farq qiluvchi liniyalardan iborat bo'lib, bu spektr uchun spin-gamiltonian ifodasi quyidagicha bo'ladi:

$$\mathcal{H} = g \beta H S_i + a_j S_i J_j b_j m_j \quad (7.14)$$

Bu tenglamadan har bir rezonans holat uchun to'g'ri keladigan maydon kuchlanishi quyidagicha topiladi:


$$H = H_0 - a_j m_j \quad (7.15)$$

bunda a_j – j ta yadroning O'NS konstantasi m_j – J_j spinlarning proyeksiyasi bo'lib, $y-J_j-J_j+...J_j$ qiymatlarini qabul qiladi va uning qiymati kompleks molekulasiga kirgan barcha magnit yadrolari yig'indisidan iborat bo'ladi.

(7.15) formulaga mos keluvchi 29 liniyadan iborat EPR spektri $n=2$ holat (dimer) O'NT konstantasi $a_1:a_2 = 3:1$; trimer ($n=3$)da $a_1:a_2:a_3 = 2:1:1$ va nihoyat, tetramer ($n=4$) uchun $a_1:a_2:a_3:a_4 = 1:1:1:1$ bo'lgan VO(II) birikmalarida kuzatilishi mumkin. Nazariy jihatdan bu moddalarning spektrlari faqatgina spektrdagи liniyalarning intensivliklari bilan farq qiladi. Lekin spektrdagи O'NT liniyalarning qisman bir-birini qoplashi tufayli liniyalar intensivliklarining o'zaro nisbatini eksperimental spektrdan aniqlab olishning imkoniyati yo'q. Bu muammoni yechishniq yagona yo'li $n=2, 3, 4$ qiymatlari uchun EHM da

nazariy EPR spektrlarini modellashtirish kerak bo'ladi. Nazariy spektrlar (7.15) ga ko'ra rezonans maydonda alohida o'tishlar mos keluvchi liniyalar ko'rinishini ifodalovchi funksiyalar yig'indisi holida tuzilgan. Suyiltirilgan eritmalarning EPR spektlari nazaryasiga ko'ra liniyalar ko'rinishining funksiyasi hosilalari olingan bo'lib, liniyalar kengligi eksperimental spektrdagi ($d=25$ e)ni tashkil etadi. O'NT konstantasi (a) ning qiymati a_2 kabi minimal bo'lib eksperimental spektrdagi ($a_2=27$ e) qiymatga teng. Bu qiymatlar asosida EHM yordamida ($n=2, 3, 4$, mos ravishda a, b, c) olingan nazariy spektr eksperimental (d) spektriga hech ham to'g'ri kelmaydi, bu narsa 7.20-rasmdan ham aniq ko'rini turibdi. Eksperimental olingan spektrdagi $n=3$ qiymatga ozgina to'g'ri keluvchi spektr yaqinroq bo'lsada, $n=4$ qiymatdagi nazariy spektr tajribada olingan spektrga aynan mos keladi. Bu atsetat tuzing klaster birikma va tetramer tuzilishli ekanligini isbotlaydi.


Shunday qilib, IQ-, EPR spekroskopiya usullari va EHM da EPR spektrlarni modellashtirish natijalarini umumlashtirib, organik erituvchilar va suvda yaxshi eruvchan vanadil(II)-atsetat tuzi tetramer kompleks birikma bo'lib, $[VO(CH_3COO)_2 \cdot 0.5H_2O]_4$ burchaklarida VO^{+2} ionlari, perimetr bo'yicha esa ikkitadan "ko'priksimon" funksiyali CH_3COO^- guruhlari tutgan tekis-kvadrat tuzilishli modda ekanligi



7.20-rasm.

$[VO(CH_3COO)_2 \cdot 0.5H_2O]_4$ kompleks birikanasining fazoviy tuzilishi.

aniqlangan (7.21-rasm) atomlar guruhining bosqichli kompleks hosil qilishini O'NT konstantasi qiymatining o'zgarishi bilan aniqlash juda qulay, chunki birinchidan, V(IV) ning EPR spektri O'NT konstantasiga ega, ikkinchidan, O'NT konstantasi qiymatining koordinatsion sferadagi atomlar tabiatiga o'zgarishi g-faktori qiymatining o'zgarishiga nisbatan ancha sezilarlidir.



7.21-rasm. Vanadil(II)-aisetatning dimer – (a), trimer – (b), tetrametr – (c) tuzilishiga to'g'ri keluvchi nazariy va eksperimental – (d) qayd qilingan EPR spektri.

d^1 -elektron tuzilishli paramagnit ionlar, ayniqsa V(IV) ionining o'ziga xosligi shundaki, bu ion atrofida uni bevosita qurshab turgan atom yoki atomlar guruhining bosqichli kompleks hosil qilishini O'NS konstantasi qiymatini o'zgarishi bilan aniqlash juda oson va qulay, chunki birinchidan, V(IV) ionining

EPR spektri O'NT konstantasiga ega, ikkinchidan O'NT konstantasi qiyamatining koordinatsion sferadagi atomlar tabiatiga bog'liqligi g-faktor qiyatinig o'zgarishiga qaraganda ancha sezilarlidir. Shu bilan birgalikda Cr(V) va Mo(V) ionlaridagi singari V(IV) ioni O'NT konstantasi qiyati uchun ham additivlik qoidasi o'z kuchiga ega. Ya'ni, elektron-yadro o'zaro O'NT ning izotrop konstantasi V(IV) ioni bilan bo'g'langan atomlar (ligandlar) maydonining qo'shadigan "hissasi" additiv bo'lib umumiy qiymat shu atomlar (ligandlar) qo'shgan "hissa"lari yig'indisidan iboratdir:

$$\alpha_{um} = \alpha_{VOL_4} = \alpha_{L_1} + \alpha_{L_2} + \alpha_{L_3} + \alpha_{L_4}$$

Buning sababi V (IV) ioni odatda vanadil(II) ioni $-VO(II)$ holida bo'lib, toq elektron $d_x^2 - y^2$ -orbitalda lokalashgani, ekvatorial tekislikning markazidagi vanadiy atomi bir oz yuqoriga "chiqib" turadi, chunki u aksial holatda kislород atomi bilan qo'sh bo'g' orqali ancha mustahкам bo'g'langan. Shuning uchun VO(II) ionini EPR spektrlarida kislородга nisbatan aksial holda biror atom (yoki ligand)ning birikishi yoki uning chiqib ketishi O'NS konstantasiga deyarli ta'sir etmaydi, ammo ekvatorial holatdagi donor atom (ligand)turi yoki tabiatining o'zgarishi va ayniqsa: $VO(H_2O)_4^{2+}$ dagi kislород atomlarining qavsdagi [-OH, -COOH, -OH, -OSO₂OH, -OPO(OH)₂] ligandlarga almashuv natijasida O'NS-ning qiyati biroz kamayib, g-faktor qiyatlari deyarli o'zgarmasdan qoladi. Agar VO(II) ioni deprotonlangan kislород atomlari, azot, oltingugurt atomlari bilan kimyoviy bog' hosil qilsa O'NS ning qiyati juda keskin o'zgarib (115 e dan 88 e gacha); g-faktoring qiyati esa $1,961 \pm 1$ dan $1,974 \pm 1$ gacha o'zgaradi. Umuman, shuni doimo eslab qolish kerakki, VO(II) atrofidagi donor xossasi katta bo'lган atomga almashinganda O'NS-ning qiyati kamayib, g-faktoring qiyati ortadi. EPR spektri avvalgisiga nisbatan kichrayib V=O bog'i va uning aksial simmetriyasi saqlanib qoladi.


VO(II) ionining O'NT konstantasi additivligi xossasidan foydalanib moddalar tuzilishi, reaksiyalar mexanizimi aniqlash

mungkin. Buning uchun $[VO(CH_3COO)_2 \cdot 0,5 H_2O]_4$ – suvetilendiamin (en) sistemasini tahlil etsak, vanadil(II)-atsetat tuzi suvda eritilsa, atsetonli eritmasidan farqli holda, spektr shakli odatdagidek 8ta liniyadan iborat EPR ($a=109$, $g=1,966$) spektrni beradi. Agar bu suvli eritmaga $[VO^{+2}]:[en]=1:1$ nisbatda qo'shilsa, cho'kma hosil bo'lib, uning izotrop spektrini yozib olishning imkoniyati bo'lmaydi, en miqdorining ortishi (1:2) cho'kma erib yangi spektr paydo bo'lishiga olib keladi ($a=101$ e; $g=1,969$) hamda en miqdorining ortishi (1:3) yangi linyalar ($a=101$ e; $g=1,970$) va nihoyat, (1:4)da – $a=93$ e; $g=1,972$ ni kelib chiqishiga sabab bo'ladi.


Parametrlarning bunday bir xil o'zgarishi $VO(II)$ ioni atrofidagi koordinatsion qurshov (uzel)ning o'zgarishi, aniqrog'i bosqichma-bosqich elektron donorlik xususiyati kuchsizroq bo'lgan atomlarning elektron donorlik tabiatini kuchli atomlarga almasbinuvidan dalolat beradi. Agar sistemada ligand vazifasini H_2O : CH_3COO^- ioni va en molekulasi bajarish mumkinligini e'tiborga olsak raqobat (konkurensiya) bo'layotganini ko'rish mumkin. Bu raqobatda qaysi molekula koordinatsion sferaga kirishini aniqlash uchun O'NT konstantasining additivligidan foydalaniлади.

Bunda $VO(II)$ ning ekvatorial tekisligidagi koordinatsion qurshovigakiruvchi har bir suv molekulasi ($a_{suv}=29$ e), har bir monodentat funksiyali karboksilat ioni ($a_{karb}=26,5$ e), en dagi har bir azot atomi ($a_N=23.8$ e) hissasini qo'shishini e'tiborga olib, $VO(CH_3COO)_2$ – suv-en sistemasida ikki yo'nalish bo'yicha o'zaro ta'sir ro'y berishi mumkin deb faraz qilaylik. Avval atsetat ionlarini, keyin suv molekularini bosqichma-bosqich en molekulari bilan siqib chiqarilishi (1-yo'nalish) sodir bo'ladi.

Birinchi yo'nalish:




Ikkinchchi yo'nalish:



mexanizmi to'g'ri keladi.

Bu yo'nalishlardan qaysi haqiqatga to'g'ri kelishini jadvalda keltirilgan nazariy hisoblangan EPR spektrlarining parametrlarini amaliy topilgan EPR qiymatlar bilan solishtirsak, 2-yo'nalish bo'yicha kimyoviy reaksiya borganligini, yani *en*-molekulalarini avval suv molekulalarini keyin atsetat anionlarini siqib chiqarishini aniq aytish mumkin.



7.8. d^9 konfiguratsiyali oraliq metallarning kompleks birikmalarining EPR spektrlari

Monoyadroli Cu(II) kompleks birikmalarini EPR spektrlari.

Tashqi elektron qavati d^9 konfiguratsiyali ionlardan Cu^{2+} komplekslari EPR spektroskopik tadqiqotlari ancha mukammal o'r ganilgan. ^{63}Cu va ^{65}Cu izotoplaridan tarkib topgan atomda yadro spini $I=3/2$ bo'lib, juflashmagan erkin elektron asosan $d_{x^2-y^2}$ orbitalida joylashgan. Bu ion polidentat ligandlar bilan tekis-kvadrat tuzilishidagi metallxelatlar hosil qiladi va Cu(II) atrofidagi atomlarning joylashuvi D_{4v} -simmetriya guruhiga mos keladi. Shu sababli spektrda ko'rinishi mumkin bo'lgan O'NS linyalar soni $(2n \cdot I_1 + 1) \cdot (2m \cdot I_2 + 1)$ formuladan topiladi: n , m -


yadrolar soni, I_i -birinchi yadroning spin, I_j -ikkinchi yadroning spin. Shu sababli spektrda qayd qilinishi lozim bo'lgan O'NT liniyalari soni $n=2\cdot I+1=2\cdot 3/2+1=4$ ta bo'ladi. Agar juftlashmagan elektron ikki xil yadro bilan o'zaro spin-spin ta'sirlashsa, unda EPR spektrida kuzatish mumkin bo'lgan chiziqlar soni $(2n\cdot I_i+1)\cdot(2m\cdot I_j+1)$ formuladan topiladi: n, m – yadrolar soni, I_i - birinchi yadroning spin, I_j - ikkinchi yadroning spin. Endi signallarning intensivligini tahlil qiladigan bo'lsak, 7.12-rasmda ko'rsatilganidek, bitta azot atomi yadrosining juftlashmagan elektron bilan spin-spin o'zaro ta'siridan uchta (1:1:1 nisbatdaagi intensiv liniyadan iborat) qo'shimcha O'NS signallari kuzatilishi lozim edi. Metall halqada bir-biriga *trans*-holda joylashgan ikki ekvivalent azot atomlari yadrosidan intensivlik nisbatlari 1:2:3:2:1 bo'lgan beshta ekvidistant O'NS chiziqlari kuzatiladi (7.12-rasm).

	I	I	I	A
I	II	III	II	I
a_N	a_N	a_N	a_N	B

7.12-rasm. Mis(II) ioni juftlashmagan elektronining azot atomi yadrosi bilan o'zaro ta'siri natijasidagi QO'NS (1:1:1 nisbatdag'i triplet chiziqlar) – (A), ikkinchi azot atomi ishtirokidagi qo'shimcha O'NS (1:2:3:2:1 nisbatdag'i beshta chiziqlar) – B spektr chiziqlariga parchalanishi.

Masalan, Cu(II) ionining atseton tiobenzoilgidrazoni bilan hosil qilgan tekis-kvadrat tuzilishdagi (I) kompleks birikmasida misning $d_{x^2-y^2}$ -orbitalidagi juftlashmagan elektroni bitta mis yadrosi ($I_{Cu}=3/2$) va ikkita ekvivalent azot yadrolari ($I_N=1$) bilan o'zaro ta'sir qiladi. Atseton tiobenzoilgidrazoni bilan mis(II)-atsetatining spirtdagi eritmalarining 2:1 molyar nisbatda o'zaro ta'sirlashuvidan olingan kompleks birikmasining (I) EPR spektrida mis yadrolari bilan elektronning ta'sirlashuvidan kuzatilgan to'rtta chiziqlarining ikkitasidan juftlashmagan elektronning azot atomi yadrolari bilan o'zaro ta'siridan beshtadan signallarga bo'linadi va ular qo'shimcha O'NS (QO'NS) liniyalari deyiladi (7.13-rasm, a). EPR spektrining uchinchi va to'rtinchi O'NS liniyalarida intensivliklari 1:2:3:2:1

nisbatdagi beshta qo'shimcha O'NS liniyalari qayd etiladi. (bu kompleks uchun EPR spektri parametrlari: $g_{cu}=2,096$; $a_{cu}=89$ e; $a_{N1}=15,7$ va $a_{N2}=7,9$ e.



Mis(II) ioni komplekslarining toluol eritmasidagi EPR spektrlaridan [spektroskopning mashtab belgilaridan foydalanib ($S_h=100:30=3,33$ e/mm), VO(II) kompleksi uchun bajarganimizdek] O'NS konstantasi va g-faktor izotrop qiymatlarini aniqlash uchun spektrdagи to'rtta chiziqdан 2 va 3 liniyalari maksimum nuqtalari uchun H_2 va H_3 magnit maydon qiymatlarini topamiz:

$$H_2 = 3325 - 3,33 \cdot 40,2 = 3325 - 134 = 3191 \text{ e}$$

$$H_3 = 3325 - 3,33 \cdot 17,6 = 3325 - 58,7 = 3266,3 \text{ e}$$

$$a_{cu} = H_3 - H_2 = 3266,3 - 3191 = 75,3 \text{ e}$$

$$H_{2,3} = \frac{H_3 + H_2}{2} = \frac{3266,3 + 3191}{2} = 3228,7 \text{ e}$$


$$g_{komp} = \frac{H_{DFPG} + g_{DFPG}}{H_{2,3}} = \frac{3325 \cdot 2,0036}{3228,7} = 2,064$$

Endi trans-[N₂S₂]koordinatsion markazdagi azot atomlaridan qayd etilgan qo'shimcha O'NS konstantasi qiymatlarini topamiz. Buning uchun spektrdagи kuchli maydonda joylashgan to'rtinchи liniyadagi beshta istalgan qo'shimcha O'NS chiziqlaridan absissa o'qiga perpendikulyar tushirib H qiymatni topishimiz lozim.

$$a_N = \Delta H \cdot S_h = 3,5 \cdot 3,33 = 11,66 \text{ e}$$

EPR spektri parametrlari tekis-kvadrat *trans*-[N₂O₂] konfiguratsiyali Cu(II) komplekslarida kislород atomi o'miga kiritilgan oltingugurt atomining kislородга nisbatan kuchli elektron akseptorligi va ion radusining kattaligi tufayli *trans*-[N₂S₂] koordinatsion markazi tetraedrik konfugratsiyaga

o'tganligini ko'rsatadi. Atsetilatseton benzoilgidrazoni va mis(II)-atsetatning ammiakli eritmasining 1:1 nisbatda ta'sirlashuvidan olingan kompleks birikmasining (II) (7.13-rasm, b)dastlabki modda (I) EPR spektridan (7.13-rasm, a) keskin farq qiladi.



7.13-rasm. Mis(II) ionining atseton tiobenzoilgidrazoni(I) bilan – (a) va atsetilaseton (pentandion-2,4) benzoilgidrazoni(II) bilan – (b) hosil qilgan komplekslari toluldagi eritmalarining xona haroratida olingan EPR spekrlari.



Spektrning kuchli maydonda joylashgan intensivligi katta to'rtinchli komponentida ikkita azot atomlarining qo'shimcha o'ta nozik strukturasi (QO'NS) shakli spektrning yomon ajralishini va uning to'qqizta noekvivalent chiziqlari borligini ko'rsatadi. (II) kompleks birikmaning EPR spektri parametrlari ($g=2,097$;

$a_{\text{Cu}}=89$; $a_{\text{N}}=15,6$ e; $a_{\text{N}}=8,7$ e) avvalgi (I) kompleks birikma parametrlaridan g-faktor va a_{Cu} qiymatlarining oshgani va azot atomlari QO'NT konstantalarining ikkiga ajralishi bilan farq qiladi. Bu hodisa mis(II) ioni kompleks birikmasi koordinatsion qurshovidagi ikkita azot atomlarining o'zaro noekvivalentligini isbotlaydi. Mis(II) ioni komplekslari uchun koordinatsion markazdagi donor atomlari tabiatini o'zgarishi EPR spektri yordamida osonlik bilan aniqlanadi. 7.13-rasm (b) qismida mis(II) ionining atsetilatseton benzoilgidrazoni bilan hosil qilgan kompleks birikmasi (II) toluoldagi eritmasining xona haroratidagi EPR spektri ko'rsatilgan.

Bu birikmada 5- va 6-a'zoli tutash metallhalqlar kompleksining tekis-kvadrat tuzilishini ta'minlaydi. Koordinatsion markazdagi trans-[N_2O_2] donorlardan azometin guruhining azot atomi va ammiak molekulasi dagi azot atomlari o'zaro ekvivalent emas.

Ayrim hollarda Cu(II) ioni komplekslarda xelat hosil qiluvchi polidentat ligandlarning tarkibiga har xil funksional o'rinnbosarlarning kiritilishi uning EPR spektri tabiatini (ko'rinishini) o'zgartirib yuboradi. 7.14-rasmida Cu(II) ionining triftoratsetilatseton benzoilgidrazoni va dimetilgidrazoni ligandlari bilan hosil qilgan komplekslarning (III va IV) xloroformdagi eritmasi EPR spektrlari keltirilgan. III modda EPR spektrida (7.14 rasm, a) Cu(II) ioniga tegishli to'rtta O'NS chiziqlari ko'rinsa ham, markaziy ion bilan bog'langan azot atomlaridan juda kuchsiz qo'shimcha O'NS chiziqlarining yomon ajralishi kuchli elektonoakseptor CF_3 -guruhi tarkibidagi elektromanifiy ftr atomlari ta'siri oqibatida bu signallarning kengayishi bilan tushintirish mumkin. Komplekslarning tekis-kvadrat konfiguratsiyasi saqlanganligi haqida EPR spektrning parametrlari ($g=2,097$; $a_{\text{Cu}}=86,5$; $a_{\text{N}}=9,3$ e) dalolat beradi. IV modda sintezida Cu(II) ioni ikki molekula bidentat ligand bilan reaksiyaga kirishib kompleks birikma hosil qiladi. Ikkiti 6-a'zoli metallxelatlar ligand tarkibidagi sterik jihatdan katta CF_3 -va $(\text{CH}_3)_2\text{N}^-$ -guruhlari ta'siri

natijasida fazoda tetraedrik konfugratsiyali kompleks hosil bo'lishiga olib keladi.




7.14-rasm. Mis(II) ionining trifloroasetilseton benzoilgidrazoni bilan (III) – (a) va dimetilgidazonibilan (IV) – (b) hosil qilgan kompleks birikmalari tolouoldagi eritmalarining xona haroratidagi EPR spektrlari.

EPR spektri shakli (7.14 rasin, b) va parametrlari ($g=2,124$; $a_{\text{cu}}=48,6$ e) avvalgi modda (III) EPR spektridan (7.14 rasm, a) farq

qiladi. EPR spektri shakli (7.13 rasm, b) va parametlari ($g=2,124$: $a_{cu}=48,6$ e) avvalgi modda (I) EPR spektridan (7.13-rasm, a) keskin farq qiladi. Spektr shakli va parametrlarning bir xildagi o'zgarishini (g -faktoring ortishi, O'NS konstantasining kamayishi) faqatgina hajnli o'rribosar guruhlarning ta'siri bilangina tushuntirish yetarli emas. Bunda 3s-orbitallari diffuziyalanishi ortib, $4s^1$ -elektroni $3s^1$ -elektroniga nisbatan kuchliroq qutblanadi. Ichki 3s-qobiqchadagi elektron qutblanishining pasayishi markaziy ion yadrosi yaqinida uning zichligini kamaytiradi va pirovard natijada O'NS konstantasi qariyb 2 marta kichrayadi.


Ayrim hollarda EPR spektrlarining parametrlarini kompyuter yordamida hisoblash natijalar aniqligini va ishonchlilikini oshiradi, turli elektronondonor va elektronakseptor o'rribosarlar ta'sirini o'rganish osonlashadi. Shunday ma'lumotlarga ega spektr namunasini keltirish fikrimizni isbotlaydi. 7.15-rasmda mis(II) ning benzoiltrifitoratsetil-metan benzoilgidrazoni (V) bilan sintez qilingan ammiakli kompleks birikmasining toluoldagi eritmasi EPR spektrining eksperimental qayd qilingan va EHM yordamida nazariy tuzilgan spektrlar tasvirlangan.



7.15-rasm. Benzoiltrifitoratsetilmelan benzoilgidrazoni asosida sintez qilingan mis(II) kompleks birikmasi ($CuL \cdot NH_3$) toluoldagi eritmasidan olingan eksperimental spektri – (1) va EHM yordamida nazariy tuzilgan EPR – (2) spektrlari.

Biyadroli Cu(II) kompleks birikmalari EPR spektrlari

Mis(II) ioni bilan β -dikarbonil birikmalarning dikarbon kislota digidrazonlari asosida olingan qo'sh yadroli (geksadentatli) bir molekula ligand tarkibidagi ikkita tridentatli fragmentlari bilan ikkita metal atomi uchtadan koordinatsion bog' yordamida kompleks hosil qiluvchi markaziy ion vazifasini bajaradi) kompleks birikmalar – (VI) EPR spektroskopiya va magnitkimyoviy usullar bilan o'r ganilganda nazariy jihatdan o'ta muhim va qiziqarli natijalar olindi. Bunday kompleks birikmalarda g-faktori qiymati o'zgarsa ham, O'NS konstantasining ikki marta kamayishi qayd qilingan.




VI

$n = 0, 1, 2, 3, 4, 6, 8$; $R = CH_3, C_6H_5, C(CH_3)_3$.

Komplekslarning bunday tuzilishi EPR spektroskopik tadqiqotlardan tashqari rentgenostrukturaviy analiz usuli bilan ham isbotlangan. Bu kompleks birikmalarning toluol va xloroformdagи eritmalarida olingan EPR spektrlari (7.16-rasm) to'rtta o'miga yettita O'NS chizig'idan iborat bo'lib, bu liniyalar intensivliklarining nisbati 1:2:3:4:3:2:1 kabi va spektr parametrlari: $g=2,095$; $a=46$ e ga teng. To'rtta o'miga yettita O'NS liniyalar molekula ichidagi ikki mis atomlari orasida antiferromagnit o'zaro ta'sirlashuv borligini bildiradi. Tajribada olingan EPR spektrlari (7.16-rasm) EHM yordamida tuzilgan nazariy spektrlar bilan solishtirganda ikki mis atom orasidagi antiferromagnit o'zaro almashinish monoyadroli kompleks fragmentlarini tutashtiruvchi $(CH_2)_n$ polimetilen zanjiri σ -bog'lari

orqali amalga oshishi isbotlandi va bu bog'lar sistemasida polimetilen zanjirining ortib borishi antiferromagnit elektron almashinuv tabiatining pasayishi aniqlangan.

Haqiqatan ham, bu ilmiy-tadqiqot ishlarining yutuqlari shundaki, elektron buluti zichligining faqat π -bog'lar orqali emas, balki to'yigan uglevodorod radikalidagi σ -bog'lari vositasi bilan ham uzatish mumkinligi isbotlandi va olimlar jamoatchiligi tomonidan e'tirof etildi.



7.16-rasm. Har xil $(CH_2)_n$ – zvenosi bilan bog'langan qo'sh yadroli Cu(II) kompleks birikmlarini (VI) toluoldagi eritmalarining xona haroratidagi EPR spektrlari $n = 1 - (a)$, $2 - (b)$, $4 - (c)$, $8 - (d)$.

Nazorat savollari

- 1.Qanday ionlarning kompleks birikmalarini EPR spektroskopik tadqiqot usuli bilan o'rghanish mumkin?
- 2.Qaysi hollarda magnit maydonidagi elektronning pog'onachalari quyi va yuqori energetik holatlarga ajraladi?
- 3.EPR spektrlarining Lorens va Gauss shakli bir-biridan qanday farqlanadi?
- 4.Spin-gamil'tonian mohiyatini tushuntiring .
- 5.EPR spektrlarida O'NS chiziqlarining yaxshi va yomon ajralishi nima bilan belgilanadi?
- 6.Paramagnit ionlarning spektrlari eritmada izotrop va "muzlatilgan shisha" yoki kukun holida anizatrop xarakterga ega, buning mohiyatini izohlang .
- 7.EPR spektroskopiyasida etalon sifatida ishlataladigan difenilpikrilgidrazil (DFPG) radikalining spektridan kukun holida yagona singlet va ksiloldagi suyultirigan ($C=10^{-3}$ M) eritmasidan 1:2:3:2:1 nisbatdagi beshta O'NS chiziqlari qayd etiladi. Buning sababi nimada deb fikrlaymiz?
8. $[Co(H_2O)_6]^{3+}$ va $[Cr(H_2O)_6]^{3+}$ kompleks ionlarining eritmadagi EPR spektrlarida O'NS chiziqlarining soni qancha?
- 9.EPR spektrlari mohiyatini tushuntirish uchun qanaqa parametrlardan foydalanasiz?
- 10.Metall ionlarining EPR spektridagi g-faktor qiymatlari erkin elektronning g-faktori qiymatidan ba'zan kichik ($g_V=1,975$) va aksincha ba'zi hollarda kattaroq ($g_{Cu}=2,064-2,124$) bo'ladi. Bu hodisani qanday izohlaysiz?
- 11.Paramagnit zarrachalardagi juftlashmagan (toq) elektronlar soni EPR spektrilari ko'rinishiga ta'sir etadimi?
- 12.Mis(II) ionining koordinatsion sferasi (qurshovi) $Cu[N,O_3]$ dan $Cu[N_2,O_2]$ gacha o'zgarsa, EPR spektrining shakli qanday o'zgaradi?
- 13.Mis(II) ioni koordinatsion sferasining fazoviy tuzilishini EPR spektri yordamida aniqlash mumkinmi?

Masala va mashqlar

1-masala

Benzoilatseton benzoilgidrazoni asosida olingan ammiakli mis(II) kompleks birikmasining xona haroratida, xloroform eritmasida olingan to'rtta maksimumlardan iborat EPR spektri ko'rsatkichlari quyidagicha: a) eritma spektri masshtabi $S_H=1,57$ e/mm; $H_1=3047,89$ e; $H_2=3136,89$ e; $H_3=3228,26$ e; $H_4=3321,8$ e; $H_{DFPG}=3327$ e; $g_{DFPG}=2,0036$ bo'lsa, shu kompleks birikina uchun g-faktor va o'ta nozik ta'sir ($O^{\cdot}NT$) konstantasi qiyamatlarini hisoblab toping.

2-masala.

Yuqorida EPR spektri parametrlari aniqlangan kompleks birikina tarkibidagi mis(II) ioni koordinatsion qurshovida ikkita o'zaro noekvivalent azot atomlari joylashgan. Spektrda har ikki noekvivalent azot atomlaridan alohida-alohida to'qqizta qo'shimcha $O^{\cdot}NT$ chiziqlari qayd etildi. Masshtab lineykasi yordamida aniqlanishiga ko'ra $l_{N_1}=8,93$ mm, $l_{N_2}=5,006$ mm. Bu qiyatlardan foydalanib, qo'shimcha $O^{\cdot}NT$ konstantasi kattaliklarini toping.


3-masala

Benzoilatseton benzoilgidrazoni asosida olingan ammiakli mis(II) kompleks birikmasining xona haroratida, piridindagi eritmasida olingan EPR spektri ko'rsatkichlari quyidagicha: a) eritma spektri masshtabi $S_H=1,575$ e/mm; $H_1=3048,90$ e (yomon ajralgan); $H_2=3122,84$ e; $H_3=3196,85$ e; $H_4=3274,03$ e; $H_{g_{Cu}}=3161,04$ e; $H_{DFPG}=3326,80$ e; $g_{DFPG}=2,0036$; $l_N=10$ mm bo'lsa, shu kompleks birikma uchun g-faktor, mis(II) ioni uchun $O^{\cdot}NT$ (α_{Cu}) va koordinatsion bog'langan azot atomi uchun qo'shimcha $O^{\cdot}NT$ ($QO^{\cdot}NT$) konstantalari (α_N) qiyamatlarini hisoblab toping.

4-masala

Benzoilatseton monoooksimi mis(II) ioni bilan o'zaro 2:1 nisbatda reaksiyaga kirishib, quyidagi tuzilishga ega bo'lgan kompleks birikna hosil qildi:

Uning xona haroratida, toluoldagi eritmasida olingan EPR spektrida Cu(II) ioniga xos to'rtta O'NT konstantalari va ikkita o'zaro ekvivalent azot atomlaridan 1:2:3:2:1 nisbatdagi beshta liniyadan iborat qo'shimcha O'NT konstantalari qayd qilindi.



Berilgan qiymatlardan foydalanib, spektr parametrlarini hisoblab toping: $S_H=1,56$ e/mm; $H_1=3000,89$ e; $H_2=3094,64$ e; $H_3=3189,64$ e; $H_4=3285,71$ e; $H_{DFPG}=3327$ e; $g_{DFPG}=2,0036$; $h_N=9$ mm.

5-masala.

Benzoilatseton bilan malon kislota digidrazidining 2:1 nisbatda kondensatlanish mahsuloti asosida olingan gomobiyadroli mis(II) kompleks birikmasining xona haroratida, toluoldagi eritmasida olingan EPR spektrida to'rtta o'rniga yettita O'NT konstantalari qayd qilindi. Har bir O'NT konstanta maksimumlari qiymatlari o'lchab topildi: $H_1=3044$ e; $H_2=3040,3$ e; $H_3=3135,0$ e; $H_4=3180,6$ e; $H_5=3226,86$ e; $H_6=3271,6$ e; $H_7=3320,3$ e; $H_{DFPG}=3324,6$ e; $g_{DFPG}=2,0036$. Shu qiymatlardan foydalanib, kompleks birikma EPR spektrining parametrlarini aniqlang.

A d a b i y o t l a r

1. Маров И.Н. Костромина Н.А. ЭПР и ЯМР в химии координационных соединений.- М.: Наука.- 1979.- 267 с.

2. Ракитин Ю.В., Ларин Г.М., Минин В.В. Интерпретация спектров ЭПР координационных соединений.- М.: Наука.- 1993.- 399 с.
3. Калинников И.Т., Ракитин Ю.В. Введение в магнетохимию.- Москва.- Наука.- 1980.
4. Умаров Б.Б. Физикавий тадқиқот усуллари, маъruzалар конспекти.- БухДУ.- Зиё-Ризограф.- 2000.- 187 б.
5. Умаров Б.Б., Мардонов Ў.М. Координацион бирикмаларнинг ЭПР спектроскопияси.- Ўқув-услубий кўлланма.- Бухоро.- 1998.- 45 б.
6. Зоркий П.М. Симметрия молекул и кристаллических структур.- М.: Изд-во МГУ.- 1986.
7. Пентин Ю.А., Вильков Л.В. Физические методы исследования в химии.- М.: Мир.- 2003.- 683 с.
8. Драго Р. Физические методы в химии.- М.- Мир.- в 2х томах.- 1981.

VIII BOB. MYOSSBAUER SPEKTROSKOPIYASI (YADRO GAMMA-REZONANS SPEKTROSKOPIYASI YOKI γ -REZONANS FLUORESSENSIYA HODISASI)

Reja:

- 8.1. *Yadro kvadrupol rezonans spektroskopiyasi haqida tushuncha*
- 8.2. *Myossbauer spektroskopiyasining unumiy tasnifi*
- 8.3. *Myossbauer spektralarining parametrlari*
- 8.4. *Myossbauer spektroskopiyasining kimyoda qo'llanishi*
- 8.5. *Dinamik effektlar*
- 8.6. *^{57}Fe izotopining magnit maydonidagi parchalanishi*
- 8.7. *Eksperiment o'tkazish texnikasi*
- 8.8. *Nazorat savollari*
- 8.9. *Adabiyotlar*

Tayanch atamalar

Yadro kvadrupol rezonans (YaKR) spektroskopiyasi. Kvadrupol parchalanish. Gamma nurlar. Yadro γ -rezonans (YaGR) spektroskopiyasi. Radioaktiv parchalanish. Elektr kvadrupol momenti (eQ). Doppler (siljish) effekti. Yadroning qaytarish energiyasi. Izomer siljish.

8.1. Yadro kvadrupol rezonans spektroskopiyasi haqida tushuncha

Modda yadrosining γ -kvant energiyasini yutib, energetik o'tishini anglashdan, avval, yadro elektr maydoni va uning xususiyatlari haqida tushuncha berishni lozim deb topdik. Yadroning elektr kvadrupol momenti (eQ) yadrodagи elektr zaryadi taqsimotining sferik simmetriyadan og'ish kattaligini anglatadi. Bu tushuncha haqida tasavvurga ega bo'lish uchun to'rt xil yadro shakllarini (8.1-rasm) ko'rib chiqamiz. Agar yadroning yig'indi spinii (I_A) va, tegishlicha, uning magnit momenti μ_n nolga teng bo'lsa (8.1-rasm, a), yadro zaryadining tarqalishi sferik simmetriyaga ega bo'lib, uning kvadrupol momenti ($eQ=0$)

bo'lmaydi. Agar $eQ=0$, $I_s = \frac{1}{2}$ va $\mu_n \neq 0$ bo'lganda ham zaryad taqsimoti sferik holda qoladi (8.1-rasm, b). Mabodo $I_s=1$ ($\mu_n \neq 0$) bo'lsa, bu holda yadro zaryadi taqsimotining sferik simmetriyasi buziladi, va natijada elektr kvadrupol momenti ($eQ \neq 0$) paydo bo'ladi. 8.1-rasm, c, d shakllardagi yadrolarning $eQ > 0$ va $eQ < 0$ hollari namuna sifatida keltirilgan: c-holda yadro dagi zaryad taqsimoti spin o'qi bo'yicha yo'nalgan (masalan, ^{14}N yadrosi uchun $eQ=0,019$ barn), d-shakldagi namunada (^{35}Cl yadrosi uchun $eQ=-0,082$ barn) zaryad taqsimoti perpendikulyar yo'nalgan bo'ladi.




a



b



c



d

8.1-rasm. Har xil yadrolarning sifat ko'rinishlari: a, b – kvadrupol bo'lmagan yadrolar, $eQ=0$ ($a - I=0$, $\mu_n=0$; b – $I=\frac{1}{2}$, $\mu_n \neq 0$). c, d – kvadrupol yadrolar, $eQ \neq 0$ (c – $eQ > 0$, $I \geq 1$, $\mu_n \neq 0$; d – $eQ < 0$, $I \geq 1$, $\mu_n \neq 0$).

Kvadrupol moment o'lchami umumiy holda zaryad qiymatini masofa kvadratiga ko'paytirish bilan aniqlanadi, o'lchov birligi sifatida *barn* qabul qilingan ($1 \text{ barn} = 10^{-28} \text{ m}^2$). Element atomlari uchun aniqlangan barcha yadro kvadrupol momentlari uncha katta bo'maydi va $-2 < eQ < +10$ barn chegarasida bo'ladi. Yadro kvadrupol (YaKR) effekti cheklangan elementlar yadrosi va ularning izotoplari uchun qayd etilgan. Ular orasida ko'p tarqalgan elementlar B, N, Cl, Br, I, Al, Cu, As, Sb yadrolarini misol keltirish mumkin. Bu elementlarning ham barcha birikmalaridan YaKR spektrlarini qayd qilish imkonii yo'q.

Sferik simmetriyasi bo‘limgan molekula yadrolarining elektron qurshovi bir jinsli bo‘limgan elektr maydoni hosil qiladi, bu esa yadro atrofidagi elektr maydoni kuchlanishining gradiyenti bilan xarakterlanadi. Elektr kvadrupol momentiga (eQ) ega yadro o‘zining maydon gradiyenti (eq) bilan o‘zaro ta’sirlashadi. Yadro kvadrupol ellipsoidal oriyentatsiyasi elektr maydon gradiyenti tenzorining asosiy o‘qlari sistemasi bilan bunday o‘zaro ta’sir energiyasi kvadrupol ta’sir konstantasi (e^2qQ) miqdorini belgilaydi. Musbat zaryadli yadro maydonida uning atrofida aylanayotgan elektron energiyasi kvantlanganidek, kvadrupol o‘zaro ta’sir energiyasi ham kvantlanadi. Bu energetik darajalar (pog‘onalar) har qaysi molekula uchun xos bo‘ladi, ya’ni uning xususiyatlarini belgilaydi. YaKR hodisasidan farqli ravishda YaMR va EPR spektroskopiyasida yadro va elektronlarning zeyeman energetik pogonachalari faqat tashqi magnit maydoni ta’sirida vujudga kelishini ilgari ko‘rib chiqqan edik.


Yadroning elektr kvadrupol momenti (eQ) ga bog‘liq bo‘lgan energiyalari va bir jinsli bo‘limgan (eq) elektr maydoni gradiyentlari energiyasi farqi uncha katta bo‘lmasdan, ular orasidagi o‘tishlar 10^4 - 10^9 Hz chastotalar diapazoniga mos keladi. YaKR hodisasini bevosita aniqlash usullari 2 MHz dan katta chastotalarda olib boriladi. Kvadrupol o‘tishlar orasidagisochilgan nuring yutilishi faqat qattiq fazadagi moddalarda kuzatiladi.

Odatda, yadro kvadrupol momentlari qiymati ma’lum bo‘lib, YaKR tajribalari o‘zaro kvadrupol o‘tishlar va kvadrupol ta’sir konstantalarini aniqlashga yo‘nalgan. Masalan, o‘rganiladigan atom bilan bog‘larning ionlik darajasi qancha katta bo‘lsa, maydon gradiyenti va e^2qQ shuncha kichik bo‘ladi. Kimyoviy bog‘ning kovalentlik darajasi qancha katta bo‘lsa, kvadrupol o‘zaro ta’sir konstantasi shuncha katta bo‘ladi.

8.2. Myossbauer spektroskopiyasining umumiylashtirilishi

Myossbauer spektroskopiyasi moddalar yadrolarining γ -nur yutishi natijasida sodir bo‘lgan energetik o‘tishlarni o‘lchaydi.

Ilgari tahlil etilgan spektrlardagidek, yadrolarda γ -nurlarning yutilishi ularning energiyasi bilan yadrolarning o'tishlaridagi energetik farq kvantlari mos kelsagina ($\Delta E = h\nu$) kuzatiladi. O'z-o'zidan ma'lumki, biror (A) modda radioaktivlik oqibatida γ -kvant chiqarib ikkinchi (B) izotopga aylansa, o'z navbatida (B) izotop γ -kvant yutib (A) izotopga o'tishi mumkin:



1958-yilda γ -rezonans yadro fluoressensiyasi effekti Myossbauer tomonidan aniqlandi, ya'ni yadro o'tishlarida energiya sarflanmasdan γ -kvant sochilishi yoki yutilishi mumkin. Har doim myossbauer effektini aniqlashda bir qator yadro sistemalarining o'ziga xosligi xalaqit beradi:

- energetik o'tishlar orasidagi farq juda kichik;
- yadrolarning o'z harakati oqibatida spektr chiziqlari kengayadi, ya'ni Doppler effektining mavjudligi;
- yadrolarning qaytarish energiyasi.

Myossbauer spektroskopiyasida yadrolarning energiya yutib o'tishlari oqibatida ularning yadro spinii kvant soni (I) o'zgaradi. Bu usulning imkoniyatlari katta bo'lgani ushun stereokimyoiy muammolarni hal etishga muvaffaqiyat bilan qo'llanilmoqda.


Biz o'rganayotgan sistema γ -nur sochuvchi manba va shu nurni yutadigan moddadan iborat bo'lsin. Sistemada γ -nurmning energiyasi (E_γ) $10\text{-}100$ keV oralig'ida yoki $\sim 10^4\text{-}10^5$ eV bo'ladi, bu energiyaning chastotasi $10^{12}\text{-}10^{13}$ MHz ($10^{-7}\text{-}10^{-9}$ sm $^{-1}$) (8.2-rasm):

$$E_\gamma = E_R + D - R$$

E_R – nurlangan modda yadrosining asosiy va qo'zg'algan holatlari orasidagi energiya farqi,

D – Doppler siljishi,

R – yadroning qaytarish energiyasi.



8.2-rasm. Qo'zg'algan (uyg'ongan) va asosiy (uyg'onmagan) holatdagi yadrolar-ning γ -kvantlar (erkin atomlar) bilan o'zaro ta'sir sxemasi.

Doppler effekti yoki Doppler siljishi jarayonida γ -nurlarni sochayotgan ham va shu nurni yutadigan yadrolar ham ϑ -tezlik bilan doimo harakatda bo'ladi. Agar γ -nur manbayining harakat yo'nalishi va sochilish yo'nalishi bir xil bo'lsa, γ -nurlar energiyasiga qo'shiinchcha energiya qo'shiladi, agar yo'nalishlar qarama-qarshi bo'lsa, energiya miqdori kamayadi:

$$h\nu' = E \left(1 + \frac{\vartheta}{c} \right) \quad \text{yoki} \quad h\nu'' = E \left(1 - \frac{\vartheta}{c} \right)$$

Umumiy holda γ -nur manbayi hisoblangan yadrolar uchun:

$$\Delta\nu = \frac{\vartheta}{c} \cos\theta$$

Doppler siljishining mohiyati shundan iboratki, sochilayotgan γ -nurlar kvant energiyasi D – dispersiya qiymatiga ega:

$$D = \frac{2\vartheta}{c} E$$

Yadrolarning γ -nur ta'sirida energetik o'tishlarini ularning dispersiyasi va liniyalar kengligi (G) orasidagi o'zaro nisbatlari belgilaydi. Namuna yadrolari uchun $D \sim 10^{-2}$ eV bo'lsa $G = 2,4 \cdot 10^3$ eV ga teng bo'ladi. γ -rezonans spektrlarini kuzatishning ikkinchi qiyin tomoni shundan iboratki, Doppler zichligidan tashqari sochilgan γ -nurlarning bir qism energiyasi shu nur manbai yoki nur yutuvchi modda yadrolarining qaytarish energiyasi (R) ga sarflanadi:

$$R = \frac{E^2}{mc}$$

Qaytarish energiyasi γ -rezonans energiyasi kvadratiga to‘g‘ri proporsional va yadro massasiga teskari proporsional bo‘lgani uchun, spektrning optik sohasidan γ -nurlar sohasiga o‘tganimizda uning energiyasi keskin ortadi.

- optik soha uchun $R \approx 10^{-10}$ eV

- γ -nur uchun $\approx 10^{-3}$ ev ya’ni $R \gg G$

Doppler effekti va qaytarish energiyasi quyidagicha bog‘liq:


$$D = 2 R \cdot k \cdot T$$

Qaytarish energiyasining liniyalar kengligida katta farq qilishi ($R \gg G$) Doppler effekti hisobidan γ -nurlanish va yutilish chiziqlarining o‘zaro bir-biri bilan ustma-ust tushishiga olib keladi va rezonans effekti kuzatiladi. Doppler siljishi moddaning issiqlik harakatiga bog‘liq bo‘lgani uchun ($kT = \frac{mv^2}{2}$) γ -nurlar manbayi va energiya yutuvchi moddalarni sovutish Doppler siljishini pasaytiradi. Agar $T=0$ bo‘lsa, $D=0$ bo‘ladi va atom yadrosi kristall panjarada biriktirilgan bo‘lsa, qaytarish energiyasining qiymati ($R=0$) ham nolga yaqinlashadi. Bu xulosalardan ma’lum bo‘ladiki, moddalarda γ -rezonans spektrlari asosan qattiq jismlar uchun past haroratda kuzatiladi (8.3-rasm).


Myossbauer effektini (γ -rezonans spektrlar) kuzatish uchun Doppler effektini qayd qiluvchi zamonaviy uskunalar qo‘llanilmoqda. Bunda tekshiriladigan modda γ -nur sochadigan moddaga nisbatan harakat qiladi. Harakat paytida rezonans sharoiti yaratiladi va rezonans fluoressensiya kuzatiladi. Detektor sifatida fotoelektron kuchaytirgich ishlataladi. Shunday qilib, rezonans fluoressensiyaning moddadan o‘tgan γ -kvantlarning yutilish energiyasi yoki shu modda tezligiga (ϑ) bog‘liqligini aniqlash Myossbauer spektroskopiyasining eksperimental usuli hisoblanadi.

Myossbauer spektrlari ko‘pgina yadrolar uchun kuzatilgan. Ammo ko‘pincha izlanishlar ^{117}Sn va ^{57}Fe yadrolarida olib

boriladi. Moddaning γ -kvantli nur yutishida yadro bilan uning atrofidagi kimyoviy qurshov orasidagi quyidagi o'zaro bog'lanishlar ta'sir etadi:



(a)



(b)

8.3-rasm. Nurlangan va yutilgan γ -kvantlarning energetik taqsimoti: a—erkin atomlar uchun, b—past haroratda kristall panjaradagi yadrolar uchun.

1.Elektron qurshovning o'zgarishi natijasida rezonans chiziqlar-ning siljishi;

2.Kvadrupol o'zaro ta'sirlar;

3.O'zaro magnit ta'sirlar.

Birinchi effekt izomer yadro siljishiga olib keladi. Izomer siljish yadroda bo'lgan elektrostatik taqsimlanish bilan elektron zichligi orasida o'zaro ta'sirdan kelib chiqadi. Yadro zaryadi bilan faqat s-elektronlar o'zaro ta'sir etishi mumkin. Izomer siljish elektromanfiylik va bog'ning tabiatini orasida o'zaro bog'liqlik bor. Bunday bog'lanishlardan birikmalardagi atomlarning elektron tuziliishi haqida ma'lumot olsa bo'ladi.

Yadro kvadrupol parchalanish yadro momenti — Q bilan yadro atrofida elektr maydon gradiyenti — q orasida o'zaro ta'sir natijasidan kelib chiqadi. Eng ko'p tarqalgan yadro spinlari $I=1/2$ va $I=3/2$ orasidagi o'tishlar paytida $I=3/2$ holatlari uchun $m = \pm 3/2$ va $I = \pm 1/2$ darajalarida spektrdagи dubletlar hosil bo'lishiga olib keladi. Bu dubletda bitta chiziq $-1/2$ dan $+1/2$ ga o'tishini (σ -o'tish) belgilasa, ikkinchi chiziq esa $\pm 1/2$ dan $\pm 3/2$ o'tish (π -o'tish)ga to'g'ri keladi (8.3-rasm).

8.1-jadval

**Myossbauer spektroskopiyasida qo'llaniladigan ayrim
yadrolarning xarakteristikasi**

Izotop	Ig	Ie	$\alpha, \%A.$	$t_{1/2}, ns$	E_γ, keV	$G_\gamma, mm/s$	$\sigma_0, 10^{-18} sm^2$	$\Delta R/R$ belgi
⁵⁷ Fe	1/2	3/2	2,17	99,3	14,412	0,192	2,57	-
¹¹⁹ Sn	1/2	3/2	8,58	18,3	23,875	0,626	1,40	+
¹²¹ Sb	5/2	7/2	57,25	3,5	37,150	2,100	0,21	+
¹²⁵ Te	1/2	3/2	6,99	1,535	35,480	5,020	0,28	+
¹²⁹ I	7/2	5/2	-	16,8	27,720	0,590	0,38	+
¹²⁹ Xe	1/2	3/2	26,44	1,01	39,580	6,850	0,24	+
¹⁹⁷ Au	3/2	1/2	100	1,892	77,340	1,870	0,041	+

I_g, I_e – asosiy (g) va qo'zg' algan (e) holdagi yadro spini; α – tabiiy miqdori; $t_{1/2}$ – yarim yemirilish davri; E_γ – γ -sochilish energiyasi; G_γ – spektr liniyalaming tabiiy kengligi; σ_0 – yutilish kesimi

Myossbauer effekti juda ko'p elementlar uchun olingan bo'lsa ham, ularning barchasini kimyoda qo'llab bo'lmaydi. Eng ko'p o'r ganilgan element yadrolari 8.1-jadvalga keltirilgan.


Yadro gamma rezonans (YaGR) mohiyatini soddalashtirish uchun erkin atomlar tizimini gaz fazaga o'tkazish lozim. Yadro spinlari odatda asosiy (I_g) va qo'zg' algan (I_e) holda bo'ladi. Bu energiyalar farqi shuncha kattaki, optik (UB- va IQ-) spektroskopiyadan farqli ravishda odatdagisi atom va molekulalar massalarini emas, balki ularning tezligi (ϑ) va energiyasini (E) ham hisobga olish lozim. Ularga mos ravishda energiya darajalari ham E_γ va E_e bilan belgilanadi:


$$\Delta E = E_e - E_g = E_T$$

bunday energetik o'tishlar yadroda nurning γ -kvanti sochilishi yoki yutilishi bilan amalgalashadi, bu hodisalarning birinchisida yadro asosiy holatga o'tsa, ikkinchisida qo'zg' algan holatga o'tadi. Bu energiyalar farqi (ΔE) shunchalar kattaki, optik (UB- va IQ-) spektroskopiyadan farqli ravishda odatdagisi atom va molekulyar massalarini emas, balki ularning tezligi (ϑ) va energiyasini ham hisobga olish shart.

Endi kimyoda keng qo'llaniladigan radioaktiv ^{57}Co izotopining energiya yutib qo'zg'algan holatdan $^{57}\text{Fe}^*$ izotopi yadrosining asosiy ^{57}Fe shakliga o'tishini myossbauer spektroskopiyasi yordamida o'rganishni ko'rib chiqamiz. Dastlab, siklotronda olingen ^{57}Co izotopi YaGR shartlariga javob beradi. Uning parchalanishidan olingen qo'zg'algan holdagi $^{57}\text{Fe}^*$ bir qismi (9%) yuqori energiyali γ -kvant ajratib bevosita asosiy holdagi ^{57}Fe ga o'tadi. Qo'zg'algan holdagi $^{57}\text{Fe}^*$ izotopining bir qismi (91%) quyi holatdagি qo'zg'algan holga (Myossbauer darajasida) o'tib, YaGR hodisasini amalga oshiradi. Uning tarkibidagi ayni shu 2 % tabiiy izotopning mavjudligi bu shartni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Natijada shu 2% ^{57}Fe izotopi myossbauer qo'zg'algan yadrosining shartini bajaradi va ajralgan γ -kvantni yutib YaGR hodisasini ta'minlaydi (8.4a-rasm).

Shu rasmning (b) qismida padioaktiv qalayning myossbauer parchalanish talabiga javob beruvchi oraliq holatga o'tishi tasvirlangan. Bunday YaGR spektrlari tartib raqami 25dan 96 gacha bo'lган ko'pgina boshqa elementlar uchun ham kuzatiladi. Yadro o'tishlari energiyasi qolgan yengil elementlar uchun juda katta to'siq bo'lib, ular bu darajaga yetisha olmaydi. Kimyoda myossbauer hodisasini kuzatish shunisi bilan muhimki, sochiladigan va yutiladigan (E) energiya faqat atomning yadrosi (element izotopi)ga bog'liq bo'lmasdan, boshqa omillarga ham bog'liq bo'ladi. Bularidan eng muhimi shu element yadrosining elektron qurshovi, ichki va tashqi elektr va magnit maydonlari hisoblanadi.





8.4-rasm. ^{57}Fe – (a) va ^{119}Sn – (b) myossbauer atomlarini hosil qiluvchi radioaktiv parchalanish sxemasi.

8.5-rasm. γ -kvantlar manbai harakat tezligi bilan yutgich (namuna) orasidagi bog'liqlik egri chizig'i shakdi.

Myossbauer spektrlarini olishda monoxromatik γ -sochilish manbayining sozlanishi Doppler effekti hisobidan amalga oshiriladi. Spektr olish jarayonida γ -nur yutayotgan namunaga nisbatan ma'lum interval chegarasida nur manbayini ϑ -tezligini boshqarish bilan bu effekt energiyasi sozlab ishlatiladi. Shunday qilib, 8.5-rasmda ko'rsatilganidek, myossbauer spektrini olishda γ -sochilish manbai tezligini nur yutadigan namunaga nisbatan solishtirish orqali amalga oshiriladi. Amalda ham γ -nur manbai harakati tezligi γ -kvantlar energiyasi yoki chastotasiga ekvivalent bo'ladi.

8.3. Myossbauer spektri parametrlari

Yadro bilan uning kimyoviy qurshovi o'zaro ta'sirlashuvi natijasida sochiladigan va yutiladigan γ -nurlar energiyasi o'zgarishiga ta'sir etuvchi bosh omillar uchga bo'linadi:

1. Yadro bilan elektronlarning o'zaro kulon ta'sirlashuvi;
2. Yadrodagi elektr maydoni gradiyentining ($I > \frac{1}{2}$ bo'lganda) kvadrupol ta'sirlashuvi;
3. Magnit o'zaro ta'sirlashuvlar.


Izomer (kimyoviy) siljishlar. Sochilayotgan γ -nur kvanti bilan yutiladigan γ -kvant energiyasining o'zgarishiga izomer yoki kimyoviy siljish deyiladi:

$$\delta = E_{\gamma(\text{nam.})} - E_{\gamma(\text{soch.})}$$


Bu holda γ -kvantning yutilish maksimumi qayd qilinadi va u egri chiziqning maksimum nuqtasidan topiladi. Elektronlarning yadro bilan ta'siri natijasida asosiy va qo'zg' algan yadro holatining nisbiy joylashuviga ta'sir qiladi. Izomer (kimyoviy) siljish $\Delta R/R$ ga bog'liq ravishda musbat yoki manfiy qiymatga ega bo'ladi. Agar yadroning asosiy holatdagi effektiv radiusi kattaligi qo'zg' algan holatidan kichik bo'lsa izomer siljish musbat ($+\delta$) qiymatga ega, teskari holda manfiy ($-\delta$) siljish kuzatiladi. Masalan, ^{57}Fe uchun $\Delta R/R < 0$ va izomer siljishi manfiy bo'ladi, chunki s-elektron zichligi ortadi. 8.1-jadvalda keltirilgan boshqa elementlar uchun nurlanish jarayonida s-elektron zichligi ortsasida ham izomer siljish musbat qiymatli bo'ladi.

Kvadrupol parchalanish. Elektr kvadrupol o'zaro ta'sir natijasida myossbauer spektrida signallarning nozik strukturasi kuzatiladi. Bu signal asosiy va qo'zg' algan holdagi yadro spiniga va yadrodagagi elektr maydon gradiyentiga bog'liq bo'ladi. Yadroning myossbauer o'tishi jarayonida uning asosiy va qo'zg' algan holdagi spin qiymati $I > 1/2$ bo'ladi, demak kvadrupol momenti (eQ)ga ham ega bo'ladi. Kvadrupol parchalanish tabiatiga kattaligi kvadrupol o'zaro ta'sir konstantasi (e^2qQ)ga bog'liq bo'ladi.

Myossbauer spektroskopiyasida o'rganiladigan ^{57}Fe yadrosining energetik darajalari (8.5-rasm) asosiy holat uchun spin $I_q=1/2$, $eQ=0$ bo'lsa, qo'zg' algan holatda $I_q=3/2$, $eQ\neq 0$ bo'ladi. Elektr maydonining sferik simmetriyasida ($eQ=0$) yuqori γ -kvant darajasi (masalan, tetraedrik va oktaedrik strukturalar)da hech qanday parchalanish bo'lmaydi. Trigonal bipiramida tuzilishdagi $\text{Fe}(\text{CO})_5$ birikmasining elektr maydon gradiyenti $eQ\neq 0$ bo'lsa, yuqori energetik pog'ona ikkiga parchalanadi. Myossbauer energetik o'tishlarida $\Delta m_1=0,\pm 1$ va singlet $eQ=0$ hollarda tanlash qoidasiga binoan spektr chizig'i dubletga parchalanadi (8.6-rasm). Ana shu komponentalar orasidagi masofa Δ (mm/sek) kvadrupol parchalanish deyiladi.




(a)




(b)

8.6-rasm. ^{57}Fe yadroси учун электр майдони градиенти бо'зандага ва бо'имагандаги energetik darajasi va o'tishlarining sxemasi – (a). kvadrupol parchalangan $\text{Fe}(\text{CO})_5$ spektrining shakli – (b)

Agar о'рганиладиган намунаning yadroси har ikki holda ham (quyi va yuqori energetik holat) kvadrupol momentga ega bo'lsa $eQ \neq 0$, myossbauer spektridagi parchalanish shakli murakkablashadi, ainmo bu holda uning informativligi ortib, spektrdan ko'proq ma'lumot olishga imkoniyat yaratiladi. 8.7-rasmida ayni shu hodisaning ^{129}I izotopi учун parchalanish sxemasi va myossbauer spektrining ko'rinishi keltirilgan.



a)




b)

8.7-rasm. ^{129}I izotopi учун электр майдони градиенти бор бо'лгандаги energetik o'tishlar sxemasi – (a) va miqdorli shakli – (b)

Magnit ta'sirlashuvning o'ta nozik strukturasi. Spin qiymati $I \neq 0$ bo'lgan yadroga magnit maydoni bilan ta'sir etilganda zeeman parchalanishi oqibatida yadroning energetik darajalari $2I+1$ komponentaga parchalanadi. Myossbauer spektrida esa yadroning I_q va I_e spiniga mos keluvchi E_q va E_e energiya darajalari tegishli komponentlarga ajraladi. Asosiy va qo'zg'algan holdagi yadrolarning Zeeman parchalanishi tanlash qoidasiga ($\Delta m_1 = 0, \pm 1$) bo'y sunadi va natijada myossbauer spektrida o'ta nozik struktura (O'NS) kuzatiladi. Myossbauer spektrlarida kuzatiladigan namuna yadrosining magnit maydoni tashqi manba yordamida yoki shu atomlarning o'z magnit maydonidan hosil, bo'ladi. Paramagnit moddalar elektron spinlarining relaksatsiyasi katta tezligi ulardan myossbauer spektrlari qayd qilishga xalaqit qiladi. Zeeman spektrlaridagi liniyalar intensivligining nisbati γ -sochilish nurlari yo'nalishi va magnit maydoni yonalishiga bog'liq bo'ladi. 8.8-rasmda ^{119}Sn yadrosining ikki holati uchun zeeman parchalanish darajalari va ular orasidagi o'tishlar ko'rsatilgan. 8.8b-rasmda elektr maydoni gradiyenti bo'lmagandagi ($eq=0$) va tashqi magnit maydoni hamda γ -sochilish yo'nalishi bir xil bo'lgandagi kvadrupol (Δ) parchalanish keltirilgan. Simmetrik shakldagi sekstet parchalanish komponentlari magnit maydoni bo'lmagan holga mos keladi. Ularning intensivligi 3:2:1:1:2:3 nisbatda qayd etilgan. Ayni bir paytda ham kvadrupol, ham magnit o'ta nozik ta'sirlashuv bo'lganda olingan myossbauer spektrlarining tahlili qiyinlashadi. Bu hodisani soddalashtirish va informativ myossbauer spektri olish uchun ba'zan tashqi magnit maydonidan foydalanadilar.



a)



b) 8.8-rasm. ^{119}Sn yadrosi uchun magnit maydonidagi sathi va o'tishlarining sxemasi – (a), myossbauer spektrining o'ta nozuk magnit strukturasi ko'rinishi – (b).

8.4. Myossbauer spektroskopiyasining kimyoda qo'lanishi

Myossbauer spektroskopiyasi isomer siljish ma'lumotlaridan ma'lumki, organiladigan namuna molekulasidagi atomning oksidlanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Bu hodisani qalayning ^{119}Sn izotopi uchun ko'rib chiqamiz. Neytral atom uchun elektron konfiguratsiya $5s^25p^2$ bo'lib, Sn^{2+} ioni formal $5s^2$ konfiguratsiyaga ega, izomer siljish ($\Delta R/R > 0$) $\text{Sn} (\vartheta_0)$ ga nisbatan musbat (+ ϑ) qiymatli bo'ladi, $5s$ -elektronning ekranlash effekti yo'qolgani uchun Sn^{2+} yadrosidagi s-elektron zichligi ortadi. Ammo Sn^{4+} ionida $5s$ -elektron ajralib chiqqani uchun yadrodagи s-elektron zichligining kamayib, manfiy izomer siljishiga (- ϑ) olib keladi. Bu haqdagi ma'lumotlar 8.2-jadvalda keltirilgan. Qalayning organik birikmalari tahlil qilinganda SnO_2 uchun izomer siljish $\delta < 2$ mm/sek dan kichik bo'lib, qalayning to'rt valentli ekanligi o'z isbotini topadi. Ikkinchi izomer siljish $\delta > 2,5$ mm/s qiymati qalayning ikki valentli ekanligini isbotlaydi.

Temir elementi ko'pgina biotizimlarda uchraydi. Tirik organizmlarning yashash jarayonida temirning porfirinli kompleks birikinalari uchun oksidlanish-qaytarilish jarayonlari kechib,


ularda Fe(II) va Fe(III) ionlari shaklida ishtirok etadi. Bu reaksiyalarda ligandlarning π -elektron orbitallari ham ishtirok etadi. Bu birikmalardagi temir va uning oksidlanish darajasini aniqlash uchun myossbauer spektroskopiyasi muhim usul hisoblanadi.

8.2-jadval

SnO_2 standartiga nisbatan ayrim qalayli birikmalardagi ^{119}Sn yadrosining izomer siljishi

Birikma	δ , mm/s	Birikma	δ , mm/s	Birikma	δ , mm/s
SnF_4	-0,47	$\text{Sn}(\text{CH}_3)_4$	1,21	SnF_2	3,20
SnCl_4	0,85	$\text{Sn}(\text{C}_6\text{H}_5)_4$	1,22	SnCl_2	4,07
SnBr_4	1,15	SnO	2,71	SnBr_2	3,93
SnI_4	1,55	SnS	3,16	SnI_2	3,85
SnH_4	1,27	SnSO_4	3,90		

Ayrim elementlarning empirik korrelyatsiyasi qiyin bo'lib, u shartli gabul qilinadi. Masalan, ^{197}Au ionining izomer siljishlari shunchalar yaqinki, uning oksidlanish darajasini aniqlab bo'lmaydi. Agar myossbauer spektroskopiyasida kvadrupol parchalanish kuzatilsa, elektr maydon gradiyenti mavjud bo'lib, ularning yadro qurshovida yuqori simmetriya mavjud emas. Masalan, SnF_4 birikmasining spektridagi kvadrupol parchalanishiga ko'ra unda tetraedrik tuzilish bo'lmasligi, va $(\text{SnF}_4)_n$ polimer hosil qilishi isbotlandi:



8.5. Dinamik effektlar

Myossbauer spektroskopiyasi ham boshqa fizikaviy tadqiqot usullar kabi o'zining xarakteristik vaqt ko'rsatkichiga ega. O'rganiladigan namuna vaqt o'tishi bilan bir shakldan boshqa

shaklga o'tadigan bo'lsa, tabiiyki, uning izomer siljishi oqibatida yadroning elektr maydoni gradiyenti o'zgarishi (kvadrupol parchalanish) va ichki magnit maydoni ham farq qiladi. Namuna va manbaning myossbauer o'tishlari orasidagi chastota farqi 10^8 sek $^{-1}$ bo'ladi. Shuning uchun ham alohida signallarni qayd qilib, izomer siljishlarni kuzatish uchun moddalarning bir shakldan ikkinchisiga o'tish chastotasi 10^7 sek $^{-1}$ dan oshmasligi kerak.


Kompleks birikmalar tarkibida Fe(II) va Fe(III) aralash valentli ionlar bo'lsa, spektrda ikkita signal qayd etiladi. Buning uchun bu atom ionlari orasidagi elektron o'tishlar juda sekin borishi lozim. Masalan, $[Fe^{II}Fe^{III}_2O(CH_3COO)_6 \cdot (H_2O)_3]$ kompleks birikmasining 290K da olingan spektrida o'rtacha umumlashgan bitta signal olinadi (8.9-rasm), chunki elektron ko'chish tez amalga oshadi. Bu esa tez boradigan almashinuv jarayoni bilan belgilanadi (ya'ni elektronning yuqori chastotali o'tishi).

Harorat pasayib borgan sari signallarning strukturasini o'zgarib, ular asta-sekin ikkiga ajrala boshlaydi va kompleks tarkibida ikkita noekvivalent Fe atomi ionlarining borligi faqat 17 K haroratda aniq qayd etiladi. Fe_3O fragmenti chegarasida elektron ko'chishi haqida xulosa chiqarish mumkin, bunda faollanish energiyasi 470 sm^{-1} ga tenglashadi.

Spektrda kvadrupol parchalanishning haroratga bog'liqligi kristall panjaradagi zarrachalar harakatchanligining farqi bilan izohlanadi. O'ta nozik magnit strukturalarining o'zgarishi relaksatsiya vaqtida, ya'ni haroratga bog'liq ravishda zeeman magnit pog'onachalaridagi elektronlarning soni bilan o'zgaradi.

8.9-rasm.

$[Fe^{II}Fe^{III}_2O(CH_3COO)_6 \cdot (H_2O)_3]$ tarkibli kompleks birikmadagi ^{57}Fe ion-larining myossbauer spektrining harorat-ga bog'liqligi.




8.6. ^{57}Fe izotopining magnit maydondagi parchalanishi

Myossbauer spektrlari ko'p yadrolar uchun kuzatilgan bo'lsa ham ko'pincha ^{117}Sn va ^{57}Fe yadrolarida olib borilgan. Moddaning γ -kvantli nur yutishida yadro bilan unung atrofidagi kimyoviy qurshov orasidagi o'zaro bog'lanishlar mavjud. Izomer siljishlarda yadroning elektrostatik taqsimlanishi bilan elektron zichligi orasida kelib chiqadi. Yadro zaryadi bilan faqat s-elektronlar o'zaro ta'sir etishi mumkin. Izomer siljish elektromanfiylik va bog'ning tabiatini orasida o'zaro bog'liqlik bor. Bunday bog'lanishlardan birikmalardagi atomlarning elektron tuzilishi haqida ma'lumot olsa bo'ladi.

Yadro kvadrupol parchalanish yadro momenti – Q bilan yadro atrofida elektr maydon gradiyenti – q orasida o'zaro ta'sir natijasida kelib chiqadi. Eng ko'p tarqalgan yadro spinlari $I=1/2$ va $I=3/2$ orasidagi o'tishlar paytida $I=3/2$ o'tishlar uchun $m=\pm 3/2$ va $m=\pm 1/2$ darajalarida spektrdagи dubletlat hosil bo'lishiga olib keladi. Bu dubletda bitta chiziq $-1/2$ dan $+1/2$ ga o'tish (σ -o'tish)ni belgilasa, ikkinchi chiziq esa $\pm 1/2$ dan $\pm 3/2$ ga o'tishga (π -o'tish) to'g'ri keladi (8.9-rasm).

Kvadrupol parchalanish kompleks birikmalarning tizilishini o'rGANISHDA katta yordam beradi. Magnit maydonida $\Delta m_I=\pm 1/2$; $\pm 3/2$ va boshqa yadro spin holatlari parchalanadi. Masalan, ^{57}Fe uchun $\Delta m_I=\pm 1$ tanlash qoidalariga ko'ramagnit parchalanish va kuzatilgan o'tishlar 8.10-rasmida keltirilgan yadrosi atrofida deyarli sferik elektr maydoni hosil bo'ladi, shuning uchun kvadrupol parchalanish kuzatilmaydi. Fe(II) (d^6 -konfiguratsiyali $t_{2g}^2 e_g^2$) ning yadrosi atrofida esa maydon gradiyenti bo'lishi natijasida yuqori kvadrupol parchalanishni kuzatishimiz lozim. Natijada yuqori spinli Fe(III) kompleks biriknalarining myossbauer spektrida bitta



8.9-rasm. $\pm 1/2$ va $\pm 3/2$ darajalar orasida Myeossbauer o'tishlari.

8.3-jadval


Ba'zi temir birikmalarining Myeossbauer spektrlarida kvadrupol parchalanishi ΔEQ (mm/s) va izomer siljishi δ (mm/s)

Birikma	ΔEQ	δ	Birikma	ΔEQ	δ
<i>Yuqori spinli Fe(II)</i>			<i>Quyi spinli Fe(II)</i>		
FeSO ₄ ·7H ₂ O	3,2	1,19	K ₄ [Fe(CN) ₆] 3H ₂ O	-	-0,13
	3,15	1,3		-	

<chem>FeSO4</chem> (suvsız)	2,27	1,2		< 0,1	-0,16
<chem>Fe(NH4)2(SO4)2·6H2O</chem>	1,75	1,19			+0,05
	1,75	1,3			
<chem>FeCl2·4H2O</chem>	3,00	1,35	<chem>Na4[Fe(CN)6]·10H2O</chem>	< 0,2	-0,01
<chem>FeC4H4O6</chem>	2,6	1,25	<chem>Na3[Fe(CN)5NH3]</chem>	0,6	-0,05
<chem>FeF2</chem>	2,68	-	<chem>K2[Fe(CN)5NO]</chem>	1,85	-0,27
				1,76	
<chem>FeC2O4·2H2O</chem>	1,7	1,25			-0,28
			<chem>Zn[Fe(CN)5NO]</chem>	1,90	-0,27
<i>Yuqori spinli Fe(III)</i>			<i>Quyi spinli Fe(III)</i>		
<chem>FeCl3·6H2O</chem>	0,2	0,85			
<chem>FeCl3</chem> (suvsız)	0,2	0,5	<chem>K3[Fe(CN)6]</chem>	-	-0,12
<chem>FeCl3·2NH4Cl·H2O</chem>	0,3	0,45		-	-0,17
<chem>Fe(NO3)3·9H2O</chem>	0,4	0,4		0,26	-0,15
<chem>Fe(C2O4)3</chem>	0,5	0,45	<chem>Na3[Fe(CN)6]</chem>	0,60	-0,17
<chem>Fe2(C4H4O6)3</chem>	0,77	0,43			
<chem>Fe2O3</chem>	0,12	0,47			

yutilish chizig'i bo'ladi. Fe(II) birikmlari spektrida ikkita spektr liniyalari bo'ladi. Quyi spinli Fe(II) kompleksining konfiguratsiyasi t_{2g}^6 , quyi spinli Fe(III) kompleksining konfiguratsiyasi esa $t_{2g}^3 e_g^2$. Shuning uchun kuchli maydon komplekslarida kvadrupol parchalanish Fe(III) ioni uchun qayd etiladi, Fe(II) ioni uchun spektr kuzatilmaydi. Chunki Fe(II) ionining quyi spinli holatida d_{xy} , d_{xz} , d_{yz} orbitallar ayniyo holatda bo'lib, ularda kvadrupol parchalanish sodir bo'lmaydi. Yuqori spinli holati uchun $t_{2g}^4 e_g^2$ konfiguratsiya mos keladi va kvadrupol parchalanish mavjud, ya'ni oktaedrik maydonda d_{z^2} , $d_{x^2-y^2}$

orbitallarga ligandlar kuchli ta'sir etadi va spektr kuzatiladi. Bunday xulosalar ferrotsianid va ferritsianid-ionlar bilan olingan eksperimental spektr natijalarida ham kuzatiladi. Masalan, yuqori maydonli $[Fe(CN)_5NH]^{3-}$ kompleks birikmasida oltita ligand bir xil bo'lmagani uchun ular ekvivalent elektrostatik maydon hosil qilmaydi va spektrda kvadrupol parchalanish sodir bo'ladi. 8.3-jadvalda tajribada olingan Fe(II) va Fe(III) birikmalari Myossbauer spektrlari kvadrupol parchalanishi ΔEQ va izomer siljishi (δ) keltirilgan.



8.10-rasm. ^{57}Fe birikanalarida magnit parchalanish.

Endi yuqorida ko'rilgan Myossbauer spektrlarining parametrlarini (izomer siljish, kvadrupol va magnit parchalanish) koordinatsion birikmalar uchun qo'llab ko'ramiz. Yuqori spinli

temirning oltita bir xil ligand tutgan kompleks birikmasini tahlil qilib chiqaylik. Ko'rsatilgan (yuqori spinli) holatda Fe(III) ionining (d^5 -konfiguratsiyali $t_{2g}^3e_g^2$)

Izomer siljishlar qiymatining musbat bo'lishi yadro atrofidagi elektron zichligining kamayishini ko'rsatadi. Yuqori spinli Fe(II) va Fe(III) ionlarining birikmalari uchun izomer siljish va s-elektron zichligi orasida korrelyatsiya (mutanosiblik) mavjud. Masalan, δ qiymatining 0,2 mm/s miqdorida ortishi yadrodagи s-elektron zichligining 8% ga kamayishiga olib keladi. Quyi spinli ferritsianidli komplekslar yuqori spinli Fe(III) komplekslariga nisbatan manfiy izomer siljishga ega. Bu natija ferritsianid komplekslarida metall-ligand orasida π -boglanish bo'lib, atrofida s-elektron zichligi oshganligini ko'rsatadi. Umumiy holda izomer siljish (δ) qiymatini ham kuchli σ -donor, ham kuchli π -akseptor ligandlar kamaytiradilar.

Myossbauer spektrlari birikmalardagi atomlarning oksidlanish darajasini aniqlashda katta yordam beradi. Quyidagi (8.4-jadval)da temir birikmalarining har xil oksidlanish darajasidagi ionlariga tegishili izomer siljishlari keltirilgan.


8.4-jadval

Yuqori spinli temirning birikmalarining izomer siljishlari
kattaliklari

(siljishlar $\text{Na}_2[\text{Fe}(\text{CN})_5\text{NO}] \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ning izomer siljishiga nisbatan berilgan)

Temirning oksidlanish daroji	+1	+2	+3	+4	+6
Izomer siljish	+2,2	+1,4	+0,7	+0,2	-6

Myossbauer spektroskopiyasi yordamida $\text{Fe}_3(\text{CO})_{12}$ tarkibli kompleks birikmaning struktur tuzilishi aniqlandi. Spektrda umuman to'rtta yutilish liniyalari bo'lib, bu molekula tarkibida ikki xil temir atomlari borligi to'g'risida xulosa chiqarishda imkoniyat beradi. Modda monokristallarining rentgen-struktur analiz (RSA) qilinishi oqibatida keltirilgan natija to'g'riliqi isbotlandi. Tashqi ikkita yutilish chiziqlari bir xil temir ionlaridan kelib chiqqan.




Myossbauer spektroskopiyasi yordamida past haroratlarda (~77 K) quyi spinli (${}^1\text{A}_1$ -holat) barqaror bo'ladi, xona (298 K) va undan yuqori haroratlarda yuqori spinli (${}^5\text{T}_2$) holat barqaror bo'ladi. Bulardan tashqari izomer siljishiga qarab, temirning turli birikmalarida har xil oksidlanish darajalarini aniqlash mumkin. Yuqori va quyi spinli holatlari orasidagi muvozanat ham o'rganilgan. Odatda past haroratlarda (~77 K) quyi spinli (${}^1\text{A}_1$ -holat) barqaror bo'ladi, xona (298 K) va undan yuqori haroratlarda yuqori spinli (${}^5\text{T}_2$) holat barqaror bo'ladi. Yuqori spinli Fe(II) komplekslarining Myossbauer spektrlarida kattaroq izomer siljish va katta kvadrupol parchalanish sodir bo'ladi. Bulardan tashqari izomer siljishiga qarab, temirning turli biriknalarida har xil oksidlanish darajalarini ham aniqlash mumkin.

8.7. Eksperiment o'tkazish texnikasi

Myossbauer spektrometrining ko'rinishi 8.11-rasmda korsatilgan. ${}^{129}\text{Xe}$ uchun standart namuna sifatida ${}^{129}\text{I}$ atomining tuzilishi tetraedr shaklidagi IO_4^- anioni ishlatalidi. Bu sun'iy iod izotopi ancha barqaror va kop miqdorda olingan. Manba (IO_4^- ioni) myossbauer vibratori yordamida o'rganiladigan moddaga nisbatan turli yo'nalishdagi aniq nazorat va o'lchovlar bilan harakatlanadi. γ -kvant nur yutuvchi o'rganiladigan modda nur sochuvchu modda – manbaning nur sochilish yo'nalishida joylashniriladi. Bu jarayon davomida sochilgan nur to'g'ri o'rganiladigan moddaga tushadi va yutiladi. Ba'zida tadqiqot olib borilayotgan modda namunasiga tushadigan γ -kvant nur ma'lum burchak ostida yo'naltiriladi, bunda modda γ -kvant energiyani

yutib qo'zg' algan holatga o'tadi va ularni qaytaradi. Namunadan qaytgan va o'tgan nurlar kvanti detektorda yozib olinadi.



8.11-rasm. Myossbauer spektrometrining blok-sxemasi: 1 – harakatlanuvchi manba, 2 – kollimator va ekranlar, 3 – qo'zg' olmas yutgich (namuna), 4 – impulslar detektori va hisoblagichi, 5 – qo'zg' olmas silindrsimon nur sochgich manba, 6 – harakatlanuvchi konussimon nur sochgich manba, 7 – qo'zg' olmas sochgich (manba).

Bu esa impulslar o'lchagichi bilan hisoblanadi. Yutilish maksimumi (o'tkazgich minimumi)ga mos keluvchi harakat tezligi yoki sochilish maksimumi izomer siljish – v_0 tezligini belgilaydi. γ -kvantlar soni va manba harakat tezligi bilan korrelyatsisini hisoblash uchun signallar (liniyalar) holati $\pm 0,01$ mm/sek aniqlik bilan o'lchanadi. Izomer siljishlar farqi – $\Delta\delta$ va kvadrupol parchalanish – Δ odatdagи liniyalar kengligidan farq qilishi mumkin.

Harorat shkalasining katta intervalida ishlashi (ayniqsa, -1K va undan past harorat) yuqori magnit maydoni kuchlanishi sharoitida ishlashni talab qiladi. Yuqori haroratlri o'ta o'tkazuvchanlik (ВТСП – высоко температурный сверхпроводимость) hodisasining kashf etilishi myossbauer spektrometrlarini soddalashtirish va uskunalarining arzonlashuviga olib keldi. Bu usulning o'ziga xosligi va muhimligi shundaki, u faqat qattiq jismilar va cheklangan namunalar bilan ishlash imkoniyatiga ega.

Myossbauer spektroskopiyasida matritsali izolirlangan past hatroratdagи usul ham qo'llaniladi, chunonchi bu usul bilan turli

matritsalardagi (Xe , N_2 , CH_4 , va boshqa muhitlar) Fe atomi va Fe_2 molekulasi o'rganilgan.

Nazorat savollari

1. Myossbauer spektroskopiyasining mohiyatini tushuntiring.
2. Yadro sistemalarining o'ziga xosligi nimadan iborat?
3. Yadroga ta'sir etayotgan nurlarning hammasi ham yutiladimi?
4. Doppler siljishining fizikaviy ma'nosini aytib bering.
5. Kvant energiyasining dispersiya qiymati nimaga sarflanadi?
6. Qaytarish energiyasi va yadro massasi bir-biriga ta'sir ko'rsatadimi?
7. Zamonaviy asboblarda Myusbauer effekti qanday kuzatiladi?
8. Qaysi ionlarni Myossbauer spektroskopiyasi bilan o'rganish mumkin ekanlagini aytинг.
9. PCl_3O bilan $TeCl_4$ o'zaro reaksiyaga kirishib, $PCl_3O \cdot TeCl_4$ adduktini hosil qiladi deb faraz qilinadi, agar $AlCl_3$ bilan reaksiyaga kirishsa $PCl_2O^+ AlCl_4^-$ hosil bo'ladi. Bu xulosani YaKR spektroskopiyasi usuli bilan qanday isbotlash mumkin?
10. Myossbauer spektroskopiyasida izomer (kimyoviy) siljish hodisasi qaysi bosh omillar bilan aniqlanadi?
11. Qaysidir element yadrosi uchun Myossbauer effektini kuzatish uchun qanday sharoit yaratilishi lozim?
12. Myossbauer spektroskopiyasini go'llanish sohalarini qayd qilib bering.

A d a b i y o t l a r

1. Пентин Ю.А., Вильков Л.В. Физические методы исследования в химии.- М.: Мир.- 2003.- 683 с.
2. Драго Р. Физические методы в химии.- М.- Мир.- в 2х томах.- 1981.
3. Умаров Б.Б. Физикавий тадқиқот усуллари, маъruzalар конспекти.- БухДУ.- Зиё-Ризограф.- 2000.- 187 б.

IX BOB. TERMIK ANALIZ

Reja:

- 9.1. Termik tahlil va uning imkoniyatlari*
- 9.2. Termoparalar*
- 9.3. Qarshiliklar magazini*
- 9.4. Isitish egri chizig'i va unga ta'sir etuvchi omillar*
- 9.5. Termogrammaning shakllantirilishi va tahlili*
- 9.6. Termik effektilar va gaz ajralishining qayd etilishi*
- 9.7. Termogravimetriya va termogravitatsion analiz*
- 9.8. Isitish va elektr o'tkazuvchanligi egri chiziqlari*
- 9.9. Savol va mashqlar*
- 9.10. Adabiyotlar*

Tayanch atamalar


Termik analiz. Pirometr. Differensial termik tahlil. Termopara. Teplofizik xossa. Termo EYuK. Zeebak hodisasi. Kavsharlash nuqtasi. Fotokamera. Galvanometr. Qarshiliklar magazini. Oddiy va bifillyar cho'lg'am. Shtepselli va kurbelli magazin. Solishtirma issiqlik o'tkazuvchanlik. Issiqlik sig'imi. Termogramma. Termogravitatsion analiz. Gazovolyumografik analiz.

9.1. Termik analiz va uning imkoniyatlari


Termik analiz usuli termometr kashf etilgandan buyon qo'llanilmoqda. Yuqori haroratda olib borilgan reaksiyalar davomida o'r ganiladigan moddalar massasining o'zgarishi o'lchab borilsa, bu usul termogravimetriya deyiladi. Bu fizikkinyoviy usul qollanilganda murakkab sistemalarning suyuqlanish va qaynash haroratlari, elektr o'tkazuvchanlik, to'yingan bug' bosimi, polimorfizm, qovushqoqlik kabi xossalari va tarkibi orasidagi bog'liqlik aniqlanadi.

Termik analiz usuli bilan metallar, tuzlar, organik moddalarni o'r ganish mumkin. Termik analizda harorat o'zgarishini vizual va qayd qiluvchi moslamalar yordamida

amalga oshirilishi mumkin. Birinchi marta bu usul Saladen tomonidan qo'llanildi va Le-Shatel'e uni takomillashtirdi. Endi Le-Shatelye-Saladen moslamasi yordamida uzliksiz isitish davomidagi naimuna va etalon haroratlari va harorat farqi



15.1-rasm. Sof moddaning kristallanish egri chizig'i.



9.2-rasm. Vaqt biriligidagi termik o'zgarish – (a) va differensial termik o'zgarish – (b) jadvali.

qayd qilib boriladigan bo'ldi. Ammo bu moslama faqat harorat farqini qayd etib, uning vaqt birligida o'zgarishini e'tiborga olmasdi. Shuning uchun rus olimi, akademik N.S. Kurnakov (1860-1941) 1903-yilda o'zining pirometri bilan bu kamchilikni yo'qotib, isitish yoki sovutish egri chizig'ini qayd qilish davomida harorat-vaqt va termik farq-vaqt koordinatalari jadvalini tuzish imkoniyatiga erishdi. Bu termik analiz mohiyatini ko'rib chiqaylik.

Suyultirilgan modda sekinlik bilan sovutilganda uning sovush jarayoni 9.2 a-rasmda ko'rsatilgan jadvaldek bo'ladi. Dastlab, bu jadvaldagи ab-chiziq bo'lagi suyuq fazaning sovushini ifodalaydi. Agar kristallanish jarayoni bo'lmaganda ab-chiziq davomi punktir liniya bilan ko'rsatilgan chiziq davomidek bo'lar edi. Ammo b-nuqta kristallanish jarayonining boshlang'ich nuqtasi ekanligi ko'rinish turibdi. Gibbsning fazalar qoidasiga muvofiq ($F=2$, $K=1$, $C=K+1-F=1+1-2=0$) vaqt birligidagi keyingi kristallanish davomida atrof-muhitning harorati asta-sekin pasaysa ham ($b'd$ -punktir chizig'i), namuna moddaning kristallanish harorati o'zgarmas nuqtada turadi, c -nuqtada modda namunasining kristallanishi tugaydi, ammo uning atrofga nisbatan yuqoriqo harorati saqlanib qoladi. Endi yagona jarayon – vaqt birligida namunadan atrofga harorat tarqaladi va egri chiziqning cd- bo'lagida modda tezroq sovuydi. Bu jarayon namuna bilan tashqi muhit harorati bir xil bo'lguncha davom etadi va de-egri chiziq shaklida davom etadi. Agar namuna massasi yoki harorat shkalasi qancha katta bo'lsa, diagramma shuncha aniq chiqadi. Bu ikki shartning har ikkalasi ham biz uchun noqulay bo'lgani sababli eksperiment o'tkazishda differential-termik usul qo'llaniladi, ya'ni katta aniqlikda o'rganiladigan namuna bilan atrof-muhit harorati orasidagi ΔT -farq aniqlanadi (9.2 b-rasm).

Hisoblashlarning ko'rsatishicha, faza o'nish issiqligi – q kattaligi $b'e'd'$ uchburchak yuzasi – S qiymatiga proporsionaldir. Agar namunaning m – massasi va M – molekulyar massasi aniq bo'lsa, uning bir fazadan ikkinchisiga o'tish issiqligining – ΔH° qiymatini 1 g/mol modda uchun hisoblash mumkin:

$$\Delta H_o = \frac{q \cdot M}{m} = \frac{K \cdot S \cdot M}{m} \quad (9.1)$$

K – issiqlik berish koeffisienti. K-qiyomatining har qaysi namuna uchun aniqlanishi biror ma'lum etalon modda bilan solishtirilish usulida topiladi. L – etalon namunasining (1 mol miqdori uchun) quyidagi tenglamadan kelib chiqadi:

$$\frac{L}{\Delta H_o} = \frac{\frac{K \cdot S \cdot M}{m}}{\frac{K \cdot S \cdot M}{m}}; \quad \Delta H_o = \frac{L \cdot S \cdot M \cdot m}{S \cdot M \cdot m} \quad (9.2)$$

Termik analizda harorat va harorat farqi, oddiy va differensial termoparalar yordamida o'chanadi. Odatda isitish yoki sovutish tezligi 1-10 grad/min oralig'ida tanlanadi. T va ΔT qiyamatlarini aniq o'chanash uchun derivatografning har ikki qismidagi termoparalar va boshqa detallar bir xil materialdan tayyorlanadi. Differensial-termik analiz (DTA) usuli bilan quyidagi ishlarni amalga oshirish mumkin:

1. Alovida kimyoviy moddalarning individualligini aniqlash,
2. Bir necha moddalar mexanik aralashmasining tarkibini sifat va miqdori analiz qilish.
3. Individual moddalar uchun holat diagrammasi yordamida ular-ning fazoiy o'tish haroratlarini aniqlash.
4. Modda fazoviy va kimyoviy o'zgarishlarining kinetik va termodynamik parametrlarini aniqlash.
5. Moddaning teplofizik xossalari aniqlash.

9.2. Termoparalar

Termografik tahlil uskunasining eng muhim qismi – termoparadir. Ular ikki uchi o'zaro kavsharlangan va qolgan barcha qismi izolirlangan ikki elektr o'tkazuvchi simdir. Termoparaning ishlatalishi Zeebak hodisasini qo'llashga asoslangan; agar termoparadagi ikkita kavsharlangan nuqtalardan birini isitib, ikkinchisini o'zgarmas tutganiimizda o'tkazgichda elektr toki hosil bo'ladi – termoelektrik elektr yurituvchi kuch (termo-EYuK). Qizdirilgan kavsharlash nuqtasi assosiy, ishchi

(issiq) nuqta, doimiysi – qo'shimcha (sovuj) kovshar nuqtasi deyiladi. AB-termoparasida sovuq nuqtada elektr toki A dan → B ga o'tsa, A metali musbat va AB uchun EYuK ham manfiy bo'ladı. Unda $E_{AB}(T_1 T_2)$ aniqlanadi. Haroratning kichik oralig'ida ΔT termo-EYuK qiymatini haroratlar farqi va proporsionallik koefitsiyenti – α dan topiladi:

$$E = \alpha (T_1 - T_2)$$

α – termo-EYuK koefisienti simlar tabiatini bilan belgilanadi va termopara sezgirligini ifodalaydi. Boshqa metallarga nisbatan platina metallidan tayyorlangan termoparalar katta afzallikkarga ega, chunki yuqori tozalikdagi platina simini olish juda oson va bu metallning syyuqlanish harorati 1730°C ga teng.

Yuqori haroratlarda termo-EYuK kattaligini aniqlash uchun maxsus diagramma va jadvaldan foydalanadilar. Quyida biz ayrim termopara tayyorlanadigan qotishmalarning tarkibini keltiramiz:

Konstantan – 45-60 % Cu va 55-40 % Ni

Kopel – 56,5% Ni va 43,5 % Cu

Xromel – 90 % Ni va 10 % Cr

Alyumel – 95 % Ni va 5 % (Al, Mn, Si, Fe)

9.1-jadvaldan va quyidgi formuladan foydalanib, Pt–Fe va Pt–konstantan jufti uchun termo-EYuK qiymatini topamiz:

$$E_{T_1 T_2 (A/B)} = E_{T_1 T_2 (A/R)} - E_{T_1 T_2 (R/B)}$$

formulaga ko'ra

$$E_{Fe/konstantan} = +1,98 - (-3,51) = +5,49 \text{ mV.}$$

9.1-jadval

Issiq kavsharlangan 100°C nuqta va sovuq kavsharlangan nuqta orasidagi platina metalining boshqa metallar orasidagi termo-EyuK kattaligi

Metall yoki qotishma	E, mV.	Metall yoki qotishma	E, mV
Platina	0,00	Kumush	-0,74
Vismut	-7,34	Mis	+0,36

Konstantan	-3,51	Nixrom	+2,40
Alyumel	-1,29	Xromel	+2,81
Temir	+1,98	Oltin	+0,78

9.3. Qarshiliklar magazini

Pirometrlar tarkibiga fotokamera va galvanometrdan tashqari qarshiliklar magazini ham kiradi. Elektr sxemalarida ishlataladigan magazinlar odatda ikki guruhga bo'linadi:

- a) oddiy cho'lg'amli magazinlar;
- b) bifillyar cho'lg'amli (induktivlanmaydigan) magazinlar.

Termik analizda ko'pincha bifillyar cho'lg'amli qarshiliklar magazini ishlataladi, ular konstruksion jihatdan shtepselli va kurbelli bo'lishi mumkin. Qarshiliklar magazini tanlanganda olinadigan termoparalarning termo-EYuK va galvanometrlarning sezgirligiga e'tibor qaratilishi lozim. Odatda pirometrik moslamalar uchun 0 dan 100 000 Ω gacha hajmdagi qarshiliklar magazini ishlataladi. Differensial pirometrik moslamalar uchun ikkita (0 dan 100 000 Ω gacha hajmdagi) qarshiliklar magazini va galvanometring ishlash jarayoni uchun ham (0 dan 10 000 Ω gacha hajmdagi) ikkinchi qarshiliklar magazini ishlataladi.

Termografik analiz jarayonida qo'llaniladigan isitish moslamalari quyidagi talablarga javob berishi lozim:

1. To'g'ri chiziqli bir tekis isitish,
2. Katta ko'lAMDAGI chegara oralig'ida isitish tezligining boshqarilishi,
3. Isitish rejimining qayta takrorlanishi.

Bu kabi talablarga qarshilik elektr pechlari to'la javob beradi. Bu isitgichlar yuqori solishtirma qarshilikka ($5 \cdot 10^{-4}$ dan $1 \cdot 10^{-4} \Omega/\text{sm}$) ega bo'lishi, harorat ta'sirida kengayish koeffisiyenti juda kichik bo'lishi shart, ayniqsa, oddiy atmosfera sharoitida va yuqori haroratda ular oson oksidlanmasligi kerak. Uzoq ishlatish jarayonida kimyoviy tarkibi va strukturasini saqlab qolish xossasi


bu pechlar uchun muhim ahamiyat kasb etishini unutmasligimiz lozim.

Hozirgi isitish pechlarida temir-xrom-alyuminiyli qotishmalardan tayyorlangan elementlar ishlataladi, chunki ular $1200\text{--}1300^{\circ}\text{C}$ haroratgacha chidaydi. Bu o'tkazgichlarga nisbatan yuqoqiqoq haroratlarga dosh beradigan elementlari sifatida molibden (2000°C) yoki volframdan (3000°C) tayyorlangan moslannalar qo'llaniladi. Ammo bu isitish elementlarining umumiy kamchiligi shundan iboratki, ular tezda oksidlanadilar, buning oldini olish uchun yoki vakuunda, yoki inert gaz (azot, argon) muhitida ishlash talab etiladi. Nometall o'tkazgichlardan tayyorlangan isitish elementlari (karborund, ko'mir, grafit) pechlardagi haroratni 1400°C hatto 2000°C gacha ko'tarishga imkon bersa ham, ulardan termografik maqsadlarida foydalanim bo'lmaydi.

9.4. Isitish egri chizig'i va unga ta'sir etuvchi omillar

Differensial-termik analiz o'z mohiyatiga ko'ra juda nozik usul bo'lgani uchun pirometrik moslama ish jarayonini yozishda ayrim qo'shimcha faktorlarni ham hisobga olishimiz lozim.

a) *Namuna va etalonning solishtirma issiqlik o'tkazuvchanligi farqi.*



9.3-rasm. Differensial egri chiziqning ko'rinishi: a) – namuna issiqlik sig'imi etalonnikidan katta bo'lganda. b) – namuna issiqlik sig'imi etalonnikidan kichik bo'lganda.

Solishtirma issiqlik o'tkazuvchanlik orasidagi farq differensial nol chizig'i chegarasidan og'ishlarga olib keladi. Namunaning issiqlik o'tkazuvchanligi etalonga nisbatan kattaroq bo'lsa, uning differensial egri chizig'i nol chizig'i ustidan, aksincha, issiqlik o'tkazuvchanlik kichik bo'lsa, nol chizig'i ostidan o'tadi (9.3-rasm).

b) Namuna va etalonning massa va issiqlik sig'imi orasidagi farq. Agar o'r ganiladigan namunaning massasi va issiqlik sig'imi etalonga nisbatan kattaroq bo'lsa, differensial egri chiziq pastga og'adi va, aksincha, kichik bo'lsa, differensial egri chiziq yuqoriga og'adi. Isitish tezligi bir xil amalga oshirilganda differensial egri chizig'i ikki modda uchun ham avval bir tekis og'adi va keyin ynga parallel holda davom etadi. Isitishning chiziqli tezligi o'zgarib tursa, differensial egri chiziq ham nol chizig'iga yaqinlashadi.

c) Isitish tezligi. Differensial yozuvlarning tabiatiga kuchli ta'sir etuvchi omillardan biri isitish tezligidir. Sekin boradigan jarayonlarni kuzatish uchun isitish yoki sovutish tezligini juda sekinlik bilan amalga oshirish lozim. Ma'lumki, ayrim metall va tuzlarda qattiq holdagi fazalar o'tishlarining to'la shakllanishini o'r ganish uchun vaqt birligi sifatida sekund va minut emas, balki bir necha soatlar talab etiladi. Isitish tezligining ortishi bilan fazaviy o'tishlar orasidagi vaqt qisqarib, differensial egri chiziq og'ish kattaligi ortadi. Ayrim hollarda, isitish tezligining oshirilishi shunday effektlarni kuzatish uchun imkon beradiki, sekin isitilganda bu jarayon sezilmaydi.

Isitish tezligini tanlashda ayrim hollarni hisobga olishimiz kerak:

- ko'pgina hollar uchun isitish tezligini 5-20 grad/min oraliq'ida tanlashimiz maqsadga muvofiqdir;
- juda sekin boradigan jarayonlarning tadqiqoti paytida isitish va sovutish tezlik darajasini 5 grad/min.gacha belgilash lozim;

- katta tezlikda amalga oshadigan jarayonlar uchun isitish tezligini 1 minutda 40°C (hatto 100°C gacha tezlikda) ko'tarish mumkin;

- isitish tezligini tanlash vaqtida o'rganiladigan modda massasini e'tiborga olishimiz kerak, chunki isitish tezligi va modda miqdori bir-biriga bog'liq faktorlar hisoblanadi.

Odatda, o'rganiladigan namuna miqdori qancha kam olinsa, isitish tezligini shuncha oshirish mumkin. Isitish tezligining o'zgarishi ayrim hollarda oddiygina harorat egri chiziq tabiatiga ta'sir ko'rsatadi, masalan ayrim birikmalarning degidratlanish harorati o'zgaradi. Kaolinlarni o'rganish davomida shu narsa isbotlandiki, isitish tezligining 5 dan 100 grad/min.gacha oshirilishi ularning dissosilanish haroratini 300° gacha farq qilishiga olib keladi.

d) Modda miqdorining termogrammaga ta'siri. Olinadigan termogrammalarning sifati o'rganiladigan namuna miqdoriga bog'liq, kam miqdordagi moddalarni isitish jarayonida harorat gradienti kichik bo'lib, fazaviy o'tishlar chegarasi aniq qayd qilinadi. Katta miqdordagi moddalarni isitish davomida ularni chetki qismidan boshlab o'rtasigacha qizdirish paytida chetki massaning fazaviy o'tishi boshlanguncha bir tekis issiqlik ichki tomonqa uzatiladi. Ammo, moddaning atrofidagi qismi fazaviy o'tishi jarayonida butun issiqlik energiyasi shunga sarflanib, ichkariga tomon issiqlik uzatilishining harorat doimiyligi o'zgaradi va pirovard-natijada termoparaning ishchi kavshar nuqtasi atrofidagi isitish tezligi buziladi. Katta miqdordagi namuna differensial termogrammasini yozib olish jarayonida yaqin harorat oralig'ida kuzatiladigan ayrim termik effektlar va fazaviy o'tishlar bir-biri bilan qo'shilib ketishi yoki bir-birini qoplashi mumkin.

e) Etalon tanlash. Biror etalon tanlashda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- tadqiqot olib boriladigan harorat oralig'ida etalon modda o'zgarmasligi;


- uning issiqlik o'tkazuvchanligi va issiqlik sig'imi imkon chegarasida o'rganiladigan namunaga yaqin bo'lishi;
- o'zi gigroskopik xossalarni namoyon qilmasligi talab etiladi.

Misol uchun kalsiy karbonati, magniy karbonati yoki dolomitni o'rganishda etalon sifatida magniy oksididan foydalanish mumkin. Tuproq va silikatlar uchun – alyuminiy oksidi, shamot yoki ba'zida chinni tavsiya etiladi. Metallar va ularning qotishmalarini o'rganishda mis, alyuminiy, nikel va h.o. kabi etalonlar tanlanadi. Organik moddalarni o'rganish uchun etalon sifatida magniy oksidi tavsiya etiladi, ammo bu hollar uchun ishlataladigan magniy oksidining kuchli adsorbsion xossalarining ta'sirini kamaytirish maqsadida etalon ishlatalishdan oldin qattiq qizdirilishi lozim.

Ayrim hollarda etalon sifatida yomon issiqlik o'tkazuvchanlik xossasiga ega bo'lgan g'ovak shishalardan ham foydalilanadi. Etalonsiz ham termik analizni amalgalashish mumkin, lekin bu hollarda differential termoparalarning ishchi kavshar nuqtasi bevosita blok ichida joylashtirilishi shart.

9.5. Termogrammaning shakllantirilishi va tahlili

Termogrammalarni chizishda avval fotoqog'ozda nol nuqtalari belgilanadi va to'g'ri chiziq bilan tutashtiriladi (nol chizig'i), bu chiziq ayni paytda harorat-vaqt bog'liqlik egri chizig'i uchun absissa o'qi vazifasini bajaradi. Pirometrarda bu chiziq avtomatik ravishda chiziladi va barabanning aylanish tezligi (minut yoki soatlarda) har 2 minut aniqlikda qayd etib boriladi. Termogrammaning chap tomonida o'tkazilgan perpendikulyar chiziq (ordinata o'qi)da harorat qiymatlari qo'yib chiqiladi, ayni paytda u graduirlash chizig'i vazifasini bajaradi (9.4-rasm).



9.4-rasm. Termogrammaning tuzilishi va fazaviy o'tishlar haroratinining aniqlanishi.

Termogrammadagi graduirlash chizig'i ordinata o'qiga shunday parallel joylashtiriladiki, termogramma nol chizig'i chizg'ichdagи sovuq kavsharlash nuqtasi bilan mos kelishi, siljitunganda differential egri chiziqning o'zgarish nuqtasi bilan mos kelishi va siljitunganda differential egri chiziqning o'zgarish nuqrasi bilan ustma-ust tushishi lozim. Issiqlik effekti haroratinining dastlabki qiymati oddiy termogramma chizig'i bilan chizg'ichning kesishgan joyidan boshlab topiladi.

Murakkab sistemalarning differential-termik analizi paytida, ayniqsa, issiqlik o'tkazuvchanligi yomon bo'lган namunalarda differential egri chiziqdagi fazaviy o'tishlar o'zgarishi silliq qayd etiladi. Issiqlik effekti haroratini topish uchun differential egri chiziqdagi to'g'ri chiziqli chegaralardan davomi o'tkaziladi va ularning chegarasi aniqlanadi. B nuqta orqali o'tkazilgan AA' va BB' urinmalaridan GG' perpendikulyari o'tkaziladi va oddiy termogramma chiziqidagi D nuqtasini aniqlash imkonи yaratiladi va bu fazaviy o'tishning boshlang'ich nuqtasi qismi hisoblanadi. Differential egri chiziqning dastlabki holatiga qaytishi fazaviy o'tish bosqichi yakunini anglatadi. Z nuqtasidan o'tkazilgan EE' perpendikulyari oddiy termogrammadagi J nuqtasini aniqlaydiki,

bu yana bir marta fazaviy o'tishning oxirgi nuqtasini topishga imkon yaratadi.

Differensial termik analizni amalga oshirish davomida quyidagi tartibdagi kundalik yozuvlar olib borilishi tavsiya etiladi:


1. Sana;
2. Termogrammadagi va qayd daftaridagi tartib raqami;
3. O'rganilayotgan namuna nomi;
4. Namuna massasi;
5. Etalon modda;
6. Oddiy va differensial termoparalar zanjiridagi qarshiliklar magazini;
7. Isitish va sovutish tezliklari;
8. Tajribadagi minimal va maksimal harorat qiymati;
9. Barabanning aylanish tezligi;
10. Kuzatilgan effektlar va ularning harorati.

9.6. Termik effektlar va gaz ajralishining qayd etilishi

Differensial-termik analiz yordamida moddalarning fizikaviy va kimyoviy xossalarni o'rganish bilan bir qatorda ularning parchalanib gaz ajralishi, elektr o'tkazuvchanligining o'zgarishi, massasining kainayishi, issiqlik sig'imi, issiqlik o'zgaruvchanligi kabi xususiyatlarini ham qayd qilish mumkin.

Gazovolyumografiya usuli pirometrda namunaning parchalanishi natijasida ajralib chiqqan gazlar miqdorini o'lchashga asoslangan. Gazovolyumografiya usuli, ayniqsa, kristallogidratlar va gidratlarning parchalanib suv ajratishi, ammiakatlar va ayrim noorganik va organik kislota tuzlarining (karbonatlar, nitratlar, sulfatlar, xloratlar, perxloratlar, oksalatlar va h.o.) parchalanishi kabi jarayonlarni o'rganishida keng foydalaniadi. Parchalanadigan moddadan ajralib chiqadigan gazlar (O_2 , H_2 , Cl_2 , CO , CO_2 va boshqalar)ning hajimi tajriba jarayonida bevosita o'lchanadi. Ayrim hollarda ajralib chiqadigan gaz mahsulotlarining hajmini bevosita o'lchab bo'lmasa, ular boshqa reagentlar bilan ta'sir ettiriladi va oson aniqlanadigan

gazlarga aylantiriladi. Masalan, suv bug'lari ajralib chiqadigan reaksiyalarda ular bevosita CaH_2 , CaC_2 bilan ta'sirlashganda ajraladigan gazlar hajmi aniqlanadi:



Ajralib chiqqan gaz hajmini o'lchanash natijasida osonlik bilan ekvivalent suv miqdorini topish mumkinligi har bir kimyogarga tushunarli bo'lsa kerak. Gazovolumografiya yordamida murakkab tarkibli gazlarni alohida aniqlash, odatdag'i sharoitda beqaror bo'lgan oraliq gidratlar mavjudligini termografik effektlar yordamida isbotlash mumkin. Juda oz miqdordagi moddalarni (taxminan 10^{-4} gramm) ham vakuum-volumografik usul bilan tadqiqtini amalga oshirish mumkin, bunda ajralgan gaz hajmini $0,01 \text{ sm}^3$ gacha aniqlikda o'lchanadi.


Gazovolumografik analizni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan uskunalar quyidagilardan iborat:

1. Reaksiyon idish,
2. Avtomatik ishlaydigan gaz byuretkasi,
3. Termografik uskuna.

9.7. Termogravimetriya va termogravitatsion analiz


Termogravimetriya. Yuqori haroratda massa o'zgarishi bilan boradigan kimyoviy reaksiyalarning borishi haqida xulosa chiqarish termogravimtriya deyiladi. Reaksiyalar uzlusiz davom etgani uchun massa o'zgarishini ham uzlusiz kuzatib borish lozim. Ayrim termometrik tarozilarda ko'zgu-galvanometrik nurli tarozi o'chovlaridan foydalilanadi va oqibatida termogravimetriya usulining imkoniyatlari keskin yuksaladi. Buning uchun elektr isitgich ichiga aniq massadagi o'r ganiladigan modda namunasi solingan byuks joylashtiriladi. Isitish ma'lum dastur asosida soatiga $50-100^\circ\text{C}$ chegarasida isitish tezligi bilan olib boriladi. Naminaning harorati termoelement yordamida nazorat qilib boriladi, ayni bir paytda massa o'zgarishi ham qayd qilinadi. Termogravimetriyada gaz fazadagi komponentlarning

sifat va miqdoriy o'zgarishini aniqlash uchun birmuncha qiyinchiliklar tug'iladi. Buning uchun germetik apparatlardan foydalanish lozim. Agressiv (Cl_2 , HCl) gazlar ajralishi bilan boradigan reaksiyalarda metallarning korroziyasi yuz beradi. Bu hollarda 1926-yilda Mak Bayn va Bakr tarozilaridan foydalanadilar (9.7- va 9.8-rasmlar).




9.7-rasm. Elektropechlar yonida joylashtirilgan termotarozi.

Keyingi (9.9-rasm) rasmda kalsiy (a) va magniy (b) oksalatlarining termogravimetrik egri chiziqlari keltirilgan, unda ayrim xarakterli nuqtalar belgilangan. Harorat ko'tarilishi bilan ($100-200^\circ\text{C}$ intervalida) dastlab $\text{CaC}_2\text{O}_4 \cdot \text{H}_2\text{O}$ suvni yo'qotaqdi va suvsiz tuzga aylanadi. Kalsiy oksalati 400°C gacha barqaror bo'lib, undan yuqori haroratda parchalanadi va CO ajralib chiqadi:




9.8-rasm. Mak-Bayn va Bakrlar ning termik tarozilarini sxemasi.


Taxminan $\sim 700^\circ\text{C}$ haroratda kalsiy karbonati ham oksidgacha parchalanadi:




Bu jarayon 900°C gacha davom etadi va keyin to'xtaydi. Ca^{2+} va Mg^{2+} ionlari oksidlarini birga cho'ktirishda diagrammalarining qiyimatlari o'rGANIB ayrim xulosaga kelish mumkin. Ular termogravimyallarining turlicha o'zgarishidan foydalanib, 500°C haroratda $\text{CaCO}_3 + \text{MgO}$ aralashmasi barqaror bo'lib, ayni shu aralashmani 900°C gacha qizdirish orqali $\text{CaO} + \text{MgO}$ aralashmasining massasi aniqlanadi. 9.10-rasmida kumush nitrati (a) va mis(II)-nitratining hamda ular aralash-masining termogravimetrik analiz natijalari keltirilgan.



9.9-rasm. Kalsiy okasalat (a) va magniy okasalatlarning termogravimetrik chizig'lari.




9.10-rasm. Kumush nitrat (a), mis(II)-nitrat $\text{Cu}(\text{NO}_3)_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ (b) va ular aralashmasining (c) termogravimetrik chizig'lari.



9.11-rasm. Termogravimetrik (TG) va unga mos keluvchi differensial termogravimetrik (DTG) diogrammalar.

Ma'lum ehtiyojkorlik bilan bu moddalar aralashmasi o'rganiolganda, ular o'zaro reaksiyaga kirishishi mumkinligini ham aniqlaganlar.



Ba'zi hollarda moddalar massasining o'zgarishi bunchalik keskin kechmasligi ham mumkin. Bu hollarda termogravimetrik (TG) egri chizig'i o'rniga differensial termogravimetrik (DTG) egri chiziq olinadi. DTG egri chizig'i TG egri chizig'ining birinchi hosilasi bo'lib, namuna massalari-ning keskin o'zgarishlari katta aniqlik bilan qayd etiladi (9.11-rasm). Bu boroda De Keyzer yarat-gan differensialtarozisini alohida qayd qilish lozim, chunki u bilan bevosita DTG qayd qilib boriladi. Bu tarozining har ikki pallasiga bir xil massadagi platina tigellari osiladi.


9.12-rasm. De Keyzerning differensial termotarozilari.

Har ikki tigelga ham bir xil massadagi bir modda namunasi solinadi va albatta, bu bosqichda tarozi muvozanat holatida bo'ladi. Namunalarni isitish ma'lum farq bilan birinchi namuna ikkinchisidan $\Delta t=5-10$ °C chegarasida oldinroq isitib boriladi. Demak, birinchi tigeldagi modda parchalanishi ikkinchisidan oldinroq qayd qilib boriladi va massa o'zgarishi ham alohida e'tibor bilan o'lchab boriladi. Bu jarayondagi massa o'zgarishi tarozi ustidagi ko'zgu tomonidan fotoqog'ozga qayd etib boriladi (9.12-rasm).

Termik analiz va differensial termik analiz Modda tarkibidagi atomlar va molekulalararo energiyaning keskin o'zgarishi issiqlik yutilishi oqibatida yuz beradi. Bu hodisa natijasida tahlil qilinayotgan modda bilan atrof-muhit harorati orasida ma'lum farq bo'lishiga olib keladi. Masalan, harorat o'zgarishi modda parchalanib, uchuvchan komponentlarning ajralishi, kristall panjara tuzilishining o'zgarishi, suyuqlanishi va qattiq moddalar orasida boradigan reaksiyalar oqibatida yuz beradi. Bu bog'liqlik yordamida moddaning sifat va miqdoriy analizini amalga oshirish mumkin. 9.13-rasmda termik analizning uch xi'l asosiy usullari yordamida olingen diagrammalari berilgan. Birinchi holda (a) modda namunasining qizdirilishi oqibatida vaqt birligida haroratning o'zgarishi ma'lum burchak ostida yo'nalgan to'g'ri chiziqli grafik shaklida qayd etiladi. Agar moddaning shakli, tarkibi, tuzilishi o'zgarmasa ham shunday to'g'ri chiziq olinar edi. Ammo o'rganiladigan modda namunasida reaksiya amalga oshsa, ekzotermik jarayonda issiqlik ajralishi, endotermik jarayonda issiqlik yutilishi kuzatiladi. Birinchi holda grafikdag'i egri chiziq yuqoriga tez ko'tariladi, ya'ni modda namunasining harorat o'zgarishi reaksiya bormagan holdagidan farq qiladi. Endotermik reaksiyada teskari shakl qayd etiladi. Jarayon tugashi oqibatida, grafik vertikal chiziq shklida davom etadi, keyin esa namunaning isish chizig'i kuzatiladi (9.13-rasm).

Bu rasmda aks etgan egri chiziq namunani juda sekin (minutiga 1-2 °C) isitish natijasida olinadi. Bu jarayonda hech qanday reaksiya amalga oshmaydi. Diagrammaning bu chiziqli


o'zgarishi x-o'qiga parallel shaklda qayd qilinadi. Issiqlikning yutilishi yoki ajralishi oqibatida vaqt birligidagi interval kamayadi (ekzotermik reaksiya) yoki oshadi (endotermik reaksiya).



9.13-rasm. Termik (a, b) va differensial termik (c) analiz chiziqlari.

o'zgarmasligi kerak. Namunalarning barchasi termometrlar bilan alohida ta'minlangan holda isitib boriladi. Barcha termometrlar o'zaro tutashtirilgan bo'lib, ular orasidagi harorat bir xil bo'lsa, termik kuchlanish so'ndiriladi.


Reaksiya tugaganda egri chiziq o'zgarishi teskari tomonaga og'ib, keyin asosiy chiziqqa mos tutashadi. Uchinchi diagramma o'zgarishi differensial termik analiz (DTA) usuli bilan olingan (9.13, c-rasm). 9.14-rasmda DTA moslamasining ishlash prinsipi ko'rsatilgan. Bu uskunada harorat o'zgarishi chiziqli dasturlash-tirilgan va unda uchta bir xil hajmdagi idishlar simmetrik joylashtirilgan. Bu tigellarning biri analiz qilinadigan modda bilan to'ldiriladi, qolgan ikkita-siga inert modda solinadi. Bu inert moddalar (masalan, $\alpha\text{-Al}_2\text{O}_3$) termik analiz davomida



9.14-rasm. Differensial termik analiz qurilmasining sxemasi: 1 – analiz qilinadigan modda namunasi idishi, 2 va 3 – inert moddalar solinadig-an idishlar, 4 – harorat o'zgarishini nazorat qiluvchi sistema, 5 – termoelementilar ularanadigan kontaktlar.

Namuna va inert modda harorati orasida farq paydo bo'lsa, ular qayd qilish moslamasi yordamida o'lchab boriladi (namuna va inert moddalarning issiqlik o'tkazuvchanligi orasidagi farqni qayd qiladi). Tigellarning joylashuvi simmetrik bo'lgani uchun ularga bir xil miqdorda issiqlik beriladi. Moddaning fazalararo o'zgarishi yoki parchalanish reaksiyasi oqibatida issiqlik yutilishi yoki ajralishi ekzotermik yoki endotermik jarayon cho'qqilari sifatida qayd qilinadi (9.15-rasm).

Qayd qilingan harorat cho'qqilari moddaning sifat o'zgarishlariga mos keladi. Olingan cho'qqilarning yuzalari issiqlik miqdori o'lchamini bildiradi va reaksiyaga kirishuvchi modda yoki analiz qilinadigan modda komponentlarining miqdoriy birligini aniqlaydi. Ammo hosil bo'lgan bu egri chiziqlardan foydalanish ancha qiyin, chunki moddaga issiqlik berish usuli shu cho'qqilarning shakli va o'mniga katta ta'sir etadi. Bularidan kelib chiqadigan asosiy xulosa: namunalardan olingan DTA natijalarini solishtirish uchun bu diagrammalar faqat bitta uskunada, ayni bir xil harorat va uning chiziqli o'zgarish tezligi doimiyligiga rioya qilib olinishi lozim.




9.15-rasm. Endotermik (T_1 haroratda) va ekzotermik (T_2 haroratda) cho'qqlarini aks eiga DTA chiziqlari.

Minerallar, karbonatlar, hidratlar, hidroksidlar, formiatlar, oksalatlar, tuproq, ruda va boshqa noorganik moddalar, shu bilan birga jun, ipak, selluloza, kraxmal va turli organik sun'iy tolalarni analiz qilish uchun DTA usuli keng qo'llaniladi.

TG, DTG va DTA usullari bilan olingan natijalarni solishtirish uchun maxsus moslamalar yaratildi, ulardan biri derivatografdir (9.16-rasm).

9.16-rasm. Derivatograf sxemasi:


1 – analiz qilinadiigan modda idishi, 2 – inert modda idishi, 3 – chinni naycha, 4 – termoelement, 5 – elektr isitgich, 6 – elektr o'tkazgich simlar, 7 – tarozi, 8 – g'altak, 9 – magnit, 10 – DTG galvanometri, 11 – T galvanometri, 12 – DTA galvanometri, 13 – chiroq, 14 – optik tirkish, 15 – foto-qog'oz uchun baraban, 16 – foto-qog'oz.



Bu jihozdagi tigelda tadqiqot qilinadigan modda massasini nurli ko'rsatkich yordamida fotoqog'ozda termogravimetrik (TG) egri chiziq shaklida yozib olinadi. Tarozi shaynining ikkinchi tomoniga juda katta cho'lg'amlı magnit g'altagi osilgan. Namuna massasining o'zgarishi bilan g'altak doimiy magnit ta'sirida

harakatlanadi. Uning harakat tezligi va induktivlangan kuchlanish kattaligi namuna parchalanishiga proporsional ravishda o'zgaradi. Kuchlanish qiymatlari TG qiymati yozilgan fotoqog' ozda tegishli DTG egri chizig'i kabi yozib olinadi. Bundan tashqari, namuna solingan va tarozi shayniga osilgan tigel ichiga termoelement ham tushiriladi. Ikkinchisi termoelement esa inert modda solingan tigelga tushiriladi. Har ikki element differensial ishga tushirilganda, bir vaqtning o'zida TG, DTG va DTA egri chiziqlari yozib olinadi. 9.17-rasmda magnezit va dolomit aralashmasining derivatografik tadqiqot natijalari keltirilgan.

Endi termik analiz natijalariga asosida kompleks birikmalarning termik xususiyatlari, oraliq mahsulotlarning parchalanish harorat diapa-zonlari, haroratning ko'tarilishiga mos ravishda massaning kamayishi, DTA chizig'ida aks etgan endohamda ekzotermik effektlarning qayd




9.17-rasm. Magnezit va dolomit aralashmasi uchun differensial termoanalitik (DTA), differensial termogravimetrik (DTG) va termogravimetrik (TG) chiziqlari.

etilishini muhokama qilamiz. Kompleks birikmalarning termik barqa-rorligini o'rganish shuni ko'rsatadiki, haroratning ko'tarilib borish natijasida dastlab 100-140°C oralig'idagi endotermik effektlarda vodorod bog' va koordinatsion bog'langan suv

molekulalari birikma tarkibidan to'liq bug'lanib chiqib ketadi. Endo- va ekzotermik effekt-larning keyingi bosqichlarida turli effektlar sifatida molekulalarning suyuqlanishi, yonishi, va birikma tarkibidan chiqib ketishi kuzatiladi. Endotermik effektlar kompleks birikma tarkibidagi oraliq mahsulotlarning suyuqlanishi, bug'lanishi, dissotsilanishi, oksidlanishi va ayrim strukturalarning o'zgarishi bilan izohlansa, ekzotermik effektlar esa birikma tarkibidagi molekulalarning parchalanishi, yonishi, kristall strukturalarning buzilishi va qattiq qoldiq ya'ni, oksidlarning hosil bo'lishi bilan tushuntiriladi.


9.18-rasmda kalsiy nitrati va nikotinamid bilan olingan kompleks birikmasining $[Ca(NO_3)_2 \cdot 4CNC_5H_4CONH_2 \cdot H_2O]$ derivatogrammasi berilgan. Bu kompleks birikma quruq holdagi 2,36 g $Ca(NO_3)_2 \cdot 4H_2O$ tuzi bilan 4,89 g o'zaro 0,15-0,20 soat davomida aralashtirish yo'li bilan sintez qilindi. Bu kompleks birikmaning DTA egri chizig'ida 115, 191, 206, 692, 740 °C oltita endotermik va 245, 344, 360, 378, 385, 400, 415, 422, 440, 545, 586, 606, 638 va 810 °C haroratda o'n to'rtta ekzotermik effektlar qayd etildi. Birinchi endotermik effekt olingan kompleksning bir molekula svuni yo'qotishi bilan belgilanadi. 86-160 °C harorat orasidagi massa yo'qotishlar 1,1 % ni tashkil etdi.



9.18-rasm. Kalsiy nitrati bilan nikotinamid kompleks birikmasi- $[Ca(NO_3)_2 \cdot 4CNC_5H_4CONH_2 \cdot H_2O]$ ning derivatogrammasi.

160-201, 201-236, 236-310, 310-350, 350-370, 370-381, 381-393, 393-408, 408-419, 419-431, 460-576, 576-601, 628-680,

680-710, 710-732, 732-770, 732-770 va 770-860°C harorat diapazonidagi parchalanish oqibatida massa ulushining kamayishi 0,6; 1,2; 16,1; 40,2; 1,3; 0,8; 0,6; 1,2, 1,3, 1,2; 1,1; 8,4; 0,6 va 0,83 % ni tashkil etdi. 86-860°C oralig'ida namuna massasining kamayishi umumiy TG egri chizig'ida 80,5 % ni tashkil etadi va qoldiq sifatida kalsiy oksidi qoladi.




9.19-rasm. *Magniy nitrati va tiomochevina kompleks birikmasining $[Mg(NO_3)_2 \cdot 2CS(NH_2)]$ derivatogrammasi.*

Bu kompleks birikmaning DTA egri chizig'ida 108, 191, 212, 230, 280, 375 °C oltita endotermik va 475, 562, 712, 790 °C haroratda to'rtta ekzotermik effektlar qayd etildi. Birinchi endotermik effekt $Mg(NO_3)_2 \cdot 2CS(NH_2)$ kompleksining polimorf o'zgarishlari bilan xarakterlanadi. Keyingi termoeffektlar suvsiz kompleks birikmaning 90-150, 150-200, 200-220, 220-270, 270-350, 350-400, 450-540, 540-640 va 750-830 °C harorat oraligida bosqichli parchalanishi oqibatida vujudga keladi. Bu bosqichlarning har birida o'r ganiladigan namunaning massasi tegishli ravishda 9,44; 18,33; 21,11; 15,00; 1,11; 1,20; 1,18; 1,20, va 1,11 % miqdorigacha kamayadi. Termogramma egri chizig'ining tahlili 190-826 °C oralig'ida namuna massasining umumiy kamayishi 69,68 % ni ko'rsatdi. Parchalanish oqibatidagi bu namuna massasining kamayishi oxirgi mahsuloti sifatida magniy oksidi qoldig'iga to'g'ri keladi.

Endi xona haroratida 30 minut davomida yuqori intensivlikda aralashtirish (mexanokimyoviy usul) natijasida sintez qilingan magniy palmitati, oleati va stearatlarining amidli

kompleks birikmalari differensial termik analizi natijalari bilan tanishamiz.


$Mg(C_{15}H_{31}COO)_2 \cdot 2CS(NH_2)_2 \cdot 3H_2O$ tarkibli kompleks birikma 0,001 mol magniy palmitat trigidrati tuzi bilan 0,002 mol tiokarbamidni xona haroratida 30 minut tegirmonda intensiv aralashtirish usuli orqali olindi. 9.20-rasmda $Mg(C_{15}H_{31}COO)_2 \cdot 2CO(NH_2)_2 \cdot 3H_2O$ kompleks birikmasi termik egri chizig'ining 118, 203, 228, 412, 432, 440, 460 va 585°C haroratlarda sakkizta endotermik effektlar, hamda 289, 382, 482, 548, 705 va 757 °C haroratlarda oltita ekzotermik effektlar qayd etildi. Isitish davomidagi endotermik effektlar suyuqlanish, bug'lanish kristall tuzilishining o'zgarishi yoki degidratlanish reaksiyasi, dissotsilanish kabi fizikaviy hodisalar natijasida kuzatiladi. Ekzotermik effektlar juda kam uchraydi, ular oksidlanish va ayrim struktur o'zgarishlar bilan kechadigan jarayonlardir. Birinchi endotermik effekt uch molekula suvning ajralishi bilan belgilanadi va 60-150°C oralig'ida namuna massasi 7,29 % miqdorida kamayadi. Suvning bu haroratda ajralishi uning kompleks birikma tashqi sferasida bo'l shini anglatadi. Termoeffektlarning keyingi bosqichlaridagi o'zgarishlar suvsiz moddaning bosqichli parchalanishini ko'rsatadi. TG egri chizig'i bo'lab haroratning 60-900°C chegarasidagi o'zgarishi natijasida modda nanunasi massasining 95,88 % ga kamayganligini isbotladi.




9.20-rasm. Magniy oleati va mochevina kompleks birikmasining $Mg(C_{15}H_{31}COO)_2 \cdot 2CO(NH_2)_2 \cdot 3H_2O$ derivatogrammasi.

Termometrik titrlash. Termometrik titrlash usuli analiz qilinadigan sistemaning titrlanishi jarayonida qo'shilgan titrant hajmiga bog'liq ravishda harorat o'zgarishi aniqlanadi. TG va DTA aniqlash usuli bo'lsa, ulardan farqli ravishda termometrik titrlash ekvivalent nuqtasini aniqlash usulidir. Bu analiz imkonи boricha adiabatik sharoitda o'tkaziladi va ishchi eritma termostatik byuretkadan qo'shiladi; titrlanadigan eritma esa Dyuar idishiga o'xshagan termik izolirlangan idishga solinadi. Dyuar idishi harorati o'ta sezgir moslamada qayd qilib boriladi. Harorathajm (agar titrant eritmasi uzlusiz qo'shilsa, harorat-vaqt) egri chizig'i boshqa titrlash egri chizig'iga o'xshaydi. Barcha titrlash jarayonlarida endo- va ekzotermik entalpiya o'zgarishi kuzatiladi. Termometrik titrlash usullari suvli, suvsiz eritmalarda, suyuqlanmalarda neytrallash, cho'ktirish, kompleks birikma hosil qilish va oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini amalga oshirish uchun analitik kimyoda keng qo'llaniladi.

9.21-rasmda ekzotermik jarayon uchun termometrik titrashning ideal egri chizig'i keltirilgan bo'lsa, amalda olingan egri chiziqlar 9.22-rasmda ko'rsatilgan. AB chizig'idagi sezilmash og'ish namuna va atrof-muhit harorati orasidagi farq yaqinlashuvi bilan, CD bo'lak og'ishi ham qisman shu sababli bo'lsa, asosan titrlanadigan eritma va titrant harorati orasidagi farq bilan belgilanadi.



9.21-rasm. Ideal termometrik titrash chizig'i.



9.22-rasm. Eksperimental termometrik titrash chizig'i.

Agar calorimetrik yacheykaning konstantasi (Q) ma'lum bo'lsa, reaksiya issiqligi (ΔH) quyidagi tenglama bilan aniqlanishi mumkin:

$$\Delta H = -Q \frac{\Delta T}{\lambda}$$

λ -o'rin olish reaksiyasiga kirishgan moddaning mollar soni.

Termometrik titrash uchun tanlangan reaksiyalar katta tezlik bilan kechishi kerak. Bu usul haqidagi qo'shimcha ma'lumotlar maxsus adabiyotlarda o'z aksini topgan.

Zamonaviy qurilmalarda titrash uchun avtomatik byuretkalar va haroratni o'lchab borish uchun o'ta sezgir termistorlardan foydalanadilar va natijalar avtomatik tarzda qayd qilib boriladi. Termistor-termorezistor harorat ko'tarilishi bilan elektr qarshiligi ortib yoki kamayib boruvchi yarimo'tkazgichli rezistor. U haroratni boshqarish va o'lchab borish uchun mo'ljalangan. Haroratni o'lchash aniqligi $\pm 0,0002$ °C gacha olib boriladi (9.23-rasm).



9.23-rasm. Zamonaviy titrash qurilmasi (EasyPlus Mettler Toledo).

9.8. Isitish va elektr o'tkazuvchanligi egri chiziqlari


Termogrammalarning tahlili o'rganiladigan moddaning elektr o'tkazuvchanligini aniqlash bilan birga olib borilsa, juda qimmatli ma'lumotlar olinadi. Aniqlanadigan moddaning kompleks termogrammasini olish ushun namunaga termopara bilan birga uning ikki yon tomonidan platinadan tayyorlangan elektrodlar tushiriladi. Moddaning faqatgina fazaviy holati xarakteristikalarini olish kerak bo'lgan taqdirda elektrodlarning shakli va ularning orasidagi masofa kattaligi muhim rol o'ynamaydi. Shuni unutmaslik lozimki, kuzatiladigan moddaning syyuq fazaga o'tishini aniqlash talab etiladigan bo'lsa, elektrodlar imkonli boricha bir-biriga yaqinroq o'matiladi, masalan 1 mm oralig'ida. Boshqa hollarda elektrodlar orasidagi masofa 7-10 mm gacha tanlanishi mungkin.

Termik va elektr o'tkazuvchanlikni aniqlash egri chiziqlari yordamida suvsizlantirilgan individual tuzlarning xossalalarini (tozalik darajasi, polimorfizmi), qattiq fazada amalga oshadigan reaksiyalar mexanizmini o'rganish, hamda tuzli murakkab sistemalar uchun solidusning termik liniyalarini aniqlash imkonini beradi. Shuni unutmaslik lozimki, tuzlarning tozaligi elektr o'tkazuvchanlikka katta ta'sir etadi. Quyida bu ta'sirlarning ayrimlarini ko'rib chiqamiz:

a) elektr o'tkazuvchanlik egri chizig'i tuzlar suyuqlanguncha abssissa o'qiga parallel o'tadi. Suyuqlanish haroratida bu chiziq

keskin yuksaladi va yana ilgaridagidek abssissa o'qiga parallel ravishda o'tadi. Bir nechsa marta qayta kristallangan tuzlar (NaNO_3 , KI va h.o.) bunday xossalarga ega (9.24-rasm).

b) elektr o'tkazuvchanlik qiymati tuz suyuqlsnishidan ancha ilgari ko'tarila boshlaydi. Suyuqlangandan keyin, xuddi birinchi holdagidek, maksimal qiymatga ega boladi. Bu egri chiziq olingan namuna tarkibida qo'shimchalar borligini anglatadi.



9.24-rasm. Tuzlarning elektr o'tkazuvchanligini o'rGANISH.

Bu xildagi tuzlar qayta kristallash usuli bilan tozalanganida ular elektr o'tkazuvchanligining ortishi yuqoqiqoq haroratda yuz beradi. Ammo, ba'zi hollarda, elektr o'tkazuvchanlikning ortishi tuzlarning qattiq holda ham yuqori o'tkazuvchanlik xossasi borligidan darak beradi.

c) Ayrim tuzlar borki, ular elektr o'tkazuvchanligining ortishi suyuqlanish haroratidan ancha ilgari boshlanadi, ammo bu tuzlarning ko'p martalik qayta kristallanishi bilan ham elektr o'tkazuvchanlik egri chizig'i tabiatiga ta'sir etib bo'lmaydi. Ehtimol, bu xildagi tuzlar (Na_2CO_3 , Na_2CrO_4 , K_2CO_3 , K_2CrO_4) yuqori harorat ta'sirida yangi modifikasiyalarga o'tadi va polimorf shakllarini o'zgartiradi.

Nazorat savollari

1. Termik analiz qachondan boshlab qo'llanilmoqda?
2. Le-Shatel'e-Saaladen va N.S. Kurnakov moslamalarining farqlarini ko'rsating.
3. Suyultirilgan modda sovutilganda nega uning sovutish chizig'iда siniq liniya hosil bo'ladi?
4. Gibbsning fazalar qoidasini aytib bering.
5. Differensial-termik analiz deganda nimani tushunasiz?
6. Termoparalar nima uchun kerak?
7. Termoparalar qanday metallardan tayyorlanadi?
8. Qarshiliklar magazini nima uchun kerak?
9. Termik analiz jarayonida moddalarning qanday sifatlarini o'rganish mumkin?

Adabiyotlar

1. Юнусов Т.К., Зайнутдинов У.Н., Утениязов Қ. У., Салихов Ш.И. Кимёда физикавий усуллар.- Тошкент.- Университет.- 2007.- 336 б.
2. Пентин Ю.А., Вильков Л.В. Физические методы исследования в химии.- М.: Мир.- 2003.- 683 с.
3. Умаров Б.Б. Физикавий тадқиқот усуллари, маъruzалар конспекти.- БухДУ.- Зиё-Ризограф.- 2000.- 187 б.
4. Миронов В.А., Янковский С.А. Спектроскопия в органической химии.- М.: Химия.- 1985.- 232 с.
5. Драго Р. Физические методы в химии.- М.- Мир.- в 2х томах.- 1981.
6. Блюменталь Г., Энгельс З., Фиш И., Хабердитцль И и др. Анорганикум.- Перевод с нем. языка, в двух томах.- Под ред. Л. Кольдица.- М.: Мир.- 1984.- Т.2.- С. 393-405.

X BOB. DIFRAKSJON ANALIZ

Reja:

- 10.1. Kristallografiya va mineralogiya haqida,
- 10.2. Kristall birikma xususiyatlari, kristall panjara,
- 10.3. Kristallar simmetriyasi,
- 10.4. Difraksion usullar,
- 10.5. Rentgenstruktur analiz,
- 10.6. Nazorat savollari,
- 10.7. Aralash masalalar,
- 10.8. Adabiyotlar.

Tayanch atamalar

Kristallografiya. Mineralogiya. Kristall panjara. Kristallar simmetriyasi. Simmetriya tekisligi, o'qi, markazi. Kategoriya va singoniyalar. Monoklin. Triklin. Trigonal. Kub. Tetragonal. Geksagonal. Rombik. Difraksion usullar. Rentgenografiya. Elektronografiya. Neytronografiya. Rentgenofaz analiz. Laue usuli. Debay-Sherer usuli. Rentgenstruktur analiz. Rentgen kameralar. Rentgen naychasi (trubkasi). Yadro nurlari detektori.

10.1. Kristallografiya va mineralogiya haqida

Mineralogiya va kristallografiya difraksion analiz usullariga asos solgan eng qadimiy fan hisoblanadi. Arxeologik tadqiqotlarga ko'ra paleolit davrida insonlar 20 ta mineral haqida bilishgan, neolit davrida – bu son 40 taga etdi.

Sharqda minerallarning tarkibi va xossalari olimlar tomonidan yaxshi tahlil qilingan. Mineral jismlarning birinchi sinflanishi qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino tomonidan ishlab chiqilgan va XVIII-asr oxirigacha yevropaliklar bundan foydalanishgan. Minerallarni Ibn Sino to'rtga bo'lgan: toshlar; tuproqlar; oltingugurtli rudalar; metallar. Olim o'zining "Tib qonunlari" shoh asarida barcha minerallar kelib chiqishini tushuntirib, ularning tasnifini keltirgan.

Xorazmlik buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy nodir metallar va javohirlarning tasniflashda ularning fizik

konstantalariga to‘xtalib o‘tadi. U dastlab 26ta mineral moddalarni tizimlashtirib chiqdi.

XVII-asr Yevropa olimlari orasida Sharq allomalari ishlariiga e’tibor kuchaydi. Shu asming oxirlarida Kopengagen universiteti professori Erazm Bartolin (1625-1698 yy.) island shpatining nur sindirishiga e’tibor berdi, bu modda maydalanganda bir xil ko‘p yoqli bo‘laklarga ajralishini aniqladi, uning vatandoshi Nils Stenon (1636-1687 yy.) kvars va gematit kristallari uchun qirralar orasidagi burchakning doimiyligini kashf qildi. *“Kristallografiya”* atamasini birinchi marta 1723-yilda shveytsariyalik olim M. Kapeller tomonidan *“Kristallar haqidagi fan”* sifatida qo‘lladi.

1745-yilda M.V. Lomonosov (1711-1765 yy.) minerallar katalogini tuzib, Fanlar akademiyasi kolleksiyasiga kiritdi va N. Stenonning qirralar orasidagi burchaklar doimiyligi qonunini rivojlantirdi.

1772-yilda kristallar tuzilishini o‘rgangan fransuz olimi J.B. Rome de L’ilel (1736-1790 yy.) o‘zining *“Kristallografiya tajribalari”* nomli asarida barcha kristallar uchun burchak doimiyligi qonunini kashf etdi.

1812-yilda nemis olimi I. Gesselning 32 guruhdan iborat kristallografik simmetriya haqidagi e’lon qilgan maqolasi e’tibordan chetda qoldi, 1831-yilda bu boradagi barcha ishlarini umumlashtirib, Leypsig shahrida *“Kristall”* nomli asarini chop etdi, ammo bu kitob keng ommalashmadи.


1867-yilda rus olimi, Mixaylov nomidagi artilleriya akademiyasi professori A.V. Gadolin (1828-1892 yy.) Gesseldan bexabar holda 32 xil kristallar simmetriyasi bo‘lishi mumkinligini nazariy jihatdan tushuntirib, kristallar sinflanish tizimini yaratdi va uni matematik asoslab berdi. Uning yaratgan nazariy qonuni to‘laligicha o‘z isbotini topdi va hozirgacha olimlar undan foydalanib kelmoqdalar. Bu ma’lumotga ko‘ra olingen 32 simmetriya sinfidan foydalanib, asosan kristallarning 7ta koordinata tizimining (atomlarning eng zinch joylashgan qatori) biror-bir simmetriya xususiyatlari e’tiborga olinadi va ular turli-tuman bo‘lishidan qat’iy nazar ma’lum sinflarga bo‘linadi.

Zamonaviy kristallografiya va mineralogiya XIX asr oxirida shakllandi. 1890-yilda E.S. Fedorov (1853-1919 yy.) kristallardagi atomlarning 230 xil fazoviy guruhlari bo'lishini isbotladi. 1891-yilda nemis kristallografi A. Shenflis ham bu xulosani tasdiqladi. Bu fikrlar 1912-yilda M. Laue, Fridrix va Knipping tomonidan rentgen nurlari difraksiyasi yordamida tahlil qilindi va eksperimental usulda kristallarning ichki tuzilishi aniqlandi. M. Lauening tajribalari kristall panjarada material zarrachalar orasidagi masofani aniqlashga imkon berdi. M. Lauening ishlari kristallografiyaning yangi tarmog'i – *kristall kimyosini* shakllantirdi. Bu fan sohasi kristallarning tarkibi va ichki tuzilishi orasidagi uzviy bog'liqlikni oshib berdi.


1913-yilda imgliz olimi U.L. Bregg va rus kristallografi G.V. Vulf (1863-1925 yy.) kristall panjara tekisliklari orasidagi masofa va rentgen nurlari to'lqin uzunligining o'zaro bog'liqlik formulasini aniqladilar. Bu ishlar mineralogiya va kristallografiyaning yangi tarmog'i – minerallar sintezi sohasini shakllantirdi va belgilangan xossal yangi sun'iy birikmalar olinishiga imkoniyat yaratdi.

10.2. Kristall birikma xususiyatlari, kristall panjara

Tabiiy minerallarning 98 % kristall tuzilishga ega. Ulardagi kichik zarrachalar: atom, ion va molekulalar ma'lum tartib bilan bog'langan. Zarrachalarning bunday tartibli tuzilishi kristall yoki fazoviy panjarani tashkil etadi. Bunga misol sifatida osh tuzi (galit), grafit va olmos kristall panjaralarini keltiramiz (10.1-rasm).



a



b



c

10.1-rasm Osh tuzi – (a), grafit – (b), olmosning – (c) kristall panjaralari.

Rasmdan ko‘rinadiki, har qanday tabiiy kristallardagidek, bu namunalarning ham cheklash elementlari bor: tomon, qirra, burchaklar. Tomon – ko‘p burchakni chegaralaydigan tekislik, qirra – tomonlar kesishgan chiziq (liniya). Ikkita kesishgan tomonlar (tekisliklar) burchak hosil qiladi.

Tabiiy minerallarda uch xil kristall panjara uchraydi:

- atom kristall panjara, kristall panjara tugunlarida (nuqtalarida) atomlar joylashgan (olmos, grafit);
- ion kristall panjara, kristall tugunlaridagi zarra ion holida bo‘ladi (NaCl);
- molekulyar kristall panjara, ularning tugunlarida molekulalar joylashgan (shakar, aspirin, boshqa organik moddalar).

Kristall jismlar o‘zining anizatropiyasi (son qiymati bilan emas, balki vektoriallik – ma’lum yo‘nalishga ega bo‘lishi) bilan ajralib turadi. Ya’ni kristallarning qattiqligi, zichligi, rangi, magnit va elektr o‘tkazuvchanligi parallel yo‘nalishlarda bir xil bo‘lib, boshqa yo‘nalishlarda farq qiladi. Ayrim kristallarda (masalan, kub singoniyali kristall) izotroplik xossasi ham uchraydi. Kub singoniyali jismlarda nurning tarqalishi barcha yo‘nalishda bir xil bo‘ladi, ya’ni ular optik izotropdir.

10.3. Kristallar simmetriyası


Simmetriya atamasi yunoncha koinotning uyg‘unligi, proporsionallik, o‘zaro moslik, monandlik, muvofiqlik, bir-biriga to‘g‘ri kelish, bir jinslilik kabi ma’nolarni bildiradi, bu tushunchani eramizdan avvalgi (e.a.) VI-asrda yashagan Pifagor (570-490 yy.) kiritgan, bir xil figuralar yoki ularning fazoviy joylashuviga e’tibor qaratib, har qanday simmetriyadan chekinishni “asimmetriya” deb atagan. Simmetriya haqidagi nazariy ta’limot asosini matematiklar va kristallograflar yaratishgan. Fazoviy simmetriya qonuniyatları qadimiy faylasuflar, dindorlar tomonidan ham e’tirof etilgan. Qadimgi yunon faylasuflari o‘zlarining naturfalsafiy ta’limotlarida

simmetriyadan foydalanishgan. E.a. VI-asrda yashagan faylasuf Anaksimandr (610-546-yy.) o‘zining kosmologik nazariyasida simmetriya tushunchasidan hoydalanib, uni "*muvozanat*" deb qabul qilgan, Yerni yassi silindr shaklida deb tasavvur etgan, u olam markaziga, ya’ni atrof-muhitga nisbatan simmetrik joylashgan deb tushuntirgan.




E.a.IX asrda Xitoyda har xil geometrik shakllarning simmetriyasiga alohida urg‘u berib, eng oliv simmetriya shakli doira (aylana) deb hisoblashgan. Qadimgi xitoyliklarning fikricha, xudolar yashovchi maskan osmon bo‘lib, uni doirasimon deb qabul qilishgan.

Bir-biriga o‘xhash va ustma-ust tushganda o‘zaro qoplanadigan jismlar simmetrik deb aytildi. Simmetriya tekisligi ko‘zgu xususiyatiga ega bo‘lib, uning ikki tomonida simmetrik, o‘zaro ko‘zgudagi aks bo‘lgan jismlarning qismalarini ko‘ramiz. Tabiatda ninachi va kapalak qanoti, turli gullarning yaproqchalariga e’tibor bilan razm solsak, ular ham o‘zaro simmetrikdir.

Minerallarning kristall shakllarini o‘rganib chiqqan olimlar ularda ham simmetriya elementlari mavjudligi aniqlashdi. Kristallar simmetriyasida ma’lum yo‘nalishlardagi chegaralash elementlari (tomon, qirra, burchaklar) va boshqa xossalarning to‘g‘ri takrorlanishi aniqlandi. Kristallarning simmetriyasi ularning geometrik shaklida namoyon bo‘ladi. Geometrik shakllarning bu qonuniyati ular ma’lum tekislik yordamida kesilganda, yoki o‘z o‘qi atrofida aylantirilganda, uning ichidagi nuqtaga nisbatan chegaralaydigan elementlarning joylashuvini solishtirish bilan aniqlanadi. Simmetriya tekisligi – osh tuzi kristalini simmetriya o‘qi bo‘yicha kesganda (10.2-rasm) uni teng ikki bo‘lakka ajratadi. Bu bo‘laklarda kristalning xususiyatlari va chegaralash elementlari takrorlanadi. Ular bir-biriga ko‘zgudagi aksidek o‘xhash bo‘ladi. Masalan, kubda ana shunday 9 ta simmetriya tekisligi mavjud (10.3-rasm).





10.2-rasm. Osh tuzi kristalining (P) simmetriya tekisligi.




10.3-rasm. Kubning to'qqizta ($9P$) simmetriya tekisliklari.

Simmetriya tekisligi lotincha " P " harfi bilan belgilanib, uning takrorlanishi harf oldida koeffitsiyent raqami kabi qo'yiladi ($9P$).


Geksagonal (olti burchakli) prizmada bunday simmetriya tekisliklari ettitani tashkil etadi. Ularning oltitasi Z-o'qi bo'yicha yo'nalgan bo'lsa, bittasi prizma balandligining qoq yarmida gorizontal tekisligida joylashgan (10.4-rasm). Simmetriya o'qi. Kristall shu o'q atrofida ma'lum burchakka aylantirilganda o'zining dastlabki holatini takrorlaydi (10.5-rasm, d). Simmetriya o'qi lotincha " L " harfi bilan belgilanadi va 360° ga to'liq aylantirilganda necha marta o'zining dastlabli holatini egallasa, bu son simmetriya o'qi tartibi ($L^2, L^3, L^4, L^5, L^6, \dots$) bo'ladi. Kristallarda bir necha simmetriya o'qi bo'lishi mumkin. Masalan, kubda 3 ta to'rtinchchi tartibli o'q – $3L^4$ (3 ta qarama-qarshi tomonlar o'rtasidan o'tgan), 4 ta uchinchi o'q – $4L^3$ (qarama-qarshi diagonal burchaklardan o'tgan) va 6 ta ikkinchi tartibli o'q – $6L^2$ (qarama-qarshi qirralar o'rtasidan o'tkazilgan) bo'ladi.



10.4-rasm. Geksagonal (olti burchakli) prizmaning yetita simmetriya tekisligi.



Rombik
 $a \neq b \neq c$
 $\alpha = \beta = \gamma = 90^\circ$



Monoklin
 $a \neq b \neq c$
 $\alpha = \beta = 90^\circ, \gamma \neq 90^\circ$

a

b


d

10.5-rasm. Turli xil singoniyali kristallarning ko'rinishlari: kub – ($a=b=c$) singoniyali, oktaedr monokristallning simmetriya o'qi – (d).

Kristallarda oddiy simmetriya o'qlari bilan bir qatorda inversion o'qlar ham bor. Kristallning inversion o'qi o'rganiladigan namunani shu o'q atrofida ma'lum burchakka burib, keyin uning aksini kristall markaziy nuqtasi atrofida akslantirilganda namoyon bo'ladi. Bu ba'zida *ko'zgu-aylanma simmetriya o'qi* deb ham aytildi.

Simmetriya markazi – kristallarda simmetriya tekisligi va o'qidan tashqari simmetriya markazi (nuqtasi) ham mavjud. Simmetriya markazi lotincha "C" harfi bilan belgilanadi, u shunday nuqtaki, undan geometrik figura qirralarigacha o'tkazilgan har qanday chiziqni ikkiga bo'ladi (10.5d-rasm). Kristallarda birdan ortiq simmetriya markazi bo'lishi mumkin emas. Kub, oktaedr, geksagonal prizmalarda simmetriya markazi simmetriya o'qi va tekisligi kesishgan nuqtadir. Bularning barchasi simmetriya elementlari deyiladi.

Kristallardagi simmetriya elementlari o'zaro bog'liq bo'ladi. Aniqlanishicha, turli xil guruhlanish kombinatsiyalari 32 xil bo'lib, ular 32 kristallografik sinflar yoki simmetriya ko'rinishlari deyiladi. Yuqorida aytganimizdek, 1867-yilda rus akademigi A.V. Gadolin bu simmetriya ko'rinishlarini ko'rsatib berdi. Har qaysi simmetriya ko'rinishlari yoki sinflari – uning barcha simmetriyalari yig'indisidir. Kristall yoki ular modellarining



simmetriya elementlari kombinatsiyasi keltirilgan 32 sinfning ma'lum bir simmetriya ko'rinishiga mos tushadi (10.1-jadval).

Kristallografik sinflar yoki simmetriya ko'rinishlari sistema yoki singoniya nomli 7ta yirik guruhlarga birlashtirilgan:

Yuqori kategoriya 1. Kub singoniya

- | | |
|-------------------|---|
| O'rta kategoriya: | $\left\{ \begin{array}{l} 2. \text{Geksagonal singoniya} \\ 3. \text{Tetragonal singoniya} \\ 4. \text{Trigonal singoniya} \end{array} \right.$ |
| Quyi kategoriya: | $\left\{ \begin{array}{l} 5. \text{Rombik singoniya} \\ 6. \text{Monoklin singoniya} \\ 7. \text{Triklin singoniya} \end{array} \right.$ |


Yuqori kategoriya 1. *Kub singoniya*. Bu singoniyaga simmetrik kristallar kiradi va simmetriya o'qlari ikkinchi tartibdan yuqori bo'ladi (10.6-rasm). Kub singoniyada simmetriya elementlarining soni maksimal bo'lib, $3L^44L^36L^29PC$ formula bilan ifodalanadi. Kub singoniya kristallari oktaedr, tetraedr, kub shaklida uchraydi, osh tuzi (galit), pirit, galenit, flyuorit va h.o. minerallar shu singoniyaga mansub bo'ladi: NaCl; CaF₂; NaClO₃.

10.1-jadval

Kristall panjara konstantalari

Singoniya	O'qlaming birligi	O'qlar burchagi
Kub	$a = b = c$	$\alpha = \beta = \gamma = 90^\circ$
Geksagonal	$a = b \neq c$	$\alpha = \beta = 90^\circ, \gamma = 120^\circ$
Trigonal	$a = b \neq c$	$\alpha = \beta = 90^\circ, \gamma = 120^\circ$
Tetragonal	$a = b \neq c$	$\alpha = \beta = \gamma = 90^\circ$
Rombik	$a \neq b \neq c$	$\alpha = \beta = \gamma = 90^\circ$
Monoklin	$a \neq b \neq c$	$\alpha = \beta = 90^\circ, \gamma \neq 90^\circ$
Triklin	$a \neq b \neq c$	$\alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ$


10.6-rasm. Kub singoniya kristallari: 1 - kub, 2 - kub-oktaedr, 3 - oktaedr, 4 - rombododekaedr, 5 - tetragontrioktaedr, 6 - ikki tetraedr kombinatsiyasi, 7 - pentagondodekaedr, 8 - geksoktaedr, 9 - bir-biriga tutashgan qo'shalq kub.



O'rta singoniya kategoriyalari. Bu kristallarda ikkinchi tartibli birgina simmetriya o'qi bo'ladi:

2. *Geksagonal singoniyada* olrinchi tartibli (L^6) birgina simmetriya o'qi bo'lishi mumkin (10.7-rasm). Maksimal simmetriya elementlari formulasi L^6L^27PC .


3. *Tetragonal singoniyada* bitta to'rtinchchi tartibli (L^4) simmetriya o'qi bo'ladi, uning formulasi L^4L^25PC (10.8-rasm). Prizma, piramida va dipiramidalardan ushbu singoniya kristallari bo'lib, cassiterit (qalaytosh), xalkopirit (mis kolchedani), sirkon va boshqa minerallardan tashkil topgan: SnO_2 ; CaWO_4 ; PbMoO_4 .




10.7-rasm. *Geksagonal singoniyada* kristallari: 1 - gekkoagonal dipiramida, 2 - prizma va dipiramida qo'shilgan kristall, 3 - gekkoagonal prizma, 4 - prizma dipiramida va pinakoid birlashmasi.

Prizma, piramida, dipiramida geksagonal singoniya kristallari bo'lib, apatit, nefelin, berill va boshqa mineralarda uchraydi: SiO_2 ; KNO_3 ; AgI .

10.8-rasm. *Tetragonal singoniya kristallari*: 1 - tetragonal dipiramida, 2 - anataz, 3 - tetragonal prizma va dipiramida aralashmasi, 4 - dipi-ramida va ikki prizma aralashmasi, 5 - ikki prizma va dipiramida aralashmasi, 6 - ikki tetragonal prizma va dipiramidaning pinakoid bilan aralashmasi. 7 - ikki prizma va ikki dipiramida aralashmasi (kassiterit), 8 - qo'shaloq cassiterit, 9, 10 - vulfnit, 11 - sheelit.



4. *Trigonal singoniyada* bitta uchinchi tartibli (L^3) simmetriya o'qi uchraydi (10.9-rasm). Kristallarning formulasi L^3L^23PC bo'lib, prizma,



10.9-rasm. *Trigonal singoniya kristallari*: 1 - gematit, 2 - ilme-nit, 3, 4 - turmalin, 4-sferik uchburchakka o'xshash ko'n-dalang kesimi bor qirralari shtrixlangan turmalin, 6 - korund.


piramida, dipiramida shaklidagi kvars, kalsit, gematit, korund minerallari unga mansub: CaCO_3 ; $\text{CaMg}(\text{CO}_3)_2$ – dolomit.

Quyi kategoriya singoniyalari. Yuqori simmetriya o'qlari tutmagan va faqatgina ikkinchi tartibli (L^2) simmetriya o'qi bo'lgan kristallar bu singoniyaga mansub.


5. *Rombli singoniya* kristallarida bir necha ikkinchi (L^2) simmetriya o'qlari yoki bir necha simmetriya tekisliklari (P) bo'lishi mumkin (10.10-rasm). Ularning maksimal formulasi $3L^23PC$, xarakterli shakllari rombik: tetaedr, prizma va piramida.

Bu singoniya minerallari – barit, topaz, markazit, antimonit va boshqalar: BaSO_4 ; $\text{MgSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$.

10.10-rasm. Rombli singoniya kristallari: 1 - rombli prizma, 2 - rombli dipiramida, 3 - stavrolit kristali, 4,5 - qo'sh stavrolit kristallining bir-biri bilan qo'shilgan shakli, 6 - prizma, 7 - ikki prizma va dipiramida aralashgan kristallari, 8 - topaz, 9,10 - arsenopirit kristallari, 11,12 - andaluzit kristallari, 13,14 - kolumbit-tantalit kristali, 15 - samarskut.



6. *Monoklin singoniya*. Bu kristallarda bitta ikkinchi (L^2) simmetriya o'qi va bir simmetriya tekisligi (P), maksimal L^2PC formulali rombik prizma, pinakoid va monoedrlarning oddiy shaklida bo'ladiigan ortoklaz, slyuda, gips, piroksen kabi minerallar uchraydi: $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$; $\text{C}_4\text{H}_4\text{O}_6$ – vino kislota (10.11-rasm).



10.11-rasm. *Monoklin singoniya* kristallari: 1 - uchta pinakoid aralashmasi, 2-4 - piroksen kristallari prizma va pinakoid aralashmasi, 5,6 - ssen, 7,8 - monatsit, 9 - wolframit, 10, 11 - epidot.

7. *Triklin singoniya*. Bu turkumga simmetriya elementlari bo'lмаган yoki faqat simmetriya markazi (C) tutgan

monokristallar kiradi. Bu singoniyaga mis kuperosi, plagiokaz, distan minerallari kiradi: $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$; $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$.

10.4. Difraksion usullar

Difraksion usul yorug'lik yoki zarrachalar oqimining sochilishiga asoslangan, bunda ularning energiyasi o'zgarmaydi. Bu jarayon yorug'likning sochilishi yoki zarrachalarning to'lqin xususiyatiga asoslangan. Eng ko'p qo'llaniladigan difraksion usullar:

- rentgenografiya ($\lambda_r \approx 10^{-1}$ nm);
- elektronografiya ($\lambda_e \approx 5 \cdot 10^{-3}$ nm);
- neytronografiya ($\lambda_n \approx 10^{-1}$ nm).

Bulardan rentgen nurlari va elektronlar oqimidan foydalanish keng tarqalgan. Olimlar yadro reaktoridan sochilgan katta tezlikdagi neytronlarni qayta kichik tezlikdagi oqimga aylantirish usuli orqali ulardan foydalanish imkoniyatini kengaytirdilar. Struktur tadqiqotlarda to'lqinning sochilish intensivligini uning tushgan burchagiga nisbatan o'lchash qabul qilingan. Ammo bu usulni qo'llashda bir qator o'ziga xosliklar mavjud. Rentgen nurlari atom va molekula elektronlari bilan to'qnashib sochiladi. Elektronlar oqimi – yadro va elektronlarning hosil qilgan elektr maydonidan, neytronlar oqimi esa yadrolar bilan ta'sirlashadi. Rentgenografiya, elektronografiya va neytronografiyada atomlarning nurni qaytarish imkoniyati tegishli ravishda $I_r : I_e : I_n \approx 1 : 10^6 : 10^{-2}$ kabi nisbatga to'g'ri keladi. Elektronografiyada maksimal sochilish $10^{-6} - 10^{-5}$ sm o'lchamdagisi yupqa pylonka va gaz fazadagi molekula tuzilishiga bog'liq. Rentgen nurlari va neytronlar oqimi makroskopik ob'ektlarni, ya'ni bir necha millimetrlar qalinlikdagi moddaning kondensirlangan fazadagi namunasini o'rghanadi. Rentgenog-rafiya va elektronografiya usullari kristallokimyo kursida maxsus o'rghaniladi.

Elektromagnit to'lqin energiyasi bilan uning to'lqin uzunligi o'zaro bog'liq:

$$\lambda = \frac{c}{v} = \frac{c \cdot h}{E_v}$$

$E_{\nu}-\nu$ -chastotadagi fotonlar energiyasi, c – yorug'lik tezligi. ϑ -tezlik bilan harakatlanayotgan m -massali zarrachaning to'lqini (Lui-de-Broyl tenglamasi):

$$\lambda = \frac{h}{m\vartheta}$$

Difraksiyaning asosiy sharti shundaki, nurning to'lqin uzunligi – λ o'rganiladigan modda atomlari orasidagi masofaga yaqin yoki undan kichik bo'lishi kerak. Chunki difraksiyaning geometrik nazariyasiga ko'ra interferensiya natijasi (to'lqinlarning yig'ilishi) sochilgan nur yo'lining farqi bilan belgilanadi.


Rentgen nurlari ta'sirida molekulalardan tarkibidagi atomlarning valent elektronlari emas, balki ichki elektronlardan nur sochilishi – difraksiyasi kuzatiladi. Bu tajribalar yordamida atomlarning effektiv radiuslarini, ulardagi elektron zichliklarini va dipol momentlarini hisoblash mumkin. Rentgen nurlarining to'lqin uzunligi va atom kattaliklari yaqin bo'lgani va kristall zarrachalari muntazam joylashgani uchun ularni difraksion panjara deb qarash mumkin, λ – to'lqin uzunligiga ega nur oqimi kristall ichiga tarqaladi va kristall tugunlaridagi atom yadrolariga tushgan nur qaytariladi (10.12-rasm). Bu nur interferensiyasi natijasida ular bir-birini kuchaytirisi yoki so'ndirishi mumkin. Interferensiya oqibatida S_1 va S_2 nurlar o'tgan yo'l ayirmasi ikki bo'lakcha AB va BC kesma yig'indisi bilan belgilanadi.

$AB = BC = d \cdot \sin \theta$, shuning uchun $\delta = 2d \cdot \sin \theta$ demak, qaytgan nurlar interferensiyasi oqibatida ular bir-birini kuchaytiradi;

$$n\lambda = 2d \cdot \sin \theta$$

Bu tenglama 1913-yilda ingliz olimi U.L. Bregg va G.V. Vul'f (Rossiya) tomonidan isbotlangan va kristallar strukturasini aniqlashdagi asosiy shartni belgilaydi; $n=1$, 2 , 3λ bo'lsa, fazalar bir xil bo'lib rentgen nuri intensivligi kuchayadi, $n=\frac{1}{2}$ bo'lsa, nurlar bir-birini so'ndiradi. Ularning ko'rsatishicha, har qanday difraksion nurni kristallografik tekislikdan qaytgan nur (difraksion aksi) deb qarash mumkin. 1916-yilda P. Debay va P. Sherrer polikristall materiallar strukturasini o'rganishda rentgen nurlari


difraksiyasiidan foydalanish mumkinligini isbotladilar va joriy qildilar.



10.12-rasm. Rentgen nurlarining kristall panjaradagi difraksiyasi.

Hozirgi zamonda kristallarning difraksion rasmlarini olish uch xil usulda amalga oshiriladi:


1. Laue usuli – polixromatik usul. Kristall namunasiga har xil to‘lqin uzunlikdagi nurlar ta’sir ettiriladi. Kristall orqasidagi fotoplastinkada rentgen nurlari har xil tarqalishi oqibatida qora dog’lar paydo bo‘ladi (10.13-rasm). Olingan difraksion shakl rasmning perpendikulyar tekislikdagi atomlar joylanish simmetriyasini ko‘rsatadi.



10.13-rasm. Erkin o‘rnatalgan berill mono- kristalining lauegrammasi.
(Ingichka lini-yalar bilan zonali egri chiziqlar tasvirlangan.)


2. Debay-Scherrer usuli – polikristall kukun modda namunasi rentgen nurlari bilan nurlantiriladi ($\lambda=\text{Const}$). Har xil kattalikdagi kristallarning ayrimlari Bregg tenglanasini qanoatlantiradi, ulardan rentgen nuri difraksiyasi kuzatiladi. Olingan rentgenogramma kristall panjara strukturasini aniqlash imkoniyatini bermaydi, ammo kukun tarkibini aniqlashga imkon

beradi (10.14-10.16-rasmlar). Bu usul boshqacha rentgenofaz analiz usuli deyiladi va olingen natija debayegramma deyiladi. Har bir moddaning debayegrammasi faqat uning o'ziga xos bo'ladi.



10.14-rasm. Debay-Sherrer usuli bilan rentgenogramma olish sxemasi: 1 - difrakto-grammasi, 2 - monoxromatik rentgen naychasi, 3 - diafragma (tirqish), 4 - kristall namunasi, 5 - fotoplenka, 6 - rentgeno-gramma, kristall ichidan o'tgan nur dog'lari – O.

10.15-rasm. Polikristall kukun rentgenogramma olishi – 3D rasmning 1D proeksiyasi.



10.16-rasm. Rentgen naychasi (trubkasi)ning alohida ko'rinishi

3. Monokristallarning to'liq strukturasini aniqlash uchun so'nggi paytlarda uni aylantirish usuli qo'llanilmoqda. Namunanig kristall o'lchamlari 0,1-1 mm atrofida va rentgen

nurining to'lqin uzunligi o'zgarmas ($\lambda=\text{Const}$) bo'lishi talab etiladi.

10.5. Rentgenstruktur analiz

Rentgen nurlarining kristallardagi difraksiyasi 1912-yilda nemis fiziklari M. Laue, V. Fridriz va P. Knipping tomonidan kashf qilindi. Ular rentgen nurlari bilan kristallga ta'sir etib, kristall orqasidagi fotoplastinkada difraksion shaklini qayd qildilar (10.13-rasm). Rasmdagi har bir dog' – kristalldan sochilgan difraksion nur izi bo'lib, uni *lauegramma* deb atash qabul qilingan.

Rentgenstruktur analiz (RSA) – kristall tuzilishini rentgen nurlari bilan o'rganishdir. Rentgen nurlari gamma va UB nurlar orasidagi elektromagnit to'lqin bo'lib, unung to'lqin uzunligi $\lambda=10^{-2}-10^{-5}$ sm.ga teng. Atom strukturalarini o'rganish uchun atom o'lchamlariga yaqin bo'lgan ($\lambda \approx 1\text{\AA}$) to'lqin uzunlirdagi nurdan foydalanishadi. RSA usuli bilan metallar, qotishma, mineral, noorganik va organik moddalar, oqsil va nuklein kislotalarmolekulalari o'rganiladi. Bulardan eng afzali kristall jismlar atomar strukturasini aniqlashdir.

Laue ishlab chiqqan rentgen nurlarining kristallardagi difraksiyasi to'lqin uzunligi (λ), kristallning elementar yachevkasi parametrlari (a, b, c), difraksion nurlar (α, β, γ) va uning kristallga tushish burchagi ($\alpha_0, \beta_0, \gamma_0$) orasidagi quyidagicha bog'liqlikni isbotladi (10.12-rasm):

$$a(\cos\alpha - \cos\alpha_0) = h\lambda$$

$$b(\cos\beta - \cos\beta_0) = k\lambda$$

$$c(\cos\gamma - \cos\gamma_0) = l\lambda$$

bunda h, k, l – miller indekslari deb atalgan butun sonlar.

Difraksiya sharoitini yaratish va uni qayd qilish uchun rentgen kamerasi va difraktometr kerak bo'ladi. Namunadan sochilgan rentgen nurlari fotoplenkada qayd qilinadi yoki yadro nurlanishi detektori bilan o'lchanadi. Buning uchun monokristall

muntazam strukturaga ega bo'lib, o'lchamlari 0,1 mm atrofida bo'lishi lozim.

Rentgen kameralari – fotoplenkada rentgen nurlarini tushirib, namunaning atom strukturasini o'rGANISH moslamasi. Rentgen kamerasining vazifasi rentgen nurlari difraksiyasi shartini (Bregg-Vul'f sharti) amalga oshirib, rentgenogramma olish.

Rentgen naychasi (trubkasi) – rentgen kamerasiga tushuvchi nur manbasi hisoblanadi. Maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda ular turli konstruksion tuzilishiga ega bo'ladi.

Rentgen difraktometri – kristall namunalaridan qaytgan nuring yo'nalishi, intensivligini o'lchaydigan asbob, u berilgan yo'nalishdan qaytgan nur intensivligini 0,1 % aniqlikda, difraksiya burilishi burchak gradusining 0,1 minutigacha o'lhash imkoniyatiga ega. Difraktometr rentgen nuri manbai, rentgen goniometri (namuna qo'yiladigan stolcha, ya'ni ingichka igna), nurlanish detektori va o'lichov qayd qilish elektron moslamasidan iborat. Rentgen kameralariga nisbatan rentgen difraktometri yuqori aniqlikka ega. Unda to'plangan informatsiya avtomatik ravishda amalgga oshadi va EHM bilan boshqariladi.

Yadro nurlari detektori – α -, β -zarrachalar oqimini, rentgen va γ -nurlarni qayd qilish moslamasi. Barcha detektorlarning vazifasi modda atomlari zaryadlangan zarrachalarining ionlanishi va qo'zg'algan holatini qayd qilishdan iborat. Uning asosiy vazifasi tarqalgan nur tarkibi va uning intensivligini o'lhash, zarrachalar energiyasini aniqlash, ularning atom yadrolari bilan ta'siri va beqaror zarrachalarining parchalanish jarayonlarini qayd qilishdan iborat (10.17-rasm). Bu qiyin



10.17-rasm. Zamonalivj avtomatlashirilgan va kompyuter bilan jihozlangan "Xcalibur, Oxford Difraction" CCD-difraktometrining umumiy ko'rinishi (O.S. Sodiqov nomidagi O'zR FA Bioorganik kimyo instituti).

jarayonlarni nazorat qilish uchun va ayrim zarrachalar traektoriyasini o'lhash uchun Vilson kamerasi va uning yangi modeli – diffuzion kameralaridan foydalanadilar. Barcha asosiy detektorlar vazifasi modda atomlarining zaryadlangan qo'zg'algan holatini qayd qilishdan iborat.

Nazorat savollari

1. Qanday moddalarga kristallar deb ataladi?
2. Kristall panjara tushunchasini izohlang.
3. Kristall jismlarning asosiy xossalari qayd qiling.
4. Simmetriya elementlarini aytib bering.
5. Simmetriya o'qi nimani anglatadi?
6. Simmetriya nuqtasi deganda nimani tushunasiz?
7. Simmetriya tekisligi tushunchasini izohlang.
8. Singoniya yoki kategoriya deganda nimani tushunasiz?
9. Simmetriya atamasi nimani tushuntiradi?
10. Kristallografiya va mineralogiya fani asoschilari kimlar?
11. Difraktometrining ish prinsipi va mohiyatini tushuntiring.
12. Rentgenostruktur analiz usulini kimlar asoslab fanga kiritishdi?
13. Minerallar haqidagi ilk ma'lumotlar qaysi o'zbek olimlari tomonidan ishlab chiqilgan?
14. Kristallografiya va mineralogiya fani asoschilari kimlar?

15. Kristallar tuzilishi haqidagi dastlabki tushunchalar kim tomonidan fanga kiritilgan?
16. Simmetriya haqidagi dastlabki tushunchalarni qaysi qadimgi faylasuflar izohlab berishgan?
17. Kristall jismlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
18. Kristall jismlarning anizatropiyasi nimani anglatadi?
19. Tomonlar orasidagi burchak doimiyligi qonuni mohiyati nimada?
20. Kristall panjara tiplarini aytib bering.
21. Qaysi kristall panjarada zarrachalar maksimal zichlikka ega?

Masala va mashqlar

1. C_3H_6O tarkibli moddaning geksandagi eritmasi UB spektrida $\lambda_{max}=279$ nm yutilish maksimumi kuzatiladi. Uning PMR spektrida $\delta 2,00$ m.h. dagi singlet signal qayd qilindi. Mass spektrometriya natijasiga ko'ra $m/z=43$ (100%), 42 (6%), 27 (18%) molekulyar ionlar cho'qqilari qayd qilindi. Shu moddaning tuzilishini yozib bering.

2. C_3H_7Br tarkibli suyuqlikning UB spektri 200 nm dan yuqori sohada tiniq bo'lib, PMR spekroskopiyasi natijasida quyidagi signallar qayd qilindi: 6:1 nisbiy intensivlikdaga δ 1,7 (doublet) va 4,4 (septet) m.h. sohalarida rezonanslashuv, IQ spektroskopiyasi natijalariga ko'ra $\nu=1050, 1200, 1385, 1470, 2950\text{ sm}^{-1}$ chastotalarda tebranishlar qayd qilingan bo'lsa, modda tuzilishini aniqlang.

3. $C_3H_7NO_2$ tarkibli modda berilgan. Uning UB spektrida $\lambda_{max}=280$ nm yutilish maksimumi kuzatiladi. PMR spektrida uchta signallar δ 1,1 (triplet), 1,9 (multiplet), 4,35 (triplet) m.h. maydonlarda 3:2:2 nisbatlarida rezonanslashadi. IQ spektrida $\nu=1100, 1465, 1480, 2970, \text{ sm}^{-1}$ tebranish chastotalari bo'lsa, moddaning tuzilishini anqlang.

4. C_3H_5N tarkibli moddaning PMR spektri olinganda δ 1,2 (triplet), 2,4 (kvadruplet) m.h. da signallar kuzatildi. Signallarning intensivligi 3:2 nisbatda. IQ spektrida $\nu=1100, 1420, 1460, 2240$ va 3000 sm^{-1} tebranish chastotalari bo'lsa, uning struktura formulasi qanday bo'ladi?

5. C_4H_6N tarkibli moddaning PMR spektrida $\delta 3,00$ m.h. dagi singlet signal qayd etildi. Uning IQ spektrida $\nu=1400, 1800, 1920$ va 3000 sm^{-1} valent tebranish chastotalari kuzatildi. Mass-spektrida $m/z=28, 56, 72, 102$ qiymatli molekulyar ion cho'qqilari olingan bo'lsa, modda tuzilishini yozib bering.

6. $C_7H_{10}O_2$ tarkibli moddaning UB spektrida 200 nm dan yuqorida yutilish chiziqlari kuzatilmadi. Uning PMR spektrida 3:6:1 nisbatdagi δ 1,2 (doublet), 3,25 (singlet), 4,7 (kvadruplet)

m.h. da uchta signal qayd qilingan. Shu moddaning IQ spektrida $\nu=1410$ (o'rtta), 1490 (kuchsiz), 2930, 3000 (o'rtta) cm^{-1} sohalaridagi tebranish chastotalari qayd qilindi. Moddarining tuzilishini izohlab bering.

7. $\text{C}_4\text{H}_8\text{OBr}_2$ tarkibli moddaning PMR spektrida δ 3,40 va 3,80 m.h. da ikkita teng intensivlikdagi multiplet signallar o'indi. Uning IQ spektrida $\nu=1320, 1385, 1440, \sim 3000 \text{ cm}^{-1}$ sohalarida tebranish chastotalari qayd qilingan. Mass-spektrida $m/z=28, 108, 110, 136, 140$ qiymatli molekulyar-ion cho'qqilari olingan bo'lsa, uning tuzilishini aniqlang.

8. $\text{C}_5\text{H}_8\text{O}_3$ moddaning UB olinganda $\lambda_{\max}=262 \text{ nm}$ yutilish uchta signallar kuzatiladi. Uning PMR spektrida nisbiy intensivligi 3:4:1 bo'lgan δ 2,15 (singlet), 2,80 va 11,00 m.h. lardagi uchta signallar kuzatiladi. IQ spektrida $\nu=1360$ (o'rtta), 1395 (kuchli), 1640 (intensiv) ~ 3000 (kengaygan o'rtta) cm^{-1} sohalarida tebranish chastotalari bo'lsa, mass-spektrida $m/z=43, 55, 56$ massali molekulyar ionlar cho'qqilari mavjud. Modda tuzilishini isbotlang.

9. $\text{C}_5\text{H}_{13}\text{N}$ tarkibli birikmaning UB spektri 200 nm dan yuqorida tiniq bo'lib, uning PMR spektrida nisbiy intensivligi 9:2:2 bo'lgan δ 0,85 (singlet), 1,10 (singlet), 2,3 (kengaygan singlet) m.h. dagi 3ta signallar kuzatiladi. IQ spektridagi tebranish chastotalari $\nu=1370, 1435, 1560, \sim 3000 \text{ cm}^{-1}$ sohasiga to'g'ri keladi. Mass-spektrida $m/z=30, 41, 55, 57, 71, 72, 87$ miqdorli molekulyar-ionlarning cho'qqilari bor bo'lsa, uning tuzilishini aniqlang.

10. Organik galogenli moddaga natriy sul'fidi ta'sir ettirib olingan birikmaning PMR spektrida ikkita singlet signallar δ 2,85 va 7,5 m.h. maydonlarida 2:5 nisbatda qayd qilindi. Uning IQ spektridagi $\nu=800, 1250, \sim 1500, 1590$ (kuchsiz), 2850, 3060 cm^{-1} sohalarida kuzatilsa, modda formulasini toping.

11. $\text{C}_5\text{H}_{10}\text{O}$ moddaning UB spektrida $\lambda_{\max}=278 \text{ nm}$ yutilish maksimumi kuzatiladi. Uning PMR spektrida 3:2:3:2 nisbiy

intensivlikdagi δ 0,95 (t), 1,6 (m), 2,1 (s), 2,85 (t) m.h. maydonlarida signallar kuzatildi. IQ spektridagi $\nu=2855$ (kuchli), 2930 (kuchli), 2865 (o'rta), 1725 (kuchli), 1430 (o'rta), 1170 (o'rta) cm^{-1} tebranish chastotalari bor bo'lsa, modda tuzilishini isbotlang.

12. C_5H_8O modda UB spektrida yutilish maksimumiga ega emas. PMR spektrida uchta singlet signallar 6:1:1 nisbatlarida δ 1,50, 2,61, 4,2 m.h. maydonlarida kuzatiladi. IQ spektridagi $\nu=2950$ (kuchli), 3300, 3500 cm^{-1} sohalaridagi (kengaygan o'rta) tebranishlar bo'lsa, uning tuzilishini aniqlang.

A d a b i y o t l a r

1. Драго Р. Физические методы в химии.- М.- Мир.- в 2х томах.- 1981.
2. Пентин Ю.А.. Вильков Л.В. Физические методы исследования в химии.- М.: Мир.- 2003.- 683 с.
3. Юсупов В.Г., Тошев М.Т., Парпиев Н.А. Координацион бирикмалар кимёси.- Ташкент.- Университет.- 1996.- 298 б.
4. Зоркий П.М. Симметрия молекул и кристаллических структур.- М.: Изд-во МГУ.- 1986.
5. Вязмин С.Ю., Рябухин Д.С., Васильев А.В. Электронная спектроскопия органических соединений.- Санкт-Петербург.- 2011.- 43 с.

GLOSSARIY

Auksoxrom guruhlar – UB spektroskopiyyada organik birikmalar tarkibidagi xromoforga biriktirilgan va yutilish chizig'i o'mi va intensivligini o'zgartiruvchi guruhlar tizimi. Ular o'rganiladigan namuna rangini kuchaytiruvchi o'tinbosarlar (:NH3, :NH2, :OH, OR, :SH, :SR).

"Barmoq izlari" – infraqizil spektrning har bir moddaning o'zigagina xos bo'lган qismi.

Batoxrom siljish – oralatma qo'sh bog'li sistemalarda mos keluvchi energiya kamayadi va maksimumlarning o'mi katta to'lqin uzunligi tomonga (quyi chastotali soha) siljiydi.

Bolometr – energiya qarshilikning haroratga bog'liqligiga asoslangan elektromagnit nurlanish energiyasini o'lchaydigan asbob.

Bolsman taqsimoti – molekulalari tashqi potensial maydon ta'sirida harakat qilayotgan ideal gazning impuls va koordinatalar bo'yicha taqsimlanishi.

Detektor – elektromagnit to'lqini va zaryadlangan zarrachalarni qabul qilib elektr signaliga aylantiruvchi qurilma.

Diamagnit moddalar – magnit maydonida itariladigan moddalar (tarkibidagi elektronlar juftlashgan).

Difenilpikrilgidrazil (DFPG) – erkin holdagi barqaror radikal EPR spektroskopiyasida tashqi standart sifatida ishlataladi.

Difraksiyon panjara – bir xil masofada joylashgan parallel o'yilalar o'yilgan tekis yoki botiq plastinka.

Dipol moment – dipol zaryadining uning yelkasiga ko'paytinasiqa teng va yelka bo'ylab manfiy zaryaddan musbat zaryadga yo'nalgan vector kattalik.

Dissosiativ rezonans – dissosiasiya bilan birgalikda yuqorida aytilgan rezonans hodisasining sodir bo'lishi.

Dixroizm – bir o‘qli kristallardan o‘tayotgan yorug‘lik o‘zaro perpendikulyar uo‘nalishlar bo‘ylab kuzatilganda kristalning turlicha rangda ko‘rinishi.

Doppler effekti – yoki Doppler siljishi (D) kuzatilayotgan namuna yadrosiniing harakati natijasida spektr chiziqlarining kengayishi.

Ekstinksiya koeffitsiyenti (ϵ) – 1 sm li kyuvetaga solingan va konsentrasiyasi 1 mol/l bo‘lgan eritnadan o‘tgan nurning yutilish kattaligi.

Energetik sath – energiyasi o‘zgarmas bo‘lgan stasionar holat.

Eng past bo‘sh molekulyar orbital – bo‘sh molekulyar orbitallar orasida energiyasi eng past bo‘lgani.

Eng yuqori band molekulyar orbital – band molekulyar orbitallarning orasida energiya

Erkin chopish yo‘li – gaz molekulasining ikkita ketma-ket to‘qnashish orasida bosib o‘tgan yo‘lining uzunligi.

Erkinlik darazasi – zarracha erkin harakat qilishi mumkin bo‘lgan yo‘nalishlar soni.

Fotoelektron – elektromagnit nurlanish ta’sirida modda chiqargan electron.

Foton – yoruqlikning zarrasi.

Giromagnit nisbat – zarracha magnit momentining mexanik momentiga nisbatli.

Gipsoxrom siljish – oralatma qo‘shbog‘li sistemalarda mos keluvchi energiya ortadi va maksimumlarning o‘rnini qisqa to‘lqin uzunligi tomonga (yuqori chastotali soha) siljiydi.

Giperxrom effekt – yutilish maksimumi intensivligining ortishi.

Gipoxrom effekt – yutilish maksimumi intensivligining kamayishi.

Globar – karborunddan tayyorlangan uzunligi 30 mm ga yaqin, diametri 3,5 mm bo‘lgan o‘q (sterjen).

Ionlashtirish samaradorligi (unumi) – ionlashtirish kamerasidagi ionlar sonining molekulalarning umumiy soniga nisbati.

Kation radikal – uglerod uglerod bog‘ining uzilishi natijasida hosil bo‘lgan musbat zaryadlangan ion.

Kvadrupol parchalanish – muossbaur spektrdagи signallarning asosiy va qo‘zg‘olgan holdagi yadro spiniga va yadrolarning elektr maydon gradiyentiga bog‘liqligi.

Larmor chastotasi – doimiy magnit maydonga kiritilgan yadro magnit momentining maydon kuch chiziqlar atrofida qiladigan presession (aylanma) harakatning chastotasi.

Magnit aylanma dixroizm – o‘ngga va chapga qarab aylanish bo‘yicha qutblangan yoruqlikning modda tomonidan yutilishidagi farq bilan bog‘langan dixroizm.

Magnit maydon induksiyasi – magnit maydonning kattaligini va yo‘nalishini xarakterlovchi asosiy kattalik.

Molekulyar refraksiya – molekuladagi hamma elektronlarning qutblanishini ko‘rsatadi.

Monoenergetik – bir xil energiyali (bu yerda elektronlar).

Monoxromatik – bir xil tebranish chastotasi (yoki bir xil to‘lqin uzunligi) bilan xarakterlanuvchi yorug‘lik nurlanishi.

Muossbauer effekti – modda yadrolarining γ -nurlarni yutish natijasida sodir bo‘ladigan energetik o‘tishlar.

Nozik (multiplet) tuzilish – spektrning bitta polosasini bir nechta polosachalarga (chiziqlarga) ajralishi.

Optik izomeriya – ba’zi moddalarning yoruqlikning qutblanish tekisligini teskari tomonga aylantirish qobiliyati.

Ossillyator – ikki atomli molekulaning modeli yoki boshqacha qilib aytganda, oddiy garmonik ossillyatorning modeli.

Paramagnit moddalar – tarkibida juflashmagan (toq) electron tutgan birikmalar, ular tashqi magnit maydoni ta'sirida unga tomon tortiladi.

Prometr – termik tahlil usulining ishchi uskunasi. Termogravimetrik va differensial termik analiz usullarini amalgalashuvchi moslama.

Polosa – moddalarning elektromagnit yutilish spektrlarida hosil bo'ladigan keng yo'laklar (chiziqlar).

Qaytarish energiyasi – γ -rezonans energiyasi kvadratiga to'g'ri proporsional va yadro massasiga teskari proporsional kattalik. Sochilgan γ -nurning bir qism energiyasi shu nur manbayi yoki nur yutuvchi modda yadrolarining qaytarish energiyasi.

Qutblanuvchanlik – elektr maydoni ta'sir qilayotgan dielektrikning musbat va manfiy zarrachalarining qarama-qarshi tomonga qarab siljishi.

Qarshilikning magazini – oddiy cho'lg'amli magazinlar, bifillyar cho'lg'amli (induktivlanmagan) magazinlar.

Rezonans hodisasi – energiyasi tor oraliqda (bir necha elektronvolt) o'zgaradigan elektronni molekula tomonidan qo'shib olinishiga rezonans yo'li bilan elektronni egallab olish deyiladi.

Rezonans o'tish – qo'zg'aluvchi elektromagnit nurlarning chastotasi bilan doimiy magnit maydoniga kiritilgan yadroning larmor chastotasi teng bo'lganda magnit energetik sathlar orasidagi o'tish.

Sindirish ko'rsatgichi – nur optik zichligi kichik muhitdan optik zichligi katta muhitga o'tayotganda uning tezligi o'zgarib, nur sinadi, ya'ni refraksiyaga uchraydi.

Spin-spin o'zaro ta'sir – spinga ega bo'lgan zarrachalarining bir-biri bilan o'zaro magnit ta'sir. Bunga misol qilib noekvivalent protonlarning o'zaro ta'sirini ko'rsatish mumkin.

Stasionar holatlar – vaqt bo'yicha energiyasi o'zgarmaydigan holatlar.

Termogravitatsion analiz – moddaniing termik parchalanishi jarayonida namuna massasi o'zgarishini aniqlash moslamasi bilan jihozlangan pirometr (derivatograf).

Termoparalar – ikki nuqtasi o'zaro kavsharlangan, qolgan barcha qismi izolirlangan ikki elektr o'tkazuvchi sim. Termoelektr yutuvchi kuchni o'lchaydi.

Vakuum ultrabinafsha sohasi – to'lqin uzunligi 200 nm dan kichik bo'lgan ultrabinafsha nur.

Xromofor – elektron yutilish spektrida tanlangan yorug'lik yutilishini ta'minlaydigan organik birikma tarkibidagi funksional guruh, ya'ni modda molekulasining rangi uchun mas'ul bo'lgan qismi. Odatda bu guruhlar uchun $\pi \rightarrow \pi^*$ va $n \rightarrow \pi^*$ o'tishlar xarakterli bo'ladi: C=C, C≡C, C=O, C=V, N=O, NO₂, aromatik tizimlar va h.k.lar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Юнусов Т.К., Зайнутдинов У.Н., Утениязов Қ. У., Салихов Ш.И. Кимёда физикавий усуллар.- Тошкент.- Университет.- 2007.- 336 б.
2. Пентин Ю.А., Вильков Л.В. Физические методы исследования в химии.- М.: Мир.- 2003.- 683 с.
3. Карагаева Ф.Х., Клочков В.В. Спектроскопия ЯМР в органической химии, Часть 1. Общая теория ЯМР. Химические сдвиги ^1H и ^{13}C .-Казань.- 2012.- 95 с.
4. Вязмин С.Ю., Рябухин Д.С., Васильев А.В. Электронная спектроскопия органических соединений.- Санкт-Петербург.- 2011.- 43 с.
5. Умаров Б.Б. Физикавий тадқиқот усуллари, маърузалар конспекти.- БухДУ.- Зиё-Ризограф.- 2000.- 187 б.
6. Драго Р. Физические методы в химии.- М.- Мир.- в 2х томах.- 1981.
7. Пентин Ю.А., Курамшина Г.М. Основы молекулярной спектроскопии.- М.: Мир.- 2008.
8. Преч Э., Бюльман Ф., Аффольтер К. Определение строения органических соединений.- М.: 2006.
9. Миронов В.А., Янковский С.А. Спектроскопия в органической химии.- М.: Химия.- 1985.- 232 с.
10. Накамото К. ИК спектроскопия и спектры КР неорганических и координационных соединений.- М.: Мир.- 1991.- 536 с.
11. Карлин В. Магнетохимия.- Москва.- Мир.- 1989.- 400 с.
12. Калинников И.Т., Ракитин Ю.В. Введение в магнетохимию.- Москва.- Наука.- 1980.
13. Ершов Б.А. Спектроскопия ЯМР в органической химии.- Санкт-Петербург.- изд-во СП(б)ГУ.- 1995.- 264 с.
14. Маров И.Н., Костромина Н.А. ЭПР и ЯМР в химии координационных соединений.- М.: Наука.- 1979.- 267 с.

15. Умаров Б.Б. Ядро магнит резонанс спектроскопияси.- Ўқув-услубий қўлланма.- Бухоро.- 1999.- 84 б.
16. Юнусов Т.К., Ауелбеков С. Кимёда тадқиқотнинг физикавий усуллари.- Тошкент.- Университет.- 1992.- 115 б.
17. Умаров Б.Б., Мардонов Ў.М. Координацион бирикмалар-нинг ЭПР спектроскопияси.- Ўқув-услубий қўлланма.- Бухоро.- 1998.- 45 б.
18. Ракитин Ю.В., Ларин Г.М., Минин В.В. Интерпретация спектров ЭПР координационных соединений.- М.: Наука.- 1993.- 399 с.
19. Кукушкин Ю.Н. Химия координационных соединений.- М.: Высшая школа.- 1985.- 455 с.
20. Костромина Н.А., Кумок В.Н., Скорик Н.А. Химия координационных соединений.- М.: Высшая школа.- 1990.- 432 с.
21. Скопенко В.В., Цивадзе А.Ю., Савранский Л.И., Гарновский А.Д. Координационная химия.- М.: ИКЦ-“Академкнига”, 2007.- 487 с.
22. Зоркий П.М. Симметрия молекул и кристаллических структур.- М.: Изд-во МГУ.- 1986.
23. Блюменталь Г., Энгельс З., Фиш И., Хабердитцль И и др. Анорганикум.- Перевод с нем. языка, в двух томах.- Под ред. Л. Кольдица.- М.: Мир.- 1984.- Т.2.- С. 393-405.

Internet va ZiyoNET saytlari

24. Молекуляр моделлаштириш ва таҳлили назарияси бўйича илмий мақолалар тўплами: [http://
www/netsci.org/Science/Compchem](http://www/netsci.org/Science/Compchem).

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. FIZIK TADQIQOT USULLARI HAQIDA TUSHUNCHА	4
II BOB. ULTRABINAFSHA (UB) SPEKTROSKOPIYA (ELEKTRON YUTILISH SPEKTROSKOPIYASI)	19
III BOB. INFRAQIZIL (IQ-) SPEKTROSKOPIYASI	54
IV BOB. MASS-SPEKTROMETRIYA	91
V BOB. MAGNETIZM	123
VI BOB. YADRO MAGNIT REZONANS SPEKTROSKOPIYASI	153
VII BOB. ELEKTRON PARAMAGNIT REZONANS SPEKTROSKOPIYASI	231
VIII BOB. MYOSSBAUER SPEKTROSKOPIYASI (YADRO GAMMA-REZONANS SPEKTROSKOPIYASI YOKI γ -REZONANS FLUORESENSIYA HODISASI)	253
IX BOB. TERMIK ANALIZ	273
X BOB. DIFRAKSION ANALIZ	317
GLOSSARY	329
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	334

B. B. Umarov, Q. G. Avezov, M. A. Tursunov

FIZIKAVIY TADQIQOT USULLARI

Darslik

Toshkent - "Innovatsiya-Ziyo" - 2020

Muharrir: F. Xolsaidov

Texnik muharrir: Q.Mamiraliyev

Nashriyot litsenziyası №023, 27.10.2018.

Bosishga 30.11.2020. da ruxsat etildi. Bichimi 60x84.

"Times New Roman" qurmiturdsi.

Offset bosma usulida bosildi.

*Shartli bosma tabog'i 22. Nashri bosma tabog'i 21.8
Adadi 200 nusxa.*

*"Innovatsiya-Ziyo" MCHJ matbaa bo'limida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, Farkod ko'chasi, 6-uy.*

ISBN 978-9943-6791-8-4



9 789943 679184